Как видно, институт ОРВ впервые начал применяться в странах Организации экономического сотрудничества и развития. Учитывая, что данный институт изначально сформировался в вышеприведенных странах, представляется целесообразным более детально проанализировать понятие оценки регулирующего воздействия, которое дано на английском языке (Regulation Impact Assessment – RIA).

Так, данный термин можно разделить на следующие части:

- *regulation* в переводе с английского языка значение данного термина приводится как «властный», «руководящий», «управляющий». Основопологающим в данном контексте выступает слово «власть», «управление», и оно используется в отношении государства как главного носителя власти [10];

- *impact* в переводе с английского означает «воздействие», «влияние». В данном случае значение вышеприведенного термина воспринимается как действие, направленное на решение или для получения определенного результата;

- *assessment*, что в переводе означает «оценка», «определение ценности», «определение стоимости». Акцент в данном случае делается как на процесс определения показателей объекта оценки, выраженной в денежных единицах.

Исходя из вышеизложенного, можно констатировать, что под англоязычным названием термина ОРВ имеется в виду действие государства по выявлению и оценке потенциальных выгод и издержек предлагаемых норм регулирования.

ОРВ проектов нормативно-правовых актов позволяет оценить, является ли предлагаемое регулирование наилучшим вариантом, является ли выгода, получаемая в результате предлагаемого регулирования положительной. При этом, ОРВ способствует значительному снижению риска разработки и принятия предложений, которые негативно отразились бы на ведении бизнеса.

Важность оценки проектов нормативно-правовых актов заключается в потенциальном воздействии, которые они могут оказать как с положительной, так и с отрицательной стороны на осуществление предпринимательской деятельности [14].

В идеале посредством ОРВ выбирается наилучшая выгода или же наилучшее альтернативное решение проблемы, обосновывается целесообразность участия государства в регулировании правоотношений, то есть установления тех или иных правил.

Важно подчеркнуть, что качество процесса принятия нормативно-правовых актов оказывает прямое влияние на ожидаемые результаты после их принятия. Это означает, что процесс разработки документа оказывает значительное влияние на достижение задуманных целей.

В этой связи важно помнить, что регулирование так или иначе может создавать или ликвидировать новые рынки, может создать искусственные барьеры для субъектов предпринимательства, инновационного развития страны.

Выводы

Государство должно осуществлять контроль за качеством нормативно-правовых актов, при этом представляется важным обе-

спечить открытость процесса разработки проектов нормативно-правовых актов, вовлечь общественность, заинтересованные стороны в данный процесс.

Поскольку процесс разработки нормативно-правового акта может оказать положительное или отрицательное влияние на предпринимательскую деятельность, представляется необходимым при разработке проекта нормативно-правового акта уделять внимание снижению потенциальных рисков вследствие принятия разрабатываемого документа.

Кроме того, в действующих и проектах нормативно-правовых актов представляется целесообразным:

предусмотреть нормы, способствующие повышению правовых гарантий субъектов предпринимательской деятельности;

усилить правовые гарантии защиты прав собственников, в том числе субъектов предпринимательства;

обеспечить преобладающую роль частной собственности в экономике.

REFERENCES

1. Organization for SME and Regional Innovation of Japan. Available at: <http://www.smrj.go.jp/>.
2. Bundesministerium für Wirtschaft und Energie. Available at: <http://www.bmwi.de/>.
3. Malyj biznes po-japonski [Small business in Japanese]. Available at: http://www.openbusiness.ru/html_euro/Japan_open6.htm/.
4. China SME Online. Available at: www.sme.gov.cn/.
5. Goskomstat: tempy rosta vnov' sozdannyh predpriyatij i organizacij sostavili 120,0 % [Goskomstat: growth rates of newly created enterprises and organizations amounted to 120.0%]. Available at: <https://review.uz/post/goskomstat-temp-rosta-vnov-sozdannx-predpriyatij-i-organizacij-sostavili-1200/>.
6. Gosudarstvo podderzhit predprinimatelej, kotorye podderzhivajut molodyh [The state will support entrepreneurs who support young people]. Available at: <https://biznesvakil.uz/ru/news/154/>.
7. Svechnikov V.A. Aktual'nye problemy razvitiya zakonodatel'stva o sub#ektah predprinimatel'skoj dejatel'nosti [Actual problems of the development of legislation on business entities]. Gaps in Russian legislation. Legal journal, no. 7, 2017, pp. 101-102. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-problemy-razvitiya-zakonodatelstva-o-subektah-predprinimatelskoy-deyatelnosti/viewer/>.
8. Aktual'nye problemy reformirovaniya grazhdanskogo i predprinimatel'skogo prava: materialy III Vserossijskoj nauchno-prakticheskoy konferencii s inostrannym uchastiem (29-30 sentjabrja 2017 g., g. Krasnodar) : sbornik statej [Actual problems of reforming civil and business law: materials of the III All-Russian scientific and practical conference with foreign participation (September 29-30, 2017, Krasnodar): collection of articles]. Russian State University of Justice, North Caucasian branch, Department of Civil rights, Krasnodar, Ed. house - South, 2018, 341 p.
9. Dzuceva G. N., Ibragimova A. A. Problemy i perspektivy razvitiya malogo predprinimatel'stva v regionah RF [and prospects of development of small business in the regions of the Russian Federation]. Problems of Science, no. 6 (7), 2016.

10. Kologov V.V. Sovershenstvovanie sistemy ocenki regulirujushhego vozdejstviya v gosudarstvennom upravlenii na regional'nom urovne. Dissertacija na soiskanie uchenoj stepeni kandidata jekonomicheskix nauk. 08.00.05 – Jekonomika i upravlenie narodnym hozjajstvom (menedzhment) [Improvement of the regulatory impact assessment system in public administration at the regional level. Dissertation for the degree of candidate of economic sciences. 08.00.05 – Economics and management of the national economy (management)]. Moscow, 2015.
11. Huzhaev Sh. Sootnoshenie investicionnoj i bankovskoj dejatel'nosti: pravovye aspekty [The ratio of investment and banking: legal aspects]. Review of law sciences, 2020, vol. 2, no. Spec. issue.
12. Rahmonova M. Problemy pravoprimeritel'noj praktiki zashhity prav na tovarnye znaki i vozmozhnye puti ih razreshenija [Problems of law enforcement practice of protection of rights to trademarks and possible ways to resolve them]. Review of law sciences, 2020, vol. 2, no. Spec. issue.
13. Juldashov A. Vazhnye aspekty mezhdunarodnoj ohrany avtorskogo prava i razvitie dogovorno-pravovoj bazy [Important Aspects of International Copyright Protection and Development of the Contractual Framework]. Review of law sciences, 2020, vol. 1, no. Spec. issue.
14. Huzhaev Sh. Sovershenstvovanie pravovyh mehanizmov regulirovanija bankovskix uslug [Improving legal mechanisms for regulating banking services]. Obshhestvo i innovacii – Society and innovation, 2020, vol. 1, no. 1, pp. 97-106.
15. Juldashov A. Intellektual mulk bo'jicha millij strategijalarning ahamijati va butunzhahon intellektual mulk tashkilotining bu borada tutgan o'rni [The importance of national intellectual property strategies and the role of the World Intellectual Property Organization in this regard]. Jurist ahborotnomasi – Jurist newsletter, 2020, vol. 1, no. 2, pp. 53-59.
16. Jakubova I.B. Pravo na zhizn'-neot'emlemaja chast' lichnogo neimushhestvennogo prava [The right to life is an integral part of the personal moral right]. Voprosy sovremennoj jurisprudencii – Questions of modern jurisprudence, 2016, no. 12 (62).
17. Mohinur B. Rol' gosudarstvennogo suda v voprosah jurisdikcii arbitrazha [The role of the state court in matters of jurisdiction of arbitration]. Review of law sciences, 2020, vol. 1, no. Spec. issue.

UDC: 342.5(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-2705-950X

HUKUMAT FAOLIYATINI PANDEMIYA SHAROITIDA TASHKIL QILISH VA HUQUQIY TARTIBGA SOLISH MASALALARIGA OID MULOHAZALAR

Hoshimxonov Ahror Mo'minovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti prorektori,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent,
e-mail: hoshimxonov@tsul.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada hukumat faoliyatini pandemiya sharoitida tashkil qilish va huquqiy tartibga solish masalalariga oid mulohazalar berilgan. Normativ-huquqiy baza va boshqa ochiq manbalarning tahlili asosida turli huquqiy tizim va boshqaruv shakllariga ega bo'lgan mamlakatlarda pandemiya sharoitida hukumatning vakolatlari va majburiyatlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Favqulodda vaziyatlarda hukumatlar faoliyatini tashkil etish va tartibga solishdagi muammolarning huquqiy jihatlarini tadqiq etilgan. Bunda xorijiy davlatlar tajribasi, O'zbekiston Respublikasi tashabbuslari, BMTning tavsiyalari asosida mavjud tendensiyalar o'rganilgan. Hukumatlarning qonun va norma ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki va parlament vakolatlarining hukumatga berilishi jarayonida inson huquqlarini ta'minlash masalasiga alohida urg'u berilib, zamonaviy hukumat oldiga "raqamli notenglik"ning oldini olishdagi eng muhim yo'nalishlar yuzasidan takliflar berilgan. Hukumat faoliyatini raqamlashtirish, davlat xizmatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: pandemiya, hukumat, huquq ijodkorligi, huquqiy tizim, davlat xizmatlari, davlat organlari tizimi.

РАЗМЫШЛЕНИЯ ПО ВОПРОСАМ ОРГАНИЗАЦИИ И ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ОРГАНОВ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ВЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ

Хошимхонов Ахрор Муминович,
кандидат юридических наук, доцент,
проректор Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. Эта статья дает представление об организации и правовом регулировании деятельности правительства в условиях пандемии. На основе анализа нормативной базы и других открытых источников анализируются вопросы повышения полномочий и ответственности правительства в случае пандемии в странах с разными правовыми системами и формами управления. Изучены правовые аспекты проблем организации и регулирования деятельности органов государственного управления в чрезвычайных ситуациях. Проанализирован опыт зарубежных стран, инициативы Республики Узбекистан, современные тенденции на основе рекомендаций ООН. Особый упор был сделан на участие правительств в законодательном процессе и передаче парламентских полномочий правительству, а современному правительству были даны рекомендации по наиболее важным направлениям предотвращения «цифрового неравенства». Особое внимание также уделяется цифровизации государственной деятельности, развитию госуслуг.

Ключевые слова: пандемия, правительство, нормотворчество, правовая система, государственные услуги, система государственных органов.

REFLECTIONS ON THE ISSUES OF ORGANIZATION AND LEGAL REGULATION OF GOVERNMENT ACTIVITIES IN THE CONDITIONS OF A PANDEMIC

Hoshimkhonov Ahror Mominovich,
PhD in Law, Associate Professor
Deputy rector of Tashkent State University of Law

Abstract. This article provides an overview of the organization and legal regulation of government activities in a pandemic. Based on the analysis of the regulatory framework and other open sources, the author analyzes the issues of increasing the authority and responsibility of the government in the event of a pandemic in countries with different legal systems and forms of government. The legal aspects of the problems of organizing and regulating the activities of government bodies in emergency situations have been studied. He studies the experience of foreign countries, the initiatives of the Republic of Uzbekistan, modern trends based on the UN recommendations. Particular emphasis was placed on the participation of governments in the legislative process and the transfer of parliamentary powers to the government, and recommendations were made to the modern government on the most important areas of preventing the digital divide. Particular attention is paid to the digitalization of government activities, the development of government services.

Keywords: pandemic, government, rule-making, legal system, public services, system of state bodies.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020-yil 29-dekabrda Murojaatnomasida islohotlar samarasini har bir inson o'z hayotida his etishi uchun hujjatlar ijrosini o'z vaqtida va samarali ta'minlash lozimligini ta'kidlagan edi [1].

COVID-19 pandemiyasi oqibatida yuzaga kelgan 2020-yil inqirozi ekologik o'zgarishlar, har qanday moliyaviy inqirozdan ham katta iqtisodiy xaosga olib kelishi mumkinligini ko'rsatdi. Muntazam ravishda takrorlanuvchi epidemiyalar (1980-yildan OIV, 2003-yildan SARS, 2009-yildan H1N1 grippi, 2011-yildan MERS va Ebola 2014–2016), iqlim o'zgarishi, tibbiy va sanitariya tizimi yo'qligi, ekotizimlarga yuqori antropogen yuk va globallashuv sababli juda tez yoyilmoqda va dunyo hamjamiyatini tashvishga solmoqda [2].

O'zbekiston hukumati ilk marta bunday epidemiyaga duch kelishi bo'lib, qiyin ahvolga tushishi mumkin bo'lgan soha va tarmoqlarni, yirik korxonalarni qo'llab-quvvatlash, moliya va xomashyo bozorida beqarorlik yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik, moliyaviy barqarorlikni saqlash hamda bozorlarda narx-navo o'sishining oldini olish, iqtisodiyotimizning bazaviy va hal qiluvchi tarmoqlari uzluksiz ishlashini saqlab qolish kerak edi. Asosiysi esa, aholini qo'llab-quvvatlash dolzarb vazifa sifatida qaraldi. Bu esa hukumat faoliyatini pandemiya sharoitida tashkil qilish va huquqiy tartibga solish masalalarini o'rganish muhim ekanligini ko'rsatadi.

Bu sohada olimlar Maslikov V.A., Filimonova A.V., Zenin S.S., Maksurov A.A., Zachary Desson, Emmi Weller, Peter McMeekin, Mehdi Ammining ilmiy taqqidotlarida yangi usul va yondashuvlardan foydalanilgan.

Material va metodlar

Ushbu tadqiqotda ilmiy bilishning tahlil, umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, statis-

tik, sotsiologik, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik o'rganish usullaridan foydalanildi.

Ijro etuvchi hokimiyat davlat boshqaruvida sezilarli ta'sirga ega. Vazirlar Mahkamasining faoliyati Konstitutsiya, qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlashda hamda mamlakatimizda samarali iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy siyosat yuritilishida fan, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, iqtisodiyotning va ijtimoiy sohaning boshqa tarmoqlarini boshqarish hamda rivojlantirishda namoyon bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqida O'zbekiston Respublikasining tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va Bosh Assambleyaning rasmiy hujjati sifatida tarqatilgan Pandemiya davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatlari to'g'risidagi Kodeksga to'xtalib, bunday holatlarda hukumat faoliyatini tashkil qilish muhim o'rin egallashini ta'kidladi [3].

O'z navbatida, O'zbekiston hukumatiga maxsus moliyalashtirish mexanizmlari orqali ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimini mustahkamlash, zarur dori-darmonlar va vaksinalarni ishlab chiqish hamda ulardan keng foydalanishni qo'llab-quvvatlash eng ustuvor vazifa qilib belgilandi [4].

Pandemiya davrida rivojlangan davlatlar hukumatlari oldida xavflarning oldini olish va kamaytirish uchun quyidagi zarur choralarini amalga oshirish vazifasi vujudga keldi:

1. Umumiy qabul qilingan qoidalar va standartlarga muvofiq tibbiy yordamdan teng foydalanishni ta'minlash, sog'liqni saqlash muassasalarini jihozlash, sog'liqni saqlash xizmatlarining salohiyatini mustahkamlash va ularni zarur himoya bilan ta'minlash;

2. Qaror qabul qilishda ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash, fuqarolarga mas'uliyat hissi va pan-

demiyalar xavfini tushunish orqali jamoatchilik orasida xabardorlik hamda salomatlik va gigiyena madaniyatini rivojlantirish;

3. Ish joyida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, mehnat xavfsizligini ta'minlash, moslashuvchan va uzoq muddatli chora-tadbirlarni joriy etish, ish joyida kamsitishning oldini olish, ishchilar uchun muhim infratuzilmani samarali ishlashini ta'minlash uchun minimal maqbul shart-sharoitlar yaratish;

4. Iqtisodiyotni rag'batlantirish va biznesni qo'llab-quvvatlash, qo'shimcha ish o'rinlari yaratish, ish haqini saqlash, ishsiz yoki ishidan ayrilganlarga, ayniqsa, ayollar va yoshlarga ko'maklashish, qisqa muddatli qayta tayyorlash, malaka oshirish dasturlarini joriy etish orqali bandlikni qo'llab-quvvatlash;

5. Moddiy yordamni kengaytirish, zarur tovarlar va xizmatlarni yetkazib berish, xayriya ishlari rag'batlantirish, davlat-xususiy sektor hamda ko'ngillilar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali kambag'al va zaif kishilarning ijtimoiy himoyasini ta'minlash;

6. Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va tovarlarni uzluksiz yetkazib berish hamda oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi savdo markazlarining (bozorlarning) karantin qoidalariga rioya qilgan holda ishlashi uchun sharoitlarni ta'minlash, zarur tovarlar (oziq-ovqat, tibbiy asboblari va dori-darmonlar kabi) narxlanishi ustidan Davlat va jamoat nazoratini kuchaytirish;

7. Mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdoni qo'llab-quvvatlash, ichki va transchegaraviy turizmni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib, pandemiyalar natijasida eng ko'p zarar ko'rgan iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga qo'shimcha yordam ko'rsatish, turizm sanoatini rag'batlantirish;

8. Masofaviy ta'lim imkoniyatlarini taklif qilish va ta'lim muassasalarida xavfsiz o'quv muhitini yaratish orqali uzluksiz ta'limni ta'minlash;

9. Asosiysi inson huquqlari bo'yicha cheklolarning oldini olish va migrant ishchilar huquqlarini kafolatlash, migrant ishchilarni moddiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga o'z mamlakatlariga qaytishi uchun ruxsat berish;

10. Iqtisodiy va gumanitar yordam dasturlarini amalga oshirishda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, o'zaro yordam ko'rsatish; pandemiya holatlari bo'yicha ishonchli axborot almashish; vaksinalar-

ni ishlab chiqish bo'yicha xalqaro sa'y-harakatlarini mustahkamlash; vaksina va dori-darmonlardan adolatli foydalanishni ta'minlash.

Tadqiqot natijalari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ushbu vazifalarni ro'yobga chiqarishda va-kolatlarga ega. Konstitutsiyada nazarda tutilgan konseptual asoslar qonun hujjatlarida ham keng ifodasini topgan [5]. Pandemiya sharoitida mamlakat hayotidagi ichki va tashqi siyosatning eng muhim yo'nalishlarini belgilash vakolatiga Vazirlar Mahkamasi egaligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 98-moddasida belgilangan. Bu esa Vazirlar Mahkamasining O'zbekiston Respublikasi qonunlari, Oliy Majlis qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari ijrosini ta'minlashi lozimligi, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga har yili mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotining eng muhim masalalari yuzasidan ma'ruzalar taqdim etishida namoyon bo'ladi. Ya'ni Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgarligi ko'zga tashlanadi.

"O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunning 4-moddasida belgilanganidek, Vazirlar Mahkamasi davlat boshqaruvi organlari, ya'ni ijro hokimiyati tizimiga boshchilik qiladi. Shu jihatdan Vazirlar Mahkamasi o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti oldida javobgar hisoblanadi.

Jahon tajribasida ham hukumatlar ko'plab parlamentar respublikalarda (Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya) qonun chiqaruvchi organ, prezidentlik boshqaruvi davlatlarida (AQSh, Portugaliya, Lotin Amerikasining bir qator mamlakatlari) esa prezident tomonidan parlament bilan kelishilgan holda shakllantiriladi va ular oldida javobgar hisoblanadi [6].

Ma'lumki, favqulodda holat rejimi joriy etilgan-da, harakatlanish erkinligiga, transport vositalari harakatiga nisbatan cheklolvar o'rnatiladi, ularni tekshirish kuchaytiriladi, eng zarur oziq-ovqat mahsulotlarini sotish, xarid qilish va taqsimlashning, jamoatchilik tartibini saqlashning alohida tartibi o'rnatiladi va boshqa cheklolvar kuchaytiriladi. 2020-yil aprel oyida BMT Bosh kotibi A. Guterrish dunyo hukumatlarini inson huquqlari buzilishi uchun bahona sifatida koronavirus pan-

demiyasidan foydalanishga urinishdan voz kechishga chaqirdi. Axborotni bepul tarqatishning cheklanishi alohida tashvish uyg'otdi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, hukumatning inqirozga nomutanosib javobi Xitoy, Hindiston, Vengriya, Turkiya va Janubiy Afrika kabi davlatlarda yuz bergan [7].

Tadqiqot natijalari tahlili

Ammo pandemiya vaqtida karantin choralari Vazirlar Mahkamasi va Bosh vazir rahbarligidagi maxsus komissiya tomonidan joriy etilishi qonuniy asosga egami, degan turli savollar o'rtaga chiqdi [8]. Bunga sabab pandemiya sharoitlarida hukumat yoki biror komissiyaga fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini cheklashga oid vakolatlarni beruvchi alohida "Favqulodda holat to'g'risida"gi qonun qabul qilinmagan edi. Lekin hukumat "O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasiga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining ijtimoiy sohadagi vakolatlariga sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, tibbiy yordamning sifati, samaradorligi va hamma uchun ochiqligini oshirish, aholi sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash, sog'lom turmush tarzi prinsiplarini joriy etish, shuningdek, anitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash bo'yicha tezkor choralarni amalga oshirdi. Mazkur masalada yagona siyosat amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-martdagi 176-son qarori bilan Komissiyaning o'z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari idoraviy bo'ysunuvi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar barcha tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanishi belgilab qo'yildi.

Ta'kidlash lozimki, 2020-yil yanvar oyida Rossiya Federatsiyasi hukumati koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashish uchun yagona federal shtab-kvartirani yaratdi. Uning vakolatlari koronavirusning mamlakat va dunyoda tarqalishi bilan bog'liq mavjud vaziyatni kuzatish, davlat organlariga tavsiyalar tayyorlash, kasalliklarning oldini olish bo'yicha ishlarni kuzatish va muvofiqlashtirishdan iborat edi [9].

Bundan tashqari, Rossiya Federatsiyasi hududida yangi koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish uchun Rossiya Federatsiyasi hukumati huzurida Muvofiqlashtiruvchi Kengash tashkil etilgan. Kengashning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilab olindi:

a) yangi koronavirus infeksiyasining tarqalishi bilan bog'liq muammolar, tahdidlarni ko'rib chiqish;

b) yangi koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

d) federal davlat organlari, Rossiya Federatsiyasi subyektlarining davlat organlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari, boshqa organlar va tashkilotlar o'rtasida yangi koronavirus infeksiyasining tarqalishiga qarshi kurash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha o'zaro hamkorlikni tashkil etish.

2021-yil 15-dekabrda "Favqulodda holat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni [10] qabul qilindi va sohada mavjud barcha munozarali masalalarga chek qo'yilib, jumladan, pandemiya holatida fuqarolarning huquqlarini cheklashda hukumatning vazifalari Konstitutsiyaviy qonun bilan tartibga solinishi belgilab berildi.

Professor X.T. Odilqoriyev fikriga ko'ra huquq ijodkorligi davlatning yuridik normalar yaratishiga qaratilgan maxsus faoliyatidir. Davlat mazkur faoliyat orqali xalqning irodasini qonun darajasida ifoda etadi, ijtimoiy boshqaruv va siyosiy rahbarlikni amalga oshiradi [11]. Qabul qilinayotgan qonun hujjatlari ijrosi sifatida hukumat amaldagi qonunchilikni amalga oshirilishi mexanizmini qay darajada ishlayotgani va undagi bo'shliqlar hamda yangi normalar qabul qilish zaruriyatini boshqa qonunchilik tashabbusi subyektlariga qaraganda ko'proq amaliyotda to'qnash keladi. Shu sababdan jahon amaliyotida ham parlamentga kiritiladigan qonun loyihalarining aksariyat qismi hukumat tomonidan kiritilishi kuzatiladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega. "Hukumat o'zi o'tkazayotgan siyosat uchun qanday qonunchilik ta'minoti zarurligini va qonunlarni o'zgartirishda qanday ehtiyojlar mavjudligini hokimiyatning boshqa subyektlariga qaraganda yaxshiroq biladi. Ijro hokimiyati sifatli qonun loyihalarini ishlab chiqish uchun ko'proq imkoniyat va resurslarga ega. Shu sababli boshqa xorijiy davlatlar singari O'zbekistonda ham qonun ijodkorligi borasidagi ishlarda hukumat faol ishtirok etishi tabiiy"[12].

Yuqoridagi fikrlardan ijro hokimiyatining qonun ijodkorligi jarayonidagi rolini yuqori ba-

holash mumkin. Shu bois Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etilayotgan qonun loyihalarining sifatini, yuridik texnika jihatdan mukammalligini va amalga oshirishning aniq mexanizmlarini belgilash, ularning ijrosini ta'minlashda asosiy mezonidir.

Xorijiy mamlakatlarning hukumatlari faoliyatini pandemiya sharoitida tashkil qilish tajribasini qiyosiy tahlil qilish kelgusida milliy qonunchilik tizimiga joriy etishga asos bo'ladi.

Professor V. Melnikovning fikriga ko'ra hukumatlarning qonun va norma ijodkorligi jarayonidagi ishtiroki xorijiy mamlakatlarda keng qo'llanilmoqda. Bir qator xorijiy mamlakatlarda hukumatga qonunchilik faoliyati (norma ijodkorligi) huquqini berish masalasida turli qarashlar mavjud. Bu borada davlatlarning uch guruhi mavjud. Ayrim davlatlar (Rossiya va Meksika)da Asosiy qonun hukumatning qonunchilik faoliyatini bevosita taqiqlaydi. Buyuk Britaniyada ham hukumat normativ-huquqiy hujjatlar qabul qila olmaydi [13]. Meksika Konstitutsiyasida esa har qanday sharoitda ham Meksika hukumatiga qonun kuchiga ega hujjatlarini berish vakolati berilishi mumkin emas, deb belgilab qo'yilgan [14]. Daniya va Chexiyada ham pandemiyaning bartaraf qilish va fuqarolarga cheklovlar o'rnatish bilan bog'liq masalalar faqat parlamentda muhokama qilingach, qabul qilindi.

Shuningdek, konstitutsiya hukumatning qonunchilik faoliyatiga ruxsat beradigan va bu jarayonni aniq tartibga soladigan bir qator davlatlar mavjud. Ularda har qanday qonunchilik faoliyati (norma ijodkorligi) huquqini berish parlament yoki hukumat tashabbusi bilan boshlanadi. Ispaniya, Italiya va Germaniya konstitutsiyalariga ko'ra parlament vakolatlarining bir qismini hukumatga o'tkazishni parlament yoki hukumat boshlashi, tashabbus qilishi mumkin. Fransiyada esa faqat hukumatga bunday huquq berilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, ikkala holatda ham qonunchilik faoliyati (norma ijodkorligi) huquqini berish shartlari parlamentga bog'liq [15].

Olim S. Zeninning fikriga ko'ra pandemiya sharoitida qonunlar bilan emas, hukumat qarorlari bilan vaziyatni tartibga solish bir muncha samarali ekanligi o'z tasdig'ini topdi. Unitar davlatlar uchun pandemiya favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi va rivojlanishi xavfi yuzasidan harakatga tayyorlikning bir turi bo'lib qoldi. Misol

uchun, Gruziya parlamenti 2020-yil 14-iyul kuni "Sog'liqni saqlash to'g'risida"gi Qonunga o'zgartish kiritib, hukumatga COVID-19 pandemiyasi vaqtida favqulodda holat e'lon qilmasdan turib fuqarolar huquqlarini cheklash imkonini beruvchi qonunni qabul qildi. Vengriya ham 2020-yilda "Xavfdan chiqish va epidemiologik tayyorgarlik bilan bog'liq, o'tish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi va ushbu qonun sog'liqni saqlash inqirozini tartibga soluvchi qoidalarni o'zgartirdi hamda hukumatga keng miqyosli inqirozni boshqarish vakolatlarini berdi [16].

Italiyada favqulodda holat joriy etilishi munosabati bilan muntazam qonunchilik faoliyati qonunlar bilan emas, Bosh vazirning dekretlarni chiqarish faoliyati bilan almashtirildi, bu Milliy fuqarolik muhofazasi xizmati va Sog'liqni saqlash vazirligining tavsiyalarini umummilliy COVIDga qarshi cheklovlar shaklida qo'llash imkonini berdi [17]. Shvetsiyada esa biror-bir maxsus cheklovchi rejimlar joriy etilmadi, faqatgina Sog'liqni saqlash boshqarmasi tomonidan kasallik tarqalishining oldini olish uchun hukumatga tavsiyalar ishlab chiqildi [18].

Xulosalar

Yuqorida keltirilgan ilmiy va amaliy xulosalardan kelib chiqqan holda O'zbekistonda parlament va hukumat o'rtasidagi munosabatlar huquqiy asoslarini takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi.

Birinchidan, "Favqulodda holat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunini hayotga to'liq tatbiq etish hamda boshqa qonunosti hujjatlarini unga mos holda qabul qilish lozim.

Ikkinchidan, xulosa shuni ko'rsatadiki, pandemiya va global ekologik, iqlim, texnologik, biologik ofatlar (tizimli ofatlar) davlat boshqaruvi-ning tubdan yangi masalasini kun tartibiga kiritdi. Bunday darajadagi ofatlar uchun alohida vazirliklarning, hukumatning roli va ishtiroki yetarli emas. Bizning fikrimizcha, bu milliy xarakterdagi favqulodda holatlarda qo'shimcha huquq va majburiyatlarga ega Milliy xavfsizlik kengashi nomli konstitutsiyaviy organ tashkil etilishi kerak.

Uchinchidan, ijro hokimiyati tomonidan taqdim etilayotgan qonunosti hujjatlari loyihalarining sifatini, yuridik texnika jihatdan mukammalligi va amalga oshirishning aniq mexanizmlarini belgilashda zamonaviy-innovatsion usullarni

joriy etish hamda barcha jarayonlarni raqamlashtirish lozim. Jahon iqtisodiy forumi (The World Economic Forum)ning Yangi iqtisodiyot va jamiyat markazi direktori va rahbari Saadiya Zahidiy fikriga ko'ra COVID-19 pandemiyasi jamiyatning raqamlashtirishga o'tishini juda tezlashtirdi, shu munosabat bilan hukumatning normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish va ular asosida davlat xizmatlarini rivojlantirish borasida qilinishi lozim bo'lgan vazifalari ham juda ko'p. Hukumat davlat boshqaruvi va fuqarolar huquqlarini ta'minlashda "raqamli notenglik"ni kelib chiqishining oldini olish choralari ko'rish kerak [19].

Pandemiya davrida davlat boshqaruvi tizimi-ning samaradorligi haqida gapirganda, hukumatning faoliyatini tashkil etish va tartibga solish masalasi hali ko'plab tahlillarni talab

qiladi. Hokimiyatlar bo'linish prinsipida qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat o'rtasidagi munosabatlar va aloqalar yagona davlat siyosatini amalga oshirishni ko'zlaydi. Ushbu sohaga oid qonunchilikni takomillashtirish qonuniylik konstitutsiyaviy prinsipini amalga oshirishda, hukumat faoliyatini tiyib turish va muvozanat tizimini takomillashtirishda o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Bu, o'z navbatida, har bir hokimiyat tarmog'ining davlat hokimiyati organlari tizimidagi rolini kuchaytirishga, qonun ustuvorligini, qonuniylikni, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari ijrosini ta'minlashda, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari zimmasiga yuklatilgan vazifalarni ijro etish uchun ularning mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/4088>
2. Javoronkova N.G., Shpakovskiy Yu., G. Pravovie aspekti reformirovaniya sistemi gosudarstvennogo upravleniya zashitoy naseleniya i territoriy pri chrezvichaynix situatsiyax: uroki pandemii COVID-19 [Legal aspects of reforming the public administration system for the protection of the population and territories in emergency situations: lessons from the COVID-19 pandemic // Bulletin of the O. E. Kutafin University.] 2020. №5 (69). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovye-aspekty-reformirovaniya-sistemy-gosudarstvennogo-upravleniya-zaschitoy-naseleniya-i-territoriy-pri-chrezvychaynyh> (дата обращения: 20.12.2021).
3. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/4632>
4. Available at: <https://www.un.org/press/en/2020/ga12269.doc.htm>
5. "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On the Cabinet of ministers of the Republic of Uzbekistan"] Available at: <https://lex.uz/acts/-51941>
6. Konstitutsii zarubejnih stran [Constitutions of foreign countries]: Saint-Petersburg. Moscow, 2020.
7. Melnikov V.Y. Rol gosudarstva v obespechenii prav i svobod cheloveka: Monografiya. Rostov n/D: Fond Nauki i obrazovaniya [The role of the state in ensuring human rights and freedoms: Monograph. Rostov n/A: Foundation of Science and Education], 2020. p. 175.
8. Available at: <https://advice.uz/uz/document/2054>
9. Maslikov V. A. Natsionalnaya bezopasnost i ustoychivoye razvitiye v period pandemii // Materiali Afanasievskix chteniy [National security and sustainable development during the pandemic // Materials of Afanasiev readings. 2020, no. 1. 2020, no. 1 (30) Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/pravovye-aspekty-reformirovaniya-sistemy-gosudarstvennogo-upravleniya-zaschitoy-naseleniya-i-territoriy-pri-chrezvychaynyh> (дата обращения: 20.12.2021).
10. "Favqulodda holat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni [Law of the Republic of Uzbekistan "On State of Emergency"] Available at: <https://lex.uz/pdfs/5774840>
11. X.T. Odilqoriyev, I.T. Tulteyev va boshq. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik./ prof. X.T. Odilqoriyev tahriri ostida. [Theory of state and law. The textbook.] Tashkent, Academy of MIA of the Republic of Uzbekistan, 2009. – p.233
12. Jabborov S. Ikki palatali parlament sharoitida qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirishning o'ziga xos jihatlari [Specific aspects of the implementation of the right to legislative initiative in the conditions of a two-chamber parliament] Demokratlashtirish va inson huquqlari. 2006, no. 2. pp.7-8.

13. Alekseyev S.S. Gosudarstvo i pravo: Nachalniy kurs. [State and law: The initial course.] Moscow, 2019. p. 38.
14. Filimonova A.V. Primeneniye delegirovannogo zakonotvorchestva v rossiyskoy federatsii [Application of delegated lawmaking in the Russian Federation] // Закон и право – Law and right. 2021, no. 7. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/primeneniye-delegirovannogo-zakonotvorchestva-v-rossiyskoy-federatsii> (дата обращения: 20.12.2021).
15. Zachary Desson, Emmi Weller, Peter McMeekin, Mehdi Ammi, An analysis of the policy responses to the COVID-19 pandemic in France, Belgium, and Canada, Health Policy and Technology, Volume 9, Issue 4, 2020, Pages 430-446, ISSN 2211-8837, <https://doi.org/10.1016/j.hlpt.2020.09.002>. (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2211883720300940>)
16. Yevgeniya Vladimirovna Razd'yakonova, Yuliya Arkadevna Rudt Prava cheloveka i pandemiya: v poiske balansa i novoy pravovoy paradigmi [Human rights and the pandemic: in search of a balance and a new legal paradigm] Закон и право – Law and right. 2021. №8. Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/prava-cheloveka-i-pandemiya-v-poiske-balansa-i-novoy-pravovoy-paradigmy> (дата обращения: 20.12.2021).
17. Maksurov A.A. Problemi koordinatsii deyatel'nosti organov vlasti v oblasti borbi s pandemiyei koronavirusa [Problems of coordinating the activities of authorities in the field of combating the coronavirus pandemic] Правопорядок: история, теория, практика. – Law and order: history, theory, practice. 2020, no. 2 (25), pp. 28–33.
18. Zenin S.S. Normativno-pravovoye obespecheniye deyatel'nosti organov publichnoy vlasti v usloviyakh pandemii novoy koronavirusnoy infektsii (COVID-19) [Regulatory and legal support for the activities of public authorities in the context of a pandemic of a new coronavirus infection (COVID-19)]// Lex Russica. 2021. №7 (176). Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/normativno-pravovoe-obespechenie-deyatelnosti-organov-publichnoy-vlasti-v-usloviyakh-pandemii-novoy-koronavirusnoy-infektsii-covid> (дата обращения: 20.12.2021).
19. Post by Emilio Granados Franco: Recovering from COVID-19: The risks we must anticipate to build back better // The Japan Times Available at: <https://www.japantimes.co.jp/opinion/2020/05/20/commentary/world-commentary/recovering-covid-19-risks-must-anticipate-build-back-better/#.XvIK025uLIV> (дата обращения: 29.06.2020)

UDC: 340.351 (575.1)

QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHDA ZAMONAVIY MEXANIZMLARNING YARATILISHI

Muhammadiyev Ulug'bek Islomovich,

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi
Davlat xizmatlari agentligi direktori,
e-mail: info@davxizmat.uz,
ORCID: 0000-0002-9471-637

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich,

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat boshqaruvi akademiyasi kafedra mudiri,
yuridik fanlar doktori, dotsent,
e-mail: khayitovkhushvakt@gmail.com,
ORCID: 0000-0002-1044-6319

Annotatsiya. Maqolada qonun ustuvorligini ta'minlashda zamonaviy mexanizmlarning yaratilishi haqida so'z yuritilib, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlarning mazmuni aniq misollar bilan ochib berilgan. Davlat xizmatlarini ko'rsatish va davlat boshqaruvini raqamlashtirish yo'nalishidagi o'zgarishlar tahlil etilib, uning samaradorlikni ta'minlashdagi o'rni ko'rsatilgan. Shuningdek, davlat boshqaruvida qonuniylik va samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan takliflar ilgari surilgan. Ta'kidlash lozimki, mamlakatimizda "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish bo'yicha e'tiborga molik ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki davlat xizmatlarining fuqarolarga elektron shaklda, ya'ni interaktiv davlat xizmatlari shaklida ko'rsatilishi ko'plab muammolarni bartaraf etishga hissa qo'shadi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda davlat boshqaruvini faol raqamlashtirish jarayonlari yuz bermoqda. Ushbu imkoniyatlar tufayli boshqaruvga oid ko'plab ortiqcha xarajatlar tejali, davlat va fuqaro o'rtasidagi munosabatlar raqamli texnologiyalar vositasida tartibga solinmoqda. Bu esa davlat boshqaruvidagi byurokratik to'siqlarni qisqartirishga, korrupsiyaviy holatlarning oldini olishga imkon bermoqda. Ushbu jarayonlar mamlakatimizda ham davlat boshqaruviga zamonaviy texnologiyalarni kengroq joriy etish asosida davlat xizmatchilarining vazifalarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Kalit so'zlar: qonuniylik, kafolatlar, davlat xizmati, davlat xizmatlari, davlat xizmatchisi, Xalq qabulxonalari, raqamlashtirish, mansabdor shaxs, Ma'muriy islohotlar, konsepsiya.

ОБРАЗОВАНИЕ СОВРЕМЕННЫХ МЕХАНИЗМОВ В ЦЕЛЯХ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ВЕРХОВЕНСТВА ЗАКОНА

Мухаммадиев Улугбек Исломович,

директор Агентства государственных услуг
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан

Хайитов Хушвакт Сапарбаевич,

доктор юридических наук, доцент,
заведующий кафедрой Академии государственного управления
при Президенте Республики Узбекистан

Аннотация. В данной статье рассматривается вопрос создания современных механизмов для обеспечения верховенства закона, раскрывается на основе конкретных примеров сущность и значение проводимых в нашей стране административных реформ. Проанализированы изменения в системе предоставления государственных услуг и цифровизации государственного управления и показана их

роль в обеспечении эффективности. Также были выдвинуты предложения, направленные на повышение законности и эффективности государственного управления. Следует отметить, что в нашей стране проводится значительная работа по развитию системы «Электронного правительства». Так, предоставление государственных услуг гражданам в электронном виде, т. е. в виде интерактивных государственных услуг, будет способствовать устранению множества проблем. В современном мире в зарубежных странах происходят активные процессы цифровизации государственного управления. Благодаря данным возможностям экономятся многие лишние расходы на управление, а отношения между государством и гражданином регулируются с помощью цифровых технологий. Это позволяет сократить бюрократические барьеры в государственном управлении и предотвратить коррупцию. Данные процессы требуют пересмотра обязанностей государственных служащих также и в нашей стране на основе более широкого внедрения современных технологий в государственное управление.

Ключевые слова: законность, гарантии, государственная служба, государственные услуги, государственный служащий, Народные приемные, цифровизация, должностное лицо, административная реформа, концепция.

CREATION OF MODERN MECHANISMS TO ENSURE THE PRIORITY OF LAW

Mukhammadiev Ulugbek Islomovich,

Director the Agency for Public Services under the
Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan

Khayitov Khushvakt Saparbayevich,

Head of department of Academy of Public Administration
under the President of the Republic of Uzbekistan,
doctor of science in law, associate professor

Abstract. This article is about the creation of modern mechanisms to ensure the priority of law, the content of the ongoing administrative reforms in our country is illustrated with concrete examples. Analyzing some changes in direction of Public Service and digitalization of Public Administration, also the role in ensuring efficiency. As well as, proposals were developed to improve the legality and efficiency of public administration. It should be noted that significant work is being done in order to develop "Electronic Government" in our country. Because the provision of public services to citizens in electronic form, i.e. in the form of interactive public services contributes to the solution of many problems. In the modern world, foreign countries are actively digitizing in public administration. Thanks to these opportunities, many additional management costs are saved, and the relationship between the state and the citizen is regulated through digital technologies. This allows reducing bureaucratic barriers in public administration and preventing corruption. These processes require a reconsideration of the duties of civil servants in our country on the basis of the wider introduction of modern technologies in public administration.

Keywords: legality, guarantees, civil service, public services, civil servant, Public receptions, digitization, official authorities, Administrative reforms, conception.

Mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlamasa, ulkan islohotlarni amalga oshirish, barqaror rivojlanish sur'atlariga erishish imkonsiz. 2020-yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida qonun ustuvorligini ta'minlash va uning huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy va tashkiliy asoslarini yanada kuchaytirishga qaratilgan ilg'or g'oyalar ilgari surildi [1]. Shuningdek, so'nggi yillar davomida aynan qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq sohasida o'nlab qonun, farmon va qarorlarning qabul qili-

nishi ushbu yo'nalishdagi ishlar ko'lami nechog'lik kengligini ko'rsatadi.

Avvalo, "Qonun ustuvorligi nima va u qanday ta'minlanadi?", degan savolga to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Qonun ustuvorligi – bu davlat hokimiyati va boshqaruv organi chiqarayotgan hujjatlar, mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari faqat va faqat Konstitutsiya hamda qonunlarga muvofiq bo'lishi shart, deganidir" [2], deb haqli ravishda ta'kidlaydi. Mazkur talablarga to'liq rioya etish mamlakat-

da adolat va tenglik, taraqqiyot va barqarorlik, tinchlik va bunyodkorlik ruhining hukm surishiga olib keladi.

Shu sababli kelgusida ham aholining huquqiy bilimini oshirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi. Zero, "Xalqparvar davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning mazmun-mohiyatini keng ommaga yetkazish muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun fuqarolar o'rtasida qonunga hurmat va amal qilish hissini shakllantirish – bog'cha va maktabdan tortib oliygohgacha, barcha ta'lim muassasalarining, har bir oilaning birinchi navbatdagi vazifasi bo'lishi kerak" [3].

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonun ustuvorligi va qonuniylikni samarali ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bino-barin, olib borilayotgan islohotlarning samaradorligi qonun ustuvorligi konstitutsiyaviy prinsipini ta'minlash bilan bevosita bog'liq.

Milliy huquqiy tizim negizini qonun ustuvorligi prinsipini e'lon qilgan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi tashkil etadi. Xususan, Konstitutsiyaning 14-moddasida davlat o'z faoliyatini inson va jamiyat farovonligini ko'zlab, ijtimoiy adolat va qonuniylik prinsiplari asosida amalga oshirishi qat'iy belgilangan. Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq, davlatda Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar.

Hozirgi zamon demokratik davlatlarida qonun ustuvorligi jamiyat va davlat hayotining bosh tamoyiliga aylangan bo'lib, bu insoniyatning ko'p asrlik rivoji, izlanishi hamda taraqqiyot tajribalari, siyosiy va huquqiy fikr takomilining natijasidir. Shu sababli Yangi O'zbekistonni barpo etishda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash omiliga tayanish barqarorlik va adolatga erishishning bosh mezoni sifatida belgilab olindi.

Qonun ustuvorligi tamoyili har qanday rivojlangan davlatning poydevorini tashkil etadi. Bobokalonimiz buyuk Sohibqiron Amir Temur: "Saltanatim martabasini to'ra va tuzuklar asosida shunday saqladimki, uning ishlariga aralashishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi", deb o'z davlatini

qat'iy qoidalar, qonunlar orqali boshqarilganligini ta'kidlaydi [4].

Qonun ustuvorligi tamoyili 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham alohida mustahkamlangan. Chunki davlat boshqaruvida qonun ustuvorligini ta'minlash huquqiy demokratik davlatning asosiy talablaridan biridir.

Qonun ustuvorligining muhim sharti huquqiy kafolatlarning yaratilganligi hisoblanadi. Ya'ni bu – fuqarolar huquq va erkinliklarining Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlanishi hamda ularni ta'minlashga, amalga oshirishga qaratilgan boshqa huquqiy hujjatlarning mavjudligi hisoblanadi. Shu bois vakolatli davlat organlari tomonidan faol norma ijodkorligi siyosati amalga oshirilmoqda. Masalan, so'nggi yillarda Harakatlar strategiyasi asosida 30 dan ortiq strategiya va milliy dastur, 5 ta kodeks, 150 ta qonun, Prezidentning 2000 dan ziyod farmon va qarorlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ilmiy-texnik, sud-huquq, gumanitar va boshqa sohalarini rivojlantirish (isloh qilish) bo'yicha yana ko'plab normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Bundan tashqari, sudlov tizimining chinakam mustaqilligi va ochiqligini ta'minlash, huquq-tartibot organlari faoliyatini takomillashtirish, advokatura institutini kuchaytirish bo'yicha e'tiborga molik natijalar qo'lga kiritildi.

Yana bir muhim kafolat bu – huquq va erkinliklarning iqtisodiy kafolati bo'lib, huquq va erkinliklarni iqtisodiy tomondan ta'minlash, ularning amalga oshishi uchun zarur moddiy-moliyaviy manbalarni vujudga keltirishni anglatadi. Davlat iqtisodiy tomondan qanchalik kuchli bo'lsa, huquq va erkinliklardan foydalanish imkoniyati ham shunchalik kuchayib boradi.

Bular qatorida tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish, ularga har tomonlama ko'mak berish muhim o'rin egallaydi. Ushbu yo'nalishda tadbirkorlik subyektlari faoliyatidagi bir qancha to'siqlar bartaraf etilmoqda. Xususan, 2021-yilda tadbirkorlarga yanada qulaylik yaratish maqsadida, 105 ta litsenziya va ruxsatnoma turlari bekor qilindi, 115 tasi bo'yicha esa, tartib-qoidalar soddalashtirildi. Pandemiya sharoitida aylanma mablag' tanqisligiga duch kelgan tadbirkorlar o'zlarini tiklab olishlari uchun ularga ko'mak berildi.

Yana bir muhim jihat, 2021-yilda iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadi kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishdan iborat ekanligi belgilandi. Shuningdek, ushbu yo'nalishda aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan ishlar davom ettirilmoqda.

Hududlarda aholining turmush darajasi va sifatini yaxshilash, xususan, kambag'allikni qisqartirish vazifalari ko'p jihatdan iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalari raqobatbardoshligini oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish uchun fundamental sharoitlarni yaratib berish hisobiga yangi va barqaror ish o'rinlari tashkil etish bilan bevosita bog'liqdir.

Bu, o'z navbatida, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish va uning rivojlanishiga aloqador vazirlik va idoralar faoliyati uyg'unligini ta'minlashni, mavjud muammo va to'siqlarni tezkorlik bilan aniqlash va bartaraf etishga asoslangan zamonaviy va inklyuziv institutsional tizimni joriy etishni talab etadi.

Qonun ustuvorligini ta'minlashda aholi va davlat xizmatchilarining huquqiy bilimini oshirish muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda insonparvar demokratik huquqiy davlatning barpo etilishi qonun ustuvorligi va normativ-huquqiy hujjatlar samarali ijro etilishiga asoslanadi. Biroq yaxshi qonunlarni qabul qilishning o'zi yetarli emas, ularni qat'iy va so'zsiz ijro etilishini ta'minlash lozim.

Prezidentimiz tomonidan ishimizdagi eng katta kamchilik – bilimning yetishmasligi ekanligi, haqli ravishda, ta'kidlandi. Darhaqiqat, bugungi g'oyat murakkab davrda mavjud muammolarni faqat chuqur bilim va yuqori professionallik bilan yechish mumkin. Ayniqsa, davlat xizmatchilari oldiga qo'yilayotgan yangi-yangi vazifalar ulardan eng zamonaviy bilimlarni egallashni talab qiladi.

Afsuski, ushbu yo'nalishda muammolar ham mavjud ekanligi bor gap. Qayd etilishicha, so'ngi 5 yil ichida barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlarni amalga oshirish bo'yicha qabul qilingan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarning hayotga joriy etilmayotganligining sabablaridan biri – joylardagi rahbarlarning mazkur hujjatlar mazmun-mohiyatini to'liq anglab yetmaganligida. Shu bois endilikda, Adliya vazirligi, uning hududiy boshqarma va bo'limlarining asosiy vazifasi qabul qilingan hujjatlarni mas'ullarga yetkazish bilan cheklanmasdan, ularning mazmun-mohiyatini

tushuntirish va amaliyotda qanday qo'llashga ko'maklashish hamda nazorat qilishdan iborat bo'lishi belgilandi.

Zero, qonunlarga rioya etish ichki zarurat, ichki ishonch bilan amalga oshirilishi kerak. Shundaygina qonun ustuvorligi o'zining ijobiy natijasini to'la namoyon etadi. Bunday darajaga erishish uchun jamiyat a'zolarining, ayniqsa, davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, shaxsiy javobgarligini yanada kuchaytirish zarur.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida [5] mamlakatda konseptual jihatdan yangicha boshqaruv modelini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari ko'zda tutildi. Albatta, bu jarayonlarda, davlat boshqaruv tizimi faoliyatini huquqiy jihatdan samarali tashkil etish bo'yicha vazifalar alohida o'ringa ega.

Bu borada davlat organlari va tashkilotlari faoliyatida qonun talablariga qat'iy rioya etishga qaratilgan huquqiy vositalar va texnologiyalarni samarali qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Buning boisi, Konsepsiyada qayd etilgan salbiy holatlarni – davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining yetarli darajada ochiq va shaffof emasligi, byurokratiya va korrupsiya holatlarini, avvalambor qonuniylilikni mustahkamlash, qonun ustuvorligini amalda va qat'iy ta'minlash orqali yo'q qilish mumkin.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta'minlashning zamonaviy mexanizmi sifatida "Elektron hukumat" tizimi va yangi tashkil etiladigan institutsional tuzilmalarni alohida qayd etish o'rinli. Ayniqsa, "Elektron hukumat" tizimini rivojlantirish bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Chunki davlat xizmatlarining fuqarolarga elektron shaklda, ya'ni interaktiv davlat xizmatlari shaklida ko'rsatilishi ko'plab afzalliklarga ega.

Davlat boshqaruvida raqamlashtirishni tatbiq etish borasida har bir davlat o'zining strategik loyihalarini amalga oshirmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada – UK Digital Strategy [6], Fransiya – France Digitale [7], Qozog'istonda – Digital Kazakhstan [8], Rossiyada – Sifrovaya Rossiya [9] kabi boshqa davlatlarda ham raqamlashtirish bo'yicha loyihalar olib borilmoqda.

Yurtimizda ham davlat boshqaruvini raqamlashtirish, davlat xizmatlarini ko'rsatish ko'lamini kengaymoqda. Masalan, 2013-yildan ishga

tushirilgan **my.gov.uz** – yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali ko'rsatilayotgan interaktiv davlat xizmatlari soni oydanoyga oshib bormoqda [10]. Statistikaga qaraydigan bo'lsak, my.gov.uz – yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilar soni, 2020-yilning dekabr oyidagi ko'rsatkichlarga ko'ra, 333,1 mingtani tashkil etmoqda.

Foydalanuvchilar soni oyiga kamida 10 mingtaga oshib bormoqda. Interaktiv davlat xizmatlari soni 213 taga yetgan va oyiga kamida ikkita yangi xizmat qo'shib borilmoqda. Albatta, ushbu xizmatlar sonini sifatli va qulay tarzda oshirib borish lozim. Masalan, Janubiy Koreyada 750 ta davlat xizmati interaktiv shaklga o'tkazilgan bo'lib, xalq deyarli davlat idoralariga murojaat qilmaydi. Bunda, albatta, fuqarolarning interaktiv davlat xizmatlaridan foydalanish bo'yicha savodxonligini oshirish bilan birga, ular uchun qulay va dolzarb bo'lgan, ya'ni eng ko'p murojaat bo'ladigan xizmatlarni idoralararo hamkorlikdan foydalangan holda ishlab chiqish talab etiladi.

Bu ishlarning samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrda "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatishning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5278-sonli Farmoni qabul qilindi [11]. Unga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy bo'linmalari, ya'ni Davlat xizmatlari markazi tashkil qilindi [12].

Hozirgi vaqtda 206 ta Davlat xizmatlari markazlari barcha tuman-(shahar)larda faoliyat olib borgan holda, 160 tadan ortiq davlat xizmatlarini ko'rsatmoqda.

Ushbu yo'nalishdagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish maqsadida O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturi joriy etilmoqda. Mazkur dastur zahirida barcha sohalarini raqamlashtirish va ular orasida raqamli integratsiyani ta'minlash masalasi yotadi.

Barcha axborot tizimi komplekslari o'zaro raqamli integratsiyani to'liq yo'lga qo'yishi barobarida, asta-sekinlik bilan raqamli iqtisodiyotga o'tish belgilangan. Jumladan, Jahon banki ekspertlarining fikricha, tezkor internetdan foydalanuvchilar sonining 10 foizga ko'payishi milliy iqtisodiyotlar yalpi hajmini har yili o'rtacha 0,4–1,4 foizga oshirish imkonini berar ekan.

Raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi AQShda – 10,9 foiz, Xitoyda – 10,0 foiz, Hindistonda – 5,5 foiz, Rossiyada – 3,9 foizni tashkil qilsa, O'zbekistonda ushbu ko'rsatkich so'nggi 5 yil mobaynida 2,1 foizdan ham oshmayapti. Demak, bu soha bo'yicha olib borilayotgan ishlarni yanada jadallashtirish lozim.

2020-yilning 5-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni qabul qilindi [13]. Farmonga ko'ra, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan manfaatdor vazirlik va idoralar, biznes hamjamiyati hamda ilmiy doiralar vakillari, xorijiy ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasiga ko'ra, 2020–2022-yillarda raqamlashtirish doirasida quyidagilar amalga oshiriladi:

- aholi punktlarini internet tarmog'iga ulash darajasini 2,5 milliongacha ko'paytirish, 20 ming kilometr optik-tolali aloqa liniyalarini qurish va mobil aloqa tarmog'ini 78 foizdan 95 foizga yetkaziladi;

- hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etiladi;

- 587 ming nafar kishini, shu jumladan, "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 500 ming nafar yoshlarni qamrab olish orqali kompyuter dasturlash asoslariga o'qitish tashkillashtiriladi;

- iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etiladi;

- hududlarda hokimlar, davlat organlari va tashkilotlar xodimlarining raqamli savodxonligi va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalari va axborot xavfsizligi bo'yicha o'qitish uchun tegishli oliy ta'lim muassasalari birlashtiriladi hamda ularning 12 ming nafar xodimi axborot texnologiyalari sohasida o'qitiladi.

Davlat boshqaruvini rivojlantirish yo'nalishidagi ishlar davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatining tashkiliy-huquqiy tuzilmasi, ularning vazifalari va funksiyalarini qayta ko'rib chiqish

orqali yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Xususan, Harakatlar strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi tizimida zamonaviy g'oyalarni tatbiq etish maqsadida aksariyat vazirlik va idoralarning vazifa va funksiyalari qayta ko'rib chiqildi, ularning ayrimlari qayta tashkil etildi, bir qator yangi vazirlik va idoralar yangidan tuzildi.

Mazkur islohotlarning huquqiy asosi sifatida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi tasdiqlanib, unga ko'ra, davlat boshqaruvi tizimini tubdan isloh qilishning 6 ta ustuvor yo'nalishi belgilandi va maxsus "Yo'l xaritasi" asosida yana 100 dan ortiq davlat hamda xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini qayta ko'rib chiqish belgilandi [14].

Qisqa vaqt ichida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi doirasida yana bir qator vazirlik va idoralar faoliyatining institutsional va tashkiliy-huquqiy asoslari, shuningdek, ijro etuvchi hokimiyat organlarining vazifalari va funksiyalari hamda ularni amalga oshirish mexanizmlari takomillashtirildi. Mahalliy hokimliklarning moddiy-texnik ta'minoti va ularning xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimi qayta ko'rib chiqilib, hokimlarning kadrlarini joy-joyiga qo'yishdagi vakolatlari kuchaytirildi. Mahalliy budjetlarni shakllantirish va ularni boshqarish bo'yicha mahalliy organlarning mustaqilligini amalga ta'minlash choralari ko'rildi.

Davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirishda xalq bilan samarali muloqotni ta'minlash – eng muhim va dolzarb vazifalardan biri. Shu munosabat bilan, jamoatchilik nazoratini takomillashtirish, nodavlat notijorat tashkilotlarini, ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish, shuningdek, mahallaning jamiyat hayotidagi rolini kuchaytirish chora-tadbirlari belgilandi.

Ushbu yo'nalishda inson manfaatlarini ta'minlash, eng avvalo, odamlar bilan muloqot qilish, xalqning dard-u tashvishlari, hayotiy muammo va ehtiyojlarini yaxshi bilish, hal qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etildi [15].

Mazkur tuzilmalar davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligi, shuningdek, joylardagi muammolarni chuqur tahlil etish mexanizmi va davlat organlari hamda mansabdor shaxslarning jamiyat oldidagi mas'uliyatini oshirish, ularning faoliyatini baholash mezoniga aylandi. Jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan murojaatlar tizimli ravishda tahlil qilinib, mavjud muammolarni hamda aniqlangan

qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish yuzasidan zarur choralar ko'rib kelinmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasida uch asosiy bo'g'indan tarkib topgan Xalq qabulxonalari tizimi belgilangan bo'lib, unga ko'ra: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi Xalq qabulxonalari hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tumanlar va shaharlardagi (tumaniga bo'ysunuvchi shaharlardan tashqari) Xalq qabulxonalaridan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tumanlar va shaharlardagi Xalq qabulxonalari aholi bilan to'g'ridan to'g'ri muloqotni tashkil etish, ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini to'laqonli himoya qilishga qaratilgan bo'lib, fuqarolar murojaatlari bilan ishlashning eng samarali tizimi faoliyatini ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Xalq qabulxonalariga davlat organlarining faoliyatini o'rganish, ularga taqdimnomalar kiritish, qonunbuzilishiga yo'l qo'ygan mansabdor shaxslarni lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan intizomiy javobgarlikka tortish bo'yicha takliflar kiritish vakolatlari berildi. Aholi muammolarini hal etish bo'yicha "Mahalla – Sektor – Xalq qabulxonasi – Mahalla" hamkorlik tizimi joriy qilindi [16].

Ayni vaqtda, mamlakatimizda 206 ta Xalq qabulxonalari samarali faoliyat yuritmoqda. 2020-yildagi statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Virtual va Xalq qabulxonalariga yiliga jami 1 million 196 ming 370 tadan ziyod murojaat kelib tushgan [17]. Ushbu murojaatlar to'liq o'rganilib, ularni ijobiy hal qilish choralari ko'rilgan. Shuningdek, Prezident Xalq qabulxonalari taqdimnomalariga asosan, 3 ming 108 nafar mas'ul xodim javobgarlikka tortilgan.

Xalq qabulxonalari jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ularga eng yaqin bo'lgan haqiqiy xalqchil demokratik institutga aylanmoqda. Har bir murojaat chuqur tahlil etilgan holda o'rganib chiqilmoqda. Zarurat vujudga kelganda esa, murojaatlarda ko'rsatilgan muammolar o'z o'rnida boshqa tegishli davlat idoralari bilan hamkorlikda hal etilmoqda.

Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish bo'yicha asosiy vazifalardan yana biri sifatida davlat boshqaruvini markazlashtirishdan chiqarish, davlat xizmatchilarining kasbiy tayyorgarligi, moddiy va ijtimoiy ta'minoti darajasini oshirish hamda iqtisodiyotni tartibga solishda davlat ishtirokini bosqichma-bosqich qisqartirish orqali davlat boshqaruvi va davlat xizmati tizimini isloh qilish belgilab berildi.

Iqtisodiy, ijtimoiy va ayniqsa, siyosiy islohotlarning muvaffaqiyati, avvalo, davlat boshqaruvi sohasidagi kadrlarni tanlash va tayyorlash darajasiga, ularning bugungi o'zgarishlarni to'liq anglagan holda qarorlar qabul qila olish qobiliyatiga bog'liqdir. Shu bois davlat fuqarolik xizmati samaradorligini yuksaltirish, davlat organlari va tashkilotlarining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash, shuningdek, Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019-yil 3-oktabrda "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-sonli Farmoni qabul qilindi [18].

Mazkur farmon asosida joriy yilning 1-yanvaridan boshlab, barcha davlat organlari va tashkilotlarida kadrlarni tanlash va tayinlashning yangi tartibi joriy etildi. Ushbu tizim davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilishda meritokratiya tamoyilini joriy etishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, 2019-yil 3-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4472-sonli qarori ham qabul qilindi [19]. Mazkur hujjatlar davlat fuqarolik xizmatini, shu jumladan, nomzodlarning ochiq mustaqil tanlov orqali, meritokratiya prinsipiga asoslanib saralab olinishi jarayonini, shuningdek, davlat fuqarolik xizmatchilarining ish samaradorligi va bilimdonligini baholovchi mezonlarni, ularning malakasini oshirishga bo'lgan talablarning belgilanishiga, davlat fuqarolik xizmati masalalari bo'yicha vakolatli organning tashkil etilishi bilan bog'liq yangi mexanizmlarning yaratilishiga asos bo'ldi.

Qaror asosida yagona davlat kadrlar siyosatini amalga oshirishga mas'ul – Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi tashkil qilindi. Agentlik davlat organlari va tashkilotlarida inson resurslarini

rivojlantirish hamda xodimlarni boshqarish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan davlat fuqarolik xizmati ishlari bo'yicha vakolatli davlat organi hisoblanadi. Bugungi kunda agentlik davlat xizmatiga kadrlarni tanlash va tayinlashning shaffof tizimini (qo'shimcha ma'lumot uchun: www.vacancy.argo.uz) joriy etish bo'yicha faol sa'y-harakatlarni amalga oshirmoqda.

Mazkur ishlarning davomi sifatida Harakatlar strategiyasini 2021-yil – "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturida davlat boshqaruvi organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish, davlat fuqarolik xizmatida kadrlarni tanlash, ularning malakasini oshirish va faoliyatini baholash bo'yicha samarali va ochiq tizimni joriy etish belgilandi.

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan islohotlarni davom ettirish bo'yicha quyidagilarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

birinchidan, davlat xizmatining qonunchilik asoslarini mustahkamlash hamda kadrlarni davlat xizmatiga tanlov asosida qabul qilish mexanizmlarini takomillashtirish;

ikkinchidan, davlat boshqaruvi organlarining huquqiy maqomi, ularni tashkil etish va tugatish mexanizmlarini yanada rivojlantirish;

uchinchidan, davlat xizmati va davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini raqamlashtirish ishlarini davom ettirish;

to'rtinchidan, davlat idoralari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi "komplayens-nazorat" xizmati faoliyatini kuchaytirish hamda davlat xizmatida manfaatlar to'qnashuvi va urug'-aymoqchilikning oldini olishga qaratilgan qonunchilik normalarini mukammallashtirish.

Xulosa qilib aytganda, har bir yangi davlat tuzilmasi davlatning muayyan vazifa va funksiyalarini ta'minlash uchun mas'ul hisoblanadi hamda fuqarolar huquq va manfaatlarini ro'yobga chiqaradi. O'z navbatida, davlat boshqaruvi tizimida zamonaviy talablarga mos, davlat xizmatlarini tezkor va sifatli ko'rsatishga ixtisoslashgan tuzilmalarning shakllantirilishi mamlakatimizni yanada rivojlantirish va hayotimizni yanada farovon qilishga, tegishli sohalarda inson manfaatlarining to'liq ifoda etilishiga asos bo'ladi.

Shu bilan birga, qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq sohasidagi islohot-

lar davlat va jamiyatni har tomonlama, jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatni modernizatsiya qilish hamda ha-

yotning barcha sohalarini liberallashtirish, shaxs huquqlari kafolatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnoma-si, 2020-yil 29-dekabr // <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.
2. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati-ning eng muhim mezonidir. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi // manba: www.president.uz/uz/lists/view/3119
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kiri-shish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi. // manba: www.president.uz/uz/lists/view/4743
4. Temur tuzuklari. / Tahrir hay'ati: B. Abduhalimov va boshq., forsha matndan A. So'g'oniy va H. Karomatov tarj. Tashkent, O'zbekiston, 2018, p. 88.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-sentabrdagi PF-5185-sonli "O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni // <http://lex.uz/ru/docs/3331176>.<https://www.gov.uk> - Raqamli Buyuk Britaniya rasmiy sayti.
6. <https://francedigitale.org/en/> – Raqamli Fransiya rasmiy sayti.
7. <https://digitalkz.kz> - Raqamli Qozog'iston rasmiy sayti.
8. <https://d-russia.ru> - Raqamli Rossiya rasmiy sayti.
9. my.gov.uz - Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-dekabrdagi "Aholiga davlat xizmatlari ko'rsatish-ning milliy tizimini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5278-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/3454989>
11. <http://davxizmat.uz> - Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi rasmiy sayti.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/5030957>
13. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 37-son, 979-modda.
14. 2017-yil — shiddatli islohotlar yili. - Toshkent: "Adolat", 2017. - B. 21.www.strategy.uz
15. 2020-yilda Prezident Xalq qabulxonalariga qancha murojaat kelib tushgan? // Manba: www.yuz.uzO'z-bekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va dav-lat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5843-sonli Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2019-y., 06/19/5843/3900-son
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizma-tini rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4472-sonli qarori // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 04.10.2019-y., 07/19/4472/3906-son

UDC: 34 (042) (575.1)
ORCID: 0000-0002-5961-9970

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FUQAROLIK KODEKSINING YANGI TAHRIRI LOYIHASIDA “FUQAROLIK QONUNCHILIGI”GA OID YANGILIKLARNING ILMIIY-NAZARIY TAHLILI

Imomov Nurillo Fayzullayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti kafedra mudiri,
yuridik fanlar doktori, professor,
e-mail: nurillo_1212@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi yangi tahriri loyihasing “Fuqarolik qonunchiligi” nomli 1-bobining ilmiy-nazariy tavsifi berilgan. Loyiha bilan FKga kiritilishi taklif etilayotgan o‘zgartirish muallifning talqinida ilmiy jihatdan asoslashga harakat qilingan. Xususan, fuqarolik qonunchiligi asosiy negizlari sifatida ikkita muhim prinsip: “fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining xohish-istagini ifodalash erkinligi” va “fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining mulkiy mustaqilligi”ni FKga kiritish zarurati va ahamiyati fuqarolik huquqi doktrinasi va amaliyotidan kelib chiqib asoslantirilgan. Shu bilan birga, maqolada fuqarolik huquqi predmeti tarkibiga korporativ munosabatlar va boshqa turdagi tadbirkorlik munosabatlarini kiritishning ilmiy-metodologik jihatlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, fuqarolik qonunchiligi tomonidan tartibga solinadigan munosabatlar tizimida davlat ishtirokidagi munosabatlarni tartibga solishning muhim qoidasini belgilash lozimligi borasida fikr bildirilgan. Shuningdek, umumiy va maxsus fuqarolik qonunchilik hujjatlarining nisbati, fuqarolik qonunchiligining orqaga qaytish kuchini aniqlashtirish, makon bo‘yicha amalda bo‘lishiga oid qoidalarni loyihaga kiritishning zarurati hamda fuqarolik qonunchiligini talqin etish borasidagi qoidalarining loyihada mustahkamlanishi kerakligi muallif tomonidan asoslantirishga harakat qilingan. Qolaversa, maqolada bir qator xorijiy davlatlar qonunchiligi, milliy va xorijiy olimlarning fikrlari tahlili qilinib, ishtirokchilarning o‘zlari tomonidan tartibga solinadigan munosabatlarga oid manbalar hamda fuqarolik qonunchiligi va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari o‘rtasidagi nisbatga oid taklif etilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarning mohiyati qisqa talqinda ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik huquqi, qonunchilik, fuqarolik kodeksi, prinsiplar, fuqarolik qonunchiligini talqin etish, fuqaro, yuridik shaxs, davlat, huquqiy munosabat, huquqiy tartibga solish, korporativ munosabat.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ НОВШЕСТВ ПО «ГРАЖДАНСКОМУ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВУ» В ПРОЕКТЕ НОВОЙ РЕДАКЦИИ ГРАЖДАНСКОГО КОДЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Имомов Нурилло Файзуллаевич,
доктор юридических наук, профессор, заведующий кафедрой
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье дается научно-теоретическое описание главы 1 «Гражданское законодательство» в новой редакции Гражданского кодекса Республики Узбекистан. Осуществлена попытка научно обосновать в авторской интерпретации изменения, вносимые в ГК посредством проекта. В частности, исходя из гражданского правовой доктрины и практики, обоснована необходимость и важность внесения в ГК двух важных принципов как основы гражданского права: свобода волеизъявления участников гражданского оборота и имущественная независимость участников гражданского оборота. Вместе с тем в статье анализируются научно-методические аспекты включения корпоративных отношений и других видов деловых отношений в предмет гражданского права. Кроме того, предлагается установить в системе отношений, регулируемых гражданским правом, важную норму регулирования

отношений с участием государства. Также автор попытался обосновать важность внесения в проект правил по соотношению общего и специального гражданского законодательства, определению обратной силы гражданского права, действию в пространстве, а также закрепления в проекте правил по толкованию гражданского законодательства. Кроме того, в статье на основании анализа законодательства ряда зарубежных стран, взглядов национальных и иностранных ученых в краткой форме раскрыты значение предлагаемых изменений и дополнений по источникам для регулирования отношений самими участниками, даны предложения о соотношении гражданского законодательства и международных договоров Республики Узбекистан.

Ключевые слова: гражданское право, законодательство, Гражданский кодекс, принципы, толкование гражданского законодательства, гражданин, юридическое лицо, государство, правовые отношения, правовое регулирование, корпоративные отношения.

SCIENTIFIC-THEORETICAL ANALYSIS OF THE UPDATES ON «CIVIL LAW» IN THE DRAFT NEW VERSION OF THE CIVIL CODE OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Imomov Nurillo Fayzullaevich,
Doctor of Law (DSC) , Professor
Tashkent State University of Law
head of department

Abstract. This article gives a scientific-theoretical description of Chapter 1 of the Draft of new edition of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan (hereinafter - CC) "Civil legislation". The proposed amendment to the Civil Code with the draft was scientifically grounded in the author's interpretation. In particular, the necessity and importance of inclusion in the Civil Code of two important principles as the basic foundation of civil law: "freedom of expression of participants of civil proceedings" and "property independence of participants of civil proceedings" is based on the doctrine and practice of civil law. At the same time, the article analyses the scientific and methodological aspects of including corporate relations and other types of business relations in the subject matter of civil law. In addition, it was proposed that an important rule regulating relations with state participation should be established in the system of relations regulated by law. The author has also tried to substantiate the correlation between the general and special part of civil law, the need to determine the retroactive effect of it, the necessity to draft the rules of application of space and the need to strengthen the rules of interpretation of law. In addition, the article analyses the legislation of several foreign countries, the views of domestic and foreign scholars, the sources of the relations regulated by the participants, as well as the essence of the proposed changes and additions in the relationship between civil law and international treaties which are signed by the Republic of Uzbekistan.

Keywords: civil law, legislation, civil code, principles, interpretation of civil law, citizen, legal entity, state, legal relations, legal regulation, corporate relations.

Fuqarolik qonunchiligi O'zbekiston qonunchilik tizimida alohida o'ringa ega bo'lgan, o'zining tartibga solish predmeti va metodlariga ega bo'lgan sohalaridan biri hisoblanadi. Fuqarolik qonunchiligi tarkibining rangbarangligi va turlarining kengligi nuqtayi nazaridan ham milliy yurisprudensiyaning boshqa sohalar qonunchigiga qaraganda, birmuncha keng va murakkabroq ko'rinish hosil qiladi. Shuningdek, fuqarolik qonunchiligi normalarining "egiluvchanligi", huquqiy munosabat ishtirokchilarining erk muxtoriyatiga keng yo'l berilganligi hamda davlat aralashuvining maksimal darajada kamligi kabi jihatlar bilan ham boshqa qonunchilik sohalaridan farq qiladi. Fuqarolik qonunchiligi prinsiplari ham umumiy

ruhiyati nuqtayi nazaridan bevosita ishtirokchilar uchun "qulay, egiluvchan hamda erk muxtoriyati"ga yo'naltirilgan bo'lib, fuqarolik qonunchiligi normalarida ushbu prinsiplar aks etadi va aynan mana shu omillar fuqarolik qonunchiligining hozirgi holati va istiqbolini belgilashning asosiy mezonlari sanaladi. Boshqacha aytganda, fuqarolik qonunchiligi "yuridik jihatdan teng", "mulkiy mustaqil" hamda erk-muxtoriyatiga ega shaxslar (jismoniy va yuridik shaxslar, davlat) o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar (mulkiy, shaxsiy nomulkiy va tashkiliy-huquqiy (korporativ) munosabatlar) tartibga soluvchi qoidalar (normativ-huquqiy hujjatlar, analogiya (o'xshashlik), odatlar, shartnomalar) tizimidan iboratdir.

Fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish zarurati yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan davomli, izchil va barqaror islohotlar silsilasida o'z o'rniga ega. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-son farmoyishi bilan O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasi [1] (keyingi o'rinlarda Konsepsiya) tasdiqlanib, unda asosiy vazifalardan biri sifatida "fuqarolik qonunchiligini inventarizatsiya qilish va shu asosda rivojlangan xorijiy huquqiy tartibotlar asosida takomillashtirish" belgilangan. Shundan kelib chiqib, fuqarolik qonunchiligi takomillashtirishda eng muhim masalalardan biri "fuqarolik qonunchiligining asosiy negizlari", ilmiy-nazariy "til" bilan aytganda esa fuqarolik huquqining prinsiplarining inventarizatsiya va takomillashuvi hisoblanadi. Chunki, prinsiplar qonunchilik normalarida o'z ifodasini topgan asosiy qoidalar bo'lib, ular asosida qonunchilikning asosiy vazifalari: huquqni belgilash, ijtimoiy munosabatni tartibga solish, huquqiy muhofaza va huquqiy himoya va boshqalar amalga oshiriladi [2]. Fuqarolik huquqining prinsiplari tadqiqotini amalga oshirgan A.Muxammadiyev prinsiplar "fuqarolik qonunlari saviyasini va ayniqsa sivilistik doktrinani, shuningdek, huquqiy tizimning yetuklik ko'rsatkichi sifatida qonunni qo'llash madaniyati darajasini belgilab beradi" [3], - degan xulosaga keladi. Ushbu masalada A.N.Klimova o'z nuqtayi nazarini quyidagicha izohlaydi: "fuqarolik huquqining prinsiplari – ushbu huquq sohasi mohiyatining tavsifini ifoda etadiki, bunday tavsifsiz fuqarolik huquqi huquq sohasi sifatida normal amal qilishi mumkin bo'lmaydi" [4]. Akademik H.Rahmonqulov fuqarolik huquqi prinsiplarining huquqiy tartibga solishdagi o'zni yuqori ekanligini ta'kidlagan holda fuqarolik qonunchiligi normalarida belgilanmagan munosabatlarni tartibga solishda qo'llaniladigan asosiy vosita ekanligini qayd etadi [5]. N. Reichning [6] fikricha, prinsiplar xususiy huquqda muhim o'rin tutadi va bunda yumshoq huquq instrumenti sifatida muayyan qoidalar majmuini hosil qiladi. Jeremy Bentham [7] fuqarolik huquqi tamoyillari deganda, qonunlarning maqsadini ifodalashni, ya'ni qonun chiqaruvchi tomonidan subyektlarning huquqlari yoki majburiyatlarini belgilashda yo'nalish bo'la oladigan asosiy qoidalarni tushunadi.

Fikrimizcha, fuqarolik qonunchiligining asosiy negizlari qonunchilik normalarining mazmun va mohiyati doirasi, chegarasi hamda yo'nalishini belgilab beruvchi bosh mezon bo'lish bilan birga, muayyan ijtimoiy munosabatni huquqiy tartibga solish funksiyasiga ham ega. Masalan, shartnomalar erkinligi prinsipi taraflarni shartnoma tuzishga majburlashga yo'l qo'yilmasligini, mulkning daxlsizligi esa sudning qarori qonuniy kuchga kirmaguniga qadar hech kimning mulk huquqi bekor qilinmasligi to'g'ridan to'g'ri amal qiladigan va huquqiy tartibga solish yukiga ega bo'lgan tamoyillar sanaladi.

Fuqarolik qonunchiligining asosiy negizlari nazarda tutuvchi FKning 1-moddasi ijtimoiy munosabatlarning bugungi taraqqiyot darajasi hamda huquqiy tafakkur rivojining hozirgi holatidan kelib chiqib takomillashuviga muhtojdir. Chunki, asosiy tamoyillar butun fuqarolik qonunchiligi tizimi uchun bosh mezon, "mayoq", "mo'ljal", chegara, yo'nalish va doira bo'lib xizmat qiladi. Bu jihatlarda esa zamon taraqqiyotiga mos va u bilan hamohanglikda rivojlanishi zarur. Bundan tashqari, fuqarolik huquqi doktrinasini belgilab berishning dastlabki asosi, boshqacha aytganda, debochasi ham aynan fuqarolik qonunchiligining asosiy prinsiplarining zimmasiga tushadi. Shu sababli fuqarolik qonunchiligi asosiy prinsiplari doirasini aniqlashtirish, ularning qonunchilik darajasida mustahkamlash va aniq belgilash zarurati mavjud. Zero, Konsepsiyada ham fuqarolik qonunchilik prinsiplarini xalqaro standartlar hamda axloq qoidalari va ma'naviy normalardan kelib chiqib takomillashtirish nazarda tutilgan. Bunda e'tiborga molik bo'lgan masalalardan biri fuqarolik huquqlarini amalga oshirishga nisbatan qonunchilikda belgilangan asosiy prinsiplar hisoblanadi. Shu o'rin-da, fuqarolik-huquqiy tartibga solishning asosiy metodlaridan biri fuqarolik huquqlarida cheklolarning amalga oshirilishi hisoblanadi. Biroq har qanday huquqni amalga oshirish yoki huquq doirasi muayyan asoslar va talablardan kelib chiqib cheklanishi mumkin. Bunday cheklashlar mamlakatda amal qilayotgan konstitusiyaviy tuzum, axloq qoidalari, sog'liqni saqlash, boshqa shaxslarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat mudofaasi va davlat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan hajmda cheklanishi mumkin. Ammo FK amalda mavjud bo'lgan

fuqarolik huquqlarini cheklanmasligiga oid qoidalarini belgilamaydi. Bu borada amaliyotda turli ko'rinishda muammolar (masalan, mulk huquqining cheklanishi) mavjud bo'lganligi sababli FKdagi mazkur bo'shliq saqlanib qolmoqda. Shu bois FKda fuqarolik huquqlarini cheklash asoslari va hajmi borasida aniq qoidalar belgilanishi lozim. Fikrimizcha, fuqarolik huquqlarini cheklanish doirasida qonunchilik aniq belgilanishi qoidasining FKga kiritilishi fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilarining huquqlarini cheklanish maqsadi va hajmini belgilash yo'li bilan fuqarolik huquqlarini cheklashda turli o'zboshimchaliklar hamda davlat organlarining bu borada asossiz qaror qabul qilishlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Fuqarolik qonunchiligi asosiy negizlari borasida muhim masalalardan yana biri bu ishtirokchilarning "xohish-istagini ifodalash erkinligi" va "mulkiy mustaqilligi" hisoblanadi. Erk muxtoriyati prinsipi subyektlarning o'z xohishidan kelib chiqib qaror qabul qilish va harakat qilishlarini anglatadi. Mazkur ikki prinsip Ozarbayjon Fuqarolik kodeksining 6-moddasida nazarda tutilgan. Yuridik adabiyotlarda "xohish istakni ifodalash erkinligi" prinsipi umumiy nuqtayi nazardan fuqarolik huquqidagi erkinlik deb ham ataladi va ushbu prinsipni fuqarolik qonunchiligida ifodalash zarurati borasida ham fikrlar bildirilgan. Jumladan, M.A.Grigorevaning yozishicha, "fuqarolik-huquqiy munosabat ishtirokchilari erkinligi prinsipining amal qilishi quyidagi bosqichlarda o'z ifodasini topadi: 1) fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelishi; fuqarolik huquqlarining amalga oshirilishi; 3) buzilgan huquqlarning himoya qilinishida"[8]. R.B.Bryuxov fuqarolik huquqidagi dispozitivlikni keng va tor ma'noda talqin etishga harakat qiladi. Uning talqiniga ko'ra, "keng ma'noda dispozitivlik deganda, subyektiv fuqarolik huquq va burchlarni qo'lga kiritish, ushbu huquqlarning tuzilishini belgilash, bitim tuzishda dispozitiv normalarda belgilangan qoidalardan chetga chiqish erkinligi tushunilsa, tor ma'noda fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va huquqlarni himoya qilish shakli va usullaridan foydalanish hamda javobgarlik shaklini tanlash erkinligi anglashiladi"[9]. P.A.Gordeyevning ta'kidlashicha, "keng ma'nodagi erkinlikdan farqli ravishda dispozitivlik huquqdan tashqarida bo'lishi mumkin emas. Dispozitivlik bu faqat cheklangan ko'rinishda mavjud bo'ladigan huquqiy erkinlikdir....boshqacha aytganda, dis-

pozitivlik faqat erkinlik cheklangan joyda mavjud bo'ladi"[10].

Fikrimizcha, dispozitivlik, ya'ni huquqiy munosabat ishtirokchisining o'z xatti-harakatlari va xulq-atvoridagi qonunchilik darajasida yo'l qo'yiladigan erkinligidir. Bu erkinlik fuqarolik-huquqiy munosabatlarning ko'plab turlarida namoyon bo'ladi va subyektiv fuqarolik huquqi mavjudligining bosh mezoni sanaladi. Zero, o'zbek sivilistikasi asoschilaridan biri professor I.B.Zokirov ta'kidlaganidek, "taraflar erkin, o'zgalarning ta'siri va majburlashlarisiz, erk-irodalarini mustaqil amalga oshirgan holda fuqarolik munosabatlariga kirishadilar" [11].

"Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining xohish-istagini ifodalash erkinligi" – fuqarolik qonunchiligining asosiy negizlari sifatida FKga kiritilishi nazarimizda fuqarolik-huquqiy doktrinani boyitadi hamda fuqarolik-huquqiy tartibga solishni barqaror va izchil tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Birinchidan, ushbu prinsip fuqarolik huquqi subyektlarning huquqiy munosabatda o'z xohishini ifodalash erkinligi qoidasini qonunchilik darajada mustahkamlaydi va barcha fuqarolik-huquqiy munosabatlar uchun amal qilishini kafolatlaydi. Ikkinchidan, xohish-istak, irodani ifodalash erkinligi subyektga o'z xohishi va manfaatidan kelib chiqib harakat qilish va boshqa shaxslarning salbiy ta'siri va tayziqidan tiyilishi uchun belgilangan himoya to'sig'i vazifasini bajaradi. Uchinchidan, subyekt erkinligi fuqarolik-huquqiy munosabatning barcha bosqichlarida amal qiladi va shaxsning subyektiv fuqarolik huquqlari ta'minlanganligini anglatadi, masalan, fuqarolik huquqi subyekt o'z huquqini amalga oshirishni yoki buzilgan huquqlarini himoya qilishni istamasa, hech kim uni bunga majburlashiga yo'l qo'yilmaydi. To'rtinchidan, bu prinsipning kiritilishi fuqarolik qonunchiligi uchun muhim bo'lgan "dispozitiv yo'naltirilganlik" qoidasining real ifodasini e'tirof etilganligini anglatadi. Umuman olganda esa FKning yangi tahririga "fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining xohish-istagini ifodalash erkinligi" fuqarolik-huquqiy tartibga solishda muayyan bo'shliqlarni to'ldirishga hamda vujudga kelishi mumkin bo'lgan yangi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun muhim huquqiy qoidani yaratilishiga zamin yaratadi.

Fuqarolik qonunchiligining asosiy prinsiplaridan biri sifatida "fuqarolik muomalasi ishtirok-

chilarining mulkiy mustaqilligi”ning FK yangi tahriri loyihasida aks ettirilayotganligi ham fuqarolik huquqi sohasining o’ziga xosligi hamda fuqarolik-huquqiy muomala har doim mol-mulkka asoslanishidan kelib chiqadi. Fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining “mulkiy mustaqillikka” ega bo’lishining ahamiyati borasida H. Rahmonqulov [12] va O. Oqyulovlar [13] ham alohida qayd etib o’tishadi. Amaldagi FKda ham fuqarolik muomalasi – fuqarolik huquqlari obyektlarining erkin sur’atda bir shaxsdan ikkinchi shaxsga o’tishini nazarda tutadi. Bu esa, o’z navbatida, muomala ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarga ega bo’lishlarini, bu huquq va majburiyatlarni mol-mulkka asoslangan bo’lishini, ayni paytda esa bu ishtirokchining mulkiy mustaqillikka ega bo’lishini taqozo etadi.

Shu o’rinda qayd etish lozimki, bugungi sivilistik tafakkurda, xususan postsovet mamlakatlari sivilistikasida “mulkiy mustaqillik” prinsipi yoki mezon ko’p o’rinlarda asosan yuridik shaxsning tushunchasi va mohiyatini tavsiflashda qo’llaniladigan va faqat yuridik shaxsga xos belgi sifatida talqin etiladi. Bu holat ko’p jihatdan fuqarolik qonunchiligida yuridik shaxs tushunchasiga berilgan ta’rifni noto’g’ri talqin etishdan kelib chiqadi. Xususan, fuqarolik qonunchilikda belgilangan “alohida mol-mulkka ega bo’lish” (rus tilida “imeyet obosoblennoye imushestvo”) (FKning 39-moddasi birinchi qismi) yuridik adabiyotlar va darsliklarda [11] “mulkiy mustaqillik” sifatida talqin etilgan va shunday tasavvur yuzaga kelib qolgan. Fikrimizcha, bu o’rinda “alohida mol-mulkka ega bo’lishi” va “mulkiy mustaqillik” tushunchalarini farqlash lozim. Zero “mulkiy mustaqillik” fuqarolik huquqining barcha subyektlariga xos bo’lgan jihat bo’lib, bu fuqarolik muomalasining har bir ishtirokchisi shunday holatda deb tasavvur qilinaadi. Mazkur prinsipning FK yangi tahriri loyihasiga kiritilishi esa fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining mulkiy mustaqillik asosida harakatlaniishi, o’zi uchun huquqlar olish va zimmasidagi majburiyatlarni shu asosda bajarishini anglashga xizmat qiluvchi muhim doktrinial qoidaning mustahkamlanishini anglatadi.

FK yangi tahriri loyihasining “fuqarolik qonunchiligi” deb nomlangan 1-bobiga taklif etilayotgan o’zgartishlardan yana biri – bu fuqarolik huquqi predmeti doirasini yanada aniqlashtirish va Konsepsiyada belgilangan vazifalardan kelib chiqib

korporativ munosabatlarni hamda tadbirkorlik bilan bog’liq boshqa munosabatlarni “Fuqarolik kodeksining tartibga solish predmeti doirasiga kiritish” [1] muhim o’rin tutadi. Zero, “korporativ munosabatlar” tushunchasi va ushbu munosabatlarni tartibga solishning u yoki bu jihatlari huquqni qo’llash amaliyotida, shuningdek qonunchilikda qo’llanilib kelinmoqda. Masalan, Iqtisodiy protsessual kodeksning 30-moddasi bevosita korporativ nizolarga bag’ishlangan. Bundan tashqari, yuridik adabiyotlarda [14] ham tashkiliy-huquqiy munosabatlar, xususan, korporativ munosabatlarni fuqarolik huquqi predmeti tarkibiga kiritish zarurati borasida fikrlar uzoq vaqtlardan buyon ta’kidlanib kelmoqda. Shundan kelib chiqib, korporativ va tadbirkorlik faoliyati bilan bog’liq boshqa munosabatlarni fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlar tarkibiga kiritilishi fuqarolik huquqi nazariyasi, qonunchiligi va amaliyot o’rtasidagi muvofiqlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Davlat fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtirokini huquqiy tartibga solinishi xususiy huquq va ommaviy huquq elementlarining mavjudligi nuqtayi nazaridan ham dolzarbdir. Fuqarolik huquqi doktrinasida davlat ham fuqarolik-huquqiy munosabatlarda boshqa subyektlar (jismoniy va yuridik shaxslar) bilan baravar asoslarda ishtirok etishi qoidasi amal qiladi. Bu doktrina o’rinli va har tomonlama fuqarolik huquqi sohasining mohiyati va predmetiga mos keladi. Biroq, davlat ommaviy huquqi subyekti sifatida hokimiyat vakolatlariga egaki, bu jihatlarda muayyan ma’noda uning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtirokiga nisbatan ham ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli FKning yangi tahriri loyiha (keyingi o’rinlarda loyiha)da amaldagi FKning 5-bobi chiqarilib, undagi qoidalarga o’zgartish va qo’shimchalar kiritilib, loyiha 2-moddasiga ko’chirib o’tkazilmoqda. Ta’kidlash lozimki, FK amaldagi tahririning 5-bobida davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlarga oid ishtirokiga bag’ishlangan bor-yo’g’i 2 ta modda keltirilgan bo’lib, ushbu moddalardagi normalar deklarativ tusga ega. Ya’ni bu normalarda asosan davlat nomidan uning organlari ishtirok etishi, davlat boshqa subyektlar bilan baravar ishtirok etishi, majburiyatlari bo’yicha davlat o’z mablag’lari bilan javob berishi, davlat va u tomonidan tuzilgan yuridik shaxs javobgarligining farqlanganligi hamda

davlat kafolat bergan yuridik shaxs majburiyatlari yuzasidan javobgarlik nazarda tutilgan. Fikrimizcha, FKning amaldagi tahririda fuqarolik huquq doktrinasida mavjud bo'lgan qarashlar inobatga olinmagan. Zero, sivilistik doktrinada davlat korporatsiya sifatida talqin etiladi. Odatda, ichki fuqarolik huquqiy munosabatlarda davlat nomidan tegishli vakolatli organlar ishtirok etadi (masalan, kontraktatsiya shartnomasi, davlat ehtiyojlari uchun tovarlar xarid qilish va shu kabilar). Bunday ishtirok orqali alohida o'ziga xos belgilari, maqomi ajratiladi (masalan, suverenitet, huquq va muomala layoqatini cheklash yoki undan mahrum qilish, yuridik shaxsni tugatish kabi choralarining davlatga nisbatan qo'llanilmasligi). Fuqarolik-huquqiy munosabatlarga nisbatan monistik va plyuralistik shakllari ajratiladi. Biroq ko'p holatlarda aralash shakl ustuvorlik kasb etadi [15]. Davlatning alohida tuzilma sifatidagi fuqarolik huquqiy munosabatlardagi ishtirokiga nisbatan yuridik shaxslarning ishtirokiga oid normalarning qo'llanilishi umumqabul qilingan doktrina sanaladi. Shundan kelib chiqib, loyihaning 2-moddasiga davlatning fuqarolik-huquqiy munosabatlardagi ishtirokini yanada aniqlashtirish maqsadida "agar qonunchilik hujjatlaridan boshqacha hol kelib chiqmasa, fuqarolik qonunchiligi bilan tartibga solinadigan munosabatlarda yuridik shaxslar ishtirokini belgilovchi normalar davlatga nisbatan qo'llanilishi" qoidasi kiritilmoqda.

Ma'lumki, fuqarolik huquqining vazifalaridan biri fuqarolik huquqlarini, jumladan, shaxsiy nomulkiy huquqlarni belgilash va u bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solish hisoblanadi va bu FKning 2-moddasi to'rtinchi qismida belgilangan. Biroq keyingi yillarda fuqarolik-huquqiy doktrinaning jadal rivojlanishi va takomillashuvi fuqarolik huquqida shaxsiy nomulkiy huquqlar va u bilan bog'liq munosabatlar nafaqat belgilanishi va tartibga solinishi, balki himoya qilinishi ham lozimligini ko'rsatdi. Bu holat, ayniqsa, Internetning rivojlanishi, virtual olamning paydo bo'lishi va onlayn munosabatlarning shakllanishi bilan yanada dolzarblik kasb etdi. Shundan kelib chiqib loyihada shaxsiy nomulkiy munosabatlar nafaqat tartibga solinishi, balki shaxsiy nomulkiy munosabatlardan kelib chiquvchi huquqlar himoya qilinishiga oid o'zgartirish kiritilmoqda.

Fuqarolik qonunchiligi hujjatlarining turlari ko'p va rang-barang ekanligini yuqorida ham

ta'kidlab o'tgan edik. Shu sababli ularni qo'llashda bir qator muammolar mavjud. Masalan, qonun va qonun osti hujjatlarining o'zaro nomuvofiqligi, teng yuridik kuchga ega bo'lgan normalarning o'zaro nisbati, ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda umumiy va maxsus normalarni qo'llashdagi ustuvorlik qaysi biriga berilishi va shu kabilar. Albatta, mazkur masalalarning ayrimlari O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi [16] O'RQ-682-son Qonunida barcha huquq sohalari qonunchiligi uchun umumiy tarzda va universal qoidalar ko'rinishida belgilangan. Biroq bu qonun fuqarolik-huquqiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari va uning manbalari doirasini to'liq qamrab olmagan. Zero, fuqarolik huquqida huquqiy manbalar bilan birga, nohuquqiy manbalar ham amal qiladiki, bu holat fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda o'ziga xosliklarni yuzaga keltiradi. Shu sababli loyihaning 3-moddasida FK amaldagi tahririda mavjud bo'lgan bo'shliqlarni to'ldirish va qonunchilik hujjatlarining o'zaro nisbatini aniqlashtirishga oid qo'shimcha taklif etilgan. Xususan, amaldagi tahrirda vazirlik va idoralarning qaysi holatlarda fuqarolik qonunchilik hujjatlarini chiqarishi masalasi aniq belgilangan bo'lib, Prezident va Hukumat hujjatlariga nisbatan bu masala ochiq qolgan edi. Ma'lumki, amaldagi qonunchilikka muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati alohida institut hisoblanadi hamda o'z vakolatlari doirasida fuqarolik munosabatlarini tartibga soluvchi hujjatlar chiqaradi. Shu bois hamda huquqni qo'llash amaliyotida turli tushunmovchiliklar kelib chiqishining oldini olish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumatining hujjatlarini ham mazkur moddaga kiritilmoqda. Zero, qonun osti hujjatlarini (qonunchilik hujjatlarini) vazirliklar va idoralar uchun fuqarolik qonun hujjatini qabul qilish vakolatini bermasligi kerak.

FK amaldagi tahririning 4-moddasidan anglashilishicha, fuqarolik qonunchiligi hujjatlarini orqaga qaytish kuchiga ega emas. Bu qoidadan faqat bitta istisno, ya'ni qabul qilingan qonun hujjatining o'zida uning orqaga qaytish kuchi haqida qoida belgilanishi mavjud. Fuqarolik qonunchilik hujjatlarining orqaga qaytish kuchi borasida taklif etilayotgan yangilikka ko'ra "Agar fuqarolik qonunchiligi hujjati fuqarolik huquqi subyektlariga zarar yetkazsa yoki uning

holatini yomonlashtirsa, orqaga qaytish kuchiga ega bo'lmashligi" qat'iy belgilanishi lozim va bu mavjud istisno ham agar mazkur holatni yuzaga keltirsa, amal qilmasligini anglatadi. Bunday qoida Ozarbayjon FKning 7-moddasi 3-qismida va Gruziya FKning 6-moddasida keltirilgan bo'lib, fuqarolik huquq subyektlarining manfaatlarini himoya qilish hamda fuqarolik qonunchiligi hujjatlarining barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Qolaversa, bunday normaning kiritilishi fuqarolar va yuridik shaxslarning davlatda qonunchilik tizimiga bo'lgan ishonchi ortishiga ham zamin yaratadi.

"Fuqarolik qonunchiligining vaqt bo'yicha amal qilishi" amaldagi FKning 4-moddasida belgilangan holda, ushbu hujjatlarining "makon bo'yicha amal qilishi" nazarda tutilmagan. Ushbu bo'shliqni bartaraf etish maqsadida loyihaga yangi modda sifatida "Fuqarolik qonunchiligining makon bo'yicha amal qilishi" kiritilmoqda. Bunday norma Ozarbayjon FKning 8-moddasida quyidagi mazmunda ifodalangan: "fuqarolik qonunchiligi mamlakatning butun hududida hech qanday istisnolarsiz amal qiladi. Fuqarolik qonunchiligida nazarda tutilgan huquqlar mamlakatning butun hududida to'sqinliklarsiz amalga oshirilishi mumkin va majburiy muhofaza etiladi". Bundan farqli ravishda loyihada fuqarolik qonunchiligining makon bo'yicha amalda bo'lishiga oid norma bir qadar rivojlangan tarzda ifodalangan. Zero, qonunchilikning mamlakat hududida makon bo'yicha amal qilishiga oid qoida tegishli qonun (O'RQ-682-son Qonun 42-moddasi)da o'z ifodasi topgan. Shundan kelib chiqib hamda bugungi kunda real makon va virtual makon tushunchalarning vujudga kelayotganligini inobatga olib loyihaga professor I.R.Rustambekov[17] tomonidan taklif etilgan quyidagi qoida kiritildi: "fuqarolik qonunchiligi hujjatlari real va virtual (internet) makonda vujudga keladigan munosabatlarga nisbatan ularning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qo'llaniladi. Fuqarolik qonunchiligi hujjatlari, agar unda boshqa holat belgilangan va mohiyatidan faqat real makonda vujudga kelishi mumkinligi anglashilmasa, virtual makondagi munosabatlarga nisbatan ham qo'llaniladi". Fikrimizcha, bu qoida fuqarolik qonunchiligi hujjatlari normalarini virtual makonda vujudga keluvchi munosabatlarga tatbiq qilish uchun to'liq huquqiy asosni vujudga keltiradi, ya'ni bunday qoida real

makon uchun mo'ljallangan fuqarolik qonunchilik hujjatlarini virtual munosabatlarga qo'llashga xizmat qiladi.

Fuqarolik-huquqiy munosabatlarni belgilash, tartibga solish hamda fuqarolarning huquqlarini himoya qilish va qonuniy manfaatlarini ta'minlashdagi asosiy masalalardan biri fuqarolik qonunchiligi hujjatlarini talqin etish sanaladi. Zero, qonunchilikni aniq va bir xilda qo'llanilishi talqinning to'g'riligi va yondashuvning bir xilligiga bog'liq. Bunday muhim jihat esa qonun chiqaruvchining tegishli normada nazarda tutilgan maqsadini to'g'ri tushunish va shundan kelib chiqib uni talqin etish, ya'ni tegishli huquqiy munosabatni tartibga solishga nisbatan qo'llash hisoblanadi. Amaldagi qonunchilikda fuqarolik qonunchilik hujjatlarining talqin etilishi (yoki izohlanishi, inglizcha, Interpretation of laws) borasida muayyan qoida va ko'rsatmalar nazarda tutilmagan. Bu esa, o'z navbatida huquqni qo'llovchi, talqin etuvchilarda turlicha yondashuvlarni keltirib chiqaradi. Xorijiy mamlakatlar qonunchiligida esa qonunchilik hujjatlarini talqin etish borasida aniq ko'rsatmalar mavjud. Jumladan, AQSh Luizianna shtati Fuqarolik kodeksining (2011-yil 10-sentabrda qabul qilingan) 2-bobi "Interpretation of laws" deb nomlanadi va unda qonunchilik hujjatlarining matnini, undagi so'zlarni talqin etish va tatbiq etish borasidagi qoidalar belgilangan. Italiya FKning 12-moddasi hamda Qozog'iston Respublikasi FKning 6-moddasi ham Fuqarolik kodeksini (qonunni) talqin etishga bag'ishlanadi. Bundan tashqari, Shveysariya GK 1-moddasi (Application of the law) deb nomlanib, bunda ham fuqarolik qonunchilik hujjatlarini qo'llashga oid qoidalar belgilangan. Shuningdek, shu mazmundagi qoidalar Ukraina FKning 213-moddasidan ham anglashiladi.

Yuridik adabiyotlarda[18] fuqarolik qonunchiligini talqin etishga oid qoidalarning qonunchilikka kiritish zarurati quyidagi omillar bilan bog'liq ekanligi haqida fikrlar mavjud: fuqarolik-huquqiy tartibga solishning noaniq yo'naltirilganligi, normalarning mavhum (abstrakt)ligi, terminlarning turlicha nomlanishi va tizimlashtirilmaganligi (ko'p hollarda esa terminlarning tushunchasi berilmaganligi), huquqiy normalar va tushunchalar hamda ular mazmunining murakkablik darajasi yuqoriligi, huquqiy konstruksiyalarning chalkash va ular o'rtasidagi aniq chegara va nis-

batning aniq belgilanmaganligi (masalan, mulk huquqini himoya qilishda vindikatsiyaning majburiyat-huquqiy munosabatlariga, majburiyatlarga oid umumiy qoidalarining delikt va asossiz boylik orttirishdan kelib chiqadigan munosabatlarga qo'llanilishi, talab qilish huquqiga oid qoidalarining tizimlashmaganligi). Zero, "qonun chiqaruvchi tomonidan huquqiy normada ifodalangan haqiqiy ma'noni anglash va anglangan ma'noni amalda vujudga kelgan ijtimoiy munosabatga tatbiq etish zarurati"[19] fuqarolik qonunchiligini talqin etishning bosh formulasi sanaladi. Jorge Silva Sampaioning fikricha, "talqin etish – bu til qoidalarini va yuridik normalarni mazmunini o'zida ifodalaydigan va normalarni asoslashga qaratilgan operatsiyadir"[20]. B.Berisha va F.Berishalarning yozishicha, "talqin etish bitta maqsadni, ya'ni qonun chiqaruvchi nuqtayi nazaridan norma qanday shakllantirilgan bo'lsa uni talqin etish uchun normaning maqsadi va mazmunini aniqlashtirishni ko'zlaydi"[21].

Fikrimizcha, har qanday holatda ham fuqarolik qonunchiligi normalari qonun chiqaruvchi unda nazarda tutgan maqsaddan kelib chiqib talqin etilishi lozim. Bunda o'zbek tilidagi so'zlarning turli ma'noni anglatishi yoki terminlarning turlicha qo'llanilishi ta'sir ko'rsatmasligi lozim hamda normaning maqsadi nimaga qaratilganligi e'tiborga olinishi kerak. Qolaversa, boshqa huquq sohalaridan farqli ravishda fuqarolik qonunchiligi hujjatlarini uni qo'llashda ishtirok etayotgan barcha ishtirokchilar talqin etishlari mumkin, bu borada nizo vujudga kelganda esa yakuniy talqin sud tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'ladi. Bu o'z navbatida, FK amaldagi tahririning 363-moddasidan ham anglashiladi. Fuqarolik qonunchiligi hujjatlarida noaniqliklar topilgan, u amaliyotda noto'g'ri yoki ziddiyatli tarzda qo'llanilgan taqdirda esa talqin vakolatli davlat organi tomonidan amalga oshiriladi. Talqin jarayonida ularga normalarni aniqlashtirishga qaratilgan tuzatishlar, o'zgartirishlar, qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi. Shu bilan birga, fuqarolik qonunchiligini talqin etishda norma tushunarli va aniq ifodalangan bo'lsa hamda uni qo'llash ziddiyatlarga olib kelmasa, u qanday yozilgan bo'lsa, shunday talqin qilinishi lozim hisoblanadi. Biroq fuqarolik qonunchiligi hujjatining tili uni turlicha talqin qilishga olib kelsa, unda hujjat uning maqsadiga eng mos keladigan tarzda talqin qilinishi talab etiladi.

Bunda fuqarolik qonunchiligi hujjatidagi so'zlarga ularning umumiy qabul qilingan ma'nolari berilishi zarur bo'ladi. Talqin etishda e'tiborga molik yana bir jihat fuqarolik qonunchiligi hujjati texnik masalalar bilan bog'liqdir. Fikrimizcha, normada texnik masala nazarda tutilgan bo'lsa, talqinda texnik tushunchalarga ularning texnik ma'nolari berilishi lozim.

Loyihaning fuqarolik qonunchiligi bobiga kiritilishi taklif etilayotgan yana bir o'zgarish odatlar, boshqacha aytganda nohuquqiy manbalar bilan bog'liq. Chunki, fuqarolik huquqida qonunchilik hujjatlari bilan birga analogiya, odatlar va shartnomalar manba hisoblanadi. Analogiya va odatlarning fuqarolik huquqi uchun manba ekanligi tegishincha FKning 5- va 6-moddalaridan anglashilsa, shartnomaning manba ekanligi 1-modda ikkinchi qismidagi "fuqarolar (jismoniy shaxslar) va yuridik shaxslar shartnoma asosida o'z huquq va burchlarini belgilashda va qonun hujjatlariga zid bo'lmagan har qanday shartnoma shartlarini aniqlashda erkindirlar" qoidasidan kelib chiqadi. Bu manbalar bugungi kunda ishtirokchilarning o'zlari tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Gap shundaki, hozirda muayyan ijtimoiy munosabatlar sohalari yuzaga kelganki, ular davlat tomonidan yoki qonunchilik hujjatlari tomonidan emas, balki ishtirokchilarning o'zlari ishlab chiqib, kelishgan holda tasdiqlangan hujjatlar bilan tartibga solinadi. Masalan, sport musobaqalarini o'tkazish, turli sport federatsiyalari faoliyatini amalga oshirish qonun osti hujjatlari bilan tartibga solinmaydi va bu sohada nizolarni davlat sudlari tomonidan ko'rib chiqilmaydi. Davlat organlari ham sport sohasidagi shikoyatlarni ko'rib chiqishga ham haqli bo'lmaydilar. Shu sababli loyihada aynan mazkur jihatni inobatga olish maqsadida "agar qonunda muayyan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarning o'zlari tomonidan tartibga solishi belgilangan bo'lsa, ushbu munosabatlarni qonunosti hujjatlari bilan tartibga solishga yo'l qo'yilmasligi" qoidasi kiritilmoqda.

Fuqarolik qonunchiligi va O'zbekiston Respublikasi ishtirokidagi xalqaro shartnoma hamda bitimlarning o'zaro nisbatini aniq belgilash ham muhimdir. Chunki, O'zbekiston xalqaro shartnomalarni tuzish yo'li bilan o'z zimmasiga muayyan majburiyatlarni olishi bilan undagi qoidalar

milliy qonunchilikda belgilangan normalar bilan muvofiq bo'lishi talab etiladi. FK amaldagi tahririda bu boradagi umumiy norma aks etadi, xolos. Bunda huquqiy munosabat ishtirokchilari yoki fuqarolik-huquqiy tushdagi shartnoma talar kelishuviga ko'ra huquqiy munosabatlarni tartibga solishga nisbatan xalqaro shartnoma yoki chet davlatining qonunchiligi qo'llanilishi mumkinligiga oid qoida nazarda tutilmagan. Bugungi kunda xalqaro konvensiyalarda yoxud xorijiy davlatlar qonunlarida yangi shartnomalar konstruksiyalari O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va norezidentlari tomonidan keng qo'llanishi holatlari kuzatiladi. Bu fuqarolik huquqi subyektlariga erkinlik va mustaqillik beradi, chet el tajribasidan oqilona foydalanishga imkon beradi. Shu sababli loyihaga ishtirokchilarning xalqaro shartnomalar va chet davlati

qonunchiligi o'rtalaridagi huquqiy munosabatni tartibga solishga nisbatan qo'llashlariga yo'l qo'yilishi haqidagi qoidani kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa sifatida aytganda, loyihaning fuqarolik qonunchiligiga bag'ishlangan 1-bobi huquqiy tartibga solishga oid bo'shliqlarni to'ldirish, mavjud normalar o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etish hamda qonunchilikni talqin etishda aniq qoidalarini nazarda tutish hamda fuqarolik-huquqiy tartibga solish predmeti doirasini kengaytirishni nazarda tutadi. Qolaversa, loyihada fuqarolik huquqining prinsiplari tarkibiga muhim ahamiyatga ega bo'lgan va bugungi fuqarolik-huquqiy doktrinani boyitishga xizmat qilgan muhim prinsiplar ham kiritilayotganligi fuqarolar va yuridik shaxslarning erkinligi va mulkiy mustaqilligini ta'minlashga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi F-5464-son farmoyishi // <https://lex.uz/docs/4272621>
2. Abramov A.I. Ponyatiye funktsii prava // Jurnal rossiyskogo prav. 2006, no. 2, pp. 71–83.
3. Muxammadiyev A.A. Fuqarolik huquqi tamoyillarining nazariy va amaliy muammolari: yurid. fan. dokt. ... dis. Toshkent, 2012, p. 12.
4. Klimova A.N. Prinsipi grajdanskogo prava: avtoref. dis. ... kand. yurid. nauk. Moscow, 2005.
5. Rahmonqulov H. Fuqarolik huquqining predmeti, metodi va tamoyillari. Tashkent, 2003, p. 28.
6. Reich N. General Principles of EU Civil Law (Cambridge, Intersentia, 2014) XXVIII and 216 pages.
7. Jeremy Bentham. Principles of the Civil Code // <https://www.laits.utexas.edu/poltheory/bentham/pcc/pcc.pa01.int.htm>
8. Grigoryeva M.A. Ponyatiye svobod v rossiyskom grajdanskom prave: avtoref. dis. ... kand. yurid. nauk. – Irkutsk: 2004.
9. Bryukov R. B. Dispozitivnost v grajdanskom prave Rossii: dis. ... kand. yurid. nauk. Yekaterinburg, 2005.
10. Gordeyev P.A. Dispozitivnost v regulirovani anii grajdanskix pravootnosheniy: teoretiko-metodologicheskiy analiz // Rossiyskoye pravo. Obrazovaniye. Praktika. Nauka. 2018, no. 4, p. 79/ <https://cyberleninka.ru/article/n/dispozitivnost-v-regulirovani-grazhdanskix-pravootnosheniy-teoretiko-metodologicheskiy-analiz>
11. Zokirov I.B. Fuqarolik huquqi: Darslik. I qism / Mas'ul muharrir: H.Rahmonqulov: Qayta ishlangan va to'ldirilgan beshinchi nashr. Tashkent, TDYI nashriyoti, 2009, p. 20.
12. Rahmonqulov H.R. Fuqarolik huquqi muammolari. Tashkent, TDYI, 2009, p. 13.
13. Fuqarolik huquqi. Darslik I-qism / O.Oqyulovning tahriri ostida. Tashkent, TDYU, 2017.
14. Topildiyev V.R. Tashkiliy munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solish: yurid. fan. dokt. ... dis. Toshkent, 2021. p. 26.
15. Baratov M.X. Fuqarolik munosabatlarida davlat ishtirokining nazariy va amaliy muammolari: yurid. fan. dokt. ... dis. Tashkent, 2008.
16. O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'RQ-682-son Qonuni // <https://lex.uz/docs/5378966>

17. Rustambekov I.R. Internet tarmog'ida fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solish: yurid. fan. dokt. ... dis. Tashkent, 2017, p. 26.
18. Slesarev A.V. Spetsialno-yuridicheskoye tolkovaniye norm grajdanskogo prava: avtoref. dis. ... kand. yurid. nauk. Moscow, 2003.
19. Mankovskiy I.A. Interpretatsiya norm grajdanskogo prava: voprosi prakticheskogo primeneniya // Vestnik Omskogo universiteta. Seriya «Pravo». 2014, no. 3 (40), p.74.
20. Sampaio J.S. An Almost Pure Theory of Legal Interpretation within Legal Science / In book: Legal Interpretation and Scientific Knowledge (pp.81-139) // <https://www.researchgate.net/publication/336906202>
21. Berisha B. and Berisha F. The Procedure of Interpretation of Legal Acts (November 24, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3492580>

UDC: 347(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-7511-8391

MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI ISHTIROKCHILARINING UMUMIY YIG'ILISHINI CHAQIRISH VA BU TOIFADAGI NIZOLARNI HAL QILISHNING AYRIM MASALALARI

Saidov Maqsudbek Norboyevich,
Toshkent shahar sudi raisi o'rinbosari,
Toshkent shahar sudining iqtisodiy
ishlar bo'yicha sudlov hay'ati raisi,
e-mail: mr.msaidov@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada korporativ boshqaruv tushunchasi, uning turlari, bir-biridan farqli jihatlari, jamiyat boshqaruvining oliy organi, umumiy yig'ilishida ulush egalarining ishtirok etishi orqali huquqlarini amalga oshirishi, ularning huquqiy kafolatlari, ishtirokchilarning huquqlarini amalga oshirish jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ayrim muammolar, zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatidan foydalangan holda umumiy yig'ilishni chaqirish bilan bog'liq jarayonlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali soddalashtirish yuzasidan takliflar, qonunda belgilangan hollarda o'tkazilishi lozim bo'lgan umumiy yig'ilishni o'tkazilmasligi holatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari, korporativ nizolar turkumiga kiruvchi ishtirokchilarning umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi nizolar bo'yicha sudga da'vo arizasining kiritilishida da'vo arizasi va unga ilova qilinadigan hujjatlarga qo'yilgan talablar, sudlar tomonidan mazkur toifadagi nizolarning hal etilishining ayrim nazariy va amaliy muammolari yoritilib, sudlar amaliyotidan misollar keltirish asosida protsessual va moddiy qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish zarurligi haqida fikr yuritiladi, shuningdek, ishtirokchilarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish tartiblari, bunday nizolar turkumiga kiruvchi ayrim nizolar mohiyati va bu nizolarni bartaraf qilishda ahamiyat qaratilishi lozim bo'lgan jihatlari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: korporativ nizolar, jamiyat kollegial organi, jamiyat ishtirokchilari, umumiy yig'ilish, umumiy yig'ilishni chaqirish, ta'sis hujjati, korporativ boshqaruv.

СОЗЫВ ОБЩЕГО СОБРАНИЯ УЧАСТНИКОВ ОБЩЕСТВА С ОГРАНИЧЕННОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ И НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ ДАННОЙ КАТЕГОРИИ

Саидов Максудбек Норбоевич,
заместитель председателя Ташкентского городского суда,
Председатель судебной коллегии по экономическим делам

Аннотация. В данной статье, освещая понятие корпоративного управления, его виды, различия, высший орган управления обществом, реализацию собственниками доли своих прав путем участия на общих собраниях, их правовые гарантии, некоторые проблемы возникающие при реализации участниками своих прав, предложения по упрощению процесса созыва общего собрания участников, осуществляющихся посредством использования возможностей современных информационных технологий, путем внесения соответствующих изменений и дополнений в нормативно-правовые акты, меры по устранению случаев невозможности проведения общего собрания, которое должно быть проведено в случаях, предусмотренных законом, требования к исковому заявлению и прилагаемым к нему документам при подаче его в суд по спорам о созыве общего собрания участников, входящих в категорию корпоративных споров, некоторые теоретические и практические проблемы разрешения судами данных категорий дел, идет речь о внесении изменений, на основе примеров из судебной практики, в процессуальное и материальное законодательство, а также раскрыт порядок созыва внеочередного общего собрания, сущность некоторых споров, входящих в данную категорию дел, и аспекты, которые необходимо учитывать при устранении данных споров.

Ключевые слова: корпоративные споры, коллегиальный орган общества, участники общества, общее собрание, созыв общего собрания, учредительный документ, корпоративное управление.

CONVOCATION OF THE GENERAL MEETING OF THE COMPANY WITH LIMITED LIABILITY AND SOME ISSUES OF DISPUTE RESOLUTION OF THIS CATEGORY

Saidov Maksudbek Norboevich,

Deputy chairman of Tashkent city court,
Chairman of the judicial board for economic affairs

Abstract. The article highlights some theoretical and practical issues of resolving disputes on the convocation of a general meeting of participants from the category of corporate disputes, considers the need to amend the procedural and substantive legislation on the basis of examples from judicial practice, as well as the procedure for convening an extraordinary general meeting, reveals the nature of some disputes and aspects that need to be taken into account when eliminating.

Keywords: corporate disputes, collegial body of the company, members of the company, general meeting, convocation of a general meeting, constituent document, corporate governance.

Ma'lumki, tadbirkorlik subyektlari kollegial yoki yakkaboshchilik asosida boshqariladi. Bu ularning tashkiliy-huquqiy tuzilishiga bevosita bog'liq bo'lib, xususiy firma, xususiy korxona, dehqon va fermer xo'jaliklari hamda bir shaxs tomonidan tashkil etiladigan mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlarda boshqaruv jamiyatning yagona ta'sischisi tomonidan amalga oshirilsa, ikki yoki undan ortiq ishtirokchi tomonidan tashkil etiladigan mas'uliyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar, ya'ni korporatsiyalar kollegial organ orqali boshqariladi.

Bitta shaxs tomonidan qarorning qabul qilinishi jarayoni nisbatan sodda bo'lib, qaror qabul qilinishida alohida tartib qoidalar, kelishuvlar va boshqa mexanizmlarni taqozo qilmaydi. Ammo boshqaruv sohasida muayyan qarorning qabul qilinishi, ikki va undan ortiq shaxsga bog'liq bo'lib qolganda-chi? "har bir ishtirokchi korporatsiya (shirkat va jamiyat) faoliyatini boshqarishda ishtirok etish huquqiga ega" [1]. Albatta, bunda ushbu shaxslarning manfaatdorligi, dunyoqarashi va fikrlarining xilma-xilligi nuqtayi nazaridan qaraganda bir to'xtamga kelishda kelishmovchiliklar vujudga kelishi tabiiy hol. Tahlillar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, ishtirokchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklar keyinchalik jamiyatning faoliyatiga jiddiy ta'sir ko'rsatib, ayrim hollarda jamiyatning to'lovga qobiliyatsizlik holatiga kelib qolishiga ham sabab bo'lmoqda. Bunday kelishmovchiliklarni hal etish va oldini olishning birdan-bir yo'li, korporatsiyalar ishtirokchilarining huquq va

manfaatlarini amalga oshirish, himoya qilish va ta'minlashning moddiy va protsessual huquqiy asoslarini mustahkamlashni talab qiladi.

Korporativ huquqning maqsadi – muayyan shaxslarning mustaqil manfaatlarini emas, balki bir nechta shaxslarning umumiy manfaatlarini himoya qilish va ta'minlashga qaratilgan bo'ladi [2, 36-b].

Demak, korporativ huquqiy munosabatlar bu – nafaqat korporatsiyaning alohida ishtirokchisining huquq va manfaatlari, balki bu ishtirokchilarning korporatsiyani tashkil etish, boshqarish, bu faoliyat natijasida foyda olishga qaratilgan umumiy huquq va manfaatlaridan kelib chiqadi [3].

Jamiyat yoki korporatsiyani boshqarishda ishtirok etish, ishtirokchining nomulkiy huquqi hisoblanib, uning bu huquqlari amaldagi qonunchilik normalarida mustahkamlab qo'yilganligi bilan bir qatorda, jamiyat ta'sis hujjatlari yoki umumiy yig'ilish qarori bilan qabul qilingan boshqa ichki lokal normativ hujjatlar bilan ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Korporatsiya ishtirokchilarining huquq va majburiyatlari normativ-huquqiy hujjatlar hamda korporatsiyaning ta'sis hujjatlari va lokal hujjatlari bilan belgilanadi [4].

"Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (matnda qonun deb yuritiladi)ning 29-moddasida jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi jamiyat

boshqaruvining oliy organi hisoblanadi [5], deb belgilangan bo'lsa, qonunning 8-moddasida jamiyat ishtirokchilari ushbu qonunda va jamiyatning ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning ishlarini boshqarishda ishtirok etishga haqli ekanligi mustahkamlab qo'yilgan.

Nomulkiy huquqlar ishtirokchining korporatsiyada nomulkiy ishtiroki vositasi hisoblanadi. Ishtirokchilarning nomulkiy huquqlari mulkiy huquqlariga nisbatan bir qadar ikkinchi darajali deb qaraladi. Aksincha, ishtirokchining nomulkiy huquqlarini yetarlicha baholamaslik noto'g'ri bo'lardi. Chunki, bu huquqlar o'z mohiyatiga ko'ra ishtirokchining korporatsiya faoliyatida nomulkiy ishtiroki bo'lsa-da, asosan, uning mulkiy huquqlarini amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qiladi [6, 363-b].

D.N. Severin fikricha, korporativ nizo – bu tadbirkorlik va boshqa (iqtisodiy) faoliyat bilan bog'liq, korporatsiya ishlarini boshqarish va yuritishda yoki uning kapitalida ishtirok etish korporatsiya ishtirokchilari, korporatsiya va uning ishtirokchilari, organlari (organlari a'zolari) va korporatsiya ishtirokchiligiga talabgor yoki talabgor bo'lmagan, lekin ulushga bo'lgan huquqlari orqali korporatsiyaga talab qo'yishga haqli boshqa shaxslar o'rtasidagi nizo hisoblanadi [7, 13-b].

Bugungi kunda qonunchilikda korporatsiyalarning ichki huquqiy munosabatlari, korporativ boshqaruv va korporativ munosabatlar sohasi yetarlicha o'rganish va tartibga solishni talab qiladigan sohalaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu sohada qonunchilikda bo'shliqlar mavjudligi va qonunni tatbiq qilish amaliyoti yetarlicha shakllanmaganligi sababli sud amaliyotida mazkur toifadagi nizolarni hal etish bilan bog'liq murakkab va mu-nozarali masalalarni yuzaga keltirmoqda.

Qonunda ishtirokchilarga o'zining jamiyatni boshqarish huquqidan to'laqonli foydalanish imkonini yaratish maqsadida umumiy yig'ilishni chaqirishning tartib-taomillari belgilab qo'yilgan. Biroq, amaliyotda obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra uni chaqirishning belgilangan tartiblari-ni va ishtirokchilarning qonuniy huquq va manfaatlari buzilish hollari kuzatiladi.

Mazkur maqolada qonunchilikdagi bu sohada-gi amaldagi huquqiy normalar tahlil qilinib, qonunni sud amaliyotida tatbiq qilish va odil sudlovni ta'minlash maqsadida qonunchilikka takliflar ishlab chiqish nazarda tutilgan.

“Mulkdor huquqlarini, shu jumladan, korporativ boshqaruv jarayonida ularning qonuniy manfaatlari kafolatlanishida sudlarning o'rni benihoya yuqori” [8, 22-b].

Zero, sud qarorlari bosh qomusimiz – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 112 va 114-moddalariga asosan yakuniy va qat'iy bo'lib, u majburiy kuchga egadir. Bu normalarda belgilanganidek, sud hokimiyati tomonidan qabul qilingan va chiqarilgan hujjatlar qat'iy va O'zbekiston Respublikasining barcha hududida bajarilishi hamda barcha davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun majburiydir [9].

Ishtirokchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish esa qabul qilinadigan sud qarorlarining qonuniy va asosligini belgilaydi.

Qonunchilik va sud amaliyotida shunday o'rganish va takomillashtirish talab qiladigan masalalardan biri – ishtirokchilarning umumiy yig'ilishini chaqirish bilan bog'liq nizolar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi (bundan buyon matnda IPK deb yuritiladi) 30-moddasi birinchi qismining 6-bandida yuridik shaxs ishtirokchilarining umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi nizolar [10] keltirilgan bo'lib, mazkur norma aynan ushbu jarayondagi nizolar vujudga kelganda ishtirokchi yoki huquqi buzilgan tarafning sudga murojaat qilish huquqini va uning sud tomonidan huquqiy himoyasini ta'minlashni belgilaydi.

Bunday murojaat da'vo arizasi shaklida rasmiylashtiriladi va IPKning 149-moddasida nazarda tutilgan talablarga muvofiq bo'lishi kerak [11, 29-b].

Ushbu moddaga ko'ra da'vo arizasi sudga yozma shaklda beriladi. U da'vogar yoki uning vakili tomonidan imzolanadi.

Umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi da'vo arizasida quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- 1) da'vo arizasi berilayotgan sudning nomi;
- 2) ishda ishtirok etuvchi shaxslarning nomi (famiyasi, ismi va otasining ismi), joylashgan yeri (pochta manzili) yoki yashash joyi;
- 3) da'vo talablariga asos bo'lgan holatlar;
- 4) da'vo talablarining asoslarini tasdiqlovchi dalillar;
- 5) ilova qilinayotgan hujjatlarning ro'yxati.

Da'vo arizasida da'vogarning yoki uning vakilining telefonlari, fakslari raqamlari, elektron manzili ko'rsatilishi mumkin. Bunday ma'lumotlarning ko'rsatilishi ishni sud muhokamasiga tayyorlash uchun qulayliklar yaratish bilan bir qatorda, ishda ishtirok etuvchi shaxslarning ogohlantirilmaganligi sababli ishni ko'rishni keyinga qoldirilishining oldini oladi, shuningdek, nizolarni belgilangan muddatlarda hal etilishiga yordam beradi.

Alohida sudlovga tegishlilik qoidasi bo'yicha bunday da'volar yuridik shaxs joylashgan yerdagi sudga taqdim etiladi.

Qoida tariqasida jamiyatning joylashgan manzili uning davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyiga qarab belgilanadi. Ammo, jamiyatning ta'sis hujjatlarida uning boshqaruv organlari doimiy joylashgan yer yoki uning asosiy faoliyati yuritiladigan joy jamiyatning joylashgan manzili deb belgilanishi mumkin. Shu sababli, boshqa korporativ nizolar singari ushbu toifadagi nizolar bo'yicha da'vo arizasiga IPKning 151-moddasida nazarda tutilgan hujjatlardan tashqari, yuridik shaxsning davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini tasdiqlovchi va uning joylashgan yeri (pochta manzili) to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjat ilova qilinadi. Statistika organlaridan olingan rasmiy ma'lumotlar yoki yuridik shaxsning ta'sis hujjatlari jamiyatning joylashgan manzilini tasdiqlovchi dalil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Shuningdek, umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi da'volar nomulkiy xususiyatga ega bo'lganligi sababli "Davlat boji to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga ilova sifatida tasdiqlangan Davlat boji stavkalari miqdorlari ikkinchi qismining b) bandiga muvofiq bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravari miqdorda davlat boji va bazaviy hisoblash miqdorining o'ndan bir qismi miqdorida pochta xarajati to'lanishi kerak [12].

O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi "Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to'g'risida" 2014-yil 20-iyundagi 262-sonli qarorining 17-bandida berilgan tushuntirishga muvofiq, bunday da'volar bo'yicha javobgar bo'lib ushbu boshqaruv organlari emas, balki jamiyatning o'zi hisoblanadi [13].

Amaldagi qonunchilikda umumiy yig'ilishni chaqirish va o'tkazish tartibi ishtirokchining jamiyat ishlarini boshqarishda ishtirok etish huquqini amalga oshirish vositasi sifatida qonun-

da, jamiyat ustavida va uning ichki hujjatlarida belgilab qo'yilgan.

Qonunda ishtirokchilar umumiy yig'ilishining ikki xil: navbatdagi va navbatdan tashqari turlari belgilangan bo'lib, yig'ilishni chaqirish tartibi, muddatlari, davriyligi qonunda yoki jamiyat ustavida belgilab qo'yiladi.

Qonunning 31-moddasiga asosan jamiyat ishtirokchilarining navbatdagi umumiy yig'ilishi jamiyatning ustavida belgilangan muddatlarda, lekin yiliga kamida bir marta o'tkaziladi. Jamiyat ishtirokchilarining navbatdagi umumiy yig'ilishi jamiyatning ijro etuvchi organi tomonidan chaqiriladi [14].

Navbatdan tashqari umumiy yig'ilish esa qonunning 32-moddasiga ko'ra, jamiyatning ustavida belgilangan hollarda, shuningdek, agar bunday umumiy yig'ilishni o'tkazishni jamiyatning va uning ishtirokchilarining manfaatlari taqozo etsa, boshqa hollarda ham o'tkaziladi.

Jamiyat ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi jamiyatning ijro etuvchi organi tomonidan:

jamiyat ishtirokchilari umumiy ovozlar sonining jami kamida o'ndan biriga ega bo'lgan jamiyat ishtirokchilarining;

jamiyat kuzatuv kengashining;

jamiyat taftish komissiyasining (taftishchisining) talabiga binoan chaqiriladi.

Jamiyat ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi zarur hollarda jamiyatning ijro etuvchi organi tomonidan uning tashabbusiga binoan chaqirilishi mumkin [15].

Umumiy yig'ilishni chaqirishning belgilangan tartibiga rioya qilmaslik, yig'ilish yakuni bo'yicha chiqariladigan qarorni manfaatdor shaxsning da'vosi bo'yicha sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishiga asos bo'lishini inobatga olgan holda umumiy yig'ilishni chaqirish va o'tkazish jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan jihatlarni ikkita muhim turkumga ajratib ko'rsatishimiz mumkin.

Bular:

I. Umumiy yig'ilishni chaqirishdagi tartib-taomillar;

II. Ishtirokchilarning qonuniy huquqlarini amalga oshirish bilan bog'liq qoidalar.

Birinchi turkum qoidalarga quyidagilar kiradi:

1) Umumiy yig'ilishni o'tkazishdan kamida o'ttiz kun oldin bu haqda jamiyatning har bir ishtirokchisini jamiyat ishtirokchilarining ro'y-

xatida ko'rsatilgan manzil bo'yicha buyurtma xat bilan yoki jamiyatning ustavida nazarda tutilgan boshqa usulda xabardor qilish;

2) Xabarnomada jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan vaqt va joy, shuningdek, taklif qilinayotgan kun tartibini ko'rsatish;

3) Ishtirokchilarning umumiy yig'ilishining dastlabki kun tartibiga jamiyat ishtirokchilarining taklifiga binoan o'zgartishlar kiritiladigan bo'lsa, umumiy yig'ilishni chaqiruvchi organ yoki shaxslar umumiy yig'ilish o'tkaziladigan kundan kamida o'n kun oldin kun tartibiga kiritilgan o'zgartishlar haqida jamiyatning barcha ishtirokchilarini qonunda yoki jamiyat ustavida belgilangan tartibda xabardor qilish;

4) Jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish chog'ida jamiyat ishtirokchilariga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot va materiallar bilan tanishtirish.

Ikkinchi turkum qoidalarga quyidagilar kiradi:

1) Ishtirokchilarning umumiy yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar va ular yuzasidan umumiy yig'ilish muhokamasiga taqdim etilayotgan hujjatlar bilan tanishish, axborot olish huquqi (Qonunning 32-moddasi);

2) Ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga qo'shimcha masalalarni kiritishni taklif qilish huquqi (Qonunning 33-moddasi).

3) Ishtirokchilarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni chaqirishni talab qilish huquqi (Qonunning 32-moddasi);

Ishtirokchining ishtirokchilarning umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritilgan masalalar va ular yuzasidan umumiy yig'ilish muhokamasiga taqdim etilayotgan hujjatlar bilan tanishish, axborot olish huquqining buzilishi, o'z navbatida, ishtirokchining qonun 8-moddasi birinchi qismida belgilangan qonunchilikda va jamiyat ta'sis hujjatlarida belgilangan tartibda jamiyatning faoliyati to'g'risida axborot olish [16] huquqining ham buzilishiga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ishtirokchilarning umumiy yig'ilishini chaqirish bilan bog'liq nizolarni umumiy yig'ilishni chaqirish tartib-taomillarining buzilishi va ishtirokchilarning umumiy yig'ilishni chaqirish jarayonidagi qonunda belgilangan huquqlarining buzilishi sohasidagi nizolar ko'rinishida yuzaga keladi, deb xulosa qilishimiz mumkin.

Sud amaliyotida umumiy yig'ilishni chaqirish bilan bog'liq nizolar ko'p emas. Masalan, 2021-yilning 11 oyi mobaynida Toshkent shahar sudlarida ko'rilgan jami 74 ta korporativ nizolarning birortasi umumiy yig'ilishni chaqirish bilan bog'liq nizo emas [17]. Bu ko'rsatkich muqaddam xo'jalik sudlari tomonidan 2014-2015-yillar, shuningdek, 2016-yilning birinchi yarmi mobaynida korporativ munosabatlardan kelib chiqqan nizolarni ko'rish bilan bog'liq sud amaliyotini umumlashtirish natijalari bo'yicha 642 ta xo'jalik ishi tahlil qilinganda, MChJ ishtirokchilari umumiy yig'ilishini chaqirish majburiyatini yuklash – 4 tani tashkil qilgan [18].

Bu boradagi kelishmovchiliklar aksariyat hollarda ishtirokchilarning huquqlarini amalga oshirilishiga to'sqinlik qilinganligi, ya'ni umumiy yig'ilishni chaqirish tartib-taomillariga rioya qilinmasligi yoki mazkur taomillarni belgilangan tartibda qonunchilikka muvofiq ravishda amalga oshirilmaligi natijasida ishtirokchilarning qonuniy huquq va manfaatlarining buzilishi oqibatida kelib chiqayotganligi kuzatilmoqda.

Qorako'l tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rilgan korporativ nizoni bunga misol sifatida keltirishimiz mumkin. Ushbu iqtisodiy ishda da'vogar "Projekt Montage Engineering" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi Husenova Hilola Muxiddinovna (matnda da'vogar deb yuritiladi) javobgarlar "Projekt Montage Engineering" mas'uliyati cheklangan jamiyati (matnda jamiyat deb yuritiladi) hamda "Projekt Montage Engineering" mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischisi Sadikova Susanna Shavqiyevna (matnda ikkinchi ta'sischi) ganisbatansudgada'vo arizasibilan murojaat qilib, javobgarlarga nisbatan 2015–2019-yillar uchun yillik natijalarini tasdiqlash maqsadida, jamiyat ta'sischilarining navbatdagi umumiy yig'ilishini chaqirish hamda buxgalteriya hujjatlarini taqdim qilgan holda jamiyat moliyaviy hisobotlari to'g'riligini, buxgalteriya hisobini yuritish tartibining belgilangan talablarga muvofiqqligini, sof foyda miqdorini aniqlash uchun auditorlik tekshiruv o'tkazish majburiyatini yuklashni so'ragan.

Da'vo arizasida bayon etilishicha, jamiyatning ikkinchi ta'sischisi va direktori o'zaro til birlashtirib, jamiyat faoliyatiga oid hujjatlarni unga bermasdan, jamiyatda ishlamaydigan xodimlarga oylik ish haqlari yozib olishgan, xizmat safarlari maqsadida pul mablag'larini o'zlashtirgan, dividendlarni taqsimlanmagan va jamiyatga zarar keltirgan.

Ushbu holatlarga aniqlik kiritish maqsadida da'vogar jamiyatga 2020-yil 26-martda xabar-noma bilan murojaat qilgan va 2020-yil 27-aprel kuni soat 10:00 da Buxoro viloyat tadbirkorlikka ko'maklashish markazi Buxoro shahar bo'limi binosida MChJning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirgan. Jamiyat ikkinchi ta'sischi tomonidan da'vogarni ta'sischi safidan sud tartibida chiqarish to'g'risida da'vo arizasi kiritilganligini, ushbu masala sudga ko'rib chiqilgunga qadar umumiy yig'ilish chaqirish masalasi ko'rib chiqilmasligini ma'lum qilgan.

Da'vogarning umumiy yig'ilishni chaqirish to'g'risidagi taklifi jamiyat tomonidan rad etilganligi, mazkur nizoning kelib chiqishiga va sudga ko'rilishiga sabab bo'lgan [19].

"Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 32-moddasiga ko'ra jamiyat ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazishni rad etish to'g'risidagi qaror jamiyatning ijro etuvchi organi tomonidan faqat quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin:

agar jamiyat ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabni taqdim etishning ushbu qonunda belgilangan tartibiga rioya etilgan bo'lmasa;

agar jamiyat ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining kun tartibiga kiritish uchun taklif qilingan masalalardan birortasi ham uning vakolatlari jumlasiga kirmasa.

Mazkur holatda MChJ tomonidan da'vogarning umumiy yig'ilish chaqirish to'g'risidagi talabini rad etish asoslari qonun hujjatida mavjud emasligi, IPK 30-moddasi birinchi qismining 7-bandiga ko'ra yuridik shaxs ishtirokchilarining umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi nizolar korporativ nizolar bo'yicha ishlar jumlasiga kirishi, da'vogar MChJga 2017-yil 18-iyulda ta'sischi bo'lib kirganligini inobatga olib, da'vogarning MChJga nisbatan 2017–2019-yillar uchun yillik natijalarini tasdiqlash maqsadida MChJ ta'sischi tomonidan navbatdagi umumiy yig'ilishini chaqirish majburiyatini yuklash talabini qanoatlantirishni lozim deb topgan.

Vaholanki, qonun 32-moddasining o'n birinchi qismiga ko'ra, agar ushbu qonunda belgilangan muddat ichida jamiyat ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki uni

o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa, jamiyat ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi uni o'tkazishni talab qilayotgan organlar yoki shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin. Bunday holda jamiyatning ijro etuvchi organi mazkur organlar yoki shaxslarga jamiyat ishtirokchilarining manzillari ko'rsatilgan ro'yxatni taqdim etishi shart. Umumiy yig'ilishga tayyorgarlik ko'rish, uni chaqirish va o'tkazish xarajatlari jamiyat ishtirokchilari umumiy yig'ilishining qaroriga binoan jamiyatning mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin. Mazkur holatda huquqni himoya qilish vositasi sifatida sudga da'vo kiritish huquqi nazarda tutilmagan.

Qonunda bunday hollarda navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni uni o'tkazishni talab qilayotgan organlar yoki shaxslarning o'zlari tomonidan chaqirilishi nazarda tutilgan bo'lib, ishtirokchi yoki jamiyat organiga navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni mustaqil chaqirish huquqini berish orqali ularning huquqiy himoyasi ta'minlangan.

Demak, mazkur organlar yoki shaxslar tomonidan jamiyatga nisbatan navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni o'tkazish majburiyatini yuklash to'g'risida da'vo bilan murojaat qilingan hollarda, ularning bu talabi navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni o'tkazish huquqi qonun hujjatlari bilan o'zlariga berilganligi hamda qonunchilikda bu nizoni sud tartibida hal qilish nazarda tutilmaganligi sababli, sud tomonidan qanoatlantirilishi rad etilishi lozimligi masalasini o'ylab ko'rish lozim.

Rossiya Federatsiyasi sudlari amaliyotida ham mas'uliyati cheklangan jamiyati ishtirokchilarining umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qilinganda, da'vo talabini qanoatlantirishni rad etish amaliyoti shakllangan. Chunki, Rossiya Federatsiyasi Arbitraj protsessual Kodeksining 225.7-moddasida yuridik shaxsga ishtirokchilarning umumiy yig'ilishini chaqirish majburiyatini yuklash to'g'risidagi normada aksiyadorlik jamiyatlari nazarda tutilgan [20], ya'ni bu mexanizm faqat aksiyadorlik jamiyatlarga tatbiq etilgan [21].

Binobarin, misol tariqasida Rossiya Federatsiyasi tajribasidan quyidagilarni keltirish mumkin.

"Jamiyat ishtirokchisi fuqaro B. tomonidan jamiyatga nisbatan navbatdan tashqari umumiy yig'ilish o'tkazish majburiyatini yuklash haqida da'vo arizasi bilan sudga murojaat qilingan.

"Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"-gi Federal qonun bilan jamiyat ishtirokchilariga

jamiyatga nisbatan navbatdan tashqari umumiy yig'ilishni chaqirish majburiyatini yuklash to'g'risidagi talab bilan sudga murojaat qilish huquqi nazarda tutilmaganligi hamda mazkur qonunning 35-moddasiga asosan bunday ishtirokchining huquqini himoya qilishning boshqa usuli belgilanganligi, ya'ni agar jamiyat organi tomonidan qonun bilan belgilangan muddatda ishtirokchilarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish haqida qaror qabul qilinmagan yoki chaqirishni rad etilgan hollarda, ishtirokchilarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi uni chaqirishni talab qilayotgan organ yoki shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkinligi belgilanganligiga asosan ishtirokchining bu talabini qanoatlantirish sud tomonidan rad qilingan (№ A11-8983G'16-sonli ish) [22].

Bundan tashqari Rossiya qonunchiligida Rossiya Federatsiyasining "Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar to'g'risida"gi Federal qonuni [23] da belgilangan muddatlarda umumiy yig'ilish chaqirilmagan hollarda Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi Kodeksining 15.23.1-moddasida belgilangan tartibda umumiy yig'ilishni o'tkazishga mas'ul shaxslar ma'muriy javobgarlikka tortish belgilangan [24].

Bu umumiy yig'ilishni chaqirish tartibiga rioya etilishini huquqiy tartibga solishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur mavzuni tatbiq qilish jarayonida amaldagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va sud amaliyotida qonunchilikni bir xilda qo'llash yuzasidan quyidagi xulosa va takliflar taqdim etish joiz topildi.

1-Taklif. Bugungi kunda jamiyat hayotiga ilmfan va texnologiya yutuqlari keng joriy qilinayotganligi, elektron shaklda ish yuritish asoslari rivojlanayotganligisababli va amaliyotda ishtirokchilarni umumiy yig'ilish haqida xabardor qilish jarayonida yuzaga kelayotgan noqulayliklarni bartaraf qilish va bu borada ishtirokchilar huquqini ta'minlashda qulaylik yaratish, shuningdek, bu borada yuzaga keladigan nizolarni hal qilishning huquqiy asoslarini yaratish maqsadida qonunning umumiy yig'ilishni chaqirishda ishtirokchilarni xabardor qilish haqidagi normaga shu bilan bog'liq tegishli o'zgartirishlar kiritishni talab qiladi. Shu bois, ishtirokchilarni umumiy yig'ilish haqida xabardor qilish usullari sirasiga SMS xabar yoki elektron pochtdan foydalanishni nazarda tutish bilan bog'liq qoidalarni joriy etish maqsadga muvofiq.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, umumiy yig'ilish haqida ishtirokchilarni xabardor qilish yuzasidan qonunga yangi "33¹-modda. Tegishli tarzda xabardor qilish" normasi kiritilishi taklif qilinadi.

33¹-modda. Tegishli tarzda xabardor qilish

Agar jamiyat ishtirokchisi umumiy yig'ilish o'tkazishning vaqti va joyi haqida ushbu qonunda nazarda tutilgan usullardan biri orqali xabardor qilingan bo'lsa, ushbu ishtirokchi tegishli tarzda xabardor qilingan deb hisoblanadi.

Jamiyat ishtirokchisi quyidagi hollarda ham jamiyat tomonidan jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan vaqt va joy haqida tegishli tarzda xabardor qilingan deb hisoblanadi, agar:

xabarnoma yo'llangan ishtirokchi xabarnomani olishni rad etgan va ushbu rad etish qayd etilgan bo'lsa;

jamiyat tomonidan ishtirokchi yuridik shaxsning jamiyatga ma'lum bo'lgan oxirgi joylashgan yeri (pochta manzili), fuqaroning yashash joyi bo'yicha yuborilgan xabarnomani oluvchi ko'rsatilgan manzilda yo'qligi sababli topshirilmagan va bu haqda aloqa muassasasi jamiyatni xabardor qilgan bo'lsa;

xabarnoma jamiyat tomonidan elektron pochta orqali yoki xabardor qilinganlik faktini tasdiqlovchi boshqa aloqa vositalaridan foydalangan holda, shu jumladan, SMS-xabar yuborilgan kundan e'tiboran uch kun o'tgan bo'lsa.

2-Taklif. Qonun 33-moddasining birinchi qismida "Jamiyat ishtirokchilarining umumiy yig'ilishini chaqiruvchi organ yoki shaxslar uni o'tkazishdan kamida o'ttiz kun oldin bu haqda jamiyatning har bir ishtirokchisini jamiyat ishtirokchilarining ro'yxatida ko'rsatilgan manzil bo'yicha buyurtma xat bilan yoki jamiyatning ustavida nazarda tutilgan boshqa usulda xabardor qilishi shart" deb belgilangan.

Biroq amaldagi qonunchilikda ro'yxatni kim tomonidan tuzilishi, undagi axborotlarning haqqoniyligi uchun javobgarlik kimning zimmasida ekanligi va kim tomonidan nazorat qilinishi, bu ma'lumotlarni taqdim etish kimning zimmasida ekanligi tartibga solinmagan. Bu esa sudlar faoliyatida ishtirokchilarning huquqini tiklash sohasida bir qancha ziddiyatlarni keltirib chiqaradi.

Bu kabi holatlarga qonuniy yechim topish va huquqiy normalarni takomillashtirish maqsadida qonunga quyidagi yangi normani 32¹-modda sifatida kiritish taklif qilinadi.

32¹-modda. Jamiyat ishtirokchilarining ro'yxati

Jamiyat ishtirokchilarining ro'yxati jamiyat ishtirokchilarining belgilangan sanadagi holatga ko'ra shakllantirilgan, ularga tegishli ulushlar miqdori, qiymati, shuningdek, ishtirokchilarga axborotni yuborish imkoniyatini beradigan ma'lumotlar, ya'ni yuridik shaxsning joylashgan yeri (pochta manzili), fuqaroning yashash joyi, ishtirokchilarning o'z nomiga ro'yxatdan o'tkazilgan aloqa vositalari: telefon, mobil telefon, elektron pochta manzili ko'rsatilgan ro'yxatidir.

Jamiyat ishtirokchilarining ro'yxatini shakllantirish jamiyat ijro organi tomonidan amalga oshiriladi. Ishtirokchilarning umumiy yig'ilishda ishtirok etishi, dividendlar olishi va jamiyat tomonidan korporativ harakatlar bajarilganda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirishi jamiyat ishtirokchilarning ro'yxati asosida amalga oshiriladi.

Jamiyat ishtirokchilarining ro'yxatida jamiyatning har bir ishtirokchisi haqidagi, uning jamiyat ustav fondidagi ulushi miqdori, ulush qanday shaklda kiritilganligi (mol-mulk, pul mablag'lari yoki intellektual mulk) to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek, qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Jamiyat ijroiya organi ishtirokchilarning ro'yxatini shakllantirishini ta'minlashi va shakllantirilgan ro'yxatni saqlashi shart.

Ishtirokchi o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida jamiyat ijro organiga o'z vaqtida xabardor qilishi shart. Ishtirokchi o'ziga oid ma'lumotlar o'zgarganligi haqidagi axborotni taqdim etmagan hollarda, jamiyat (jamiyat ijro organi) buning oqibatida ishtirokchiga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi. Shuningdek, bu borada ishtirokchilarning ham mas'uliyatini oshirishni nazarda tutib, *qonunning 9-moddasining birinchi qismi yangi uchinchi-to'rtinchi xatboshilar bilan to'ldirilishi lozim.*

9-modda. Jamiyat ishtirokchilarining majburiyatlari

Jamiyat ishtirokchilari:

ushbu qonunda va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda, miqdorda, usullarda va muddatlarda hissa qo'shishlari;

jamiyat faoliyati to'g'risidagi sir tutilgan axborotni oshkor qilmasliklari;

o'ziga oid ma'lumotlardagi o'zgarishlar haqida jamiyat ijro organini o'z vaqtida xabardor qilishlari;

huquqlarini suiiste'mol qilmasliklari shart.

Jamiyat ishtirokchilarining qonunchilikda va jamiyatning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlari ham bo'lishi mumkin.

3-Taklif. Milliy qonunchilikka qonunda va jamiyat Ustavida belgilangan muddatlarda umumiy yig'ilish chaqirilmagan hollarda umumiy yig'ilishni o'tkazishga mas'ul shaxslarning javobgarligi to'g'risidagi qoidalarni kiritish lozim deb hisoblaymiz. Bu keyingi paytlarda amaliyotda jamiyatning umumiy yig'ilishini o'tkazish masalalarida uchrayotgan qonunbuzilishlar, jamiyat yillik hisobotlari, dividendlariga bog'liq masalalarni o'z vaqtida hal qilinmasligi kabi holatlarni bartaraf qilishga, jamiyat mas'ul shaxslari va organlarining mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi.

4-Taklif. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi "Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to'g'risida" 2014-yil 20-iyundagi 262-sonli qarori quyidagi mazmundagi 16.1-band bilan to'ldirish:

"Mas'uliyati cheklangan hamda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 32-moddasi birinchi qismining o'n oltinchi xatboshisiga ko'ra, "agar ushbu qonunda belgilangan muddat ichida jamiyat ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinmagan yoki uni o'tkazishni rad etish to'g'risida qaror qabul qilingan bo'lsa, jamiyat ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi uni o'tkazishni talab qilayotgan organlar yoki shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin", deb belgilangan.

Shu munosabat bilan e'tiborga olish kerakki, jamiyat ishtirokchisi yoki yuridik shaxs organi (tuzilma – ya'ni jamiyat kuzatuv kengashi, jamiyat taftish komissiyasi (taftishchisi) tomonidan jamiyatga nisbatan berilgan jamiyat ishtirokchilarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish majburiyatini yuklash haqidagi talab bilan sudga murojaat qilinganda, bunday talabni qanoatlantirish rad etiladi.

Mazkur takliflarning moddiy va protsessual qonunchiligimizga kiritilishi ishtirokchilarning umumiy yig'ilishini chaqirish yuzasidan kelib chiqadigan nizolarning oldini olishga, bunday nizolarning hal etilishini qonuniy asoslarining yaratilishiga, sudlar tomonidan malakali ko'rib chiqilishini ta'minlanishida muhim ahamiyat kasb

etadi va natijada fuqarolarning mulkdor sifatida huquq va qonuniy manfaatlarini sud orqali himoya qilinishi mexanizmlarini takomillashtirishiga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. H.R.Rahmonqulov, S.S.Gulyamov. Korporativ huquq. Toshkent, TDYI, 2007.
2. M.N.Saidov. Korporativ nizolar: tushunchasi, turlari va ularni sudda ko'rishning o'ziga xos jihatlari. Toshkent, 2019.
3. D.U.Eshimbetova. Korporativ huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan nizolarning iqtisodiy sudlarga taalluqliligi masalalari. 5A240121 – "Sud faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha)" mutaxassisligi bo'yicha magistr darajasini olish uchun yozilgan. Toshkent, 2020.
4. D.V.Lomakin. Korporativnie pravootnosheniya kak sostavnaya chast sistemi grajdansko-pravovix otnosheniy: na primere xozyaystvennix obshestv. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni doktora yuridicheskix nauk. Moscow, 2009, p. 363.
5. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi 310-II-son Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/22525>.
6. D.V.Lomakin. Korporativnie pravootnosheniya kak sostavnaya chast sistemi grajdansko-pravovix otnosheniy: na primere xozyaystvennix obshestv. Avtoreferat dissertatsii na soiskanie uchenoy stepeni doktora yuridicheskix nauk. Moscow, 2009, p. 363.
7. D.N. Severin D.N. Rassmotrenie sudami sporov, vitekayushix iz usloviy uchreditelstva xozyaystvennix obshestv (korporativnie spori). Avtoreferat dissertatsii na sosikanie uchenoy stepeni kandidata yuridicheskix nauk. Minsk, 2014. <http://dep.nlb.by/jspui/handle/nlb/45667>
8. M. N. Saidov. Korporativ nizolar bo'yicha sudga taalluqlilikning ayrim masalalari. Odil sudlov. № 6/2020.
9. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi <https://lex.uz/acts/20596>.
10. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi, <https://lex.uz/docs/3523891>.
11. M. N. Saidov. Korporativ nizolar sud muhokamasida. Odillik mezoni. № 5/2020.
12. O'zbekiston Respublikasining "Davlat boji to'g'risida"gi 2020-yil 6-yanvardagi O'RQ-600-son Qonuni. <https://lex.uz/docs/4680944>.
13. O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi Plenumi "Iqtisodiy sudlar tomonidan korporativ nizolarni hal etishning ayrim masalalari to'g'risida" 2014-yil 20 iyunda 262-sonli qarori.
14. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi 310-II-son Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/22525>.
15. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi 310-II-son Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/22525>.
16. O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 6-dekabrda "Mas'uliyati cheklangan va qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatlar to'g'risida"gi 310-II-son Qonuni. <https://www.lex.uz/acts/22525>.
17. Toshkent shahar sudining 2021-yil 11 oylik statistik ma'lumotnomasi.
18. Xo'jalik sudlari tomonidan 2014–2015-yillar, shuningdek, 2016-yilning birinchi yarmi mobaynida korporativ munosabatlardan kelib chiqqan nizolarni ko'rish bilan bog'liq sud amaliyotini umumlashtirish natijalari bo'yicha ma'lumotnoma.
19. Buxoro viloyati Qorako'l tumanlararo iqtisodiy sudining 4-2004-2001/142-sonli ishi 2020-yil 15-iyunda gi hal qiluv qarori.
20. "Arbitrajniy protsessualniy kodeks Rossiyskoy Federatsii" ot 24.07.2002 N 95-FZ (red. ot 01.07.2021, s izm. ot 22.07.2021). http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_37800/.
21. D. Ibragimova. Rassmotrenie del o ponujdenii korporatsii sozvat obshee sobranie uchastnikov. Noviy yuridicheskiy vestnik. Mejdunarodniy nauchniy jurnal. № 4 (11)/2019.
22. Arbitrajniy sud Vladimirskoy oblasti SPRAVKA po rezultatam analiza i obobsheniya sudebnoy praktiki po rassmotreniyu del po korporativnix sporam za 2015–2016 gody i 8 mesyasev 2017 goda 1 <https://vladimir.arbitr.ru/files/pdf/sprkorp1516h17.pdf>
23. Federalniy zakon ot 08.02.1998 N 14-FZ (red. ot 02.07.2021) "Ob obshestvax s ogranichennoy otvetstvennostyu". http://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_17819/
24. Rossiya Federatsiyasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi Kodeksi. <https://rulaws.ru>

UDC: 347.77(042)(575.1
ORCID: 0000-0003-0151-1921

O'ZBEKISTONDA MUALLIFLIK HUQUQI BO'YICHA MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY BOSHQARUV TASHKILOTLARINING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHI

Yakubova Iroda Bahramovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Intellectual mulk huquqi” kafedrası dotsenti v.b., PhD,
e-mail: legislate16i@mail.ru

Annotatsiya. Mualliflik huquqini himoya qilish institutini tashkil etish tarixi, jamoaviy boshqaruv tashkilotlarining vakolatları, funksiyaları va ularning turları, mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish va vakillik tushunchasi o'rtasidagi farq bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, jamoaviy boshqaruvning mohiyati, unda ishtirok etgan tashkilotlar mualliflar va boshqa huquq egalari bilan shartnomalar tuzishi, ushbu huquqlarni boshqarish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmalariga olashlari; huquq egalari, jamoaviy boshqaruv tashkilotlari tomonidan berilgan vakolatlar asosida o'z nomidan asarlar (mualliflik va turdosh huquqlar obyektlari)dan foydalanadigan shaxslar bilan shartnomalar tuzishi; mualliflik huquqi egalari to'lovlarni yig'ish, tarqatish va to'lash; sudda mualliflar va boshqa huquq egalari huquqlarini himoya qilish vazifalarini, shuningdek, ba'zi tashkilotlar o'z a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash funksiyalarini ham bajarishlari ko'rib chiqilgan. Ushbu institutni takomillashtirish bilan bog'liq ayrim dolzarb muammolarga, mualliflik huquqini himoya qilishning xalqaro standartlariga va milliy qonunchilikning qiyosiy huquqiy tahliliga, shuningdek, O'zbekiston va boshqa mamlakatlar olimlarining fikrlariga e'tibor qaratilgan. Mualliflik huquqini rivojlantirish uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Kalit so'zlar: mualliflik huquqini amalga oshirish, mualliflik shartnomalari bo'yicha haq to'lash, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni jamoaviy boshqarish, asarni omma oldida ijro etish.

СОЗДАНИЕ И РАЗВИТИЕ КОЛЛЕКТНЫХ ОБЩЕСТВ ПО УПРАВЛЕНИЮ АВТОРСКИМИ ИМУЩЕСТВЕННЫМИ ПРАВАМИ В УЗБЕКИСТАНЕ

Якубова Ирода Бахрамовна,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
и.о. доцента кафедры “Право интеллектуальной собственности”
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы, связанные с историей становления института защиты авторских прав, разделением полномочий организаций по коллективному управлению, функциями организаций и их видами, отличием коллективного управления авторскими правами от такого понятия, как представительство. Кроме того, сущность коллективного управления заключается в том, что участвующие организации заключают соглашения с авторами и другими правообладателями и берут на себя ответственность за управление этими правами; заключать договоры с правообладателями, лицами, использующими произведения (объекты авторских и смежных прав) от своего имени на основании полномочий, предоставленных организациями коллективного управления; собирать, распределять и выплачивать роялти правообладателям; В статье обсуждается роль правообладателей и других правообладателей в суде, а также роль некоторых организаций в предоставлении социальной поддержки своим членам. Уделено внимание некоторым актуальным проблемам, связанным с совершенствованием данного института, международные стандарты защиты авторских прав и сравнительно-правовой анализ национального законодательства, а также мнения ученых Узбекистана и других стран. Были выдвинуты предложения и рекомендации, имеющие научное и практическое значение для национального законодательства в области авторского права.

Ключевые слова: авторские права, защита авторских прав в принудительном порядке, вознаграждение по авторским договорам, коллективное управление авторскими и смежными правами, публичное исполнение произведения.

ESTABLISHMENT AND DEVELOPMENT OF COLLECTIVE MANAGEMENT ORGANIZATIONS OF COPYRIGHT PROPERTY RIGHTS IN UZBEKISTAN

Yakubova Iroda Bahramovna,

PhD (Doctor of Philosophy),

Acting Associate Professor Department "Intellectual property law"
of Tashkent State University of Law,

Abstract. The issues related to the history of the establishment of the institution of copyright protection, with the division of powers of collective management organizations, with the functions of organizations and their types, with the difference between collective management of copyright and such a concept as representation are touched upon. In addition, the essence of collective management is that participating organizations enter into agreements with authors and other rightholders and take responsibility for the management of these rights; conclude contracts with copyright holders, persons using works (objects of copyright and related rights) on their own behalf on the basis of the powers granted by collective management organizations; collect, distribute and pay royalties to copyright holders; The article discusses the role of copyright holders and other copyright holders in court, as well as the role of some organizations in providing social support to their members. Attention is paid to some urgent problems related to the improvement of this institution, international standards for copyright protection and comparative legal analysis of national legislation, as well as the opinions of scientists from Uzbekistan and other different countries. Suggestions and recommendations were put forward of scientific and practical importance for national copyright law.

Keywords: copyright, to enforce copyright, royalty, copyright and related rights collective management, public performance or display of a work.

Sobiq Ittifoq mamlakatlarida mualliflik huquqi bo'yicha jamiyatlarning tarixi 140 yildan oshadi. Mualliflik huquqlarini jamoaviy ravishda boshqargan birinchi rus mualliflik jamiyati 1874-yil 21-oktyabrda buyuk rus dramaturgi Aleksandr Nikolaevich Ostrovskiy tomonidan tashkil etilgan Rossiya dramatik yozuvchilari jamiyati edi. Jamiyat dramaturglar tomonidan Rossiya imperiyasi teatrlarining spektakllarini jamoat oldida namoyish etish holatlarida moddiy manfaatlarini himoya qilish uchun yaratilgan va ularni pyesalar mualliflariga gonorar to'lashga majbur qilgan. 1885-yil 21-oktyabrda bastakorlar ushbu tashkilotga qo'shilib, "Rus drama yozuvchilari va opera bastakorlari jamiyati" ni tashkil etishdi.

1870-yil 28-noyabrda tarjimon V.I. Rodislavskiyning Moskva shahridagi kvartirasida dramaturglarning birinchi uchrashuvi bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda teatrlarda mualliflar yoki mualliflar vakolat bergan shaxslarning roziligisiz spektakllarni namoyish etishga yo'l qo'ymaslik to'g'risida qaror qabul qilindi [1, 39–42-b.]. Keyinchalik, tashkilotning qoidalari tasdiqlandi, bu aslida uning mavjud ustavini almashtirdi va ushbu qoidalarda un-

ing agentlari tayinlanishi kerak bo'lgan shaharlar ko'rsatildi [2, 64-b.]. Mualliflik huquqini himoya qiluvchi birinchi tashkilot – "Dramatik yozuvchilar jamoasi" shu tarzda paydo bo'ldi va 4 yil davomida o'z faoliyatini olib bordi. Uning a'zolariga A.N. Ostrovskiy, A.K. Tolstoy, I.S. Turgenev, M.E. Saltikov-Shedrin, H.A. Nekrasov va boshqa ko'plab yozuvchilar kirgan.

1874-yil 21-oktyabrda Rossiya drama yozuvchilari jamiyati (Moskva) asoschilarining yig'ilishi bo'lib o'tdi. Uning ustaviga binoan, Jamiyat faoliyatining asosiy maqsadi, rus dramaturglari va tarjimonlarining o'z asarlarini jamoat oldida ijro etish huquqini qonun bilan himoya qilish edi. Ushbu tashkilotning har bir yangi a'zosi o'zlarining spektakllarini namoyish etishga ruxsat berish huquqini Jamiyatga topshirishlari shart edi. Faqat original va tarjima qilingan dramatik asarlar himoyalangan [3, 178–179-b.]. 1875-yil 21-oktyabrdan bastakorlar, opera va balet mualliflari Jamiyatga qabul qilina boshlandi. Jamiyat nomi o'zgartirildi – endi u rus drama yozuvchilari va opera bastakorlari jamiyati (ORDP va OK) deb nomlandi [4, 99–106-b.]. Teatrlar, yig'ilishlar,

klublar bo'lgan barcha shaharlarda Jamiyat agentlari ixtisosligidan qat'iy nazar, o'qimishli odamlar orasidan tayinlangan. Jamiyat agenti gonorarning har bir to'lovchisi (teatr, yig'ilish, klub egasi) bilan shartnoma tuzdi, unga muvofiq spektakllar tashkilotchisi gonorarni to'g'ri to'lash to'g'risida imzo chekdi. Agar tadbirkor gonorarni to'lashni to'xtatgan bo'lsa, agent notarius orqali unga Jamiyat a'zolariga tegishli spektakllarni namoyish qilishni taqiqlashga haqli edi [5].

Jamiyat o'z a'zolari tomonidan spektakllar va operalarni ijro etganligi uchun gonorar yig'ardi, ularni tarqatish bo'yicha ishlarni tashkil etardi va uning huquqiy mavqeyini mustahkamlovchi sud ishlarini olib borgan [6, 584–594-b.]. Konsert dasturlari uchun mukofot yig'ilishi tashkilot Ustavida nazarda tutilmagan va amalga oshirilmagan. 1904-yilda Rossiya teatr jamiyatini o'rniga (Sankt-Peterburg) dramatik va musiqiy yozuvchilar uyushmasi – Rossiyada mualliflik huquqlarini himoya qiluvchi ikkinchi tashkilot tuzildi.

1930-yilgacha ushbu tashkilotlar parallel ravishda ish olib borgan. 1930-yilda Moskva va Leningrad tashkilotlari Butun Rossiya dramaturglar va bastakorlar jamiyatiga qo'shilib, 1933-yildan Yozuvchilar uyushmasida mualliflik huquqini himoya qilish idorasi deb nomlana boshladi. 1938-yilda u Belorusiya, Ukraina, Kavkaz orti va Markaziy Osiyo tashkilotlari tarkibiga kirganligi sababli, u mualliflik huquqini himoya qilish bo'yicha Butun Ittifoq Direksiyasiga (VUOAP) aylandi. 1934-yilda SSSR Badiiy ijodkorlar uyushmasining mualliflik huquqini himoya qilish boshqarmasi (UOAP) tashkil etildi. VUOAPning vazifasi asarlarni nashr etish va omma oldida ijro etish paytida mualliflarning huquqlarini himoya qilish edi. Bundan tashqari, VUOAPga nashriyotlar va ko'ngilochar tadbirlardan SSSRning Adabiy, musiqiy va jurnalistika fondlariga badal yig'ish vazifasi yuklandi [7, 3–9-b.].

1973-yilda SSSRda VUOAP va UOAP asosida Butun ittifoq mualliflik agentligi (VAAP) tashkil etildi, uni yaratish bo'yicha taklif SSSR Vazirlar Kengashining 1973-yil 16-avgustdagi 588-sonli qarori bilan tasdiqlangan. VAAP asoschilari 13 ta tashkilot bo'lib, ular tarkibiga deyarli barcha mualliflarning ijodiy uyushmalari, ba'zi vazirliklar va idoralar kirgan. VAAP – bu 1973-yil 20-sentabrda bo'lib o'tgan ta'sischi konferensiyasi jamoat tashkiloti edi. Ammo aslida bu tashkilot

mualliflik huquqini ta'minlash sohasidagi davlat organining funksiyalarini bajargan.

1980-yillarning oxirida intellektual mulk masalalari bo'yicha davlat va amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlar tufayli VAAPni o'zgartirish zarurati tug'ildi. 1991-yil 14-mayda SSSR Vazirlar Mahkamasining 242-sonli qarori bilan VAAPning ushbu tashkilotni SSSR Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar bo'yicha davlat agentligiga (GAASP) aylantirish to'g'risida taklifi qabul qilindi, unga mualliflik va turdosh huquq egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlari rioya etilishini ta'minlash maburiyati topshirildi. Keyinchalik, SSSRning tugatilishi munosabati bilan VAAP funksiyalarini bajaradigan tashkilotni yaratishga urinishlar qilindi. 1992-yil Rossiya Federatsiyasi Oliy Kengashining 03.02.1992-yildagi 2275-1-sonli qarori bilan GAASP bekor qilindi va Butun Rossiya mualliflik huquqi bo'yicha agentligi (VAAP) jamoat birlashmasi shaklida tashkil etildi.

O'zbekistonda esa mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlar nisbatan yangi hisoblanadi. "O'zbekiston mualliflar va ijrochilar gildiyasi" jamoat birlashmasi 2006-yil 20-dekabrda tashkil qilingan bo'lib hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan boshqa shunday nodavlat notijorat tashkilotlarga nisbatan avvalroq tashkil etilgan.

Asarlardan foydalanishning yangi yuqori texnologik sohalarida mualliflik huquqini amalga oshirishning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklari tufayli, huquqlarni jamoaviy boshqarishning turli xil sxemalari tobora keng qo'llanilishi uchun asos bo'lmoqda. Shu tufayli asarlar va turdosh huquqlar obyektlaridan foydalanuvchi shaxslar ko'plab mualliflar va boshqa huquq egalari bilan shartnoma tuzish o'rniga, ularning manfaatlarini ifoda etuvchi va "mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish" deb nomlangan ixtisoslashgan tashkilot bilan shartnoma tuzish imkoniyatiga ega bo'lishadi [8]. Ko'pgina hollarda, bunday sxema mualliflarning foydalanuvchilar bilan to'g'ridan to'g'ri shartnomalar tuzish huquqlarini cheklamaydi, balki ularni mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni jamoaviy amalga oshirish imkoniyati bilan to'ldiradi. Ko'pincha "mualliflik huquqlari jamiyatlari" yoki "mualliflik huquqlari jamiyatlari" deb nomlanadigan jamoaviy boshqaruv tashkilotlari har bir mualliflik huquqi egasiga foydalanuvchilardan olingan mablag'larni yig'ishadi va

to'laydilar, buning natijasida huquq egalari ularga tegishli bo'lgan haqni olishiga, foydalanuvchilar esa o'z faoliyatini qonuniy ravishda amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Xo'sh, ushbu jamoatchilik boshqaruvi nima uchun kerak va u qanday tamoyillarga asoslaniishi kerak? Mualliflik huquqi to'g'risidagi qonun hujjatlari asar muallifiga asardan har qanday shaklda foydalanishning mutlaq huquqini beradi, ushbu huquqning ruxsat etilgan cheklanishlarini to'liq belgilaydi, asardan boshqalarga foydalanish huquqini beradi, shuningdek, shartnomani vosita deb atab, uni amalga oshirish mexanizmini ham belgilab beradi. Agar asar mualliflik huquqi bilan himoyalangan bo'lsa, unda siz muallif yoki uning merosxo'rlari bilan shartnoma tuzish orqali undan foydalanish imkoniyatini olishingiz mumkin. Shunga o'xshash qoidalar turdosh huquqlar obyektlariga nisbatan ham qo'llaniladi [9].

Biroq, bunday sxemani amalda ko'p hollarda amalga oshirish mumkin emas. Bunday holatda, biz huquqiy jihatlarini emas, balki haqiqiy imkoniyat yo'qligini nazarda tutaymiz, ya'ni ba'zi tashkilotlar o'z faoliyatining xususiyatlariga ko'ra har bir foydalanilgan asar (ijro, fonogramma) muallifi (huquq egasi) bilan shartnoma tuza olmaydi. Bunga sabab ushbu asarlarning juda ko'pligi va huquq egalari, o'z navbatida, buni jismonan hal qila olmaydilar, chunki ularning asarlaridan yoki turdosh huquqlar obyektlaridan ko'p sonli foydalanuvchilar foydalanadilar [10].

Muammoni hal qilish esa mualliflarning asarlaridan foydalanadigan shaxslar bilan munosabatlarga kirishishda bir vaqtning o'zida ko'p sonli huquq egalariining manfaatlarini himoya qiladigan ixtisoslashgan tashkilotlarni, ya'ni jamoaviy boshqaruv tashkilotlarini yaratish hisoblanadi. Jamoaviy boshqaruv mualliflik huquqi tizimida huquq egalariiga jamoaviy boshqaruv tashkiloti orqali o'z huquqlarini boshqarishni talab qiladigan yoki ruxsat beradigan imkoniyatdir [11]. Mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni yakka tartibda boshqarish har doim ham realikka yaqin bo'lmasligi mumkin. Misol uchun, muallif, ijrochi yoki prodyuser, qo'shiqlardan foydalanganlik uchun litsenziya va haq olish masalasida muzokara o'tkazish uchun har bir radiostantsiyasiga murojaat qila olmaydi.

Boshqa tomondan, radiostantsiya uchun ham har bir qo'shiqdan foydalanish uchun har bir

muallif, ijrochi va prodyuserdan alohida ruxsat olish haqiqatdan yiroq. Jamoaviy boshqaruv tashkilotlari har ikki tomon manfaati va huquq egalari uchun iqtisodiy mukofot huquqlarini rasmiylashtirishni yengillashtirishga xizmat qiladi [12].

Professional jamoaviy boshqaruv tashkilotlariga o'z huquqlarini boshqarish uchun ruxsat berish yoki mandat berish orqali mualliflar, ijrochilar, ishlab chiqaruvchilar va boshqa huquq egalari ushbu huquqlarni boshqarishni soddalashtirishi mumkin.

Mutlaq huquqlar va jamoaviy bitimlar jamoaviy boshqaruv uchun muqobil yechim taqdim eta olishi mumkin. Jamoaviy boshqaruv tashkilotlari, ko'p hollarda, notijorat tashkilotlari; ularning huquqiy shakli xususiy yoki ommaviy bo'lishi mumkin.

Mualliflik huquqiga oid qonunchilik asar muallifiga asardan har qanday shaklda va har qanday tarzda to'liq foydalanish uchun mutlaq huquqlarni mustahkamlaydi hamda uning amalga oshirish mexanizmlarini va ushbu huquqlarning cheklaniishi mumkin bo'lgan holatlarni belgilaydi. Mualliflik huquqlaridan boshqa shaxslar shartnoma orqali foydalanishi mumkin. Agar asar mualliflik huquqi bilan himoyalangan bo'lsa, muallif yoki uning huquqiy vorisi bilan shartnoma tuzish orqali undan foydalanish imkoniyatini ega bo'lish mumkin [13].

Biroq bunday sxemani ko'p hollarda amalda tatbiq etib bo'lmasligi mumkin. Bunda yuridik jihatdan emas, *de fakto* imkoniyat mavjud emasligi ko'zda tutilmoqda. Ba'zi tashkilotlar o'z faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari tufayli foydalanilgan yoki foydalanilishi mumkin bo'lgan har bir asarning muallifi bilan shartnoma tuzib chiqa olmaydi, chunki asarlar juda ko'p va ularning mualliflari ham turlicha. Bundan tashqari mualliflar ham o'zlarining asarlaridan foydalanuvchilar soni ko'p bo'lganligi uchun ularning har biri bilan shartnoma tuzib chiqa olmaydi. Bir paytning o'zida ko'plab mualliflik huquqi egalariining manfaatlarini ifodalovchi mualliflik huquqlarini jamoaviy boshqaradigan maxsus tashkilotlarni tuzish mualliflik huquqi egalari hamda mualliflik huquqi obyektlaridan foydalanuvchilar o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan yuqorida qayd etilgan muammolarga yechim bo'la oladi [14].

Jamoaviy boshqaruvning mohiyati shundan iboratki, unda mulkiy huquqlarni jamoaviy bosh-

qarish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar mualliflar va mualliflik huquqi egalari bilan shartnomalar tuzgan holda o'zlariga ushbu huquqlarni boshqarish majburiyatini oladilar. Shu bilan birga huquq egasining nomidan o'ziga vakolatlar asosida boshqa shaxslar, ya'ni asardan foydalanuvchilar bilan shartnomalar tuzish, huquq egalari to'lanadigan haqlarni yig'ish, taqsimlash va to'lash kabi vazifalarni bajaradi. Shuningdek, mualliflar va boshqa huquq egalari huquqlarini sudga himoya qiladi. Bunda jamoaviy boshqarishning xarakterli tomoni, bir vaqtning o'zida va ko'plab huquq egalari manfaatlarini ko'zlab umumiy shartlarda himoya qilinishi mumkinligini ta'kidlash lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tasdiqlagan 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarni hal etish O'zbekiston iqtisodiyotida institutsional islohotlarni chuqurlashtirish hamda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim uslubiy asos hisoblanadi, shuningdek, mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishga qaratilgan choralar mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Harakatlar strategiyasida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida erkinlashtirishni amalga oshirish mamlakatimiz ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy rivojlantirish istiqbolining asosiy yo'nalishi ekanligini har tomonlama asoslab berdi. Bu jarayonda nodavlat notijorat tashkilotlarining roli va o'ri o'sib boradi, ular davlat idoralari funksiyalarining bir qismini ixtiyoriy ravishda o'z zimmlariga oladilar. Bu funksiyalarni ular ma'muriy idora sifatida emas, jamoat birlashmasi sifatida amalga oshiradilar. Binobarin, bu funksiyalarni mohiyati ham, ularni amalga oshirish usullari ham o'zgaradi. "Mualliflik va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonunning 45-moddasida mualliflik va turdosh huquqlarni boshqarish bo'yicha jamoat tashkilotlari vakolatlari belgilab qo'yilgan. Hozirgi vaqtda ko'plab dunyo mamlakatlarida bunday tashkilotlar ko'plab tuzilgan va samarali faoliyat yuritmoqda [15]. To'g'ri, mualliflik va turdosh huquqlar subyektlari o'z huquqlarini shaxsan yoki qonuniy vakillar orqali boshqarishlari mumkin. Biroq, bunda, birinchidan, ijodkor muallif o'z vaqtining bir qismini bunga ajratishga majbur bo'ladi, natijada ijodiy

faoliyatdan ancha chalg'iydi, ikkinchidan, ijodkor bu masalada ham zarur malaka, bilimlarga (xususan, shartnomalar tuzish, uning ijrosini nazorat qilish, asarlar va ijrolardan foydalanuvchilarni kuzatib borish bo'yicha) ega bo'lavermaydi va natijada bundan kutilgan natija har doim ko'ngildagidek bo'lavermaydi.

Jamoaviy boshqaruvning mohiyati shundaki, unda ishtirok etgan tashkilotlar mualliflar va boshqa huquq egalari bilan shartnomalar tuzadilar, ushbu huquqlarni boshqarish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmlariga oladilar; huquq egalari, jamoaviy boshqaruv tashkilotlari tomonidan berilgan vakolatlar asosida o'z nomidan asarlar (mualliylik va turdosh huquqlar obyektlari) dan foydalanadigan shaxslar bilan shartnomalar tuzadi; mualliflik huquqi egalari to'lovlarni yig'ish, tarqatish va to'lash; sudga mualliflar va boshqa huquq egalari huquqlarini himoya qilish vazifalarini, shuningdek, ba'zi tashkilotlar o'z a'zolarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash funksiyalarini ham bajaradilar [16].

Mualliflik huquqini jamoaviy boshqarish instituti tufayli mualliflik huquqlari individual asosda amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan yoki qiyin bo'lgan mutlaq mulk huquqlarini amalga oshirish mumkin. Aynan mazkur institutning samarali faoliyat ko'rsatishi O'zbekistonning mualliflik huquqi sohasida imzolagan shartnomalari doirasidagi majburiyatlarini bajarish imkoniyatini oshirishda muhim o'rin tutadi.

Ushbu tashkilotning maqsadi va vazifalari muallif va ijrochilarning huquq va manfaatlarini har xil tadbir hamda loyihalar o'tkazish orqali himoya qilish va qo'llab-quvvatlash ekanligi uning ustavida belgilab qo'yilgan.

Ushbu sohadagi qonunchilik hujjatlarini tahlil qilish va ularni qo'llash amaliyoti mualliflarning mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqarish murakkab tizim degan fikrga qo'shilishga imkon beradi. Mualliflarning mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqarish mualliflar (boshqa mualliflik huquqi egalari) o'z huquqlarini mustaqil ravishda amalga oshira olmasligi, himoya qila olmasligi va quyidagilarni o'z ichiga olgan hollarda qo'llaniladi:

– mualliflar (boshqa mualliflik huquqi egalari) tomonidan ularning asarlarini turli foydalanuvchilar tomonidan ekspluatatsiya qilinishi shartlari bo'yicha muzokara o'tkazish huquqlarining ushbu

maqsadlar uchun maxsus yaratilgan tashkilotlarga o'tkazilishi;

- huquqlari boshqaruvga o'tgan asarlardan foydalanishni nazorat qilish;

- mualliflar (boshqa mualliflik huquqi egalari) uchun haq to'lash va ular o'rtasida yig'ilgan haqni taqsimlash;

- mualliflar (boshqa mualliflik huquqi egalari) ning huquqlarini himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish.

Mualliflarning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqarish tizimi maxsus yaratilgan tashkilotlar tomonidan boshqa funksiyalarning bajarilishini ham nazarda tutishi mumkin. Bundan tashqari, ular to'g'ridan to'g'ri milliy qonunchilikning o'ziga xos xususiyatlariga, ma'lum bir davlatning siyosiy tizimiga, uning iqtisodiy tizimiga, mualliflik huquqlarini himoya qilish tizimidagi mualliflarning mulkiy huquqlarini boshqarish tashkilotlarining roliga va boshqalarga bog'liq. Xuddi shu omillar ma'lum bir davlat mualliflarining mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqarish tizimining boshqa xususiyatlarini belgilaydi: mualliflarning huquqlarini boshqarish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun asoslar, tegishli tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakllari, mualliflar (boshqa mualliflik huquqi egalari)ga haq to'lash o'tkazish uchun asoslar va boshqalar.

Ayrim davlatlarda mualliflarning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqarish faoliyati nafaqat yuqorida aytib o'tilgan xususiyatlar bilan tavsiflanadi. U o'tgan yarim yil ichida ushbu sohada jahon amaliyoti tomonidan ishlab chiqilgan yagona tamoyillarga asoslangan va tashkil etilgan. Ushbu tamoyillar orasida quyidagilar mavjud:

- 1) maxsus tuzilgan tashkilotlarga o'z egalari tomonidan shartnoma asosida yoki qonun normalariga muvofiq mualliflik huquqini boshqarish vakolatini berish;

- 2) qoida tariqasida mualliflarning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqarish bo'yicha tashkilotlar faoliyatining notijorat xarakteri;

- 3) boshqaruvga topshirilgan asarlardan, qoida tariqasida, barcha potentsial foydalanuvchilar uchun bir xil bo'lgan shartlarda foydalanish huquqini berish;

- 4) jamoaviy asosda mualliflarning mulkiy huquqlarini amalga oshiradigan va himoya qiladigan tashkilotlar faoliyatini maxsus qonunchilik bilan tartibga solish;

- 5) Mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning faoliyatiga nisbatan raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan cheklashlar qo'llanilmaydi. Huquq egalari turli huquqlari va turli toifalari bo'yicha alohida tashkilotlarni yoki bir toifadagi huquq egalari manfaatlari ko'zlab turli huquqlarni boshqaruvchi tashkilotlarni yoxud turli toifadagi huquq egalari manfaatlari ko'zlab, huquqlarning bir turini boshqaruvchi tashkilotlarni tuzishga yo'l qo'yiladi.

Ehtimol, mualliflik huquqi yo'nalishida rivojlanayotgan davlatlarning mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqarish institutidan ko'ra munozarali mavzu mavjud bo'lmasa kerak. Sobiq Sovet davlati yetakchi mamlakatlarining ushbu sohada faol hamkorlik qilishi, Jahon savdosi doirasida xalqaro majburiyatlar va rejalarni hisobga olgan holda huquqiy tartibga solishning umumiy parametrlarini yaratish istagi vaziyatning o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-maydagi PQ-1536-son qarori [8] bilan tuzilgan yuqoridagi ikki davlat boshqaruvi organi negizida intellektual mulk agentligini tashkil etildi. Ushbu davrdan boshlab bu kabi vazifalar mualliflik haqlari (gonorar)ni yig'ish va taqsimlash bilan xususiy turdagi tashkilotlar faoliyat yuritishiga yo'l ochildi. Xususan, mualliflik huquqi bo'yicha mutaxassis B.Toshev ham "respublikamizda mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruvchi tashkilotlarni tuzish zarurati mavjud" degan fikrlarini ilgari surgan.

Ushbu davrdan boshlab turli davrlarda mamlakatimizda "Mualliflar va ijrochilar gildiyasi", "Artmadad" jamg'armasi, "O'zbekiston huquq egalari palatasi" kabi turli mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlar faoliyat yuritgan. Biroq, bugunga kelib jamoat birlashmalari turli sabablarga ko'ra o'z faoliyatini to'xtatgan.

Bundan tashqari, 2010-yil 21-dekabrda tuzilgan O'zbekiston huquq egalari palatasi mualliflarning, ijrochilarning, fonogramma tayyorlovchilarning va boshqa huquq egalari mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqarish va himoya qilish bilan shug'ullanib kelmoqda. So'ngi yillarda yurtimizda sohaga e'tiborning ancha kuchayganligini 2019-yildan hozirgi paytgacha 4 ta mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqaruvchi

nodavlat notijorat tashkilotlari tuzilganligidan ko'rish mumkin. Xususan, 2019-yilda 3ta tashkilot O'zbekiston mualliflik va turdosh huquq egalari jamoat birlashmasi, Mualliflarning mulkiy huquqlarini himoya qiluvchi nodavlat notijorat tashkiloti, O'zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati nodavlat notijorat tashkilot sifatida Adliya vazirligidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

O'zbekiston mualliflik va turdosh huquq egalari jamoat birlashmasi tashkilot a'zolari bo'lgan fan, adabiyot va madaniyat asarlari mualliflari, fonogrammalar ijrochilari, ishlab chiqaruvchilari hamda boshqa mualliflik va turdosh huquqlar sohiblarining mulkiy huquqlarini amalga oshirish hamda himoya qilish kabi maqsad va vazifalarni o'z oldiga qo'ygan.

Mualliflarning mulkiy huquqlarini himoya qiluvchi nodavlat notijorat tashkilotining maqsad va vazifalari fan, adabiyot va madaniyat asarlari mualliflari, fonogrammalar ijrochilari, ishlab chiqaruvchilari va boshqa mualliflik va turdosh huquqlar sohiblarining mulkiy huquqlarini amalga oshirish va himoya qilish ularning O'zbekiston Respublikasi hududidagi mualliflik va turdosh huquqlarini amalga oshirish, ta'minlash hamda ularni jamoaviy boshqarishga ko'maklashishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish jamiyati ustavida tashkilot a'zolari bo'lgan fan, adabiyot va madaniyat asarlari mualliflari, fonogrammalar ijrochilari, ishlab chiqaruvchilari va boshqa mualliflik va turdosh huquqlar sohiblarining mulkiy huquqlarini amalga oshirish hamda himoya qilish va boshqalar qayd etilgan.

Ushbu mavzu doirasida bir qator prinsipial holatlar vujudga keladi. Jamoa boshqaruvi sohasida rivojlanayotgan munosabatlar davlat yoki xususiy huquq normalariga bo'ysunadimi? Bir qarashda, bu o'quv jarayonidagi savolga o'xshaydi. Professor B.M. Gongalo [9] quyidagilarni ta'kidlaydi: "rasmiy mantiq nuqtayi nazaridan, biron-bir narsani tasniflab, keyin bir narsani boshqasida topib bo'lmaydi. Agar biz huquqni xususiy va ommaviy deb ajratadigan bo'lsak, shubhasiz, biz ommaviyda xususiyni va xususiyyda ommaviyni ko'rsata olmasdik". Biroq, differentsiatsiya maqsad emas, balki aniq qo'llanma, qarorlarning amaliy samaradorligi mezonidir.

Shuningdek, 2020-yilning 26-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-son Farmoni qabul qilindi.

Farmonda, jumladan, madaniyat va san'at sohasi vakillarining San'atkor, ijodkor va ijrochilarning mualliflik huquqlarini himoya qilish palatasini (keyingi o'rinlarda — Palata) tashkil etish to'g'risidagi tashabbuslari davlat rahbari tomonidan qo'llab-quvvatlandi va shunga asosan mualliflarning mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda boshqaruvchi yana bir nodavlat notijorat tashkiloti tashkil etildi.

Madaniyat vazirligi Palata faoliyatining dastlabki bosqichlarida uni qo'llab-quvvatlash uchun Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 1mlrd so'm ajratilishini ta'minlashi lozimligi hamda Bosh vazirining o'rinbosari va madaniyat vaziri Palata hamda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaradigan boshqa tashkilotlar faoliyatini tashkil etishga har tomonlama ko'maklashishi ko'rsatib o'tildi.

Ushbu sohada izlanish olib borgan G. Xudayberdiyevaning fikriga qayd etib o'tganidek [9], mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasida mamlakatimizda jiddiy islohotlar amalga oshirilmoqda, uning qonunchilik asoslari kuchaytirilmoqda.

Xususan, bugungi kunda mualliflik va turdosh huquqlarga oid xalqaro-huquqiy hujjatlar asosida O'zbekiston Respublikasi zimmasiga olgan majburiyatlarini bajarish orqali mamlakatimizning xalqaro imidjini mustahkamlash, shu bilan birga, ijrochilarning huquqlarini ro'yobga chiqarish va mulkiy huquqlarini jamoaviy asosda samarali boshqarish tizimini yanada takomillashtirish kun tartibiga chiqdi.

Mulkiy huquqlarni jamoaviy boshqarish institutining huquqiy asoslariga oid masalalar amaldagi qonunchilikda belgilangan bo'lsa-da, vaqt o'tgani sari takomillashtirilib borilmoqda va bugungi kunda ham ushbu jarayon yakunlanmagan [10].

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi Qonun, "Adabiyot va san'at asarlaridan foydalanlikning ayrim turlari uchun mualliflik haqining eng kam stavkalari to'g'risida"gi Vazirlar

Mahkamasining qarori va boshqa hujjatlar bilan tartibga solinib kelinmoqda.

Umuman olganda, mualliflarning va turdosh huquq egalarining mulkiy huquqlarini jamoaviy boshqarish instituti tarixan qisqa davr ichida katta yo'lni bosib o'tdi [11, 1132–1135-b.].

Bugungi kunda dunyoda intellektual mulkning iqtisodiyotga ta'siri ortib borishi bilan mualliflarning huquqlarini samarali boshqa-

rish va ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, sohaga oid qonunchilikdagi bo'shliqlarni to'ldirish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston sharoitida dunyoning boshqa davlatlari nisbatan uzoq muddat bosib o'tgan yo'lni xorijiy davlatlarning tarixiy tajribasidan kelib chiqqan holda tezroq ushbu institutni rivojlantirish uning shakllanish tarixini o'rganish zarur.

REFERENCES

1. Morgunova ye. Upravlenie pravami avtorov na kollektivnoy osnove // Intellektualnaya sobstvennost. 1997, no. 5-6, pp. 39–42.
2. International Confederation of Societies of Authors and Composers (CISAC), As Long as There Are Authors (International Confederation of Societies of Authors and Composers, 1996), 64.
3. Gavrilov E.P. Kommentariy k Zakonu ob avtorskom prave i smejnyx pravax. Moscow, 1996, pp. 178–179.
4. M. Ficsor, Collective Management of Copyright and Related Rights (World Intellectual Property Organization, 2002), at 99–106.
5. Yakubova I., Satvaldieva Y. Comparative legal analysis civil-law protection of honor, dignity and business reputation in the civil legislation of Uzbekistan and Japan // European Journal of Molecular & Clinical Medicine. 2020, T. 7, no. 2, pp. 584–594.
6. The French law on authors' rights (the civil law version of copyright) is actually known as the Code of Literary and Artistic Property, Law No. 92-597 of 1 Jul. 1992, as amended by Laws No. 94–361 of 10 May 1994, and 95–4 of 3 Jan. 1995.
7. Voronkova M.A. Gavrilov E.P. Oxrana avtorskix prav v SSSR. M., 1974, pp. 3–9.
8. Nasriev I.I. Muallifning shaxsiy huquqlarini himoyalash. Tashkent, Mehnat, 2003, p.58.
9. Toshev B.N. Mualliflik huquqi. Darslik. Tashkent, 2010, pp.110.
10. Law of the Republic of Uzbekistan "on copyright and related rights". 2006 // Law of the Republic of Uzbekistan "On Copyright and Related Rights". 2006.
11. The biography of Firmin Ge'mier may be found online: <www.answers.com/topic/firmin-ge-mier> (last visited: 17 Jan. 2010).
12. Leanovich, E.B. 'Problems of legal regulation of Internet relations with a foreign element'. Internet resource: <http://www.evolution.info>
13. Stanieri A., Zeleznikow J., Gawler M. and Lewis B, 1999 A hybrid-neutral approach to automation of legal reasoning in the discretionary domain of family law in Australia, Artificial intelligence and law,7(2-3).
14. Brams, S.J. and Taylor, A.D. (1996) Fair division from cake cutting to dispute resolution. Cambridge: Cambridge University Press.
15. Rustambekov, Islambek, Uzbekistan: The New – and First – International Commercial Arbitration Law (June 22, 2021). ICC Dispute Resolution Bulletin, Issue 2, 2021. Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3872373/>.
16. B Mohinur, arbitration and litigation in the uae: advantages of arbitration in comparison to litigation // yurist axborotnomasi, 2020.
17. <www.cisac.org> (last visited: 8 Feb. 2010).
18. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 22-23-son, 227-modda; 2016-y., 45-son, 520-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.03.2018-y., 06/18/5329/0846-son
19. Xudayberdieva G.A. Turdosh huquqlarni fuqarolik-huquqiy muhofaza qilish muammolari. Tashkent, 2006.
20. O. Okyulov. Legal status of intellectual property. Author's abstract of the dissertation of doc. Yur. Sciences. Tashkent, TGYI, 2000, p. 328. // O. Okyulov. Legal status of intellectual property. Author's abstract of the dissertation of doc. Yur. Sciences. Tashkent, TGYI, 2000.
21. Yakubova I., Yakubov A. Problems Of Copyright Protection: Plagiarism And Piracy On The Internet // Turkish Journal of Computer and Mathematics Education Vol.12, No. 4 (2021), pp. 1132–1135.

UDC: 347.414

ORCID: 0000-0002-8749-727X

QAYTA TASHKIL ETILAYOTGAN YURIDIK SHAXS KREDITORLARINING HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MEKANIZMLARINING UMUMIY TAVSIFI

Qutlimuratov Farxad Qalbayevich,

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,
yuridik fanlar nomzodi, dotsent,
e-mail: farxad_nukus@mail.ru

Annotatsiya. Yuridik shaxslarni qayta tashkil etishda uning kreditorlari huquqlarining himoya qilinganligi va manfaatlarining ta'minlanganligi asosiy masalalardan biri sanaladi. Chunki, yuridik shaxs qayta tashkil etilishi asosan kreditorlarning manfaatlariga ta'sir ko'rsatadi va ular huquqlari amal qilishini xavf ostiga qo'yadi. Shu sababli qayta tashkil etish jarayoni boshlanishidan oldin kreditorni xabardor qilishga nisbatan aniq muddatlarni belgilash muhimdir. Qolaversa, bu jarayonlar haqida kreditorni xabardor etishning odatdagi tartibga yangicha qarash, qayta tashkil etish boshlanishidan xabardor bo'lishdan kreditorning manfaatdorligini oshirish, bunda xabardor qilishning ommaviy tartibini joriy etish dolzarbdir. Qayta tashkil etish jarayoni boshlanganidan o'z vaqtida xabardor bo'lgan yuridik shaxsning o'z qarzdori bo'lgan yuridik shaxsga nisbatan talablarini qo'yish va qayta tashkil etilgan yuridik shaxs bilan huquqiy munosabatlarni saqlab qolish imkoniyati mavjud bo'ladi. Bu esa qonunchilikda kreditor huquqlarini himoya qilishning muhim vositasi sanaladi.

Kalit so'zlar: yuridik shaxs, kreditor, huquqlar, himoya qilish, qarzdor, javobgar, xabardor qilish, jamiyat, ishtirokchilar, muassislar:

ОБЩЕЕ ОПИСАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ЗАЩИТЫ ПРАВ КРЕДИТОРОВ РЕОРГАНИЗУЕМОГО ЮРИДИЧЕСКОГО ЛИЦА

Кутлымуратов Фархад Калбаевич,

кандидат юридических наук, доцент, соискатель
Каракалпакского государственного университета

Аннотация. Одним из основных вопросов при реорганизации юридического лица является защита прав и интересов его кредиторов. Это связано с тем, что реорганизация юридического лица в основном затрагивает интересы кредиторов и ставит под угрозу осуществление их прав. По этой причине важно установить четкие сроки для уведомления кредитора до начала процесса реорганизации. Кроме того, необходимо пересмотреть обычный порядок информирования кредитора об этих процессах, повысить заинтересованность кредитора в информировании о начале реорганизации и ввести публичную процедуру уведомления. Юридическое лицо, которое было уведомлено во время процесса реорганизации, может подать иск против юридического лица, которому оно принадлежит, и поддерживать правовые отношения с реорганизованным юридическим лицом. Это важный инструмент в законодательстве для защиты прав кредиторов.

Ключевые слова: юридическое лицо, кредитор, права, защита, должник, ответчик, уведомление, общество, участники, учредители.

GENERAL DESCRIPTION OF THE MECHANISMS OF PROTECTION OF THE RIGHTS OF CREDITORS OF THE REORGANIZED LEGAL ENTITY

Kutlimuratov Farkhad Kalbaevich,

Candidate of legal sciences, associate professor,
scientific competitor of the Karakalpak State University

Abstract. One of the main issues in the reorganization of legal entities is the protection of the *rights and interests of its creditors*. This is due to the fact that the reorganization of a legal entity mainly affects the interests of creditors and jeopardizes the exercise of their rights. For this reason, it is important to set clear deadlines for notifying the creditor before the reorganization process begins. In addition, it is necessary to reconsider the usual procedure for informing the creditor about these processes, to increase the creditor's interest in informing about the beginning of the reorganization, and to introduce a public procedure for notifying. It is possible for a legal entity that has been notified in time of the reorganization process to file a claim against the legal entity that owes it and to maintain a legal relationship with the reorganized legal entity. This is an important tool in the legislation to protect the rights of creditors.

Keywords: legal entity, creditor, rights, defense, debtor, defendant, notification, society, participants, founders.

Yuridik shaxsning qayta tashkil etilishi har doim unga tegishli huquq va majburiyatlar taqdiri bilan bog'liq bo'ladi. Bu jarayonda ishtirok etuvchi subyektlar – qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxs va uning kreditorlari o'rtasidagi huquqiy munosabatlar alohida belgilanish hamda tartibga solishni taqozo etadi. Chunki, yuridik shaxs o'z faoliyati davomida turli xildagi shartnomalar tuzish yo'li bilan fuqarolik muomalasida ishtirok etish hamda deliktlar orqali zimmasiga majburiyat oladi va mazkur majburiyatlar boshqa shaxslar uchun huquq hisoblanadi. Qolaversa, yuridik shaxsning mehnat munosabatlaridan kelib chiqadigan majburiyatlari va ommaviy-huquqiy munosabatlar (soliq, bojxona, bank-moliya) dan vujudga keladigan majburiyatlari ham tegishli subyektlar uchun huquqlar hosil qiladi. Ana shu huquq bor bo'lgan shaxslar – kreditlar o'z talablarini qonun yoki shartnomada belgilangan shaklda va tartibda qarzdor yuridik shaxsga nisbatan qo'yishi normal va huquq-tartibot uchun yo'l qo'yiladigan va qabul qilinadigan holat sanaladi. Buning uchun esa yuridik shaxs mavjud bo'lishi, faoliyat yuritishi hamda mol-mulk yoki mulkiy huquqlarga ega bo'lishi lozim bo'ladi. Biroq yuridik shaxs faoliyati har doim ko'ngildagidek va bir tekis kechmasligi mumkinki, bu holat, o'z navbatida uning kreditorlari manfaatlariga putur yetkazishi yoki huquqlari poymol bo'lishi xavfi yuzaga kelishi mumkin. Ushbu holatlar, ayniqsa, yuridik shaxs tugatilayotgan yoki qayta tashkil etilayotganda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois ushbu jarayonlarda kreditorlar huquqlarini himoya qilishning alohida huquqiy mexanizmlarini nazarda tutish va belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiy tartibga ko'ra, qayta tashkil etilayotgan yuridik shaxsning kreditorlari qayta tashkil etish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatish yoki umuman ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lmaydi. Bu esa muayyan vaziyatlarda ularning

qonuniy manfaatlariga putur yetkazilishiga sabab bo'lishi mumkin va biznes hamda tadbirkorlik sohasida o'ziga xos dolzarblik kasb etadi. Shubhasiz, ushbu toifa shaxslar (kreditorlar) huquqlarini himoya qilish kompaniyalarni qayta tashkil etish jarayonlarini tartibga solishda milliy qonunchilikning ustuvor masalalaridan sanaladi. Sud amaliyoti ko'rsatishicha, ko'p holatlarda qayta tashkil etish yuzasidan nizolashishning asosi bo'lib, aynan kreditorlar huquqlarining buzilishi hisoblanadiki, bu hol ular huquqlari va qonuniy manfaatlar himoyasining past darajasidan guvohlik beradi. Sud amaliyotida shakllangan nuqtayi nazarga muvofiq, yuridik shaxsni qayta tashkil etish jarayonida kreditorlar ta'sir doirasi tegishli majburiyatni bekor qilish yoki bajarish yoxud yetkazilgan zararni qoplashga bo'lgan huquqini amalga oshirishga oid talab qo'yish imkoniyati bilan cheklanadi.

Ayrim mualliflar qayta tashkil etish va tugatish jarayonlarida kreditorlar huquqlarining ta'minlanganligi va himoyalanganligi indeksining to'rtta ko'rsatkichi mavjudligini qayd etishadi. Ushbu ko'rsatkichlar sifatida quyidagilar keltiriladi: 1) kreditor qarzdor – yuridik shaxs qayta tashkil etilish uchun ariza topshirishiga to'sqinlik qila olish va shu yo'l bilan o'z huquqlarini ta'minlay olish imkoniyatiga egaligi; 2) to'lovga qobiliyatsizlik (bankrotlik) jarayoni boshlanganidan keyin majburiyat ta'minoti sifatida taqdim etilgan qarzdorning aktivlarini o'z foydasiga musodara qilish talabini qo'yishi mumkinligi; 3) talablari ta'minlangan kreditor boshqa kreditorlarga qaraganda yuridik shaxs qayta tashkil etilayotgan yoki tugatilayotganda imtiyozli huquqqa egaligi; 4) yuridik shaxs rahbariyatidan farqli ravishda qayta tashkil etish jarayonida uning yuridik shaxsni boshqaradigan yangi egalari kreditorning talablari uchun javobgar bo'lishi [1].

Simon Deakin, Viviana Mollica, Prabirjit Sarkar kabi mualliflar “Kreditor huquqlari himoyasi-ning turlari: iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda to’lovga qobiliyatsizlik to’g’risidagi qonunchilik islohotlari va qarzdorlikning kengayishi” [2] nomli asarlarida korporativ to’lovga qobiliyatsizlik holatida qonun kreditor va qarzdor – yuridik shaxs o’rtasidagi munosabatlarga ta’sir ko’rsatishi mumkin bo’lgan boshqa omillar va vositalar mavjudligini ham ta’kidlashadi. Ular jumlasiga sarmoyaga nisbatan minimal talabni belgilash va umumiy ma’noda yuridik shaxs aktivlari barqarorligini ta’minlashga yo’naltirilgan sarmoyani qo’llab-quvvatlash qoidalarini o’rnatish, yuridik shaxs organlari zimmasiga kreditorlar oldidagi majburiyatni bajarishga undovchi qo’shimcha mas’uliyatni yuklash hamda sudlarga “korporativ shaxsiyat”ning “pardasini ko’tarish” imkonini beradigan hamda kreditor talablarini bajarishdan bo’yin tovlashga yo’l ochishi mumkin bo’lgan korporativ aktivlar bo’linishini oldini oladigan choralar kiradi [3].

Kreditorlar huquqlarini himoya qilishning choralarini ishlab chiqishda, biznes aloqalarining bir mamlakat hududi va qonunchiligidan chetga chiqishi, bu ayniqsa investitsiyalarning kirib kelishi va iqtisodiy integratsiyalashuvning rivojlaniishi bilan yanada ahamiyatli bo’lishi mumkinligidan kelib chiqish lozim. Bu holatda turli huquq tizimlarida yuridik shaxslar qayta tashkil etish jarayonida kreditor huquqlarini himoya qilishga nisbatan yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash muhimdir. Albatta, qayta tashkil etish jarayonida faqat huquqlari ta’minlangan kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish konsepsiyaga tayanilishining o’zi yetarli bo’lmaydi va bunda kreditorlarning huquqlarini himoyalovchi samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zarurdir [4]. Minimal sarmoya (kapital) qoidasi fuqarolik huquqi amal qiladigan mamlakatlarda an’anaviy sur’atda kreditorlar huquqlarini himoya qilishda foydalanilib kelingan va ayni paytda qarzdor – yuridik shaxsning barcha aktivlariga nisbatan possessor bo’lmagan ta’minotni olish avvalboshdanoq ingliz huquq amaliyoti hisoblangan va umumiy huquq konsepsiyasining ta’siri ostida bo’lgan [5]. Fransiya Fuqarolik kodeksidan kelib chiqadigan yurisdiksiya ingliz huquqiga asoslangan bankrotlikni rejalashtirishga egiluvchanlik beradigan “hisobga o’tkazish va tijorat ishonchi”

konsepsiyasini qabul qilishda shoshilmaganligi ko’zga tashlanadi [6]. Asosiy va qaram (“ona-qiz”) kompaniyalar va korporativ guruhlar o’rtasidagi munosabat bilan bog’liq bo’lgan alohida yuridik shaxsning to’lovga qobiliyatsizligi to’siqlarini bartaraf etish yo’li bilan cheklangan javobgarlikni inkor etish AQShda qo’llaniladigan amaliyot hisoblanadi, biroq bu Buyuk Britaniyada bir qator bahslarni yuzaga keltiradi [7, 8] va fuqarolik huquqi amal qiladigan mamlakatlarda cheklangan tarzda qo’llaniladi [9].

Dyankov va boshqalarning qayd etishicha [10], 1970-yillarning oxiri va 2000-yillarning o’rtalari-gacha bo’lgan davrda korporativ to’lovga qobiliyatsizlik va qayta tashkil etish to’g’risidagi qonunchilikda o’zgarishlar davri bo’lgan, biroq bu davrda yuridik shaxslarni qayta tashkil etish sohasida MDH davlatlari qonunchiligi shakllanishining dastlabki bosqichi kuzatilgani holda, qayta tashkil etishda kreditor huquqlarining himoyasida kuchli va ishonchli mexanizmlar yaratilmaganligi ko’zga tashlanadi. Xususan, 2000-yillarning o’rtalarida yuridik shaxslarning bekor bo’lishi (qayta tashkil etish va tugatish)ga oid qonunchilikda tez-tez o’zgarishlar bo’lishi tadbirkorlik faoliyatida xalqaro aloqalarning kuchayishi [11], iqtisodiy integratsiyalashuv va sohaga oid qonunchilikning birxillashtirilishi va qayta tashkil etishning ko’payishi (davlatga qarashli yuridik shaxslarni xususiy sektorga o’tkazilishi) va to’lovga qobiliyatsizlikdan yuridik shaxslarni chiqarishga bo’lgan huquqiy mexanizmlarning yaratilishi bilan bog’liqdir [12]. Shuningdek, ayrim mutaxassislar bu davrdagi to’lovga qobiliyatsiz yuridik shaxslarni sog’lomlashtirish va kompaniyalarni tugatish sohasidagi islohotlar yuridik jihatdan sezilarli darajada maqbul bo’lmaganligi, faqatgina iqtisodiy bosim va ijtimoiy hamda siyosiy sohadagi qadriyatlarining kuchayishidan kelib chiqqanligini qayd etishadi [13].

Bir qator mamlakatlar bank tizimi, xususan, Rossiya Federatsiyasi Markaziy banki mazkur davrdagi to’lovga qobiliyatsizlik to’g’risidagi qonunchilikning murakkabligini kreditor huquqlari himoyasini baholashni uchta mezonga ajratish va kreditor huquqlarining turli usullarini ajratish yo’li bilan ko’rsatib beradi: qarzdorlarni nazorat qilish, kredit shartnomalari va to’lovga qobiliyatsizlik taomillari. Qayta tashkil etish va tugatish jarayonida kreditorlar huquqlarini himoya

qilish usullarida aynan ushbu mezonlar namoyon bo'ladi [14].

Abstract. *The principle that forms the basics of corporate law implies that the identity, property and liability of a legal entity are separated from the identity, property and liability of the shareholders and managers involved in it. However, there is a risk that the interests of creditors will be harmed as a result of the activities of some individuals who abuse limited liability formed in corporate law. In this regard, the practice of applying to the institute of “lifting the corporate veil” has been introduced in the corporate law of developed countries. In world practice, ex ante and post control measures are taken to ensure the interests of creditors of legal entities created with the element of limited liability. According to ex ante control it is meant that taking measures to ensure the interests of creditors when establishing a legal entity. These measures include the establishment of requirements for the minimum amount of the share capital, liability insurance of legal entities, etc. Post control envisages measures to ensure the interests of creditors at the stage of emergence of liability of legal entities and to strengthen and improve in the legislation the possibility of applying the concept of “lifting the corporate veil”. This article discusses the essence of the concept of “lifting the corporate veil” and issues related to the improvement of this concept in the corporate law of Uzbekistan, based on international experience.*

Keywords: Corporation, bankruptcy, legal entity, controlling person, lifting the corporate veil.

Hozirda mamlakatimiz fuqarolik huquqini takomillashtirishga oid keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi 5464-sonli farmoyishi [1] bilan tasdiqlangan “O'zbekiston Respublikasining fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasi” bilan ushbu sohani takomillashtirish yo'nalishlari belgilangan. Mazkur Konsepsiyaga muvofiq fuqarolik-huquqiy javobgarlik institutini takomillashtirish, korporativ munosabatlarni Fuqarolik kodeksining tartibiga solish predmeti doirasiga kiritish, kreditor va qarzdorlar huquqlarining ishonchli kafolatlarini ta'minlash, jamiyat va xalqaro standartlarning axloqiy prinsip va ma'naviy me'yorlari (“halollik”, “adolat”, “oqillik” va boshqa prinsiplar)ni inobatga olgan holda fuqarolik-huquqiy munosabatlarning amaldagi prinsiplarini takomillashtirish va yangilarini joriy qilish, yuridik shaxs direktorining fidutsiar majburiyatlari institutini qonunchilikka kiritish vazifalari haqli ravishda ta'kidlangan.

Ushbu vazifalar ijrosi o'laroq, yangilanayotgan ijtimoiy munosabatlarga mos qoidalar belgilashni maqsad qilib qo'ygan O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi loyihasida [2] muhim o'zgarishlar nazarda tutilmoqda. Buni korporativ huquqiy munosabatlarga oid qoidalarda ham ko'rish mumkin. Jumladan, kodeks loyihasiga muvofiq korporativ huquqiy munosabatlar o'ziga xos xususiyat-

larga ega alohida fuqarolik huquqiy munosabat ekanligi e'tirof etilgan, yuridik shaxs mazmuni va turlariga oid yangiliklar nazarda tutilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining “To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida”gi qonun loyihasi [3] ishlab chiqilgan bo'lib, unda korporativ javobgarlik masalalariga oid bir qator yangiliklar taklif etilmoqda. Ushbu maqolada amalga oshirilayotgan islohotlarga muvofiq korporativ huquqda yuridik shaxsni faktik nazorat qiluvchi va uning faoliyatidan foyda oluvchi shaxslarning javobgarligi masalalari yoritib o'tiladi.

Dunyo tajribasida cheklangan javobgarlik elementi bilan tashkil etiladigan yuridik shaxslar kreditorlari manfaatlarini kafolatlash maqsadida *ex ante* va *post control* choralari ko'riladi. *Ex ante control* yuridik shaxs tashkil etilayotgan paytda kreditorlar manfaatlarini kafolatlash choralari ko'rishni nazarda tutadi. Bunday choralar qatoriga ustav kapitali minimal miqdoriga talablar belgilash, yuridik shaxs javobgarligini sug'urtalash kabilar kiradi [4]. *Post control* esa javobgarlik yuzaga keladigan bosqichda kreditorlar manfaatlarini kafolatlash choralari ko'rishni nazarda tutib, “korporativ niqoblarni olib tashlash” konsepsiyasini qo'llash imkoniyatlari qonunchilikda mustahkamlanadi va takomillashirib boriladi. Milliy qonun ijodkorligi faoliyati tadbirkorlikka keng imkoniyat yaratish maqsadida xo'jalik jamiyatlari ustav kapitaliga

qo'yilgan talablarni olib tashlash yo'lini tanladi. Bu esa aksariyat sivilistlar tanqidiga sabab bo'lib, ularning fikriga ko'ra yuridik shaxsning kreditorlari manfaatlari kafolati bo'lgan ustav kapitalining eng kam miqdori haqidagi qoidadan voz kechilishi fuqarolik muomalasi barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu munosabat bilan tadqiqot ishi-da *post control* sifatida O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining [5] 48-moddasida nazarda tutilgan "korporativ niqoblarni olib tashlash" konsepsiyasini takomillashtirib, yuridik shaxsning kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun to'lovga qobiliyatsizligi yuzaga kelgan hollarda cheklangan javobgarlik elementi bilan tashkil etilgan yuridik shaxs konstruksiyasini suiiste'mol qilgan faktik boshqaruvchi shaxslar zimmasiga subsidar javobgarlik yuklash imkoniyatlarini kengaytirish haqidagi takliflar ilgari suriladi.

"Korporativ niqoblarni olib tashlash" – bu ingliz-amerika huquq tizimiga xos bo'lgan konsepsiyadir. "Korporativ niqoblarni olib tashlash" konsepsiyasi faqatgina nazorat qiluvchi ishtirokchilar/aksiyadorlar javobgarligini nazarda tutmaydi. Ushbu konsepsiya kompaniyaning haqiqiy benefitsiarlari haqida ma'lumot olish maqsadida, shuningdek, hattoki kompaniyani nazorat qiluvchi shaxslar foydasiga ham qo'llanishi mumkin. Shunga ko'ra "korporativ niqoblarni olib tashlash" konsepsiyasi ikki shaklga ajratiladi: 1) yuridik shaxsni uni nazorat qiluvchi shaxslar bilan bir shaxs deb topish ("отождествление" (идентичность) корпорации с контролирующим ее лицом); 2) "yorib o'tuvchi javobgarlik" (проникающая ответственность) [6, 30-31-b.].

Bunda yuridik shaxsni uni nazorat qiluvchi shaxslar bilan bir shaxs deb topish – huquqning ayrim subyektlari yuridik shaxs konstruksiyasidan qonun talablarini "aylanib o'tish" yoki zimmasidagi majburiyatlardan ozod bo'lish maqsadida foydalangan hollarda amalga oshirilishi mumkin. Masalan, ayrim holatlarda biror-bir mamlakatda chet ellik shaxslarga ko'chmas mulkka (jumladan, chegara zonalarida yer uchastkasiga) ega bo'lishga oid taqiq belgilashi mumkin. Shunday hollarda chet ellik shaxslar tegishli mamlakat hududida yuridik shaxs tashkil etib, uning nomiga shunday mol-mulkni rasmiylashtirish orqali qonun talablarini "aylanib o'tish" imkoniyatiga ega bo'lishi mumkin (hattoki, 2-bosqichda yuridik shaxs tashkil etib qonun talablarini aylanib o'tish holat-

lari kuzatilgan (masalan, bir necha yuridik shaxs tashkil etib, ularni ta'sischi sifatida belgilab, yana bir yuridik shaxs tashkil etib, oxirgi yuridik shaxs nomiga mol-mulk olish) [7, 190-b.].

"Korporativ niqoblarni olib tashlash" konsepsiyasining tadqiqot ishi uchun ahamiyatli hisoblangan shakli bu – "yorib o'tuvchi javobgarlik"dir.

Adabiyotlarda "yorib o'tuvchi javobgarlik"ning, odatda, korporatsiya direktorlariga nisbatan qo'llanilmasligi, istisno tariqasida, direktorlarga nisbatan mulkchilik va boshqaruv funksiyalari birlashganda, ya'ni korporatsiya direktori bir vaqtning o'zida korporatsiya aksiyadori/ishtirokchisi ham bo'lgan holatlarda qo'llanishi mumkinligi qayd etiladi. Boisi cheklangan javobgarlik bu korporatsiya va aksiyador/ishtirokchi o'rtasidagi javobgarlikni ajratuvchi prinsip hisoblanib, direktor ishtirokchi/aksiyador bo'lmaganligi bois uning javobgarligida cheklangan javobgarlikni "yorib o'tish" yuzaga kelmaydi [6, 32-b.]. Shuningdek, ba'zi olimlar tomonidan qayd etilishicha, "bir kunlik firmalar" yoki "bir shaxsga tegishli bir necha kompaniyalar"da direktorlarni ushbu konsepsiya bo'yicha javobgarlikka tortish samarasiz hisoblanadi. Chunki bunday kompaniyalarda direktorlar sifatida mol-mulki bo'lmagan shaxslar nominal direktor sifatida tayinlanib, faktik boshqaruv nazorat qiluvchi shaxslar tomonidan amalga oshiriladi [7, 26-27-b.].

Fikrimizcha, yuridik shaxs majburiyatlari bo'yicha subsidar javobgarlik yuklanishi mumkin bo'lgan shaxslar doirasini ularning maqomiga qarab emas, balki yuridik shaxs faoliyatiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga amalda ega bo'lganligidan kelib chiqib belgilash maqsaga muvofiq. Shunga yaqin fikrlar O.V. Gutnikov [8, 259-b.] va D.V. Lomakin [9, 6-32-b.] tomonidan ham bildiriladi. Unga ko'ra "yorib o'tuvchi javobgarlik" konsepsiyasi qoidalari kreditorlar manfaatlari-ni kafolatlash maqsadida joriy etilgan va yuridik shaxsning mol-mulki, shaxsi va javobgarligidan ishtirokchilar (menejerlar) shaxsi, mol-mulki va javobgarligining ajratilganligi prinsipidan istisno tarzda qo'llanadi. Ushbu konsepsiya yuridik shaxs majburiyatlari bo'yicha uning ishtirokchilari yoki menejerlari yoki yuridik shaxsni nazorat qilish imkoniga ega bo'lgan boshqa shaxslar zimmasiga javobgarlik yuklashda aks etadi. I.S. Shitkina hamda D.I. Stepanov fikriga ko'ra esa nazorat qiluvchi shaxslar shartnomaga ko'ra,

ustav kapitalida ustunlik bilan (50 % ulush bilan) ishtirok etishi natijasida yuridik shaxs qarorlarini belgilab berish imkoniyatiga ega shaxslar. Biroq ustav kapitalida ustunlik bilan ishtirok etishning o'zi ishtirokchini nazorat qiluvchi shaxs deb topishga asos bo'lmaydi. Asosiy me'zon nazorat ostidagi yuridik shaxs xohish-irodasini shakllantirish va ifoda etishdan iborat faoliyatni belgilashga faktik ta'sir etganlik bilan aniqlanishi kerak [10, 145–160-b].

Rasman direktor hisoblanmasa-da, kompaniya joriy faoliyatiga ko'rsatmalari bilan haddan ortiq ta'sir ko'rsatadigan ishtirokchilar/aksiyadorlar esa *de facto* direktor yoki *kvazi*-direktor deb nom olgan [11]. Bunda asosiy e'tibor qaror qabul qilish markaziga qaratiladi, ya'ni ishtirokchini *de facto* direktor deb topish uchun qaror qabul qilish markazi boshqaruv organlaridan shu ishtirokchi/aksiyadorga ko'chishi kuzatiladi. Shundan kelib chiqib, Germaniyada kompaniya ustav kapitalida ustunlik bilan ishtirok etuvchi aksiyadorlar/ishtirokchilar zimmasiga ham fidutsiar majburiyatlar yuklatiladi.

"Korporativ niqoblarni olib tashlash" konsepsiyasining "yorib o'tuvchi javobgarlik" shakli nazorat ostidagi yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo'lmagan hollarda nazorat qiluvchi shaxslarning yuridik shaxs kreditorlari oldida javobgar bo'lishini nazarda tutadi va bu "to'g'ri yo'nalishdagi yorib o'tuvchi javobgarlik" deb nom olgan [6, 33-51-b.].

Shuningdek, ba'zi mamlakatlarning sud amaliyoti va huquq nazariyasida "teskari yo'nalishdagi yorib o'tuvchi javobgarlik"ni qo'llash imkoniyati ham nazarda tutilib, unga ko'ra nazorat qiluvchi shaxslarning qarzlari bo'yicha undiruv uning nazorat ostidagi yuridik shaxslari mol-mulkiga qaratiladi. Amerika va Gollandiya olimlari ushbu javobgarlik turini ma'qullaydi. Xususan, R.K. Van Dongen fikriga ko'ra ushbu javobgarlik, ayniqsa, nazorat qiluvchi shaxs kreditorlardan yashirish maqsadida o'z aktivlarini nazorat ostidagi yuridik shaxsga o'tkazib qo'ygan hollarda o'rinli chora bo'lib xizmat qiladi [12, 313-b.].

Adabiyotlarda "vertikal", ya'ni "to'g'ri yoki teskari yo'nalishdagi yorib o'tuvchi javobgarlik"dan tashqari "gorizontal yorib o'tuvchi javobgarlik" ham qayd etiladi. Unga ko'ra nazorat qiluvchi shaxsning umumiy nazorati ostida bo'lgan bir nechta yuridik shaxslar o'rtasida aktivlarni "aylantirish" imkoniyati nazarda tutilib, ularning

aktivlariga undiruv qaratish mumkin bo'ladi. Gorizontaal javobgarlikda mol-mulk nazorat ostidagi bir yuridik shaxsdan (A kompaniyadan) nazorat ostidagi boshqa yuridik shaxsga (B kompaniyaga) o'tkazib yuborilganida ushbu kompaniyalarni nazorat qiluvchi shaxsning xatti-harakatlari natijasida yuzaga keladigan javobgarlik bo'yicha undiruvni B kompaniya mol-mulkiga qaratish mumkinligi nazarda tutiladi. Ushbu turdagi javobgarlik AQShning aksariyat shtatlarida mavjud [6, 53-b.].

Rus korporativ huquqida qayd etilishicha, ushbu konsepsiya bankrotlik ishi doirasida yuridik shaxsni nazorat qiluvchi shaxsga nisbatan qo'llanadi. Zarar huquq subyektlariga nazorat qiluvchi shaxs tomonidan bevosita emas, balki nazorat ostidagi yuridik shaxs faoliyatiga ta'sir o'tkazish bilan yetkaziladi, ya'ni zarar, dastlab, yuridik shaxsda yuzaga keladi, uning aktivlari kamayadi, bu esa kreditorlar talablari qanoatlantirilishining imkonsiz bo'lib qolishiga olib keladi [13, 259-b.].

"Межпромбанк" ЗАО majburiyatlari (75 mlrd rubl.) bo'yicha subsidiar javobgarlikka tortilgan S. V. Pugachev ishi ushbu konsepsiya qo'llanishiga oid klassik namuna sifatida keltiriladi. "Межпромбанк" ЗАОni bankrot deb topish doirasida A. Pugachev va bank ijro direksiyasi a'zolari zimmasiga nazorat qiluvchi shaxslar sifatida subsidiar javobgarlik yuklash masalasi qo'yiladi. Ish holatlariga ko'ra bank faoliyatini boshqarish bo'yicha sxema tashkil etilib, unga muvofiq bankning asosiy aksiyadorlari RFda tashkil etilgan 9 ta MCHJ shaklidagi yuridik shaxs hisoblangan. Mazkur yuridik shaxslar (MCHJ) ta'sischilari hisoblangan 5 ta offshor kompaniyaning barchasi *OPK Trust Company Ltd* kompaniyasiga tegishli bo'lgan. S. V. Pugachev esa *OPK Trust Company Ltd* kompaniyasi bilan ishonchli boshqaruv (trust) shartnomasini tuzib, "Межпромбанк" ЗАО faoliyatini bilvosita nazorat qiluvchi shaxsga aylangan. Shuningdek, qayd etilishicha, S.V. Pugachev "Межпромбанк" ЗАО binosida alohida kabinet tashkil etib, bevosita faktik boshqaruvni ham amalga oshirgan: bank xodimlariga bajarilishi majburiy ko'rsatmalar bergan, turli bitimlar amalga oshirilishi uchun undan rozilik olingan. Xususan, bank ijro direksiyasi raisi A. Didenko sudda taqdim etgan ko'rsatuvlarga ko'ra, bitimlar uchun mas'ul bank bo'linmasi tomonidan bitimlar mansabdor shaxs ism-familiyasi ko'rsatilmagan holda tasdiqlash uchun S.V. Pugachevga taqdim etilgan.

Bitimlar S.V. Pugachev tomonidan muhr qo'yilgandan keyin ijroga yuborilgan. Barcha kreditlar uning ko'rsatmasi yoki roziligi asosida berilgan. Sud protsessida ushbu boshqaruv sxemasi va bitimlarni kelishish tartibi bank ijro direksiyasi-ning boshqa a'zolari tomonidan ham tasdiqlandi. Sud ishida S.V. Pugachevning nazorat qiluvchi shaxs ekanligi, uning ta'siri bilan tuzilgan kredit shartnomalari va bankning to'lovga qobiliyatsizligi (bankrotligi) o'rtasida sabab-oqibat bog'lanishi o'rnatiladi va S.V. Pugachev zimmasiga subsidiar javobgarlik yuklatiladi [14, 85-b.].

"Yorib o'tuvchi javobgarlik" bo'yicha Germaniya qonunchiligining o'ziga xos xususiyati unda kompaniyalar guruhiga oid qoidalar mavjudligi bilan izohlanadi. Kompaniyalar guruhi ikki toifaga ajratiladi: 1) "shartnomaviy konsernlar" bo'yicha yuridik shaxslar o'rtasida shartnoma tuziladi (milliy qonunchilikda asosiy va sho'ba xo'jalik jamiyatlari kabi). 2) "faktik konsernlar"da bir yuridik shaxsning ikkinchi yuridik shaxs faoliyatini belgilab berish imkoniyati ustav kapitalida ustunlik bilan ishtirok etishdan kelib chiqadi.

Konsernlarni ajratilgan guruhlariga qarab ulardagi javobgarlik ham farqlanadi. "Shartnomaviy konsernlar" bo'yicha nazorat qiluvchi kompaniya zimmasida nazorat ostidagi kompaniyaning yillik zararini qoplash majburiyati bo'ladi. "Faktik konsernlar"da esa nazorat qiluvchi kompaniya nazorat ostidagi kompaniyaga muayyan bitim tuzilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplab berishi talab etiladi (ushbu javobgarlik turiga o'xshash holat O'zR qonunchiligida ham belgilangan. O'zRning "AJ to'g'risida"gi Qonunning [15] 8-moddasiga muvofiq sho'ba xo'jalik jamiyatiga majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan asosiy jamiyat bunday ko'rsatmalarni bajarish uchun sho'ba xo'jalik jamiyati tomonidan tuzilgan bitimlar yuzasidan sho'ba xo'jalik jamiyati bilan solidar javobgar bo'ladi).

Nemis tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, kompaniya guruhlariga oid qoidalar kreditorlar manfaatlarini kafolatlay olmagan hollarda "bir kishining kompaniyasi"ga oid qoida ham qo'llanishi mumkin. Bir necha ishtirokchisi bo'lgan kompaniyalarda ishtirokchilar nazorati o'rnatilishidan farqli ravishda bir ishtirokchiga tegishli bo'lgan kompaniyada kompaniya mol-mulki, biznes imkoniyatlaridan shaxsiy manfaatlar yo'lida foydalanib, turli korporativ suiiste'molliklar va huquqbuzarliklar sodir

etish imkoniyati yuqori bo'ladi [6, 81-b.]. Nemis huquqida ushbu javobgarlik turini yuzaga kelish shartlari sifatida quyidagi holatlar sanab o'tiladi:

- nazorat qiluvchi shaxslarning kompaniya mol-mulkidan o'z mulkidek foydalanishi. Bu ko'pincha buxgalteriya hisobotlarini noto'g'ri yuritish bilan birga kuzatiladi.

- kompaniya va nazorat qiluvchi shaxslar faoliyatining birlashib ketishi. Ya'ni nazorat qiluvchi shaxs va nazorat ostidagi yuridik shaxs bir turdagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadi, bunda yuridik shaxsning xodimlari, uskunalari, binolari va boshqa aktivlari nazorat qiluvchi shaxs faoliyatiga tez-tez jalb etiladi.

- yuridik shaxs faoliyatining moddiy jihatdan yetarli hajmda ta'minlanmaganlik (недокапитализацию). Bu ustav kapitalini shakllantirmaslik emas. Ushbu shart mazmuni shundan iboratki, kompaniya aktivlari qiymati u amalga oshiradigan faoliyat turida yetarli bo'lmaydi. Kompaniya tegishli faoliyat sohasida odatda talab etiladigan miqdorda mol-mulki bo'lmay turib, riskli bitimlar tuzadi. Kompaniyaning yetarli hajmdagi moddiy aktivlar bilan ta'minlamaslik kompaniya tashkil etilganida, avvaldan, vujudga kelishi mumkin yoki kompaniya faoliyati davomida undan aktivlar olib chiqib ketilishi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

- yuridik shaxs mustaqilligi prinsipini buzib uning faoliyatiga haddan ortiq ta'sir o'tkazish, faoliyatini belgilab beruvchi ko'rsatmalar berish [16, 63-b.].

Fransiyada ushbu konsepsiya bankrotlik protsedurasi doirasida qo'llaniladi. Jumladan, korporatsiya bankrot bo'lgan hollarda korporatsiyani nazorat qiluvchi shaxs ham bankrotlikka jalb etilib, uning shaxsiy mol-mulki konkurs massasiga kiritiladi. Kreditorlar talablari to'la qanoatlantirilgan hollarda nazorat qiluvchi shaxsga nisbatan bankrotlik ishi ochilmaydi.

Fransiyada "yorib o'tuvchi javobgarlik" konsepsiyasiga murojaat etishga quyidagi belgilar mavjudligi imkon beradi: kompaniyadan kreditorlarni aldash va kreditorlardan aktivlarni yashirish uchun foydalanilganligi; kompaniya direktorlari va ishtirokchilarining affillangan shaxslar ekanligi; boshqaruvda kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi (qonun hujjatlari, ta'sis hujjatlari va ichki hujjatlarda ko'rsatilgan tartib-qoidalarga rioya etilganligi); nazorat qiluvchi shaxslarning kompaniya mol-mulkidan o'z mol-mulkidek foydalanishi; kom-

paniya aktivlarining noodatiy harakati; buxgalteriya hujjatlarini noto'g'ri yuritilishi; kompaniya aktivlarini yoki oladigan kreditlarini o'z ehtiyojlari uchun yo'naltirish; muayyan ishtirokchining ustav kapitalida ustunlik bilan ishtirok etishi; umumiy yig'ilish o'tkazilmasdan qarorlar qabul qilinishi; yuridik shaxs aktivlarini kam qiymat muqobil ijro evaziga yoki tekinga o'tkazib berish.

Qolaversa, fransuz korporativ huquqida yolg'on ko'rinish yaratganlik nazariyasi (создание (ложной) видимости) ham mavjud. Unga ko'ra, shartnomaviy munosabatlarga kirishishda kompaniyani nazorat qiluvchi shaxslar o'zlarini shunday tutadiki, xuddi nazorat qiluvchi shaxs o'zining nazorati ostidagi kompaniya majburiyatlari bajarilishini kafolatlaydigandek ko'rinish hosil bo'ladi.

Bankrotlik protsedurasida konkurs massasiga *de facto* direktor sifatida harakat qilgan kompaniya ishtirokchilari mol-mulki kiritilishi mumkin bo'lib, ishtirokchilari kam sonli bo'lgan kompaniyalarda bunday holat yuzaga kelishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Shuningdek, muayyan shaxsni faktik direktor deb e'tirof etish me'zonlari belgilanmagan, shu boisdan kompaniyaning joriy xo'jalik faoliyatiga doimiy ta'sir o'tkazib kelganligi aniqlangan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs nazorat qiluvchi shaxs deb topilishi mumkin.

Nazorat qiluvchi shaxslar zimmasiga boshqaruvda yo'l qo'ygan kamchiliklari tufayli yetkazilgan zarar natijasida kompaniya bankrotligi yuzaga kelib, kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun kompaniya mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda javobgarlik yuklatiladi. Bunda isbotlash majburiyati da'vogar zimmasida bo'ladi. Buning uchun muayyan shaxsning faktik boshqaruvchi ekanligi, u tomonidan boshqaruvda xatoga yo'l qo'yilganligi (hatto ehtiyotsizlik natijasida ham) isbotlansa, uni kompaniya bankrotligi to'g'risidagi ishga jalb qilish mumkin bo'ladi. Bunda nazorat qiluvchi shaxs kreditorlar talablarini qanoatlantira olmasa, uning o'zi ham bankrot deb topilishi mumkin [6, 94–98-b.].

Ushbu konsepsiyaga oid milliy qonunchilik haqida fikr yuritadigan bo'lsak, cheklangan javobgarlik elementi bilan tashkil etilgan yuridik shaxslarda (MCHJ va AJ-larida) yuridik shaxs majburiyatlari bo'yicha ishtirokchilar/aksiyadorlar zimmasiga javobgarlik yuklash bankrotlik ishi doirasida yuzaga kelishi mumkin. Xususan, amaliyotda sudlar tomonidan "korporativ niqoblarni

olib tashlash" konsepsiyasini qo'llash holatlari ham uchrab turadi. Jumladan, FIB Sirdaryo tumanlararo sudining 06.03.2020 sanasidagi 2-1202-2003/367-son ish bo'yicha chiqargan qaroriga [17] ko'ra soliq organi tomonidan "SIRDARYO FAYZ SERVIS" MCHJning qarzlari bo'yicha uning rahbarini subsidiar javobgarlikka tortish haqida sudga da'vo arizasi kiritilgan. Ish holatlariga ko'ra MCHJning soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan qarzdorligi 5 850 048 so'mni tashkil etib, ijro ishi yuritish natijalariga ko'ra undiruvni amalga oshirish uchun qarzdorning mol-mulki yetarli emasligi aniqlangan. Ushbu holat bo'yicha sud tomonidan O'zR FKning 48, 329-moddalari qo'llanib, qarzdor majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik MCHJ rahbari zimmasiga yuklatilgan. Biroq sud qarorida subsidiar javobgarlikka tortish shartlari ko'rsatib o'tilmagan. Quyida O'zR FK hamda O'zRning "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonuni [18] asosida yuridik shaxs majburiyatlari bo'yicha yuridik shaxs ishtirokchilari va boshqaruv organlarini subsidiar javobgarlikka tortish shartlari ("korporativ niqoblarni olib tashlash" shartlari) haqida fikr yuritamiz.

O'zR FKning 48-moddasiga muvofiq, agar yuridik shaxsning nochorligi (bankrotligi) shu yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalarni berish huquqiga ega bo'lgan muassis (ishtirokchi) sifatidagi shaxsning yoki yuridik shaxs mol-mulki mulkdorining g'ayriqonuniy harakatlari tufayli vujudga keltirilgan bo'lsa, yuridik shaxsning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda bunday shaxs zimmasiga uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklatilishi mumkin.

Muassis (ishtirokchi) yoki yuridik shaxs mol-mulkining mulkdori shu yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan taqdidagina majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega.

Yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan muassis (ishtirokchi) yoki mulkdor yuridik shaxsning muayyan harakatni amalga oshirishi oqibatida nochor (bankrot) bo'lib qolishini oldindan bilib, o'z huquqidan uning ana shunday harakatni amalga oshirishini ko'zlab foydalangan holdagina yuridik shaxsning nochorligi (bankrotligi) ularning tomonidan vujudga keltirilgan deb hisoblanadi.

Mazkur qoidalardan kelib chiqadigan bo'lsak, quyidagilar yuridik shaxs ishtirokchilari/aksiyadorlari subsidiar javobgarligining zaruriy shart-

lari hisoblanadi: 1) yuridik shaxs ishtirokchisining yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega ekanligi (ushbu huquq yuridik shaxsning ta'sis hujjatlarida bevosita ko'rsatilgan bo'lishi kerak); 2) aybli g'ayriqonuniy xatti-harakat sodir etganligi; 3) bankrotlik shaklidagi salbiy oqibat kelib chiqqanligi; 4) ishtirokchi/aksiyadorning g'ayriqonuniy xatti-harakati va yuridik shaxs bankrotligi yuzaga kelishi o'rtasida sabab-oqibat bog'liqligining mavjud bo'lishi; 5) kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun yuridik shaxs mol-mulkining yetarli emasligi. Bunda ishtirokchi/aksiyor(lar)ning aybi yuridik shaxsning muayyan harakatni amalga oshirishi oqibatida nochor (bankrot) bo'lib qolishini oldindan bilib, o'z huquqidan uning ana shunday harakatni amalga oshirishini ko'zlab foydalanganligida (ya'ni to'g'ri yoki egri qasd shaklida) ifodalanadi.

Fikrimizcha, FKning 48-moddasi 4–6-bandlarida nazarda tutilgan solidar javobgarlik shartlarini quyidagi asoslarga ko'ra takomillashtirish talab etiladi:

Subsidiar javobgarlik ishtirokchi/aksiyadorning yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqi ta'sis hujjatlarida nazarda tutilgan bo'lsagina, yuzaga kelishi mumkin. Odatda ta'sis hujjatlarida bunday shart nazarda tutilmaydi. Bu esa ishtirokchini, garchi yuridik shaxs qarorlarini belgilab bersa ham, subsidiar javobgarlikka jalb qilish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi. Jumladan, FIB Mirobod tumanlararo sudining 09.03.2020 sanasida № 2-1002-2006/91 (1-1388/20)-sonli ish bo'yicha chiqargan qarorida [19] ham yuridik shaxs ishtirokchisining yuridik shaxs uchun majburiy ko'rsatmalar berish huquqi ta'sis hujjatlarida ko'rsatilmaganligi da'vo talablarini qanoatlantirishni rad etish sabablaridan biri sifatida qayd etiladi.

Qolaversa, O'zR Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-avgustdagi 224-son qarori bilan tasdiqlangan "Soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish aloqatlarini aniqlash qoidalari"ning [20] 36-bandiga murojaat etadigan bo'lsak, uning mazmunidan yuridik shaxs faoliyatini belgilab berish imkoniyati aniqlangan har qanday ishtirokchi zimmasiga subsidiar javobgarlik yuklash mumkinligi kelib chiqadi. Unga ko'ra qarzdor, unga majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan *yoxud uning xatti-harakatlarini boshqacha tarzda belgilab berish imkoniyatiga ega bo'lgan* uning muassislari (qatnashchilari) yoki mulkdorining aybiga

ko'ra bankrot bo'lganda, qarzdorning muassislariga (qatnashchilariga) yoki mulkdoriga yuridik shaxs (qarzdor)ning mol-mulki yetarli bo'lmagan taqdirda, yuridik shaxs (qarzdor)ning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgarlik yuklanishi mumkin. Ushbu qoidalarda yuridik shaxs ishtirokchisining majburiy ko'rsatma berish huquqi ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan bo'lishi haqidagi talab nazarda tutilmagan.

Shuningdek, FKning 48-moddasi bo'yicha yuridik shaxsning boshqaruv organlari a'zolarini javobgarlikka tortish mumkin emas. Boisi ushbu moddada javobgarlikning maxsus subyekti sifatida yuridik shaxs muassislari (ishtirokchi/aksiyadorlari) yoki yuridik shaxs mol-mulkining mulkdori (operativ boshqaruv yoki xo'jalik yuritish huquqi asosida tashkil etilgan yuridik shaxslarda) ko'rsatilgan. Boshqaruv organi a'zosi esa ushbu maqomdagi shaxs emas. Bordi-yu, yuridik shaxs boshqaruv organi a'zosi bir vaqtning o'zida ishtirokchi/aksiyador bo'lsa ham, uning javobgarligi boshqaruv organi a'zosi sifatida emas, balki yuridik shaxs ishtirokchisi/aksiyadori sifatida yuqorida sanab o'tilgan shartlar mavjudligida yuzaga kelishi mumkin.

Qayd etilishicha, qonun chiqaruvchi ushbu shartni belgilashda yuridik shaxs qarorlarini belgilab berish imkoniyatiga ega bo'ladigan shaxslarni nazarda tutadi. Qonunchilikdagi ushbu shart nemis korporativ huquqidan o'zlashtirilgan. Nemis korporativ huquqida esa aybdor ishtirokchi zimmasiga korporatsiya majburiyatlari bo'yicha javobgarlik yuklovchi boshqa mexanizmlar mavjud [21].

Fikrimizcha, qonunchilikda belgilangan "majburiy ko'rsatmalar berish huquqining ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan bo'lishi" haqidagi shartni olib tashlash, shuningdek qaror qabul qilish markaziga e'tibor qaratish o'rinlidir. Unga muvofiq qaror qabul qilinishiga faktik ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan nazorat qiluvchi shaxslar doirasi kengroq bo'ladi hamda ularga: 1) ustav kapitalida ustunlik bilan ishtirok etuvchi aksiyadorlar/ ishtirokchilar; 2) yuridik shaxs ijro organi; 3) shuningdek, yuridik shaxs harakatlarini belgilab berish imkoniyatiga amalda ega bo'lgan boshqa shaxslarni ham kiritish mumkin.

Mazkur shaxslarning ushbu maqomda bo'lishi o'z-o'zidan nazorat qiluvchi shaxslar sifatida zimmasiga subsidiar javobgarlik yuklash asosi bo'lmaydi. Ushbu javobgarlik asosi ham yuqorida sanab o'tilganidek, muayyan shartlar maj-

mui (huquqbuzarlik tarkibi) bilan belgilanadi. Ya'ni subsidiar javobgarlik yuzaga kelishi uchun 1) huquqqa xilof xatti-harakat sodir etganligi; 2) kreditorlar talablarini qanoatlantirish uchun yuridik shaxsda mol-mulk yetarli emasligi; 3) yuridik shaxsning to'lovga qobiliyatsizli-

gi va sodir etilgan huquqqa xilof xulq-atvor o'rtasida sabab-oqibat bog'lanishining mavjudligi; 4) ayb; 5) nazorat qiluvchi shaxslarning yuridik shaxs faoliyatini belgilab berish imkoniyatiga amalda ega bo'lganligi fakti ham isbotlanishi kerak.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-apreldagi 5464-sonli farmoyishi // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2019, 08/19/5464/2891-son // URL: <https://www.lex.uz/docs/-4272621>
2. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini tasdiqlash haqida"gi Qonuni loyihasi // URL: <https://regulation.gov.uz/uz/d/29059>.
3. O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida"gi qonuni loyihasi // URL: <https://regulation.gov.uz/uz/document/18367>
4. Ronald J. Gilson, Alan Schwartz. Constraints on Private Benefits of Control: Ex Ante Control Mechanisms V Mechanisms Versus Ex P ersus Ex Post Transaction Re ansaction Review // URL: https://scholarship.law.columbia.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=2760&context=faculty_scholarship
5. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi // URL: <https://lex.uz/docs/111189>;
6. Выканов D. D. "Pronikayushaya otvetstvennost" v zarubejnom i rossiyskom korporativnom prave: diss... kand. yur. nauk. Moskva, 2018, p. 320.
7. Kindler P. The single-member limited liability company (SUP). A necessary reform of EU law on business organizations. Munich, 2016, p. 26-27.
8. Gutnikov O. V. Grajdansko-pravovaya otvetstvennost v otnosheniyax, svyazannyx s pravleniyem yuridicheskimi lisami: diss. ... d-ra. yurid. nauk. Moskva, 2018, p. 259.
9. Lomakin D.V. Konsepsiya snyatiya korporativnogo pokrova: realizatsiya yeye osnovnyx polozeniy v deystviyuyushem zakonodatelstve i projekte izmeneniy Grajdanskogo kodeksa RF // Vestnik VAS RF. 2012, No. 9, p. 6-33.
10. Korporativnoye pravo: Uchebnyy kurs. V 2 t. / Otv. red. I.S. Shitkina. M., 2018. T. 2. S. 716 (avtor glavi – I.S. Shitkina); Stepanov D.I. Fenomen korporativnogo kontrolya // Vestnik grajdanskogo prava. 2009, no. 3, pp. 145-160.
11. Y. Mixalchuk, Subsidiarnaya otvetstvennost. Verhovnyy sud raz'yasnil novyye pravila // Korporativnyy yurist. no. 2, 2018, p. 21.
12. Van Dongen R.C. Identificatie in het rechtspersonenrecht. 2009, p. 313.
13. Gutnikov O. V. Grajdansko-pravovaya otvetstvennost v otnosheniyax, svyazannyx s pravleniyem yuridicheskimi lisami: diss. ... d-ra. yurid. nauk. Moskva, 2018, p. 259.
14. Postanovleniya Arbitrajnogo suda Moskovskogo okruga ot 01.10.2015 № F05-10535/2011
15. O'zbekiston Respublikasining "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-370-son 06.05.2014 // URL: <https://lex.uz/docs/-2382409>.
16. Nanayeva E.A. Grajdansko-pravovaya otvetstvennost osnovnogo obshchestva (tovariushchestva) po obyazatelstvam dochernego obshchestva v prave Rossii i Germanii: diss...kand. yur. nauk. Moscow, 2008, p. 63-64.
17. FIB Sirdaryo tumanlararo sudining 06.03.2020 sanasidagi 2-1202-2003/367-son ish bo'yicha chiqargan qarori // URL: <https://public.sud.uz/#!/sign/civil>.
18. O'zRning "Bankrotlik to'g'risida"gi Qonuni // URL: <https://lex.uz/docs/-955375>;
19. FIB Mirobod tumanlararo sudining 09.03.2020 sanasida № 2-1002-2006/91 (1-1388/20)-sonli ish bo'yicha qarori // URL: <https://public.sud.uz/api/file/civil/1530425>
20. O'zR Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 14-avgustdagi 224-son qarori bilan tasdiqlangan "Soxta bankrotlik, bankrotlikni yashirish va qasddan bankrotlikka olib kelish alomatlarini aniqlash qoidalari // URL: <https://lex.uz/docs/-2223173>
21. U. Xolmirzayev. Problemy otvetstvennosti lis, kontroliruyushix korporatsii pered kreditorami v uzbekskom prave. <https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-otvetstvennosti-lits-kontroliruyuschi-korporatsii-pered-kreditorami-v-uzbekskom-prave>

UDC: 349.6(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-9446-4564

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ ГОСУДАРСТВА: СИСТЕМА, КЛАССИФИКАЦИЯ И ПРОБЛЕМЫ КОДИФИКАЦИИ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА

Файзиев Шухрат Хасанович,
доктор юридических наук, профессор
Ташкентского государственного юридического университета,
e-mail: fayzibek1966@gmail.com

Аннотация. В данной статье исследована роль и значение законодательных актов по обеспечению экологической политики государства. На основе научно-правовых суждений обосновывается следующие направления экологической политики государства: охрана окружающей природной среды, рациональное использование природных ресурсов и обеспечение экологической безопасности. Автор уделяет особое внимание определению таких понятий, как «экологическое законодательство», «источники экологического законодательства», «предмет экологического законодательства». В работе анализируются вопросы систематизации и классификации экологического законодательства на основе специфических особенностей экологического законодательства, а также предлагается классификация эколого-правовых нормативных актов в сфере обеспечения экологической политики государства. Проанализированы общие признаки и особенности конституционных норм, законов Республики Узбекистан, подзаконных актов органов государственной власти и управления, а также принципы и нормы международного права в сфере экологии. Исследованы роль и значение кодификации экологического законодательства, а также сформулированы выводы по разработке проекта Экологического кодекса Республики Узбекистан.

Ключевые слова: экологическая политика государства, направления экологической политики, охрана окружающей природной среды, использование природных ресурсов, экологическая безопасность, экологическое законодательство, источники, предмет, система и классификация экологического законодательства, экологизированные нормы, кодификация экологического законодательства, Экологический кодекс.

DAVLAT EKOLOGIK SIYOSATINING QONUNCHILIK ASOSLARI: TIZIMI, TASNIFI VA KODIFIKATSIYA MUAMMOLARI

Fayziyev Shuhrat Xasanovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti professori,
yuridik fanlar doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlatning ekologik siyosatini ta'minlashda qonun hujjatlarining roli va ahamiyati ko'rib chiqiladi. Ilmiy-huquqiy hukmlar asosida davlat ekologik siyosatining quyidagi asosiy yo'nalishlari asoslab berilgan: atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va aholining ekologik xavfsizligini ta'minlash. Muallif "Ekologik qonun hujjatlari", "Ekologik qonun hujjatlarining manbalari", "Ekologik qonun hujjatlarining predmeti" kabi tushunchalarning ta'rifiga alohida e'tibor beradi. Maqolada ekologiya qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ekologik qonun hujjatlarini tizimlashtirish va tasniflash masalalari tahlil qilinadi, shuningdek, davlatning ekologik siyosatini ta'minlash sohasidagi ekologik huquqiy-me'yoriy hujjatlar tasnifi taklif etiladi. Konstitutsiyaviy normalarning, O'zbekiston Respublikasi qonunlarining, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qonunosti hujjatlarining umumiy va o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ekologiya sohasidagi xalqaro huquq tamoyillari va normalari tahlil qilinadi. Ekologiya qonunchiligini kodlashtirishning o'rni va ahamiyati tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasi Ekologik kodeksini ishlab chiqish bo'yicha xulosalar shakllantirildi.

Kalit soʻzlar: davlatning ekologik siyosati, ekologik siyosatning yoʻnalishlari, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan foydalanish, ekologik xavfsizlik, ekologiya qonunchiligi, ekologiya qonunchiligining manbalari, tabiatni muhofaza qilish qonunchiligining predmeti, ekologiya qonunchiligi tizimi, ekologiya qonunchiligining tasnifi, ekologiya normalari, ekologiya qonunchiligining kodifikatsiyasi, Ekologiya kodeksi.

LEGISLATIVE FOUNDATIONS OF ENVIRONMENTAL POLICY OF THE STATE: SYSTEM, CLASSIFICATION AND PROBLEMS OF CODIFICATION

Fayziev Shukhrat Khasanovich,

Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law

Abstract. This article examines the role and significance of legislative acts to ensure the environmental policy of the state. On the basis of scientific and legal judgments, the following main directions of the state environmental policy are substantiated: environmental protection, rational use of natural resources and ensuring the environmental safety of the population. The author pays special attention to the definition of such concepts as “environmental legislation”, “sources of environmental legislation”, “subject of environmental legislation. The paper analyzes the issues of systematization and classification of environmental legislation based on the specific features of environmental legislation, and also proposes a classification of environmental legal regulations in the field of ensuring the environmental policy of the state. The general and peculiarities of constitutional norms, laws of the Republic of Uzbekistan, by-laws of state authorities and management, as well as principles and norms of international law in the field of ecology are analyzed. The role and significance of the codification of environmental legislation is analyzed, and conclusions on the development of the Environmental Code of the Republic of Uzbekistan are formulated.

Keywords: Environmental policy of the state, directions of environmental policy, environmental protection, use of natural resources, environmental safety, environmental legislation, sources of environmental legislation, the subject of environmental legislation, the system of environmental legislation, classification of environmental legislation, ecologized norms, codification of environmental legislation, Environmental code.

Введение

Охрана окружающей природной среды, рациональное использование природных ресурсов, обеспечение экологической безопасности населения являются основными направлениями экологической политики государства. В этих направлениях осуществляется тесное взаимодействие общества и природы, которое составляет основное предназначение общественных экологических отношений. Экологические отношения в системе взаимодействия «общество – природа» регулируются правом, при помощи которого государство осуществляет экологическую политику. Роль и значение законодательных актов в регулировании сложных эколого-правовых отношений, возникающих в процессе охраны окружающей природной среды, рационального использования природных ресурсов и обеспечения экологической безопасности населения, огромна. От совершенствования законодательных актов в названных сферах напрямую зависит успешное проведение экологической политики каждого государства.

Поэтому, прежде чем приступить к анализу экологического законодательства, мы считаем необходимым подчеркнуть, что различным аспектам развития и формирования экологического законодательства Республики Узбекистан в юридической литературе посвящен ряд работ [1].

В этих работах исследованы теоретические и практические аспекты становления и развития законодательства в области охраны окружающей среды, рационального использования природных ресурсов, очерчены современное состояние и правоприменение природоохранительного и природоресурсового законодательства, высказан ряд предложений и замечаний по дальнейшему совершенствованию экологического законодательства в нашей республике.

Безусловно, научные работы юристов-экологов способствуют развитию и дальнейшему укреплению законодательных основ экологической политики государства. На наш взгляд, актуальным является раскрытие понятий, особенностей, системы и составных частей

законодательных актов в этой сфере. Общеизвестно, что источниками каждой отрасли права являются нормативно-правовые акты, которые создаются в результате правотворческой деятельности компетентных органов государственной власти или всенародным волеизъявлением (референдумом) [2].

Каждый нормативно-правовой акт, участвующий в процессе регулирования общественных экологических отношений, должен отвечать следующим требованиям: приниматься, утверждаться, санкционироваться компетентным органом государственной власти или управления; иметь нормативный (общеобязательный) характер; устанавливать конкретные правила и требования, определять права и обязанности участников эколого-правовых отношений; иметь обязательные атрибуты: форма, структура, сроки применения и т. д. [3].

Материалы и методы

При исследовании использовались следующие методы: структурно-логический, сравнительно-правовой, статистический, описательный, системно-структурный, а также диалектический метод научного познания, сбор и анализ научного и практического материала.

Результаты исследования

В юридической литературе представлены различные определения, раскрывающие понятие источников экологического права. «Источниками экологического права, – пишет проф. В.В. Петров, – признаются нормативно-правовые акты, в которых содержатся правовые нормы, регулирующие экологические отношения» [4]. Наиболее общее определение дает М.М. Бринчук. Под источниками экологического права он предлагает признавать нормативно-правовые акты, содержащие нормы, регулирующие отношения в сфере взаимодействия общества и природы [6].

Обобщая вышеуказанные определения источников экологического права, можно прийти к выводу, что *источники экологического права* – это, во-первых, совокупность нормативно-правовых актов, регулирующих экологические отношения, возникающие в системе «общество – природа».

Кроме того, экологическое законодательство определяется как совокупность нормативных актов, устанавливающих порядок

охраны окружающей среды, рационального использования природных ресурсов [7]. Раскрывая содержание данного определения в юридическом энциклопедическом словаре «Экология», И.Ф. Панкратов констатирует, что экологическое законодательство – комплексная отрасль, включающая природоохранное и природоресурсовое законодательство. Природопользование и охрана окружающей среды, как «две стороны медали», образуют единый сплав экологических общественных отношений, регулируемых экологическим законодательством [8]. В вышеуказанных определениях, на наш взгляд, экологическое законодательство трактуется как совокупность нормативных актов, состоящая из природоохранных и природоресурсовых законодательных актов, регулирующих охрану окружающей среды и использование природных ресурсов, т. е. по направлениям регулирования общественных экологических отношений.

Исследуя систему и содержание экологического законодательства Узбекистана, Ю.А. Жураев приходит к выводу, что современное экологическое законодательство Узбекистана состоит из норм, регулирующих наиболее общие вопросы использования и охраны природных ресурсов и ряда отраслей законодательства: земельного, водного, лесного, горного, законодательства об использовании и охране животного и растительного мира, атмосферного воздуха. В обобщенном виде экологическое законодательство Узбекистана представляет собой систему правовых актов, направленных на сохранение, восстановление, охрану, улучшение благоприятных природных условий, необходимых для жизни и развития материального производства. Экологическое законодательство Узбекистана дополняется экологизированными нормами хозяйственного, трудового, административного, уголовного, гражданского и иного законодательства [9].

Приведенное определение экологического законодательства можно трактовать с двух позиций. С одной стороны оно состоит из норм активных правовых актов, регулирующих наиболее общие вопросы использования и охраны природных ресурсов, и из законодательства по основным объектам природы.

С другой стороны, оценивая содержание и составные части экологического законодательства, можно сказать, что оно характеризуется как система правовых актов, направленных на сохранение, восстановление, охрану, улучшение благоприятных природных условий.

Беря за основу вышеуказанное определение, *понятие экологического законодательства* можем сформулировать следующим образом: это совокупность нормативных актов, регулирующих охрану окружающей среды и использование природных ресурсов, направленное на сохранение, восстановление, охрану, улучшение благоприятных природных условий. Особенность регулирования экономических отношений заключается в том, что оно осуществляется также экологизированными нормативными актами других отраслей права.

Данная трактовка экологического законодательства на сегодняшний день не может характеризоваться как исчерпывающая и отражающая современное состояние законодательных актов в этой сфере, поскольку общественные отношения, возникающие в процессе взаимодействия общества с природой, настолько сложны и динамичны, что требуют постоянного совершенствования правовых актов, регулирующих эти отношения, и интеграции с другими отраслями законодательства путем научно обоснованной экологизации последних. Именно поэтому нормы права должны охватить все направления общественных отношений, т. е. они должны соответствовать предмету правового регулирования. Соответственно, нормы экологического законодательства должны обеспечивать правовыми средствами все направления общественных отношений в системе «общество – природа», которые составляют предмет экологического права.

Правильное определение предмета правового регулирования позволит нам верно трактовать основное содержание и предназначение экологического законодательства. Иными словами, прежде чем представить свое мнение относительно понятия экологического законодательства, необходимо в первую очередь разобраться с предметом правового регулирования экологических отношений.

В правовой литературе имеются различ-

ные точки зрения по этому важному вопросу науки экологического права. Предмет экологического права, пишет, например, А.Н. Аскаров, – это общественные экологические правоотношения в сфере взаимодействия общества и природы [10]. Это, на наш взгляд, слишком общее определение предмета экологического права, которое не позволяет нам конкретно уяснить суть экологических отношений, регулируемых нормами этой отрасли права.

По мнению В.В. Петрова, предметом экологического права являются общественные отношения в области взаимодействия общества и природы, которые подразделяются на отраслевые экологические отношения (земельно-охранительные, отношения по охране недр, лесоохранительные и водоохранительные отношения, отношения по охране растительного и животного мира, атмосферного воздуха), и комплексные экологические отношения, которые возникают по поводу охраны природных территорий, комплексов, природно-заповедного фонда, лечебно-оздоровительных, рекреационных, санитарных и иных зон [11]. В этом определении указаны конкретные общественные экологические отношения, регулировать которые призваны нормативные акты. Данное определение, по нашему мнению, охватывает лишь комплекс общественных отношений охранительного характера, тем самым отношения по использованию природных ресурсов остаются за его пределами.

«Предмет современного российского права окружающей среды, – отмечает М.М. Бринчук, – образуют отношения: собственности на природные объекты и ресурсы; по природопользованию; по охране окружающей среды от разных форм деградации; защиты экологических прав и законных интересов физических и юридических лиц» [12]. На наш взгляд, особенность данной трактовки заключается в том, что наряду с такими важными направлениями экологических отношений, как охрана окружающей среды, использование природных ресурсов, в качестве самостоятельных признаются отношения собственности на природные ресурсы и защита экологических прав и законных интересов граждан и предприятий.

Приведенная классификация видов эко-

логических отношений позволяет комплексно охватить и решить экологические проблемы, но необходимо учитывать также то, что, во-первых, отношения собственности на природные ресурсы и защита экологических прав и интересов субъектов являются важными правовыми институтами – составными частями системы экологического права в целом; во-вторых, эти институты (наряду с другими институтами экологического права) играют определяющую роль в процессе охраны и использования природных объектов и ресурсов. Именно из этих соображений не следует рассматривать названные отношения в качестве самостоятельных в предмете правового регулирования.

Учитывая изложенные выше позиции, считаем, что предметом современного экологического права Республики Узбекистан являются следующие взаимосвязанные отношения: охрана окружающей природной среды; рациональное использование природных ресурсов; обеспечение экологической безопасности.

Принимая во внимание различные мнения ученых о понятии экологического законодательства и предмете правового регулирования экологических отношений, предлагаем следующее определение *экологического законодательства – это совокупность нормативно-правовых актов, регулирующих общественные отношения, возникающие в процессе охраны окружающей природной среды, рационального использования природных ресурсов и обеспечения экологической безопасности.*

13. Pulatov B.X. Davlat ayblovcisini sudda dalillarni tekshirishda ishtiroki. Davlat ayblovcisi uchun ilmiy-uslubiy qo'llanma. Tashkent, 2004, 78 p.
14. Ugolovnyy protsess. Obshaya i Osobennaya chast: uchebnik dlya yuridicheskix vuzov i fakultetov / V.V. Vandyshev; Mejrionalnyy institut ekonomiki i prava. Moscow, Kontrakt, 2010, 720 p.
15. Uralov S.S. Jinoyat-protsessual qonunchiligida preyditsiya instituti. Monografiya. Tashkent, "Lesson Press" nashriyoti, 2021, 106 p.
16. Uralov S.S. Sudgacha bo'lgan bosqichda va sudda taraflarning o'zaro tortishuvi. Monografiya. Tashkent, Toshkent davlat yuridik universiteti, 2021, 102 p.
17. Uralov S.S., Aurora M. PREJUDICE IN EVIDENCE AND PROOF. Fundamentalnye osnovy nauki. 2021, pp. 22–26.
18. Uralov Sarbon. Required perspectives for investigation of crimes in the field of information technology and overcoming crime // Review of law sciences. 2020, no. 4. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/required-perspectives-for-investigation-of-crimes-in-the-field-of-information-technology-and-overcoming-crime> (data obrasheniya: 21.12.2021).
19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-iyulidagi "Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5482-sonli Farmoni. "NORMA" axborot-huquqiy tizimi.
20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4966-sonli Farmoni. "NORMA" axborot-huquqiy tizimi.
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 21-oktabridagi "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 4850-sonli Farmoni. "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2016-yil 31-oktabr, 43-son, 497-modda.

UDC: 343.211(042)(575.2)

ADVOKATLIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

Mallayev Normamat Ramazanovich,
Termiz davlat universiteti dotsenti,
yuridik fanlar nomzodi,
e-mail: mallayevn@tersu.uz
ORCID: 0000-0001-6032-3723

Ergashev Bahodir Abdurasulovich,
Termiz davlat universiteti
5A240101 – Advokatlik faoliyati
mutaxassisligi magistranti,
e-mail: bahodirabdurasulovich@gmail.com
ORCID: 0000-0002-9221-6575

Annotatsiya: Mazkur maqolada Respublikamizda advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish, bu borada soha qonunchiligining tegishlicha takomillashtirishning ijobiy samarasi asosida bu sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqib, mazkur sohani tadqiq etish zarurati mavjudligi asoslangan. Advokatlik faoliyatini amalga oshirishning zamonaviy usullarini joriy etish, advokatura institutini takomillashtirishda advokatlik tuzilmalari va o'zini o'zi boshqarish organining huquqiy maqomi masalalariga oid ilmiy tushuncha hamda kategoriyalarning mazmun-mohiyatiga oid xulosalar asoslantirilgan. Xorijiy davlatlarning advokatlik tuzilmalariga oid ilg'or tajribasi va o'ziga xos jihatlari tahlil etilib, advokatlik tuzilmalarining tabiati (tijorat, notijorat va aralash) bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Advokatlik faoliyatini yanada rivojlantirish va bu faoliyatni samarali tashkil etilishi borasidagi vazifalarni hal qilish muhim ekanligi tahlil etilgan. Advokatlik faoliyatini tashkil etishning qonunchilik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Advokat, advokatura, advokatlik tuzilmalari, huquqiy maqom, advokatlar hay'ati, advokatlar firmasi, qonunchilik.

ТЕОРЕТИКО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ АДВОКАТСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Маллаев Нормамат Рамазанович,
Доцент Термезского государственного университета,
кандидат юридических наук

Эргашев Баходир Абдурасулович,
Термезский государственный университет
5A240101 – магистрант специальности “Адвокатская деятельность”

Аннотация. В данной статье основана необходимость кардинального повышения эффективности института адвокатуры в нашей Республике, исходя из положительных эффектов соответствующих усовершенствований законодательства в этой сфере, а также исходя из приоритетов развития данной сферы. Обоснованы выводы по внедрению современных методов осуществления адвокатской деятельности, а также касательно научных понятий и содержаний таких категорий как правовой статус адвокатских формирований и органов самоуправления в совершенствовании института адвокатуры.

На основе анализа передовой практики и особенностей адвокатских формирований ведущих зарубежных стран даны рекомендации по характеру адвокатских формирований (коммерческие, некоммерческие и смешанные). Проанализирована важность дальнейшего развития адвокатской деятельности и решения задач по эффективной организации данной деятельности. Разработаны предложения по совершенствованию правовой базы организации адвокатской деятельности.

Ключевые слова: адвокат, адвокатура, адвокатские формирования, правовой статус, коллегия адвокатов, адвокатская фирма, законодательство.

THEORETICAL AND LEGAL BASIS OF THE ORGANIZATION OF ADVOCACY ACTIVITIES

Mallaev Normamat Ramazanovich,
Associate Professor of Termez State University,
PhD in Law

Ergashev Bakhodir Abdurasulovich,
Termez State University
5A240101 – Master's student specializing in advocacy

Abstract. The article is based on the need for a radical increase in the efficiency of the institution of the advocacy activities in our Republic, based on the positive effects of relevant improvements in legislation in this area, as well as based on the development priorities of this area. Conclusions on the introduction of modern methods of advocacy, as well as on the scientific concepts and contents of such categories as the legal status of lawyers' formations and self-government bodies in improving the institution of advocacy are substantiated. Based on the analysis of best practices and the characteristics of lawyers' formations of leading foreign countries, recommendations are given on the nature of lawyers' formations (commercial, non-commercial and mixed). The importance of further development of advocacy and solving problems for the effective organization of this activity is analyzed. Proposals have been developed to improve the legal framework for organizing advocacy.

Keywords: advocate, advocacy, advocacy formations, advocacy activities, legal status, collegium of advocates, law firm, legislation.

Advokat (lot. "avocatus" sudda ish yurituvchi, himoyani amalga oshiruvchi ma'nosini anglatadi; inglizcha "barrister, advocate") – o'z qonuniy xarakterdagi tavsiyalari, maslahatlari orqali tergov yoki sudning barcha bosqichlarida o'z himoyasi ostidagi shaxsga professional huquqiy yordam beruvchi shaxs [1].

Yevropada fanda ham, G'arbiy yevropa tillarida ham "advokatlik" atamasi (advocatio, lawocatio, abogasia, advocacia) advokatlar faoliyati tushunchasini birlashtirib, professional advokatlar faoliyatining maxsus sinfini nazarda tutadi [2].

Rus tilida "advokat" atamasi XIX asr o'rtalaridan boshlab ishlatila boshlandi. Dastlab, advokatura huquq-tartibot organi emas, balki fuqarolar va tashkilotlarga huquqiy yordam ko'rsatish uchun tashkil etilgan professional, o'zini o'zi boshqaruvchi tashkilot hisoblangan. Keyinchalik advokatura davlat qonunni buzgan shaxslarga nisbatan majburlash huquqiga ega bo'lmaganligi sababli, fuqarolarning buzilgan huquq va erkinliklari hamda tashkilotlar manfaatlarini himoya qilish uchun katta ahamiyatga ega bo'lib borgan [3].

Qonun ustuvorligi hamda fuqarolar va birlashmalarining huquqlari, erkinliklari va qonuniy man-

faatlarini hurmat qilinishini tan oladigan har qanday davlatda advokatura muhim huquqiy institut hisoblanadi. Har bir fuqaroning o'z farovonligiga ishonchi jamiyatda advokaturaning uyushqoqligi, mustaqilligi va huquqiy himoyalanganligi darajasiga mutanosibdir. Chunki advokaturaning asosiy vazifasi fuqaro va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda butun jamiyatga va uning a'zolariga ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan yuridik xizmatlar ko'rsatishdan iboratdir [4].

Huquqshunos olimlardan M.X.Rustamboyev va U.A. Tuxtashevalarning ta'kidlashlaricha, advokatura davlat yoki fuqarolik jamiyati institutlariga tegishlilikini hal etish masalasi falsafiy xulosa chiqarish masalasidir. Advokatura bu jamiyatda barcha shaxslarning, ya'ni fuqarolik jamiyatining, huquq va manfaatlarini himoya qilish ehtiyoji natijasida paydo bo'lgan jamiyat faoliyati samarasidir. Advokaturaning tashkiliy-huquqiy asoslarini esa qonun chiqaruvchi hokimiyat orqali davlat belgilaydi, ya'ni advokatura bu qonun ustuvorligi, mustaqillik va boshqa demokratik prinsiplar asosida jismoniy va yuridik shaxslarga yuridik yordam ko'rsatish maqsadida faoliyat olib boradigan huquqiy institutdir [5].

Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini muhofaza qilish O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Advokatura instituti esa, ushbu siyosatni amalga oshirishning juda muhim bir qismi hisoblanadi.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda inson huquq va erkinliklari kafolatlarining huquqiy asoslari yaratilishiga birinchi darajali e'tibor berildi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda inson huquqlarini himoya qilish va ularni kafolatlash masalasi barcha tinchliksevar mamlakatlar kabi mustaqil O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan islohotlarning tub mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Adolatli fuqarolik jamiyatining, insonparvar huquqiy davlatning eng muhim belgilaridan biri – advokaturaga, uning faoliyatiga chuqur hurmat asosida munosabatda bo'lishdir. Respublikamizda olib borilayotgan sud-huquq islohotlari jaryonida advokaturaga berilayotgan alohida e'tibor mustaqil respublikamizda ham inson huquqlari himoyasiga nisbatan xuddi shunday munosabatlarni shakllanayotganidan darak beradi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, advokaturani rivojlantirish, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va rolini oshirish, ayblov va himoyaning tengligini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, uning huquqiy asoslari yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan vaqtdan boshlab, demokratik huquqiy davlat qurish va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etish masalasiga katta e'tibor berib kelmoqda. Buning dalili sifatida jamiyat hayotining barcha sohalarida tub demokratik islohotlarni amalga oshirib kelayotganligini keltirishimiz o'rinli bo'lar edi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng dastlab 1996-yil 27-dekabrda "Advokatura to'g'risida"gi, keyinroq 1998-yil 25-dekabrda "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonunlarning qabul qilinishi sud-huquq tizimini yanada liberallashtirish, fuqarolarning tergov va sud ishining har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqini mustahkamlaydigan konstitutsiyaviy normani amalga oshirish, advokaturaning tashkiliy mustaqilligini ta'minlash, uni yuqori malakali kadrlar

bilan to'ldirish, advokatlarning mustaqilligi kafolatlarini kuchaytirish, advokatlik kasbining obro'si va nufuzini oshirishda muhim qadam bo'ldi.

Advokatlik faoliyati – qonunda belgilangan tartibda advokat maqomini olgan shaxslar tomonidan ishonch bildiruvchilar – jismoniy va yuridik shaxslarga ularning huquqlari, erkinliklari va manfaatlarini himoya qilish, shuningdek, odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash maqsadida professional asosda ko'rsatiladigan malakali yuridik yordam. Advokatlik ko'p asrlar muqaddam yuzaga kelgan qadimiy kasblardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi "Advokatura to'g'risida"gi Qonunining 1-moddasida belgilanganidek, Advokatura – huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. Advokatura O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi [6].

Bizningcha, advokatura deganda fuqarolik jamiyatining muhim huquqiy institutlaridan biri bo'lgan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik yordam ko'rsatish maqsadida faoliyat ko'rsatadigan nodavlat va notijorat kasbiy tashkilotni tushunish lozim.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'pgina yevropa davlatlarida advokatura instituti ikkita institut: advokatura va sudda vakillik qilish sifatida shakllangan va rivojlangan. Mamlakatimiz qonunchiligida esa advokatura zimmasiga barcha jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini muhofaza qilish, odil sudlovni amalga oshirishda ishtirok etish, qonuniylikka rioya qilish vazifasi yuklatilgan [7].

O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik davlat sifatida fuqarolik jamiyati qurish yo'lini tanlar ekan, davlatimizda bu maqsadga erishish uchun ko'plab islohotlar amalga oshirilmogda, inson huquqlarni himoya qilish, jamiyat a'zolarining huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor berilmogda. Ushbu maqsadga erishish borasida advokatura tizimi tubdan isloh qilinib, uning mustaqilligi ta'minlanmogda.

Ma'lumki, har qanday ommaviy institut faoliyati va uning vakolatlari qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasi-ning "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni 1996-yil 27-dekabrda qabul qilingan bo'lib, ungacha mamlakatimizda advokatura tizimi va advokatlik faoliyati 1980-yil 12-noyabrda O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumi tomonidan tasdiqlangan "O'zbekiston SSR advokaturasi to'g'risida Nizom" bilan tartibga solinib kelinar edi.

"Advokatura to'g'risida"gi Qonun 17 moddadan iborat bo'lib, advokaturaning maqomi, vazifalari, faoliyat prinsiplari, tashkiliy shakllari, advokat maqomiga ega bo'lish shartlari, advokatning huquq va vazifalari hamda advokatlik faoliyatining turlari belgilab berilgan. Shuningdek, unda advokat yordamchisining huquqiy maqomi, advokatlik siri, advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatning ijtimoiy himoyasi singari holatlar o'z ifodasini topgan.

Qonun advokatlar malaka komissiyalarining tuzilish tartibi, uning tarkibi, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyasining amal qilinishini to'xtatib turish, yo bekor qilish yoki amal qilishni tugatish, advokatning intizomiy javobgarligi hamda advokatura va Adliya vazirligi munosabatlarining umumiy huquqiy asoslarini belgilab bergan.

"Advokatura to'g'risida"gi Qonunda advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatning ijtimoiy himoyasi yetarli darajada ifoda qilinmaganligi va yuridik yordamni ta'minlash kafolatlari zaruriyati yuzaga kelganligi tufayli qisqa muddatda advokatura sohasiga oid ikkinchi Qonun 1998-yil 25-dekabrda qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida" [8] deb nomlandi.

Mazkur Qonun 12 moddadan tashkil topgan bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqi, faoliyatning asosiy prinsiplari, advokat qasamyodi va advokatning vakolatlari singari huquq normalarini o'z ichiga olgan. Qonunda advokatning mustaqilligi, daxlsizligi va advokatlik faoliyati himoyalashini ta'minlash, advokatlik faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaslik, yuridik yordamni ta'minlash kafolatlari va advokatning ijtimoiy himoyasi choralari belgilovchi huquqiy normalar ham mavjud.

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonunida advokatura faoliyatini-

ing tashkiliy-huquqiy asoslari belgilangan bo'lib, unda advokatura institutining huquqiy maqomi va funksiyalari, advokatura faoliyatining prinsiplari va tashkiliy shakllari, advokat maqomiga ega bo'lish shartlari belgilangan, advokatning huquq va majburiyatlari, advokatlik faoliyatining turlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, Qonunda advokat yordamchisi va advokat stajyorining huquqiy maqomi belgilangan, advokatlik siriga tushuncha berilgan, advokatlik faoliyatining va advokatning ijtimoiy himoyasi kafolatlari eks ettirilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuniga binoan advokaturaning mustaqilligi, Advokatlar palatasining tashkil etilishi, advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziya bo'lishi shartligi, advokat yordamchisi va stajyori faoliyatlarining tartibga solinishi, malaka komissiyalari, shuningdek, Oliy malaka komissiyasini tuzish va ularning faoliyati tartibga solinishi, advokat mehnatiga haq to'lash ishonch bildiruvchi shaxs yoki himoya ostidagi shaxs bilan tuziladigan bitim (shartnoma) asosida amalga oshirilishi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirish davrida advokatga keng huquqlar berilishi respublika advokaturasi tarixida yangilik hisoblanadi [9].

Advokatlik faoliyati oldiga qo'yilgan asosiy talablar va uning faoliyatini tartibga soluvchi xalqaro huquqiy hujjatlar qatoriga 1990-yil avgustda BMT tomonidan qabul qilingan "Advokatlar rolining asosiy qoidalari haqida"gi xalqaro hujjat, 1990-yil sentyabrda Xalqaro Yuristlar Assotsiatsiyasi tomonidan qabul qilingan "Yuridik kasbning mustaqillik standartlari" va "Yevropa hamjamiyati mamlakatlari advokatlari uchun qoidalarining umumiy majmuasi"ni ta'kidlash lozim.

Advokatlar (advokatlik tuzilmalari) tomonidan vakolat beruvchi shaxslarga huquqiy maslahatlar berish, vakil sifatida qatnashish, himoya qilish va qonunlarda man qilinmagan boshqa yuridik yordam turlarini ko'rsatish advokatlik faoliyati hisoblanadi.

Shuni aytish lozimki, 1996-yilda qabul qilingan "Advokatura to'g'risida"gi va 1998-yilda qabul qilingan "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonunlar advokatlik faoliyatining keng quloch yoyishiga imkon berdi.

Chunonchi mazkur qonunlar kuchga kirgunga qadar respublikamizda 1700 ga yaqin advokat

faoliyat ko'rsatgan [10]. 2021-yil 1-yanvar holatiga ko'ra Respublikamizda amalda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslar 4125 nafar-ni tashkil qilmoqda [11].

Advokatlar va advokatlik tuzilmalari advokatlik faoliyatining subyektlari hisoblanadi.

Advokat(advokatlik tuzilmalari) bo'lmagan shaxslar, shuningdek, patentli ishonchli vakillar, soliq maslahatchilari tomonidan vakolat beruvchi shaxslarga yuridik yordam ko'rsatish advokatlik faoliyati hisoblanmaydi, advokatning (advokatlik tuzilmalarining) soliq maslahatchisi sifatida ishtirok etishi hollari bundan mustasno.

Advokatlik faoliyati tadbirkorlik hisoblanmaydi. Advokatlik tuzilmalari xo'jalik yurituvchi subyektlar hisoblanmaydi [12].

Fikrimizcha, "advokatlik faoliyati" deganda O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan shaxslar tomonidan yuridik va jismoniy shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatilishini tushunish lozim.

Advokatura notijorat tashkilotdir va faoliyatni o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiradi.

Ilmiy adabiyotlarda advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishga huquq beruvchi litsenziyani advokatura tomonidan berilishi lozimligi haqidagi nuqtayi nazar mavjud. A.V.Kurdovanning fikricha, yakka tartibdagi advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziya berish uchun imtihon olish huquqi advokatlar hay'atlariga berilishi kerak [13]. M.Y.Barhyevskiyning fikricha, "Advokatura mustaqil jamoat tashkiloti ekanligini e'tiborga olib, advokaturaga malaka imtihonlarini qabul qilish, litsenziya berish, uning amal qilishini to'xtatib qo'yish va bekor qilish vakolatini berish kerak. Ushbu jarayon ustidan nazoratni esa, albatta sud, amalga oshirishi lozim" [14]. Shuningdek, uning fikricha, "advokat deputatlik faoliyatini amalga oshirayotgan yoki harbiy xizmatda burchini o'tayotgan paytda kasbiy faoliyat bilan shug'ullanishga haqli emas" [15].

B. Salomovning ta'kidlashicha, "advokatlik faoliyati bilan shug'ullanishga ruxsat beruvchi litsenziya ijro etuvchi hokimiyat, xususan, adliya organi tomonidan malaka komissiyasining qarori asosida berilishi lozim. Litsenziya muayyan faoliyat bilan shug'ullanishga ruxsat etuvchi hujjat ekanligini e'tiborga olib, davlat organi tomonidan berilmog'i, uning amal qilishini to'xtatib qo'yish

va bekor qilish funksiyasi esa jamoat tashkilotiga berilishi mumkin" [16].

Bizningcha, ushbu fikrga qo'shilish lozim. Chunki advokatura nodavlat tashkilot hisoblangani bilan uning faoliyati uchun huquqiy asos davlat organi tomonidan berilishi kerak.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijasida jinoiy jazo tizimini liberallashtirish, amalda sud hokimiyatining mustaqilligini ta'minlash jarayonlariga katta e'tibor berildi. Advokatura instituti isloh etildi. Sud qarorlarini ijro etish tizimi, prokuratura faoliyati takomillashtirildi, butun sud-huquq tizimini bosqichma-bosqich demokratlashtirishga qaratilgan boshqa bir qator chora-tadbirlar amaliyotga tatbiq etildi.

Demokratik islohotlarning muhim tarkibiy qismi bo'lgan fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash va rivojlantirish, mustaqil ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish bo'yicha ham ko'p ishlar amalga oshirildi.

Fuqarolarning huquq va erkinliklari himoyasiga qaratilgan sud-huquq sohasidagi o'zgarishlar va yangiliklar mamlakat taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Sud-huquq sohasidagi islohotlarning ajralmas qismi bo'lmish advokatura tizimini tubdan isloh qilish, uning inson huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi ahamiyatini kuchaytirish chinakam mustaqilligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda advokatura institutining mavqeyini ko'tarish, jismoniy va yuridik shaxslarning malakali yuridik yordam olish huquqini mustahkamlaydigan konstitutsiyaviy normani amalga oshirish borasida advokatura faoliyatini yanada kuchaytirish, o'z navbatida, insonparvar demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishda advokatura institutining rolini oshirishga zamin yaratadi.

Mamlakatimizda demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini barpo etishda advokaturaning tutgan o'rni va roli quyidagi omillardan kelib chiqishi mumkin:

fuqarolik jamiyatining eng muhim instituti sifatida advokaturaning himoya tizimida mavqeyini yanada oshirish choralari ko'rish;

fuqarolik-huquqiy munosabatlar subyektlariga malakali haq evaziga yuridik xizmat ko'rsatishning roli va ta'sirchanligini kuchaytirish;

advokatlik tuzilmalari faoliyatining samaradorligini oshirish, ayniqsa, jismoniy va yuridik

shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatishda ular mas'uliyati va javobgarligini oshirish;

milliy qonunchiligimiz tizimida yangi istiqbolli yo'nalish sifatida advokatura qonunchiligini tizimli rivojlantirish;

ta'lim muassasalarida advokatura faoliyatining huquqiy asoslarini mustaqil o'rganish samaradorligini oshirish;

oliy va o'rta-maxsus ta'lim muassasalarida advokatura faoliyatining o'quv-uslubiy ta'limi bo'yicha amaliy ishlari tashkil etishga e'tiborni yanada kuchaytirish.

Advokaturani rivojlantirish, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va rolini oshirish, ayblov va hi-

moyaning tengligini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilayotganligi bejiz emas.

Zero, advokatura instituti jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, fuqarolik jamiyatini barpo etishda o'ziga xos o'ringa ega. Shunday ekan, mamlakatimizda advokatura institutini yanada isloh qilish, shu maqsadda xorijiy davlatlar qonunchilik tajribalarini o'rganish, tahlil qilish, milliy qonunchiligimizning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda yanada takomillashtirish ustuvor vazifalardan bo'lib hisoblanadi.

REFERENCES

1. Vorobyov A.V., Polyakov A.V., Tixonravov Y.V. Teoriya advokaturi. Moscow, Grant, 2002.
2. Suxarev A.Y., Krutskix V.YE. Bolshoy Yuridicheskiy Slovar / Pod red. A.Y. Suxareva, V.YE. Krutskix., izdaniye vtoroye, pererabotannoye i dopolnennoye. Moscow, INFRA-M, 2002.
3. Chistyakov O.I., Novitskaya T.YE. Reformi Aleksandra II. Moscow, Yuridicheskaya literatura, 1998.
4. Advokatskaya deyatelnost: Uchebno-prakticheskoye posobiye \ Pod obsh. Red. K.Y.n. V.N.Burobina. 3-ye izd. Pererab. I dop. Moscow, Statut, 2005, p. 15.
5. Rustambaev M.X., Tuxtasheva U.A. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati va sud-huquq islohoti. Tashkent, TDYI, 2009, pp. 440-441.
6. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
7. Salomov B. Protsessualniye prava i obyazannosti advokatov v stranax SNG // Advokat. 2001, no. 2(7), p. 48.
8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-y., 1-son, 12-modda, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-y., 52-son, 514-modda; 2016-y., 39-son, 457-modda; 2017-y., 37-son, 978-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.12.2020 y., 03/20/651/1577-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
9. Yaubov S.A. Advokatura – institut grazhdanskogo obshestva \ «Sovremennoye sostoyaniye advokaturi v stranax Sentralnoy Azii: problemi instituti perspektivi». Materiali Mejdunarodnoy regionalnoy konferensii (4-7 fevralya 2003. Tashkent, Uzbekistan, 2003, p. 88.
10. Salomov B. Advokat obro'si // Xalq so'zi. 2008-yil 6-iyun.
11. <https://paruz.uz/uploads/2021/02/2021-uz.pdf>.
12. Advokatura Uzbekistana: Sodeystviye v reformirovanii: (Predlojeniya po zakonodatelstvu i advokatskoy pratike) \ Red. Sovet: M.X.Rustamboyev (pred), L.B.Xvan, S.A.Yakubov i dr. Tasheknt, Mir ekonomiki i prava, 2002, p. 16.
13. Kurdova A.V. Zashitnik obvinyayemogo i uglovnom protsesse SSHA: dis...kand.yurid.nauk. Moscow, 1999, p. 72.
14. Barshevskiy M.Y. Organizatsiya i deyatelnost advokaturi v Rossii: Nauch.-prakt.posobiye. Moscow, Profobrazovaniye, 2000, p. 134.
15. Barshevskiy M.Y. Organizatsiya i deyatelnost advokaturi v Rossii: Nauch.-prakt.posobiye. Moscow, Profobrazovaniye, 2000, pp. 136-137.
16. B.Salomov. O'zbekiston Respublikasida advokatlik faoliyati, uning kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi (tajriba va muammolar): Avtoref.dis. ... yuridik fanlar doktori. Tashkent, 2005, p. 26.
17. Davlyatov V.X. Advokatura va advokatlik faoliyati bo'yicha o'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari tahlili (axborot-tahliliy ma'lumot) // V.X.Davlyatov. Tashkent, Lesson press, 2020, (Davlyatov V.X. Analysis of the results of sociological research on advocacy (information – analytical information) // V.Davlyatov. Tashkent, Lesson press, 2020.

UDC: 349.6(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-4940-3762

EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLAR OBYEKTIV BELGILARI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI: TAHLIL VA TAKLIF

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
"Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga
qarshi kurashish" kafedrası dotsenti v.b,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),
e-mail: dr.profi114@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tadqiq etishning mantiqiylik, tizimlilik, mantiqiy-yuridik, qiyosiy-huquqiy metodlaridan keng foydalanilgan. Jumladan, birinchi navbatda ekologiya sohasidagi jinoyatlar tushunchasi, umumiy xarakterdagi egologik jinoyatlar va maxsus ekologik jinoyatlar, mazkur jinoyatlar belgilari to'g'risidagi olimlarning fikr-mulohazalari, jinoyatning ijtimoiy xavflilik, qonunga xiloflilik, ayblilik va jazoga sazovorlik kabi belgilari haqida atroflicha bayon qilingan. Shuningdek, jinoyatning zaruriy belgilari, bu belgilar haqida jinoyat huquqi nazariyasida olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar, qarashlar yoritilgan bo'lib, undan so'ng esa jinoyat tarkibi elementlari va bu elementlarni ifodalovchi jinoyat tarkibining obyektiv belgilari, asosan, ekologiya sohasidagi jinoyatlar obyektiv tomoni belgilari va ularning o'ziga xos xususiyatlari ketma-ket tavsiflab berilgan. Shu bilan birga nafaqat romano-german huquq oilasiga kiruvchi yo'nalish olimlari, balki anglo-sakson huquq oilasiga kiruvchi yo'nalish olimlarning qarashlari, g'oyalari o'z aksini topgan. Shuningdek, ushbu maqolada asosiy e'tibor ekologiya sohasidagi jinoyatlarning subyektiv hamda obyektiv belgilarining jinoyat-huquqiy ahamiyati, xususan, ularning o'ziga xos jinoyat-huquqiy jihatlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida keltirilgan ayrim jinoyat tarkibi zaruriy va fakultativ belgilari bilan bog'liq nazariy hamda amaliy muammolar yoritilgan. Shu bilan birga, AQSh, Angliya, Kanada, Yaponiya va Rossiya Federasiyasi jinoyat qonunchiligi tahlil etilib, bu borada O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: ekologiya sohasidagi jinoyatlar, jinoyat tarkibi obyektiv belgilar, jinoyat obyektiv tomoni, umumiy xarakterdagi egologik jinoyatlar, maxsus ekologik jinoyatlar, boshqa og'ir oqibatlar.

ОБЪЕКТИВНЫЕ ПРИЗНАКИ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В СФЕРЕ ЭКОЛОГИИ И ИХ ОСОБЕННОСТИ: АНАЛИЗ И ПРЕДЛОЖЕНИЯ

Худайкулов Ферузбек Хуррамович,
доктор философии по юридическим наукам (PhD),
и.о. доцента кафедры
"Уголовное право, криминология и противодействие коррупции"
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В данной статье были широко использованы логический, системный, сравнительно-правовой методы исследования. В частности, в статье подробно разъясняются экологические, общеэкологические и специальные экологические преступления. Приведены мнения ученых о таких признаках преступлений, как общественная опасность преступления, незаконность, правонарушение и неотвратимость наказания. Также освещаются обязательные признаки преступлений, мнения, высказанные учеными в теории уголовного права об этих признаках, а также описываются элементы состава преступлений и объективные признаки состава преступления, характеризующие эти элементы, где в основном разъясняются экологические преступления и их особенности, при этом отражаются взгляды и идеи не только ученых романо-германской правовой семьи, но и ученых англосаксонской

правовой семьи. Кроме того, основное внимание в данной статье уделено теоретическим и практическим проблемам, связанным с уголовно-правовым значением субъективных и объективных признаков экологических преступлений и их специфическим уголовно-правовым аспектам, а также обязательным и факультативным признакам состава некоторых преступлений, перечисленных в Уголовном кодексе Республики Узбекистан. Одновременно анализируются уголовные законодательства США, Великобритании, Канады, Японии и Российской Федерации, исходя из которых разработаны конкретные предложения и рекомендации по усовершенствованию уголовного законодательства Республики Узбекистан.

Ключевые слова: преступления в сфере экологии, объективные признаки состава преступления, объективная сторона преступления, общеэкологические преступления, специальные экологические преступления, иные тяжкие последствия.

OBJECTIVE SIGNS OF ENVIRONMENTAL CRIMES AND THEIR FEATURES: ANALYSIS AND PROPOSALS

Khudaykulov Feruzbek Khurramovich,

Doctor of Philosophy in Law (PhD),

Tashkent State University of Law

Acting Assistant Professor of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-Corruption

Abstract. In this article, such research methods were widely used as logical, systemic, comparative legal. In particular, the article explains in detail such concepts as in the sphere of environmental, general environmental crimes and special environmental crimes crime, gives the opinions of scientists about the signs of a crime, such signs as the social dangers of a crime, illegality, delinquency and inevitability of punishment. It also highlights the necessary signs of a crime, the opinions expressed by scientists in the theory of criminal law about these signs, and then the elements of the corpus delicti and the objective signs of the corpus delicti that characterize these elements are consistently described. This reflects the views and ideas of not only scholars of the Romano-Germanic legal family, but also scholars of the Anglo-Saxon legal family. In addition, the main attention in this article is paid to theoretical and practical problems related to the criminal-legal value of the subjective and objective signs of a crime and its specific criminal-legal aspects, as well as the necessary and optional signs of the corpus delicti of some crimes listed in the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. At the same time, the criminal legislation of the United States, Great Britain, Canada, Japan and the Russian Federation is analyzed, in connection with which specific proposals and recommendations have been developed for improving the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan.

Keywords: environmental crimes, objective signs of corpus delicti, objective side of the crime, general environmental crimes, special environmental crimes, other grave consequences.

Kirish

Dunyoda jinoyatchilikka qarshi kurashish global ahamiyat kasb etmoqda, zotan, statistik ma'lumotlarga ko'ra dunyoda ekologiya sohasidagi og'ir jinoyatlar, xususan, har yili atrof-tabiyy muhit xavfsizligi va ekologik xavfsizlikka tahdid qiluvchi ekologik jinoyatlar dunyo mamalakatlarning 60% dan ortig'ida yangi jinoyat sodir etish usullari (modi operandi) bilan sodir etilmoqda [1]. Yuqoridagilar jinoyat qonunchiligini takomillashtirish, Jinoyat kodeksi normalarini to'g'ri qo'llab jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiya qilish va adolatli jazo tayinlanishini ta'minlash ustuvor vazifalardan biri ekanligini ko'rsatadi.

Huquqbuzarliklarning asosan to'rtta shakli mavjud bo'lib, shu huquqbuzarliklarni sodir etgan

shaxslarga muqobil ravishda to'rtta javobgarlik vujudga keladi. Javobgarliklar ichida jinoiy javobgarlik javobgarliklarning eng og'ir turi hisoblanadi. Muayyan davlat o'zining jinoyat huquqiy siyosatini yuritir ekan muayyan qonunchilikni mamlakatda joriy qiladi va sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlarning oldini oladi.

Jinoyat kodeksi davlatning jinoyat huquqiy siyosati amalga oshirishda yagona jinoyat qonunchiligi hisoblanadi.

Jinoyat kodeksining Maxsus qismida har bir jinoyatlar muayyan turkumlarga ajratilib, mazkur kodeksning bo'lim va boblarida o'z aksini topgan. Jumladan, ekologiya sohasidagi jinoyatlar Jinoyat kodeksi Maxsus qismining to'rtinchi bo'limda o'z aksini topgan bo'lib, mazkur jinoyat-

lar “Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar” deb nom olgan XIV bobda o‘z ifodasini topgan.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi shundaki, ushbu jinoyatlar sodir etilishi natijasida ekologiyaga, tabiatga, atrof-muhitga, hayvonot va o‘simlik (o‘rmon) dunyosiga ekologik zarar yetadi. O‘z navbatida, mazkur ekologik zarar mamlakat ekologiyasi, atrof-muhit va hayvonot hamda o‘simlik (o‘rmon) dunyosida og‘ir oqibatlariga sabab bo‘ladi

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar transmilliy va xalqaro hodisaning yorqin namunasidir, shuningdek, u ko‘p foyda(daromad) keltiradigan jinoiy faoliyatlardan biri hisoblanadi [2, 1-b.].

Ekologik sohadagi jinoyatlar – bu ekologik xavfsizlikka, ya‘ni inson va tirik organizmlarning yashashi, asosan ularning tirik qolish holati hamda vositasi sifatida atrof tabiiy muhit xavfsizligiga qaratilgan jinoiy tajovuzlardir. Yevropadagi bir qancha davlatlar “Atrof-muhitni jinoyat qonunchiligi orqali muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Konvensiya (ETS № 172, Strasburg, 1998-yil 4-noyabr)ga qo‘shilishgan [3].

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi 754-XII-sonli Qonunining 47-moddasi “Tabiatni muhofaza qilishga doir qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik” deb nomlangan bo‘lib, qonun hujjatlarida belgilangan qoidalarni buzgan aybdor bo‘lgan shaxslar O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga binoan intizomiy, ma‘muriy, jinoiy va boshqa yo‘sindagi javobgarlikka tortilishi nazarda tutilgan [4, 47-modda].

U yoki bu ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb hisoblash va jinoyat huquqida jinoyat tushunchasini ishlab chiqish g‘oyat murakkab ishdir. Chunki har bir davlatda uning ijtimoiy tuzumi, milliy xususiyatlari, urf-odatlar, an‘analarga qarab muayyan ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat deb hisoblash masalasi hal qilinadi. Bundan tashqari davlatlararo aloqalar g‘oyat kuchaygan, xalqaro hamjamiyatlar mavjud bo‘lgan hozirgi davrda ayrim qilmishlarni jinoyat deb hisoblashda, albatta, xalqaro huquq normalari ham e‘tiborga olinishi kerak [5, 26-b.].

Jinoyat huquqi nazariyasida mavjud adabiyotlarda ekologiya sohasidagi jinoyatlarga tor va keng ta‘rif beriladi. Ular quyidagilardan iborat:

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar – bu Jinoyat kodeksida nazarda tutilgan, insonning hayotiy faoliyatini tabiiy muhitda sifat jihatidan saqlab turishga, uning resurslaridan oqilona foydalanishga, aholining ekologik xavfsizligini ta‘minlovchi ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi ijtimoiy xavfli qilmishdir [6, 139-b, 287-288-b.].

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar deganda Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish, atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko‘rsatish, atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralari ko‘rmaslik, atrof tabiiy muhitni ifloslantirish, yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish, sug‘oriladigan yerlarni o‘zboshimchalik bilan egallab olishga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha choralar ko‘rmaslik, ekinzorlarni, o‘rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o‘simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish, o‘simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish, veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalarini va normalarini buzish, zararli kimyoviy moddalar bilan muomalada bo‘lish qoidalarini buzish, hayvonot yoki o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish, suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish, muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzishda ifodalangan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dir.

Material va metodlar

Maqolada umumlashtirish, deduksiya, tizimli yondashuv, qiyosiy-huquqiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari

N.F. Kuznesova “Har qanday jinoyat yoki jinoyat tarkibi tushunchasi – qonunchilik yoki olimlarning aqliy faoliyat natijasi sifatida namoyon bo‘lib, qonunchilikda nazarda tutilgani bu qonunchilik abstraksiyasi, jinoyat huquqi nazariyasida nazarda tutilgani – ilmiy abstraksiyadir.” deb ta‘kidlab o‘tadi [7, 113-b.].

Piontkovskiy A.A. aytganidek, “har bir jinoyat tarkibi o‘zida ijtimoiy xavfli qilmishni belgilaydigan yuridik tushunchani aks ettiradi. Unda harakat yoki harakatsizlikning zaruriy belgilari aniqlanadi. Ularning mavjudligi shaxsni jinoyat sodir etishda aybdor deb topish va uni jinoiy javobgarlikka tortish imkonini beradi, shuningdek, bu

yuridik tushuncha jinoyat qonunida mustahkamlanadi” [8, 120-121-b.].

Yashil kriminologiya atrof-muhitga zarar keltiradigan jinoyatchilik bilan huquqni muhofaza qilish o’rtasidagi munosabatga o’z e’tiborini qaratib kelmoqda. Ushbu esa qonunlarning ijtimoiy qurilishi atrof-muhitga zarar yetkazishga qanday yo’l qo’yishi va atrof-muhitni muhofaza qilish qoidalari rioya qilishni ta’minlash mexanizmlari no-qonuniy amaliyotlarning oldini ololmasligi kabi masalalarni yaxshiroq tushunish uchun bir nechta nazariy istiqbollarga nisbatan yosh mutaxassislar tomonidan e’tibor qaratib kelinmoqda [9, 1095-b.].

Har bir jinoyatning zaruriy belgilari bo’lganidek, ekologiya sohasidagi jinoyatlarning ham to’rtta zaruriy belgi mavjud. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar o’z navbatida ijtimoiy xavfli, huquqqa xilof, aybli va jazoga sazovor ijtimoiy xavfli qilmishlardan iborat hisoblanadi.

Faqatgina, qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jinoyat bo’la oladi. Jinoyat sodir qilish to’g’risidagi fikr, o’y-xayol jinoyat sifatida qabul qilinmaydi [10, 20-b.].

Jinoyat odatda o’z ichiga harakat yoki harakatsizlikdan iborat jinoiy xulq-atvor va qonun tomonidan talab qilingan harakatlarni bajarmaslikda ifodalanadi [11, 107-b.].

Mazkur jinoyatlarning ijtimoiy xavfiligi o’z ichiga ekologiya sohasidagi jinoyatlar ijtimoiy xavflilik xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasini qamrab oladi. Ular, o’z navbatida, ekologiya sohasidagi jinoyatlarning boshqa jinoyatlardan farqlab turadigan o’ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning o’ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat bo’lib, ular, o’z navbatida, aksariyat hollarda mazkur jinoyatlarning obyektiv va subyektiv belgilarini ifodalaydi:

- tajovuz obyekti;
- ayb shakli;
- jinoiy qilmishning qonunda qaysi toifaga (JK 15-moddasi) kiritilganligi;
- rag’batlantiruvchi normalarning mavjudligi;
- qilmish sodir etilishi holatlari;
- jinoiy niyatning amalga oshirilganligi darajasi va bosqichlari;
- jinoyatni sodir etish usuli;
- zarar miqdori yoki kelib chiqqan oqibatlar og’irligi;

– ishtirokchilikda sodir etilgan jinoyatda sudlanuvchining roli.

Yuqorida keltirilgan ekologiya sohasidagi jinoyatlarning xususiyatlarini ularning obyektiv va subyektiv belgilariga qarab birma-bir tahlil qilgan holda ko’rib chiqish maqsadga muvofiq bo’ladi.

1. Ekologiya sohasidagi jinoyatlarda jinoyat qonuni bilan qo’riqlanadigan tajovuz obyektlari bevosita asosiy va qo’shimcha obyektlardan iborat bo’lib, ular quyidagilar:

1. Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzishda (JK 193-moddasi) bevosita asosiy obyekt – tabiatdan oqilona foydalanish va atrof muhofaza qilish yo’li bilan xo’jalik hamda boshqa faoliyat sohasidagi ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo’yicha yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlardir. Qo’shimcha obyekt esa atrof-muhitning salbiy o’zgarishi, ekologik xavfsizlik norma va qoidalari buzilishidan kelib chiqqan inson sog’lig’i va hayotidir;

2. Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to’g’risidagi ma’lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko’rsatishda (JK 194-moddasi) bevosita asosiy obyekt – atrof-muhit, o’simlik va hayvonot dunyosi, xo’jalik yurituvchi komplekslarning tegishli tarmoqlarida ekologik xavfsizlikni ta’minlashdan kelib chiqadigan ijtimoiy munosabatlar. Qo’shimcha obyekt esa inson sog’lig’i va hayotidir;

Atrof tabiiy muhit – o’zaro aloqadorlikda bo’lgan tabiiy obyektlar (havo, suv, o’simlik va hayvonot dunyosi va h.k.) yig’indisi [12, 191-b.].

3. Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralari ko’rmaslikda (JK 195-moddasi) bevosita asosiy obyekt – atrof tabiiy muhit, ekologik xavfsizlik, shuningdek, O’zbekiston Respublikasida ekologik barqarorlikni ta’minlash sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlardir. Qo’shimcha obyekt esa inson hayoti yoki sog’lig’i, davlatimizning iqtisodiy manfaatlaridir;

4. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirishda (JK 196-moddasi) bevosita asosiy obyekt – yer, suv va atmosfera havosini ifloslanishdan muhofaza qilishni ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir. Qo’shimcha obyekt inson hayoti va sog’lig’ini, hayvonot dunyosini ta’minlash bilan bog’liq bo’lgan ijtimoiy munosabatlardir. Predmeti esa yer (yagona yer fondiga kiruvchi yer toifalari), suv (daryo, ko’l, suv omborlari iborat yer usti suv-

lari hamda yer osti suvlari, ichimlik suvi ta'minoti manbalari) va atmosfera havosi hisoblanadi;

5. Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzishda (JK 197-moddasi) bevosita asosiy obyekt – yer va yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilishning belgilangan tartibi, shartlari hamda talablari hisoblanadi. Predmeti esa yer qari va yer bag'ridir;

6. Sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rmaslik (JK 197¹-moddasi) bevosita asosiy obyekt – sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ko'rilishi lozim bo'lgan choralar hisoblanadi. Predmeti esa sug'oriladigan yer qari va yer bag'ridir;

7. Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilishda (JK 198-moddasi) bevosita obyekt – ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklardan tegishli darajada foydalanish yo'li bilan saqlashni ta'minlash sohasida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlardir. Qo'shimcha obyekt – shikastlangan yoki nobud bo'lgan meva va mahsulotlarga bo'lgan mulk huquqidir. Predmeti esa ekinzorlar, o'rmonlar, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklardir;

8. O'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzishda (JK 199-moddasi) bevosita asosiy obyekt – o'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurashish bo'yicha o'rnatilgan qoidalar va talablarni tartibga solish borasidagi ijtimoiy munosabatlardir. Predmeti esa madaniy ko'chatlar, tabiiy o'rmonlar va boshqa o'simliklar hisoblanadi;

9. Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalar va normalarini buzishda (JK 200-moddasi) bevosita asosiy obyekt – veterinariya va veterinariya-sanitariya qoidalar hamda normalarini tartibga soluvchi hamda ekologik xavfsizlik, atrof tabiiy muhit, insonlar hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishga qaratilgan ijtimoiy munosabatlardir. Predmeti esa hayvonlar va parrandalardir;

10. Zararli kimyoviy moddalar bilan muomala bo'lish qoidalarini buzishda (JK 201-moddasi) bevosita asosiy obyekt – xo'jalik faoliyatida o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, mineral o'g'it, o'sish biostimulyatori yoki boshqa kimyoviy dorilar bilan munosabatda bo'lishning belgilangan tartibi, ekologik xavfsizlik bilan bog'liq

ijtimoiy munosabatlar. Predmeti esa kimyoviy vositalari, mineral o'g'it, o'sish biostimulyatori yoki boshqa kimyoviy dorilar hisoblanadi.

11. Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzishda (JK 202-moddasi) bevosita asosiy obyekt – ov qilish va baliq ovlash yoki hayvonot dunyosining boshqa turlarini tutish qoidalar, kamyob va yo'qolib borayotgan hayvon turlarini tutishning yoxud yovvoyi holda o'suvchi o'simliklarning dorivor, ozuqaviy va manzarali (dekorativ) turlarini yig'ish yoki tayyorlashning belgilangan tartibi hamda shartlari, xuddi shuningdek, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanishning belgilangan tartibi hisoblanadi. Predmeti esa yovvoyi va boshqa turdagi hayvonlar, parrandalar, baliqlar, shuningdek, har qanday dorivor, ozuqaviy va manzarali (dekorativ) o'simliklardir;

12. Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzishda (JK 203-moddasi) bevosita asosiy obyekt – suv yoki suv havzalaridan foydalanish sohasidagi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi;

13. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarining rejimini buzishda (JK 204-moddasi) bevosita asosiy obyekt – muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Predmeti esa muhofaza etiladigan tabiiy hududlar belgilangan maqsadi va rejimiga qarab bo'lingan toifalar [13, 5-moddada] – davlat qo'riqxonalar, majmua (landshaft) buyurtma qo'riqxonalar, tabiat bog'lari, davlat tabiat yodgorliklari, ayrim tabiiy obyektlar va majmualarni saqlab qolish, takror ko'paytirish va tiklash uchun mo'ljallangan hududlar, muhofaza etiladigan landshaftlar, ayrim tabiiy resurslarni boshqarish uchun mo'ljallangan hududlar.

II. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar (JK Maxsus qismi "XIV bob. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar") da ularning o'ziga xos xususiyatini ifodalovchi ayb shakli quyidagicha qonun chiqaruvchi tomonidan jinoyat qonunida aks ettirilgan:

1. Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzishda (JK 193-moddasi) ayb shakli – egri qasd yoki ehtiyotsizlikda namoyon bo'ladi;

2. Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatishda (JK 194-moddasi) ayb shakli – to'g'ri qasd shaklida ifodalanadi;

3. Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralarini ko'rmasslikda (JK 195-moddasi) ayb shakli – egri qasd yoki ehtiyotsizlikda namoyon bo'ladi;

4. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirishda (JK 196-moddasi) ayb shakli – egri qasd yoki ehtiyotsizlikda namoyon bo'ladi;

5. Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzishda (JK 197-moddasi) ayb shakli – qasd yoki ehtiyotsizlikda namoyon bo'ladi;

6. Sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rmasslik (JK 1971-moddasi) qasd yoki ehtiyotsizlikdan sodir etiladi;

7. Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilishda (JK 198-moddasi) ayb shakli – JK 198-moddasi 1-qismi ehtiyotsizlikdan, JK 198-moddasi 2 va 3-qismlari esa qasddan sodir etiladi;

8. O'simliklar kasalliklari yoki zararkundalari bilan kurash talablarini buzishda (JK 199-moddasi) ayb shakli – egri qasd yoki ehtiyotsizlikda namoyon bo'ladi;

9. Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalarini va normalarini buzishda (JK 200-moddasi) ayb shakli – ehtiyotsizlik yoki egri qasddan namoyon bo'ladi;

10. Zararli kimyoviy moddalar bilan muomala qilishda bo'lish qoidalarini buzishda (JK 201-moddasi) ayb shakli – ehtiyotsizlik yoki egri qasddan sodir etiladi;

11. Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzishda (JK 202-moddasi) bevosita asosiy obyekt – ayb shakli – to'g'ri qasddan sodir etiladi;

12. Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzishda (JK 203-moddasi) ayb shakli – ehtiyotsizlik yoki egri qasddan namoyon bo'ladi;

13. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzishda (JK 204-moddasi) ayb shakli – JK 204-moddasi 1-qismi qasd yoki ehtiyotsizlikdan, JK 204-moddasi 2-qismlari esa qasddan sodir etiladi.

Eleyen Barklay va Robin Bartel "Atrof-muhitga zarar keltiradigan jinoiy xulq-atvor, xususan, barcha harakatlar qasddan sodir etilgandagina jinoyat deb topiladi. Baxtsiz hodisalar natijasida atrof-muhitga ko'plab zarar yetkazilganligi, shu-

ningdek, u tufayli yuzaga kelgan salbiy oqibatlar shaxsni aybdor deb topishda yengillashtiruvchi holatlar sifatida inobatga olinadi" [14, 196-p] deb ta'kidlaydilar.

Yuqorida keltirilgan fikrga qo'shib bo'lmaydi. Chunki atrof-muxitga zarar keltiradigan ekologiya sohasidagi jinoyatlar nafaqat qasddan, balki ehtiyotsizlik natijasida ham sodir etiladi. Xususan, O'z.R JK Maxsus qismi XIV bobida nazarda tutilgan atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlarning ba'zilar qasddan sodir etilsa, ba'zilar esa ehtiyotsizlikdan sodir etiladi.

III. Ekologiya sohasidagi jinoiy qilmishning jinoyat qonunida qaysi toifaga (JK 15-moddasi) kiritilganligi ham boshqa jinoyatlardan farqlovchi o'ziga xos xususiyati bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar:

– JK 193-moddasi, 194-moddasi, 195-moddasi, 196-moddasi, 197-moddasi, 197¹-moddasi 1-qismi, 198-moddasi, 199-moddasi, 200-moddasi, 201-moddasi 1-qismi, 202-moddasi 1- va 2-qismlari, 203-moddasi, 204-moddasi 1-qismi.

2. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlar:

– JK 1971-moddasi 2-qismi, 201-moddasi 2-qismi, 203-moddasi 3-qismi, 204-moddasi 2-qismi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar asosan ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan va uncha og'ir bo'lmagan jinoyatlardir. Ekologiya sohasidagi jinoyatlarda mazkur jinoyatlarning o'z xususiyati va ijtimoiy xavflilik darajasiga ko'ra og'ir va o'ta og'ir jinoyatlar mavjud emas.

IV. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar nazarda tutilgan JK Maxsus qismi normasi dispozitsiyasida rag'batlantiruvchi normalarning mavjudligi ham mazkur jinoyatlarning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralar ko'rmasslikda (JK 197¹-moddasi) birinchi marta jinoyat sodir etgan shaxs, agar u o'zboshimchalik bilan egallangan yer uchastkasining qaytarilishini ta'minlasa hamda o'zboshimchalik bi-

lan egallab olishning oqibatlarini bartaraf qilsa, javobgarlikdan ozod etiladi;

2. Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilishda (JK 198-moddasi) yetkazilgan moddiy zararining o'rni uch karra miqdorida qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi;

3. Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzishda (JK 202-moddasi) yetkazilgan moddiy zararining o'rni uch karra miqdorda, O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan kamyob va yo'qolib borayotgan hayvonot hamda o'simlik dunyosi turlariga nisbatan yetkazilgan zararining o'rni esa besh karra miqdorda qoplangan taqdirda, ozodlikni cheklash va ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi;

V. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar nazarda tutilgan JK Maxsus qismi normasi dispozitsiyasida zarar miqdori yoki kelib chiqqan oqibatlar og'irligi o'ziga xos xususiyatlari ichida eng ahamiyatlisi bo'lib, ular mazkur jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligini belgilab beradi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish (JK 193-moddasi) jinoyati egri qasd yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilishi natijasida insonning o'limi, odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, ekologiyaga salbiy ta'sir qiladigan darajada atrof-muhitning o'zgarib ketishiga yoki boshqacha og'ir oqibatlar kelib chiqadi;

2. Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish (JK 194-moddasi) jinoyati to'g'ri qasd sodir etilishi natijasida aholining ommaviy kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlar va odam o'lishi yuzaga keladi;

3. Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralari ko'rmaslik (JK 195-moddasi) jinoyati egri qasd yoki ehtiyotsizlik sodir etilishi natijasida odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha og'ir oqibatlar, shuningdek, hattoki odam o'lishiga sabab bo'ladi;

4. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish (JK 196-moddasi) jinoyati egri qasd yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilishi natijasida odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoki boshqacha

og'ir oqibatlar, shuningdek, hattoki odam o'lishiga sabab bo'ladi;

5. Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish (JK 197-moddasi) jinoyati qasd yoki ehtiyotsizlik natijasida og'ir oqibatlar (odamlarning kasallanishi, hayvonot va o'simliklarning qirilib ketishi, qishloq xo'jalik ekinlari unumdorligi pasayishi, yerning ustki qismida bo'shliqlar hosil bo'lishi, foydali qazilmalar o'z qimmatli xususiyatini yo'qotganligi uchun ularni kavlab olish to'xtatilishiga olib kelgan atrof tabiiy muhitga zararli ta'siri) kelib chiqadi;

6. Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish (JK 198-moddasi) jinoyati ehtiyotsizlikdan (JK 198-moddasi 1-qismi) yoki qasddan (JK 198-moddasi 2 va 3-qismlari) sodir etilishi natijasida ko'p miqdorda zarar (bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo'lgan miqdordagi zarar) yetkazilishiga sabab bo'ladi yoxud boshqacha og'ir oqibatlar yuzaga keladi;

8. O'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish (JK 199-moddasi) jinoyati egri qasd yoki ehtiyotsizlikdan sodir etilishi natijasida og'ir oqibatlar (odamlar va hayvonlarning zaharli kimyoviy moddalar bilan zaharlanishi, ekinlarning katta maydonlarda nobud bo'lishi) vujudga keladi;

9. Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalarini va normalarini buzish (JK 200-moddasi) jinoyati ehtiyotsizlik yoki egri qasddan sodir etilishi natijasida hayvonlarning yoki parrandalarning epidemik kasalliklari (epizootiyalar) tarqalishiga, ularning yalpi qirilib ketishiga yoki boshqa og'ir oqibatlarga olib keladi;

10. Zararli kimyoviy moddalar bilan muomala bo'lish qoidalarini buzish (JK 201-moddasi) jinoyati ehtiyotsizlik yoki egri qasddan sodir etilishi natijasida odamlarning ommaviy kasallanishi, hayvonlar, parrandalar yoki baliqlarning qirilib ketishi yoxud boshqacha og'ir oqibatlar, shuningdek, hattoki odam o'lishi kelib chiqadi;

11. Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish (JK 202-moddasi) jinoyati to'g'ri qasddan sodir etilishi natijasida ancha miqdorda (bazaviy hisoblash miqdorining yuz baravaridan uch yuz baravarigacha bo'lgan miqdordagi zarar), ko'p miqdorda (bazaviy hi-

soblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo'lgan miqdordagi zarar) va juda ko'p miqdorda zarar (bazaviy hisoblash miqdorining besh yuz baravari va undan ortiq bo'lgan miqdor) yetkazilishiga sabab bo'ladi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan hayvonot yoki o'simlik dunyosi turlari nobud bo'ladi;

12. Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish (JK 203-moddasi) jinoyati ehtiyotsizlik yoki egri qasddan sodir etilishi natijasida og'ir oqibatlar yuzaga keladi;

13. Muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning rejimini buzish (JK 204-moddasi) jinoyati qasd yoki ehtiyotsizlikdan (JK 204-moddasi 1-qismi), qasddan (JK 204-moddasi 2-qismlari) sodir etilishi natijasida ko'p miqdorda zarar (bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha bo'lgan miqdordagi zarar) yetkazilishi sabab bo'ladi yoki boshqacha og'ir oqibatlar kelib chiqadi.

Jinoyat huquqi nazariyasida ba'zi olimlar [15, 27-b.] tomonidan jinoiy javobgarlikning asosi ikkiga bo'linadi. Ular jinoiy javobgarlikka tortishning faktik asosi va yuridik asosi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ekologiya sohasidagi jinoyatlar – bu Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, ekologik xavfsizlikka, ya'ni inson va tirik organizmlarning yashash holati hamda vositasi sifatida atrof tabiiy muhit xavfsizligiga qaratilgan aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik)dan iborat atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlardir. Ular albatta jinoyat qonuni bilan taqiqlanadi va jazo qo'llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi.

Rivojlangan davlatlar [16] jinoyat qonunchiligini tahlil qilish shundan dalolat beradiki, ekologiya sohasidagi jinoyatlar asosan ikkita turkumga qarab ajratiladi.

Jinoyat huquqi nazariyasida ba'zi olimlar [17, 39-b.] ham ekologiya sohasidagi jinoyatlarni ikki turga bo'lishadi.

Shuningdek, ekologiya sohasidagi jinoyatlarni umuman olganda ikki turga bo'lish mumkin [18, 338-b.]. Biz jinoyat huquqi nazariyasidagi ba'zi olimlar va rivojlangan davlatlar jinoyat qonunchiligini tahlil qilgan holda ular quyidagilardan iborat deb hisoblaymiz:

I. Umumiy xarakterdagi egologik jinoyatlar;

II. Tabiiyat, atrof-muhitning alohida komponentlari yoki tarkibiy qismlari(havo, suv va boshqalar)ga zarar yetkazadigan maxsus ekologik jinoyatlar.

I. Umumiy xarakterdagi egologik jinoyatlar. Ular butun tabiat va tabiiy muhitga tajovuz qiladilar. Ular quyidagilardan iborat:

1. Ekologiya xavfsizligiga oid normalar va taablarni buzish (JK 193-moddasi);

2. Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko'rsatish (JK 194-moddasi);

3. Atrof tabiiy muhitning ifloslanishi oqibatlarini bartaraf qilish choralari ko'rmaslik (JK 195-moddasi);

4. Atrof tabiiy muhitni ifloslantirish (JK 196-moddasi);

5. Zararli kimyoviy moddalar bilan muomala da bo'lish qoidalarini buzish (JK 201-moddasi).

II. Tabiiyat, atrof-muhitning alohida komponentlari yoki tarkibiy qismlari (havo, suv va boshqalar)ga zarar yetkazadigan maxsus ekologik jinoyatlar. Bularga quyidagilar kiradi:

1. Yer, yer osti boyliklaridan foydalanish shartlarini yoki ularni muhofaza qilish talablarini buzish (JK 197-moddasi);

2. Sug'oriladigan yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olishga yo'l qo'ymaslik bo'yicha choralari ko'rmaslik (JK 1971-moddasi);

3. Ekinzorlarni, o'rmonlarni, daraxtlarni yoki boshqa o'simliklarni shikastlantirish yoxud nobud qilish (JK 198-moddasi);

4. O'simliklar kasalliklari yoki zararkunandalari bilan kurash talablarini buzish (JK 199-moddasi);

5. Veterinariya, veterinariya-sanitariya qoidalarini va normalarini buzish (JK 200-moddasi);

6. Hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish (202-moddasi);

7. Suv yoki suv havzalaridan foydalanish shartlarini buzish (JK 203-moddasi).

Amaldagi Jinoyat kodeksi Maxsus qismining to'rtinchi bo'lim XIV bob "Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar" deb nom olgan bo'lib, mazkur ekologik jinoyatlar aks etgan moddalar dispozitsiyasi va ushbu jinoyatlar obyektiv belgilarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xavfli oqibat sifatida ushbu jinoyatlar moddalari dispozitsiyasida boshqa og'ir oqibatlar berilgan bo'lsa-

da, ularning ta'rifi ekologiya sohasidagi hech bir qonunda ham, amaldagi Jinoyat kodeksi VIII bo'lim "Atamalarining huquqiy ma'nosi"da ham, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining "Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti haqida" qarorida (1996-yil 20-dekabr, 36-son) ham nazarda tutilmagan. Bunday holat esa atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida bir qancha qiyinchiliklarni keltirib

chiqarmoqda va mazkur jinoiy qilmishlarni noto'g'ri kvalifikatsiya qilinishiga olib kelmoqda.

Amaldagi Jinoyat kodeksi VIII bo'lim "Atamalarining huquqiy ma'nosi"da boshqa og'ir oqibatlarini quyidagi tahrirda bayon etish taklif qilindi: *"boshqa og'ir oqibatlar – atrof tabiiy muhit xavfsizligiga va ekologik xavfsizlikka salbiy ta'sirlar natijasida tabiiy muhit va insonning hayotiy muhim manfaatlarining xo'jalik va boshqa faoliyat, tabiiy hamda texnogen tushadigan favqulodda vaziyatlar va ularning oqibatlarining ehtimoliy salbiy ta'siridan kelib chiqadigan oqibatlar tushuniladi"*.

REFERENCES

1. <https://www.unep.org/news-and-stories/story/environmental-crime>
2. Anna Rita Germani, Alan P. Ker, Angelo Castaldo, On the existence and shape of an environmental crime Kuznets Curve: A case study of Italian provinces, Ecological Indicators, Volume 108, 2020, pp. 1–9. 105685, ISSN 1470-160X, doi: <https://doi.org/10.1016/j.ecolind.2019.105685>.
3. Convention on the Protection of the Environment through Criminal Law. ETS¹ 172. Strasbourg, 4.XI.1998 // Available at: <https://rm.coe.int/168007f3f4>
4. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni // <https://lex.uz/docs/107115#5524742> / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 9.12.1992-y., 754-XII-son.
5. Jinoyat huquqi. (Umumiy qism) Darslik. Mas'ul muharrir: y.f.f.d (PhD) X.Ochilov. Tashkent, Adolat nashriyoti, 2020, p. 264. [Criminal law. (General section) Textbook. Editor-in-Chief: PhD in law H.Ochilov. Tashkent, Adolat Publishing House, 2020, p. 264.
6. O'zbekiston Respublikasining jinoyat huquqi. Maxsus qism. Chizmalar albomi. Tashkent, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2014, p. 282. [Criminal law of the Republic of Uzbekistan. Special section. Drawings album. Tashkent, Academy of the Ministry of Internal Affairs of the Republic of Uzbekistan, 2014, p. 282.
- Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 4. Iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar. Ekologiya sohasidagi jinoyatlar. Hokimiyat, boshqaruv va jamoat birlashmalari organlarining faoliyat tartibiga qarshi jinoyatlar. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. Tashkent, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti, 2018, p. 529. [Rustambayev M.X. Course of Criminal Law of the Republic of Uzbekistan. Volume 4. Crimes in the field of economics. Crimes in the field of ecology. Crimes against the order of activity of the bodies of power, administration and public associations. Textbook. 2nd edition, supplemented and revised. Tashkent, Military-Technical Institute of the National Guard of the Republic of Uzbekistan, 2018, p. 529.
7. Kuznetsova N. F. Prestuplenie i prestupnost. Moskva, 1969, p. 378. (Kuznetsova N.F. Crime and Criminality. Moskva, 1969, p. 378.)
8. Piontkovskiy A. A. Uchenie o prestuplenii po sovetскому уголовному праву. Moskva, 1961, p. 478. (Piontkovsky A.A. The doctrine of crime under Soviet criminal law. Moskva, 1961, p. 478.)
9. Lynch, M.J., Barrett, K.L., Stretesky, P.B., Long, M.A., 2016. The weak probability of punishment for environmental offenses and deterrence of environmental offenders: a discussion based on USEPA criminal cases, 1983–2013. Deviant Behav. 37, pp. 1095–1109. <https://doi.org/10.1080/01639625.2016.1161455>.
10. Ochilov X.R., Xaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. "Jinoyat huquqi" (Umumiy qism). O'quv qo'llanma. Tashkent, TDYU nashriyoti, 2021, p. 172. [Ochilov H.R., Khaydarov Sh.D., Shamsidinov Z.Z. "Criminal Law" (General Part). Tashkent, TSUL Publishing House, 2021. 172 pages.]
11. Timothy D. Crowe, Lawrence J. Fennelly. Crime Prevention Through Environmental Design. ISBN 978-0-12-411635-1. Imprint. Butterworth-Heinemann. Book Third Edition 2013. 360-p. Copyright © 2013 Elsevier Inc. All rights reserved. doi: <https://doi.org/10.1016/C2012-0-03280-2>

12. Rustamboyev M.X. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharh [Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashr. 2016-yil 1-noyabrgacha bo'lgan o'zgarish va qo'shimchalar bilan] maxsus qism / M.Rustamboyev. Tashkent, Adolat, 2016, p. 960. [Rustamboyev M.X. Commentary to the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan [Revised and supplemented second edition. With changes and additions as of November 1, 2016] special section / M.Rustamboyev. Tashkent, Adolat, 2016, p. 960.]
13. O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi Qonuni // <https://www.lex.uz/acts/415135> / Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 3.12.2004-y., 710-II-son.
14. Elaine Barclay, Robyn Bartel, Defining environmental crime: The perspective of farmers, *Journal of Rural Studies*, Volume 39, 2015, pp. 188–198, ISSN 0743-0167, doi: <https://doi.org/10.1016/j.jrurstud.2015.01.007>.
15. Ugolovnoe pravo. Osobennaya chast / pod red. A.I. Chuchaeva. Moskva, 2018, p. 348. [Criminal law. Special part / ed. A.I. Chuchaev. Moskva, 2018, p. 348.]
16. <https://www.justice.gov/jm/jm-5-11000-environmental-crimes>, <https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/C-15.31/section-274.html?wbdisable=true>, [https://uk.practicallaw.thomsonreuters.com/Topic/5-607-9650?sv=7-589-6165&transitionType=Default&contextData=\(sc.Default\)&firstPage=true](https://uk.practicallaw.thomsonreuters.com/Topic/5-607-9650?sv=7-589-6165&transitionType=Default&contextData=(sc.Default)&firstPage=true)
17. Bavsun M. V., Balandyuk V. N., Vishnyakova N. V., Nikolaev K. D. Konspekt lektsiy po ugolovnomu pravu Rossii. Obshaya chast : ucheb. posobie. Moskva, 2017, p. 148. (Bavsun M.V., Balandyuk V.N., Vishnyakova N.V., Nikolaev K.D. Lecture notes on criminal law of Russia. General part: textbook. allowance. Moskva, 2017, p. 148.)
18. Golubev S.I. Ekologicheskie prestupleniya. Moskva, 2017, p. 349. [S.I. Golubev Environmental crimes. Moskva, 2017, p. 349.]
19. Kumriniso Abdurasulova. "Stages Of Formation Of Criminological Doctrines In The Republic of Uzbekistan And Some Tasks of Modern Criminological Science". *The American Journal of Political Science Law and Criminology*, vol. 3, no. 10, Oct. 2021, pp. 40-51, doi:10.37547/tajpslc/Volume03Issue10-08.
20. Abdurasulova Q. General description, causes and prevention of corruption crimes // *ProAcademy*. 2018, T. 1, No. 4, pp. 5–8.
21. Abdurasulova Q. R. Ayollar jinoyatchiligining jinoyat huquqiy va kriminologik muammolari: Yurid. fan. dok. dis. 2006.
22. Xakimov K. B. Qilmishning jinoiyligini istisno qiluvchi holatlar tushunchasi va o'ziga xos jihatlari // *jurnal Pravovûx issledovaniy*. 2021, T. 6, No. 1.
23. Xakimov K. B. Ijtimoiy xavfli qilmishni sodir etgan shaxsni ushlab vaqtida zarar yetkazishga doir ayrim masalalar // *Jurnal Pravovûx Issledovaniy*. 2020, No. Special 5.
24. Xakimov K. Kriminologicheskaya xarakteristika prestupleniy, sovershennûx v sostoyanii affekta, i lichnost prestupnika // *Review of law sciences*. 2020, T. 3, No. Spetsvûpusk.
25. Sunnatov V. T. Mansabdorlik jinoyatlari va mansab soxtakorligining ijtimoiy xavfiligi // *Jurnal Pravovûx issledovaniy*. 2020, No. Special 3.
26. Sunnatov V. Mansab soxtakorligining sabablari va unga imkon beruvchi shart-sharoitlar // *Obûestvo i innovatsii*. 2020, T. 1, No. 2/S, p. 199–205.
27. Vokhid S. Specific aspects of motivation and purpose in the quantification of career fraud crime // *Review of law sciences*. 2020, No. 4.
28. Abzalova X. Teoreticheskie osnovû ustanovleniya ugolovnoy otvetstvennosti za umûshlennoe ubiystvo po naymu // *Review of law sciences*. 2018, No. 2.
29. Abzalova X. M. Theoretical basis for criminalization of premeditated murder-for-hire // *Review of law sciences*. 2018, T. 2, No. 2, p. 28.
30. Allanova A. Antisotsialnoe povedenie nesovershennoletnego–ob'ektivnûy priznak prestupleniya v vide vovlecheniya v deystviya // *Review of law sciences*. 2020, T. 2, No. Spetsvûpusk.
31. Mirabdullayevich, Mamajanov Abrorbek. "Criminal liability of persons with a mental disorder in Islamic law" *Journal of law research* (2020): 209-215.
32. Abrorbek M. Foreign experience in solving the problem of limited sanity // *International Journal of Pharmaceutical Research*. T. 12, No. 3, pp. 534–538.
33. Allanova A. Aggravating circumstances of illegal travel abroad or illegal entry into the Republic of Uzbekistan // *Review of law sciences*. 2020, T. 4, No. 1, p. 3.

UDC: 347.64(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-6027-1668

OZODLIKDAN MAHRUM QILISH JAZOSINI O'TAB CHIQQAN VOYAGA YETMAGANLARNING POST- PENITENSIAR ADAPTATSIYASINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Saloxova Sarvinoz Sadridдин qizi,
O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi xodimi,
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi,
e-mail: salohovasarvinoz@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada muallif tomonidan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmagan sobiq mahkumlarning post-penitensiar adaptatsiyasini ta'minlash bilan bog'liq masalalar tahlil qilingan. Xususan, post-penitensiar adaptatsiya tushunchasining mazmun-mohiyati, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarning post-penitensiar adaptatsiyasini ta'minlashning asosiy maqsadi va o'ziga xos xususiyatlari yoritib o'tilgan. Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimizda jazoni o'tab chiqqan mahkumlarning ijtimoiy rehabilitatsiyasini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar haqida to'xtalib o'tilgan. Maqolada huquqshunos olimlarning ushbu sohadagi ilmiy-nazariy qarashlari, huquqni qo'llash amaliyotidagi mavjud muammolar tahlil etilgan. Bundan tashqari, maqolada xalqaro qonun hujjatlari va Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Yaponiya, Kanada kabi ilg'or xorijiy davlatlarning jinoiy jazolarni ijro etish sohasidagi tajribasi tahlil etilgan. Ushbu davlatlarda ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan shaxslarning ijtimoiy hayotga moslashtirish va post-penitensiar adaptatsiyasini ta'minlash sohasidagi qonunchilik normalari va amaliyoti o'rganilgan. Muallif tomonidan ushbu maqolada ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan voyaga yetmagan shaxslarning post-penitensiar adaptatsiyasini ta'minlash borasida qonun hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan ayrim takliflar keltirilgan.

Kalit so'zlar: voyaga yetmaganlar, jinoiy jazo, ozodlikdan mahrum qilish, jazoni ijro etish muassasalari, tarbiya koloniyalari, ma'muriy nazorat, post-penitensiar adaptatsiya, resotsializatsiya.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПОСТПЕНИТЕНЦИАРНОЙ АДАПТАЦИИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ, ОТБЫВШИХ НАКАЗАНИЕ В ВИДЕ ЛИШЕНИЯ СВОБОДЫ

Салохова Сарвиноз Садриддин кизи,
сотрудник Министерства юстиции Республики Узбекистан,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье проанализированы вопросы, связанные с обеспечением постпенитенциарной адаптации бывших несовершеннолетних осужденных, отбывших наказание в виде лишения свободы и освобожденных из учреждений исполнения наказания. В частности, освещены сущность и содержание понятия «постпенитенциарная адаптация», основные цели и особенности обеспечения постпенитенциарной адаптации лиц, освободившихся из учреждений исполнения наказания. А также были затронуты проводимые на сегодняшний день в нашей стране реформы по обеспечению социальной реабилитации осужденных, отбывающих наказание. В статье анализируются научно-теоретические взгляды современных ученых-юристов касательно актуальных проблем совершенствования правоприменительной практики. Кроме того, в статье был проведен анализ международного законодательства передовых зарубежных стран, таких как Российская Федерация, Германия, Япония, Канада, и их опыт в сфере исполнения уголовных наказаний. Были изучены законодательные нормы и практика в области обеспечения социальной адаптации и

постпенитенциарной адаптации лиц, отбывших наказание в местах лишения свободы. Автором в данной статье были разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию законодательства по обеспечению постпенитенциарной адаптации несовершеннолетних лиц, отбывших наказание в виде лишения свободы.

Ключевые слова: несовершеннолетние, уголовное наказание, учреждения по исполнению наказания в виде лишения свободы, воспитательные колонии, административный контроль, постпенитенциарная адаптация, ресоциализация.

IMPROVMENT OF ENSURING POST-PENITENTIARY ADAPTATION OF MINORS RELEASED FROM PENITENTIARY INSTITUTIONS

Salokhova Sarvinoz Sadrididdin qizi,

Officer of the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan,
independent researcher of Tashkent State University of Law

Abstract. In this article the author conducted the issues of the related to ensuring the post-penitentiary adaptation of minor convicts who have served a sentence of imprisonment and released from penitentiary institutions. In particular, the content and essence of the concept of post-penitentiary adaptation, the main goals and features of ensuring post-penitentiary adaptation of convicts released from penitentiary institutions are illuminated. Furthermore, the article analyzed the ongoing reforms in our country to ensure the social rehabilitation of convicts released from penitentiary institutions and also studied the theoretical views of scientists in this field, current problems of law enforcement practice. In additions, author conducted international legislation and the experience of advanced foreign countries in the field of criminal-execution punishments, such as the Russian Federation, Germany, Japan and Canada. As well as, offered on improvement of the acts regulating to ensuring post-penitentiary adaptation of minors released from penitentiary institutions in the field are provided.

Keywords: minor, criminal punishment, penitentiary institutions, correctional colonies, imprisonment, administrative control, the post-penitentiary adaptation, resocialization.

Bugungi kunda jinoiy jazolarni ijro etish, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan sobiq mahkumlar, xususan, voyaga yetmaganlarni reabilitatsiya va resotsializatsiya qilish hamda ijtimoiy hayotga moslashtirish, jazoni o'tab chiqqanlaridan so'ng ularni normal hayotga qaytarish, shuningdek, sobiq mahkumlar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish masalalarini tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-4006-son "Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga bilan tasdiqlangan 2019-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi jinoyat-ijroiya qonunchiligini takomillashtirish Konsepsiyasida ham voyaga yetmaganlarga nisbatan tayinlangan ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazoni ijro etish tizimini liberalashtirish bilan bir qatorda, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy moslashuvi va ishga joylashishiga har tomonlama amaliy ko'maklashish, shuningdek, ozod-

likdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan voyaga yetmagan mahkumlarning ta'lim olishi va kasbiy tayyorgarligini tashkil etish tizimini rivojlantirish [1] kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning izchil davomi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-iyuldagi VMQ-543-son "Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy-maishiy ta'minlash va ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan Ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod qilingan shaxslarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy moslashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha 2018-2022-yillarga mo'ljallangan Yo'l xaritasining qabul qilinganligi ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'ldi.

Mazkur Yo'l xaritasining "Mahkumlarni tarbiyalash va ijtimoiy moslashtirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish" deb nomlangan ikkinchi yo'nalishi oltinchi bandi voyaga yetmagan mahkumlarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash-

ga qaratilgan bo'lib, voyaga yetmagan mahkumlarini ijtimoiy moslashuvini ta'minlashda voyaga yetmagan huquqbuzarlarning sodir etgan jinoyatiga astoydil pushaymon bo'lishiga yo'naltirilgan tarbiyaviy ishlarga O'zbekiston Yoshlar ittifoqi va killarini hamda mahkumlarning ota-onalarini jalb etish [2] mexanizmini ishlab chiqish belgilanganligi ahamiyatlidir.

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan sobiq mahkumlarning ijtimoiy rehabilitatsiya qilish, jazoni o'tab chiqqanlaridan so'ng ularni normal hayotga qaytarish sobiq mahkumlar o'rta-sida qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishga yordam beradi. Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan shaxslarni qo'llab-quvvatlash va ular ustidan nazorat qilishni tashkillashtirishning ahamiyatligi qator xalqaro hujjatlarda, xususan, 1955-yil 30-avgustdagi Mahbuslar bilan muomala qilishning minimal standart Qoidalar va BMT Bosh Assambleyasining 1990-yil 14-dekabrda "Mahbuslar bilan muomala qilishning asosiy prinsiplari" nomli Rezolyutsiyasida o'z ifodasini topgan.

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan mahkumlar, ayniqsa, voyaga yetmaganlarning ijtimoiy hayotga moslashuvini ta'minlash murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Ta'kidlash lozimki, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan mahkumlarning post-penitensiar adaptatsiyasini ta'minlashning asosiy sabablaridan biri sobiq mahkumlar o'rtasidagi retsivid jinoyatchilikning ko'rsatkichlari bilan bog'liq.

Xususan, bugungi kunda dunyo miqyosida ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan mahkumlarning ko'pchilik qismini retsidevistlar tashkil etib, jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan mahkumlarning 60–70 foizi ikkinchi marotaba jinoyat sodir etganligi sababli hukm qilinganlardir. Mazkur ko'rsatkich AQSh, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarda yuqori ko'rsatkichni tashkil etayotganligi [3] jazoni ijro etish muassasalarini faoliyatini isloh qilish, mahkumlar yoki jazoni o'tab chiqqan shaxslar tomonidan yangi jinoyat sodir etilishining oldini olishga qaratilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish, bu sohada profilaktik chora-tadbirlarga alohida e'tibor qaratish zarurati mavjudligidan dalolat beradi.

Statistik ma'lumotlarga asosan, respublikamizda esa 2018-yil davomida jinoyat ishlari

bo'yicha sudlar tomonidan jami 772 ta voyaga yetmagan shaxsga nisbatan jinoyat ishi va iltimosnomalar ko'rilgan bo'lsa, 2019-yil davomida mazkur ko'rsatkich kamayib 575 tani tashkil etgan. Biroq, 2020-yilda 2019-yilga nisbatan jinoyat ishlari bo'yicha sudlar tomonidan voyaga yetmaganlarga nisbatan jami ko'rilgan ishlar soni 30 taga ko'payib 605 tani tashkil etgan. Sudlangan voyaga yetmagan shaxslar soni esa 2018-yilda 713 ta, 2019-yilda 497 ta, 2020-yilda 499 tani tashkil etib, ularga nisbatan turli jazo choralari tayinlangan [4].

Mazkur raqamlar respublikamizda voyaga yetmaganlar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olish, xususan, ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan voyaga yetmaganlar tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimini takomillashtirish zarurati mavjudligini ko'rsatmoqda.

Qayd etish kerakki, ozodlikdan mahrum qilish jazosi eng o'gir jazo turi hisoblanib, shaxs ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash jarayonida jamiyatdan butunlay ajratilgan holda jazoni o'taydi. Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash jarayonidagi muhit esa mahkumlarning jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilganlaridan so'ng obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra jamiyatdan ajralib qolishiga sabab bo'ladi.

Huquqshun olim M.Sh.Najimovning fikricha, ozodlikdan mahrum qilish joylaridagi g'ayriijtimoiy muhit mahkumlarda jamiyatdan ma'naviy ajralish hissini yanada kuchaytiradi. Shu sababli jamiyatdan ajratish, shuningdek, uning ayrim jihatlari mahkumlar tomonidan ozodlikdan mahrum qilishning eng og'ir tomonlari sifatida qabul qilinadi [5].

Ko'p holatlarda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan mahkumlarning yashash va ishlash joyi, shuningdek, kasb-kori, ma'lumoti bo'lmaydi, qarindoshlar va yaqinlar bilan aloqalar ham hattoki uzilgan bo'ladi. Buning ustiga, sobiq mahkumlarning ruhiy holati turg'un bo'lmasligi, shuningdek, jamiyatning ularga nisbatan salbiy munosabati vaziyatni yanada chigallashtiradi. Tadqiqotchilar P.Ktadoczny va M.Wolnylar tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra respondentlarning 50 foizi sobiq jinoyatchilar bilan do'st, yaqin qarindosh, hamkasb, qo'shni sifatida yaqin aloqada bo'lishni istashmaydilar [6].

Bunday holatlar esa sobiq mahkumlar o'rtasida retsdiv jinoyatchilikni sodir etilishiga sabab va shart-sharoit yaratishi shubhasizdir.

Jazoni o'tashdan ozod qilish har bir ozod qilingan shaxsni bir qator ijtimoiy muammolar – oila a'zolari, yaqin qarindoshlari va jamiyatlardagi boshqa shaxslar bilan ijtimoiy aloqani saqlash, uy-joy, bandlik masalalari hamda madaniy moslashish muammolariga duch kelishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni ozodlikka chiqarish jarayonini shunday tashkil etish kerakki, toki bu jarayon masalani ham huquqiy, ham ijtimoiy jihatlarini qamrab olsin.

Xorijiy yuridik adabiyotlarda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan sobiq mahkumlarining "ijtimoiy moslashuvchanligi"ni ta'minlash, "reabilitatsiya qilish", "ijtimoiy resotsializatsiya" qilish tushunchalari bilan bir qatorda mahkumlarining "post-penitensiar adaptatsiyasi" tushunchasini ham uchratishimiz mumkin.

Ta'kidlash lozimki, yuqorida ta'kidlangan tushunchalar mazmun-mohiyati jihatidan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, post-penitensiar adaptatsiya tushunchasi ijtimoiy moslashuv tushunchasining bir qismini tashkil etib, mazkur tushunchalarning mazmun-mohiyati, vazifalari va mezonlari qisman turlichadir. Post-penitensiar adaptatsiya – ijtimoiy adaptatsiyaning maxsus yo'nalishi bo'lib, ozodlikdan mahrum qilish joylaridan ozod etilgan shaxslarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlashning huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy-psixologik jihatlaridan iborat kompleks chora-tadbirlardir [7].

Ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan mahkumlarni ijtimoiy hayotga moslashtirish ba'zi xorijiy mamlakatlar, xususan, Rossiya Federatsiyasida "mahkumlarni resotsializatsiya qilish" atamasi bilan ifodalanadi. Rossiya Federatsiyasining 2016-yil 23-iyundagi "Rossiya Federatsiyasida huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi asoslari to'g'risida"gi Qonunining 25-moddasiga asosan [8], resotsializatsiya – huquqbuzarliklarning oldini olish subyektlari tomonidan ularning vakolatlariga muvofiq amalga oshiriladigan ijtimoiy-iqtisodiy, pedagogik, shuningdek, yuridik ahamiyatga ega chora-tadbirlar majmuasi hamda jinoyatchilikning oldini olish vakolatiga ega subyektlar tomonidan ozodlikdan mahrum qilish

jazosi va boshqa jinoiy-huquqiy ta'sir choralari qo'llanilgan shaxslarni jamiyatga reintegratsiya qilish maqsadida amalga oshiriladigan jarayondir.

Shu o'rinda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmagan mahkumlarning ijtimoiy hayotga moslashuvini ta'minlashning asosiy maqsadlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- sobiq voyaga yetmagan mahkumlarining jazoni o'tab chiqqanlaridan yoki jazodan ozod etilganidan so'ng ijtimoiy hayotga moslashtirish;

- sobiq voyaga yetmagan mahkumlarni ijtimoiy foydali faoliyat va mehnatga yo'naltirish;

- voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikning oldini olish.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan maqsadlarga erishish uchun voyaga yetmagan mahkumlar bilan jazoni ijro etish davri mobaynida tarbiyaviy ishlarni olib borish, ijtimoiy moslashuv bilan bog'liq chora-tadbirlarni ularning ozodlikka chiqishlaridan oldin boshlash, yangi hayotlarini boshlash uchun moddiy jihatdan ularni qo'llab-quvvatlash, psixologik, yuridik yordam ko'rsatish, qonunga itoatkor xulq-atvorni shakllantirish, ularni qayta o'qitish va qayta tarbiyalash, yashash joyi bilan, shuningdek, ish bilan ta'minlashda yordam berish kabi vazifalarning amalga oshirilishi muhimdir.

Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmagan sobiq mahkumlarning ijtimoiy reabilitatsiyasini tadqiq etgan bir guruh amerikalik olimlarning tadqiqotiga ko'ra, voyaga yetmagan sobiq mahkumlarni quyidagi uch toifaga bo'lish mumkin hamda jazoni o'tash muddati yakunlanishiga 5-6 oy muddat qolganda ularni jazodan ozod qilishga tayyorlash maqsadida maxsus o'quv dasturlarida ta'lim olishlariga imkoniyat yaratish lozim:

- jazoni o'tash mobaynida to'liq axloqi tuzalgan shaxslar;

- tarbiyasi va xulq-atvorida nuqsonlari bo'lgan shaxslar;

- jazoni o'tash davomida xulq-atvori tuzalmagan shaxslar [9].

Qayd etish lozimki, voyaga yetmagan mahkumlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga qaratilgan chora-tadbirlar nafaqat jazo muddati yakunlanadigan paytda, balki jazoning butun muddati davomida olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Jazoni o'tash muddati davomida tarbiya koloniyalarida mahkumlarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish jarayonida maxsus metodlardan – mahkumlarning psixologik, huquqiy, ijtimoiy holatlari bilan bog'liq usullardan foydalanish lozim. Tanlangan usul va prinsiplar esa voyaga yetmagan mahkumlarda ijobiy xulq-atvorning shakllanishiga hamda jazoni o'tab chiqqanlaridan so'ng qayta jinoyat sodir etish hollarining oldini olishni ta'minlab berishi lozim [10].

Tarbiya koloniyalarida voyaga yetmagan mahkumlarning post-penitensiar adaptatsiyasini ta'minlashda, jazo o'tash davri mobaynida quyidagi shakldagi tarbiya turlarining mahkumlarga singdirilishi mahkumlarni ozodlikka chiqqanlaridan so'ng ularda axloq normalari, qonunga nisbatan bo'lgan hurmatni kuchaytirishga, ayni paytda uni buzganlik uchun bo'lishi mumkin bo'lgan huquqiy oqibatlarini to'g'ri anglashiga, shuningdek, ijtimoiy foydali mehnat qilishga bo'lgan xohishini vujudga kelishiga yordam beradi, xususan:

- ma'naviy tarbiya – mahkumlarda jamiyatdagi axloq-odob qoidalarini hurmat qilishga qaratilgan umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishni nazarda tutadi va jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlarni axloqan tuzatish maqsadini ko'zda tutadi;

- huquqiy tarbiya – mahkumlarda huquqiy madaniyat, huquqiy ong va qonunlarga ong ravishda itoat qilish ruhi shakllantiriladi;

- jismoniy tarbiya – mahkumlar o'rtasida turli xil jismoniy-ommaviy va sport tadbirlarini o'tkazishnigina emas, balki ularda kelgusida sog'lom turmush tarzini shakllantirishni ham nazarda tutadi;

- mehnat tarbiyasi – mahkumlarda mehnatga nisbatan halol munosabatda bo'lishni, ijtimoiy-foydali mehnat shaxs hayotida uning farovon turmush kechirishiga asos bo'lib xizmat qiluvchi eng muhim omil ekanligiga ishonchni shakllantiradi.

Xalqaro Jinoyat Huquqlari Assotsiatsiyasi (IAPM), Xalqaro Kriminologik Jamiyat (ICE), Xalqaro Sotsiologik Uyushma (ISA) hamda Xalqaro Ijtimoiy Himoya Jamiyati kabi qator nodavlat muassasalari tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarga ko'ra [11] har bir davlat ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tab chiqqan sobiq mahkumlarga yordam berishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi – moddiy yordam, ijtimoiy-maishiy xizmatlar, tib-

biy-statsionar xizmatlar, yuridik maslahat yordami, vaqtincha boshpana berish, reabilitatsiya xizmatlarini tashkil etishi lozim.

Qayd etish kerakki, jazoni o'tab chiqqan yoki jazodan ozod etilgan sobiq mahkumlarning ijtimoiy moslashuvini tartibga soluvchi huquqiy normalar O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-ijroiya kodeksi, "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va boshqa qator normativ-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan. Biroq, bugungi kunda voyaga yetmagan sobiq mahkumlarni post-penitensiar adaptatsiyasini ta'minlashda huquqni qo'llash amaliyotida qator muammolar yuzaga kelmoqda:

birinchidan, jazoni ijro etish muassasalarida voyaga yetmagan mahkumlarni ozodlikka tayyorlashga qaratilgan maxsus dasturlarni takomillashtirish zaruriyati;

ikkinchidan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan sobiq voyaga yetmagan mahkumlarni ijtimoiy moslashtirish va reabilitatsiya qilish vazifasi yuklatilgan organ va muassasalar tizimining qonunchilikda aniq belgilab qo'yilmaganligi;

uchinchidan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmagan shaxslarni kasbiy ta'limi va bandligini ta'minlashga qaratilgan normalarni takomillashtirish zarurligi bugungi kunda ushbu sohani tadqiq etish va takomillashtirish dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksining 30-bobi mahkumlarni jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilish tartibiga bag'ishlangan bo'lib, mazkur Kodeksning 17-moddasiga asosan, jazoni ijro etish muassasasi ma'muriyati ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxsning jazoni o'tash muddati tugashiga uzog'i bilan uch oy qolganda uni ozodlikka chiqarishga tayyorlash, mehnat va turmushda o'rnashishga bo'lgan ehtiyojini aniqlash, uning muassasadan ozod bo'lgandan keyingi huquqlari va majburiyatlarini tushuntirish maqsadida mahkum bilan tarbiyaviy ish olib boradi.

O'zbekiston Respublikasining "Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma'muriy nazorat to'g'risida"gi Qonuni hamda "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoi-

dalari”da ishda va turmushda o’rtnashishga muhtoj shaxslar aniqlangan taqdirda muassasa ma’muriyati oldindan mahkum yashashni mo’ljallayotgan joydagi ozodlikdan mahrum etish joylaridan ozod bo’lgan shaxslarning ijtimoiy moslashuvi markazini uning ozod qilinishi, turar joyi bor-yo’qligi, mehnat qobiliyati va ixtisosligi to’g’risida xabar-dor etishi belgilangan.

Shuningdek, muassasa ma’muriyati ayni bir vaqtda ustidan ichki ishlar organlarining ma’muriy nazorati o’rnatilishi zarur bo’lgan shaxslarni aniqlaydi va O’zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-apreldagi “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan ma’muriy nazorat to’g’risida”gi Qonuniga asosan, jazoni ijro etish muassasasi joylashgan hududdagi jinoyat ishlari bo’yicha sudiga tegishli taqdimnoma kiritadi.

Mazkur Qonunning 8-moddasi 3-qismiga asosan [12] agar jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilayotgan shaxsning ma’lum sabablarga ko’ra aniq turar joyi bo’lmasa, jazoni ijro etish muassasasi ma’muriyati unga yashash joyi bilan ta’minlash, doimiy yoki vaqtinchalik propiska qilish hamda ishga joylashishga yordam berishni so’rab, shuningdek nogiron yoki og’ir kasalliklarga chalingan shaxslarni davolash masalalarini oldindan hal qilish to’g’risida tegishli mahalliy davlat hokimiyati organlariga, ichki ishlar organlariga va sog’liqni saqlash muassasalariga iltimosnoma yuborishi talab etiladi.

Voyaga yetmagan mahkumlar esa jazodan ozod etilganlarida ota-onalari yoki ularning o’rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga jo’natiladi. Ota-onasi yo’q voyaga yetmagan shaxslar zarur hollarda internatlarga jo’natiladi yoki homiylar qaramog’iga beriladi. Ko’rib turganimizdek, yuqoridagi normalarda mahkumlarni jazodan ozodlikka tayyorlashning umumiy jihatlari aks ettirilgan.

Xalqaro tajriba shuni ko’rsatadiki, mahkumlarning ijtimoiy adaptatsiyasini ta’minlashga yordam beradigan usullardan biri bu “penitensiar ta’til” hamda “yengillashtirilgan saqlash sharoiti” hisoblanadi. Mazkur davr mobaynida jazoni ijro etish muassasasidan biriktirilgan xodim bilan birgalikda mahkumlar o’zlari uchun ish izlash, o’qish joyi bilan qayta aloqa o’rnatish, yashash joyi topish, jamiyat a’zolari bilan foydali aloqani o’rnatish, yaqin qarindoshlari bilan cheklanmagan miqdorda uchrashish, oilaviy masalalar bilan

bog’liq muammolarni hal qilish kabi mashg’ulotlar bilan shug’ullanadilar.

“Kanada qamoqxonalari to’g’risida”gi Qonunda Kanada penitensiar muassasalarida mahkumlar, shu jumladan, voyaga yetmagan mahkumlar jazo muddati tugashidan 3 oy oldin yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o’tkazilib, ushbu davr mobaynida 1 haftalik ta’tilga chiqishlari mumkin ekanligi belgilangan [13]. Mazkur davrda mahkumlar yuqorida ta’kidlangan huquqlardan foydalanish imkoniyatiga ega hisoblanadi. Ayni shu mazmundagi tartib Norvegiya hamda Ispaniya jinoyat-ijroiya qonunchiligiga ham xosdir.

Bu borada Rossiya Federatsiyasi Jinoyat-ijroiya kodeksida tarbiya koloniyalarida voyaga yetmagan mahkumlarni ozodlikka tayyorlash bosqichida ularga faqatgina yengillashtirilgan va imtiyozli saqlash sharoitlari tatbiq etilishi [14] to’g’risidagi normaning belgilanganligi voyaga yetmagan mahkumlarni jazoni o’tab chiqqanlaridan so’ng ularning post-penitensiar adaptatsiyasi hamda resotsializatsiyasini ta’minlashda ahamiyatlidir.

Jinoyatchilik ko’rsatkichi past bo’lgan Yaponiya davlatida esa mahkumlarning post-penitensiar adaptatsiyasini ta’minlashga qaratilgan maxsus qonun qabul qilingan bo’lib, ushbu qonun “Post-penitensiar vasiylik to’g’risida” deb nomlanadi. Ushbu davlatda ozodlikdan mahrum qilish jazosini o’tab chiqqan mahkumlar jazoni o’tab chiqqanlaridan so’ng 6 oy muddat davomida hukumatdan o’z murojaatiga ko’ra ish, turar-joy bilan ta’minlashni so’rab yordam olishlari mumkin.

Germaniya davlatida esa voyaga yetmagan mahkumlar jazoni o’tashi davomida ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish orqali tarbiyalanadi hamda jazoni o’tab chiqqanlaridan keyingi hayotiga tayyorlanadi. Xususan, Germaniya penitensiar muassasalarida mahkumlarga atom reaktori payvandchisi, avtomat liniyalarini sozlovchi kabi sohalarda maxsus bilim va ko’nikmalar berib boriladi [15], bu esa, o’z navbatida, mahkumning jazoni o’tab chiqqanidan so’ng ijtimoiy moslashuvini ta’minlashga yordam beradi. Germaniya davlatining jazoni ijro etish bilan bog’liq yana bir ijobiy tomonlaridan biri bu mahkumlarga masofaviy shaklda (distansion), ya’ni jazoni ijro etish muassasasining o’zida oliy ta’lim olish huquqining ta’minlanishidir.

Qayd etish kerakki, mazkur sohada yana bir tartibga solinishi lozim bo’lgan jihatlardan biri

bu jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmaganlarning post-penitensiar adaptatsiyasini ta'minlash vazifasini amalga oshiruvchi organ va muassasalar tizimini, ularning bu borada huquq va majburiyatlarini belgilab berilishidir. Qonunchiligimizda ushbu organ va muassasalar tizimini aniq belgilab qo'yilishining zarurati sobiq voyaga yetmagan mahkumlarni ijtimoiy, huquqiy, tibbiy, psixologik va moddiy jihatidan tizimli rehabilitatsiya qilish, ularga har tomonlama amaliy yordam berish, sobiq mahkumlar tomonidan qayta jinoyat yoki huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish maqsadi bilan bevosita bog'liqdir.

Bizningcha, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmaganlarning post-penitensiar adaptatsiyasini ta'minlash vazifasini amalga oshirishda vakolatli organlarning aniq tizimi hamda ularning vazifa va funksiyalari belgilanishi maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, bugungi kunda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmagan mahkumlarning ijtimoiy moslashtirishda jazoni o'tab chiqqan sobiq mahkumlarning ijtimoiy himoyasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish uchun zarur bo'lgan soha bu mehnat qonunchiligidir. E'tiborli jihat shundaki, jazoni ijro etish muassasasidan ozod etilgan sobiq voyaga yetmagan mahkumlar ish topishda bir muncha qiyinaladilar, chunki ularda zarur malaka, kasbning yo'qligi, hayotiy tajribaning kamligi bozor munosabatlarida ularning qiyin ahvolga tushishlariga sabab bo'ladi va bu hol tabiiydir.

Bandlik sohasida amalga oshirib kelayotgan izchil islohotlarga qaramasdan, bugungi kunda jazoni o'tab chiqqan yoki jazodan muddatidan ilgari ozod etilgan shaxslarning qariyib 76 foizi, bundan 12 foizi voyaga yetmaganlar [16] ishga joylashishga muhtoj ekanligi va ishsiz shaxslar orasida aynan 20 yoshgacha bo'lgan shaxslar salmoqli ekanligi tashvishga solmasligi mumkin emas.

Voyaga yetmaganlarning mehnat qilish va adolatli mehnat sharoitlarida ishlash huquqi Xalqaro Mehnat Tashkiloti tomonidan 1999-yil 17-iyunda Jenevada qabul qilingan 182-sonli "Bolalar mehnatining og'ir shakllarini taqiqlash va yo'q qilishga doir shoshilinch choralar to'g'risida"gi Konvensiyasida belgilanagan bo'lib, mazkur hujjat Xalqaro Mehnat Tashkilotining 8 ta asosiy hisoblanuvchi konvensiyalaridan biridir (O'zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyani 2008-yil 8-aprelda

ratifikatsiya qilgan). Ushbu xalqaro Konvensiyaga asosan har bir ishtirokchi davlat 18 yoshga to'lmagan shaxslarning mehnatidan foydalanish mumkin bo'lmagan ishlarda, shuningdek, og'ir va noqulay mehnat sharoitlarida faoliyat olib borishga jalb etilmasligi lozimligi belgilangan [17].

Ta'kidlash lozimki, huquqni qo'llash amaliyoti-da jazo o'tab chiqqan voyaga yetmaganlar orasida muayyan bir kasb yoki mutaxassislikka egalari ko'pchilikni tashkil etmaydi. Tarbiya koloniyalaridagi ijtimoiy muhit ham ma'lum darajada ularning ijtimoiy-psixologik qiyofasiga ta'sir ko'rsatadi. Natijada ular jazoni o'tab chiqqanlaridan so'ng kasbga va malakaga ega emasligi sababli mehnat sharoiti og'ir va noqulay bo'lgan sharoitlarda ishlashga hamda moddiy mablag' topishga majbur bo'lib qolish hollari ham kuzatiladi.

E'tiborli jihat shundaki, voyaga yetmagan sobiq mahkumlarni jamiyatga qaytarish faqat salbiy holatlar bilan kurashishnigina emas, balki birinchi navbatda jamiyat o'z fuqarolari jazoni o'tashi munosabati bilan yo'qotgan hayotiy faoliyatini ta'minlashini tashkil etishni ham talab etadi. Asosiy e'tibor ozodlikdan mahrum etish jazosini o'tab chiqqan sobiq mahkumlarni, ayniqsa, uzoq muddatga ozodlikdan mahrum etilgan mahkumlarni ozod etishda yordamga muhtojlarini aniqlash, ularni ish bilan ta'minlash va turmushini yo'lga qo'yishda yordam berish, ularni ijtimoiy, psixologik, huquqiy, tibbiy rehabilitatsiyasini amalga oshirish kabi masalalarga qaratilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

birinchidan, tarbiya koloniyalarida jazo o'tayotgan mahkumlarni ozodlikka tayyorlash, ularni ijtimoiy hayotga tezroq moslashtirish, yaqin qarindoshlari bilan munosabatlarini yaxshilash va avvalgi fuqarolik qiyofasini tiklashga yordam berish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi normalarini takomillashtirish lozim.

Xususan, tarbiya koloniyalarida jazo o'tayotgan ijobiy xulq-atvorga ega mahkumlarga quyidagi huquqlardan foydalanish imkoniyatining belgilanishi maqsadga muvofiq:

– tarbiya koloniyalarida jazo o'tayotgan mahkumlarni jazoni o'tash muddati tugashiga uzog'i bilan uch oy qolganda yengillashtirilgan saqlash sharoitiga o'tkazish;

- mahkumlarga fuqarolik kiyimlarida yurishlariga ruxsat berish;
- mahkumlarga cheklanmagan miqdorda telefon orqali soʻzlashuvlar huquqi berish;
- mahkumlarga cheklanmagan miqdorda yaqin qarindoshlari bilan uchrashuvlarga ruxsat berish.

ikkinchidan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmaganlarning post-penitensiar adaptatsiyasini taʼminlash vazifasini amalga oshirishda tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi ijtimoiy moslashuv markazlaridan tashqari ichki ishlar organlari, Bola huquqlari boʻyicha vakil (ombudsman), respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi, aholining bandligiga koʻmaklashish organlari, taʼlim muassasalari, sogʻliqni saqlash organlarini ishtirok etishining belgilanishi, shuningdek, har bir organing mazkur sohada vazifa va funksiyalarini ajratilgan holda tizimlashtirilishi va belgilanishi maqsadga muvofiq.

uchinchidan, har bir tuman va shaharlarda ijtimoiy moslashuv markazlari hamda aholining bandligiga koʻmaklashish organlarining hamkorligida 18 yoshgacha boʻlgan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmagan shaxslarni kasbga bepul oʻrgatish, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tegishli kasbni puxta egallaganlaridan soʻng ularni ish bilan taʼminlash vazifasi yuklatilgan maxsus tuzilmalarning tashkil etilishi, ularning tashkiliy huquqiy tarkibi, huquqiy maqomi ishlab chiqilishi lozim.

Ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi jazo oʻtab chiqqan, xususan, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan voyaga yetmaganlarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ular tomonidan qayta jinoyat sodir etilishining oldini olish, sobiq mahkumlarning avvalgi fuqarolik qiyofasini tiklash, shuningdek, ijtimoiy hayotda oʻz oʻrnini qayta topishida samarali yordam beradi.

REFERENCES

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-noyabrdagi PQ-4006-son “Jinoyat-ijroiya qonunchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori. Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 08.11.2018-y., 07/18/4006/2166-son, 13.12.2018-y., 06/18/5597/2300-son.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-iyuldagi VMQ-543-son qarori bilan tasdiqlangan “Ozodlikdan mahrum yetish joylaridan ozod qilingan shaxslarni ijtimoiy-maishiy taʼminlash va ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish boʻyicha amaliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori. Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi, 18.07.2018-y., 09/18/543/1526-son.
3. Martin Rossi, Ignacio Munyo. First-day criminal. recidivism. <https://voxeu.org/article/first-day-criminal-recidivism>
4. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy sudining 2021-yil 20-apreldagi 07/14-7346-144-son xati bilan taqdim etilgan statistik maʼlumot.
5. Najimov M.Sh. Ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlashning huquqiy asoslari va takomillashtirish muammolari. Yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Tashkent, 2010, p. 135.
6. Ktadoczny P., Wolny M. Prison conditions in Europe. Dissertation. European Prison Observatory. Rome, September, 2013, p. 46.
7. Sharipova N.B. Post-penitensiar adaptatsiyaning oʻziga xos xususiyatlari. Yuridik fanlar axborotnomasi. Ilm-y-amaliy jurnal. 2018-yil, 01-son. Tashkent, TDYU, p. 155.
8. Federalʼnoj zakon Rossijskoj Federacii ot 23 iyunja 2016 goda №182 “Ob osnovah sistemk profilaktiki provonarushenij v Rossijskoj Federacii. <http://www.consultant.ru/>
9. Piquero P. A., Steinberg L. Rehabilitation Versus Incarceration of Juvenile Offenders: Public Preferences in Four Models for Change States. Press inquiries on Models for Change. Cambridge, November, 2015.
10. Ashin A.A. Vospitatelʼnaja kolonija: istorija i sovremennostʼ: Monografija. Vladim. gos. un-t. Vladimir, Izd-vo Vladim. gos. un-ta, 2008, p. 428.
11. Craig Haney. The Psychological Impact of Incarceration: Implications for Post-Prison Adjustment. University of California-Santa Cruz, January. 30–31, 2015. p. 17.
12. Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yil 2-apreldagi “Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan ayrim toifadagi shaxslar ustidan maʼmuriy nazorat toʻgʻrisida”gi Qonuni. Oʻzbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari maʼlumotlari milliy bazasi. 2019-y., 9-son, 58-modda.

13. I.M.Rezhapova, Ju.M.Zaborovskaja. Zarubezhnyj opyt raboty s zakljuchennymi s cel'ju ih dal'nejshej resocializacii (na primere zakonodatel'stva Soedinennyh Shtatov Ameriki i Kanady). <https://vestnik.astu.org/temp/23a7c8e>

14. Ugolovno-ispolnitelnyj kodeks Rossijskoj Federacii ot 08.01.1997, № 1-F3 (red. ot 27.12.2019) <http://www.consultant.ru/>

15. Frieder Dunkel. Youth justice in Germany. Online Publication Date: January. 2016. <https://www.oxfordhb./>

16. <https://uznet.press/I/news./>

17. Patrice Saceda. Regulation of prohibition of the forced labuor in international law. Article. Vaucresson, CNFE-PJJ, November, 2012, p.34.

UDC: 343.2(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-0942-5641

AYRIM XORIJIY MAMLAKATLAR JINOYAT QONUNLARIDA O'ZBOSHMCHALIK UCHUN JAVOBGARLIK

Mamajanov Abrorbek Mirabdullayevich,
Toshkent davlat yuridik universiteti mustaqil izlanuvchisi,
e-mail: mamajanovabror2001@gmail.com

Annotatsiya. Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad yurtimizda yashayotgan har bir insonning farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoit yaratishdan iborat. Qabul qilinayotgan barcha qonunlar fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini, sha'ni, qadr-qimmatini, ozodligini himoya qilishga qaratilgan. Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, inson manfaatlarini ta'minlash uchun xizmat qilishi kerak. Jinoyatchilikdek ijtimoiy salbiy hodisa esa jamiyat rivojiga, islohotlarning borishiga to'sqinlik qiladi. Unga qarshi kurash amaldagi qonunlarga qat'iy rioya qilinganidagina kutilgan samarani berishi mumkin. Huquqiy-demokratik davlatning vazifalaridan biri jamiyat a'zolarining qonunlarga rioya etishlarini ta'minlash, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning bu boradagi mas'uliyatini oshirish, fuqarolarni tashqaridan bo'ladigan xavf-xatar va tazyiqlardan muhofaza qilishdan iboratdir. Mamlakatimizda sud-huquq sohasini demokratik asosda yanada isloh etish, mustahkamlash va erkinlashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlarda parlamentning alohida o'rin tutganini ta'kidlash zarur. Ana shu davrda parlament tomonidan qabul qilingan 30 ga yaqin qonunchilik hujjatlari qonun ustuvorligini ta'minlash, sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishda huquqni muhofaza qilish tizimining samaradorligini oshirishda muhim omil bo'ldi.

Kalit so'zlar: jinoiyat huquqi, o'zbochimchilik, jinoiy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik, jazo.

ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА САМОУПРАВСТВО В УГОЛОВНОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ НЕКОТОРЫХ ЗАРУБЕЖНЫХ СТРАН

Мамажанов Абдорбек Мирабдуллаевич,
самостоятельный соискатель
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Основной целью осуществляемых в республике реформ является создание условий для комфортной жизни каждого человека. Все принимаемые законы направлены на защиту прав и свобод, законных интересов, чести, достоинства, свободы граждан. Реформа должна служить не для реформ, а прежде всего для человека, обеспечения человеческих интересов. А такое социально негативное явление, как преступность, препятствует развитию общества, проведению реформ. Борба с ним может дать ожидаемый эффект только при строгом соблюдении действующего законодательства. Одной из задач правового демократического государства является обеспечение соблюдения законов членами общества, повышение ответственности правоохранительных органов за это, защита граждан от опасностей и притеснений со стороны. Необходимо отметить особую роль парламента в осуществляемой в нашей стране системной работе по дальнейшему реформированию, укреплению и либерализации судебно-правовой сферы на демократической основе. За этот период около 30 законодательных актов, принятых парламентом, стали важным фактором обеспечения верховенства закона, укрепления независимости судебной власти, повышения эффективности правоохранительной системы в надежной защите прав и свобод человека.

Ключевые слова: уголовное право, самоуправство, уголовная ответственность, административная ответственность, наказание.

RESPONSIBILITY FOR ARBITRARINESS IN THE CRIMINAL LEGISLATION OF SOME FOREIGN COUNTRIES

Mamajanov Abrorbek Mirabdullaevich,
Independent applicant of Tashkent State University of Law

Abstract. *The main goal of the reforms carried out in the republic is to create conditions for a comfortable life for every person. All adopted laws are aimed at protecting the rights and freedoms, legitimate interests, honor, dignity, and freedom of citizens. Reform should serve not for reforms, but above all for a person, to ensure human interests. And such a socially negative phenomenon as crime hinders the development of society and the implementation of reforms. Fighting it can give the expected effect only with strict observance of the current legislation. One of the tasks of a democratic state governed by the rule of law is to ensure the observance of laws by members of society, increase the responsibility of law enforcement agencies for this, and protect citizens from dangers and harassment from outside. It is necessary to note the special role of the parliament in the systematic work carried out in our country to further reform, strengthen and liberalize the judicial and legal sphere on a democratic basis. During this period, about 30 legislative acts adopted by the parliament have become an important factor in ensuring the rule of law, strengthening the independence of the judiciary, increasing the efficiency of the law enforcement system in the reliable protection of human rights and freedoms.*

Keywords: *criminal law, arbitrariness, criminal responsibility, administrative responsibility, punishment.*

Milliy huquqni xorijiy mamlakatlarning huquqiy tizimlari bilan qiyosiy o'rganish uning afzalliklarini aniqlash va sohani rivojlantirish istiqbollarini chuqurroq anglab yetishga yordam beradi.

Qonun loyihalarini xorijiy huquqiy amaliyot bilan har tomonlama chuqur qiyosiy tahlil qilish asosida ularni muhokama etish, tayyorlash ishlarini sifat jihatidan yanada yuqori bosqichga ko'tarish darkor.

A.Saidov ta'kidlaganidek, "qiyosiy-huquqiy tadqiq etish, bir tomondan, chet elda asosiy muommoni hal qilishda o'zini oqlagan foydali omillarining barchasini aniqlashga ko'maklashsa, boshqa tomondan xorij tajribasining salbiy tomonlarini, u yoki bu huquqiy yechimlarning samarali emasligini hisobga olish uchun imkoniyat yaratadi" [1, 36-37-b]. Darhaqiqat, qiyosiy huquqshunoslik mavjud milliy huquqning nisbiyligini aks ettirgan holda milliy qonunchilikni rivojlantirish istiqbollarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi [2, 52-b].

Quyida ushbu me'zonlarga asoslangan holda xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunlari tahliliga e'tibor qaratamiz.

Avvalo, o'zboshimchalik uchun jinoyat tarkibini belgilash va uning turlari me'zoni bo'yicha jinoyat qonunlarining tahlilini yoritish. Mazkur me'zon bo'yicha xorijiy mamlakatlarni to'rtta guruhga ajratish mumkin:

birinchi guruh – o'zboshimchalik uchun yagona jinoyat tarkibi belgilangan davlatlar (Rossiya

ya Federatsiyasi, Latviya, Moldova, Armaniston, Ozarbayjon, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Gruziya, Bolgariya, Mongoliya);

ikkinchi guruh – o'zboshimchalik bilan bog'liq qilmishlar uchun bir nechta jinoyat tarkibi belgilangan davlatlar (Belarus Respublikasi, Ukraina, Gretsiya, Daniya, Finlandiya, Qozog'iston, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi);

uchinchi guruh – o'zboshimchalik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan davlatlar (Shvetsiya, Angliya);

to'rtinchi guruh – "o'zboshimchalik" deb nomlangan alohida jinoyat tarkibi mavjud bo'lmagan, ammo uning ayrim shakllari uchun javobgarlik nazarda tutilgan davlatlar (Polsha, Germaniya Federativ Respublikasi, Shveysariya, Ispaniya, AQSh).

Birinchi guruh. Qayd etish lozimki, O'zbekiston Respublikasi bilan bir xil huquqiy tizimdagi MDHga a'zo aksariyat davlatlarda "o'zboshimchalik" deb nomlangan yagona jinoyat tarkibi mavjud va deyarli o'xshash. Mazkur holat MDHga a'zo mamlakatlar jinoyat qonunlarining 1996-yilgi MDH mamlakatlari uchun Model Jinoyat kodeksiga asosan ishlab chiqilganligi bilan bog'liqdir.

1996-yilda MDH mamlakatlari uchun Model Jinoyat kodeksida o'zboshimchalikni o'zining haqiqiy yoki faraz qilingan huquqini fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazadi-

gan tarzda o'zboshimchalik bilan amalga oshirish sifatida tavsiflash, shuningdek, mazkur qilmishni zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etganlik uchun javobgarlik belgilash tavsiya etildi (317-modda) [3]. Ammo, qayd etish joizki, ushbu fikr jinoyat kodekslarining birortasida ham to'liq hajmda hisobga olinmadi.

Jumladan, 1999-yil apreldan boshlab kuchga kirgan Latviya Jinoyat kodeksi 279-moddasining 1-qismida boshqa shaxs, davlat muassasasi yoki o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan qonuniyligiga e'tiroz bildirilgan holda biron-bir harakatni o'zboshimchalik bilan, normativ hujjatda belgilangan tartibni buzib sodir etish, agar ushbu qilmish oqibatida ancha miqdorda zarar yetkazilgan bo'lsa, jinoiy javobgarlik nazarda tutilgan [4, 262-b]. Ko'rib turganingizdek, Model Jinoyat kodeksida ko'p miqdorda zarar yetkazish jinoyat tarkibining zaruriy belgisi sifatida belgilangan bo'lsa, Latviyada ancha miqdorda zarar yetkazish qilmishni jinoyat sifatida baholash uchun yetarli ekanligi tasdiqlangan.

Rossiya Federatsiyasi (keyingi betlarda RF) JK 330-moddasida o'zboshimchalik uchun javobgarlik belgilangan bo'lib, unga ko'ra, har qanday harakatni qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjatda belgilangan tartibga xilof ravishda bahslashish orqali o'zboshimchalik bilan sodir etish tashkilot yoki fuqaroga jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lsa [5], o'zboshimchalik deb baholanadi. RF JK 330-moddasida belgilangan norma Model Jinoyat kodeksida belgilangan tavsiyalarga nisbatan mos keladi va ushbu qilmish ko'p miqdorda zarar yetkazilgan taqdirda jinoyat sifatida baholanadi. Ammo, RF JKda ham Model JKdan farqli ravishda o'zboshimchalik orqali davlat manfaatlariga zarar yetkazilishi inobatga olinmagan.

Ikkinchi guruh. MDHga a'zo davlatlar orasidan Belarus Respublikasi va Ukrainada o'zboshimchalik uchun javobgarlik boshqa a'zo davlatlardan farq qiladi, ya'ni ushbu davlatlarning JKlarida mazkur masalaga doir ikkita jinoyat tarkibi mavjud.

Jumladan, 1999-yilgi Belarus Respublikasi JKda o'zboshimchalik uchun javobgarlik 383-moddada nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra, o'zining haqiqiy yoki faraz qilingan huquqini o'zboshimchalik bilan amalga oshirish huquqiy hujjat bilan belgilangan tartibni buzib sodir etish va fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlana-

digan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazishga sabab bo'lgan qilmish o'zboshimchalik [6], deb topiladi. Belarus Respublikasi jinoyat qonunida zo'rlik ishlatish belgisi o'zboshimchalikning javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlar tarkibiga kiritilmagan, ammo zo'rlik ishlatib sodir etilgan o'zboshimchalik uchun javobgarlik JKning alohida moddasida belgilangan (384-modda). Zo'rlik ishlatib sodir etilgan o'zboshimchalik to'g'risidagi norma dispozitsiyasida shartnoma majburiyatlarini bajarish, yetkazilgan zararni qoplash, qarz, jarima, neustoyka yoki penyani to'lashga majburlash, zo'rlik ishlatish, mol-mulkni nobud qilish yoki unga shikast yetkazish yoxud jabrlanuvchining huquqlariga jiddiy ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni oshkor qilish bilan qo'rqitish orqali amalga oshirilishi va tovlamachilik belgilari mavjud bo'lmasligi lozimligi belgilangan.

Ukraina JKda o'zboshimchalik harakatlarining mazmuni mavhum tarzda bayon etilgan, unga ko'ra, qonuniyligiga ayrim fuqaro yoki korxona, muassasa, tashkilot tomonidan e'tiroz bildirilayotgan biron-bir harakatlarni qonunga xilof ravishda o'zboshimchalik bilan sodir etish o'zboshimchalik deb topiladi (356-modda) [7].

Belarus Respublikasidagi kabi Ukrainada ham fuqarolik-huquqiy majburiyatlarini bajarish yoki bajarmaslikka majburlash uchun jinoiy javobgarlik o'rnatilgan (355-modda). Mazkur moddada majburlash deganda, shartnoma, bitim yoki boshqa fuqarolik-huquqiy majburiyatlarini bajarish yoki bajarmaslikni jabrlanuvchi yoki uning yaqin qarindoshlariga zo'rlik ishlatish, ularning mol-mulkini nobud qilish yoki unga shikast yetkazish bilan qo'rqitib talab qilish tushuniladi. Alohida qoida sifatida qilmishda tovlamachilik belgilarining mavjud bo'lmasligi zarurligi belgilangan.

O'zboshimchalik jinoyatini tahlil qilishda Qozog'iston jinoyat qonuni ham o'ziga xos xususiyatlarga egaligini qayd etish joiz. 2014-yil 3-iyulda qabul qilingan va 2015-yil 1-yanvardan kuchga kirgan Qozog'iston JKda ikkita moddada o'zboshimchalik bilan bog'liq qilmishlar uchun javobgarlik nazarda tutilgan: 1) JK 389-moddasi – o'zboshimchalik; 2) JK 390-moddasi – mas'ul davlat lavozimlarida bo'lgan mansabdor shaxs yoki vakolat beriladigan hokimiyat vakolatini o'zboshimchalik bilan o'zlashtirish [8].

O'zboshimchalikning (389-modda) tavsiflashi O'zbekistondagi o'zboshimchalik jinoyati tavsifi bilan o'xshash, ya'ni qonunda belgilangan qoidaga zid ravishda haqiqiy yoki faraz qilingan huquqlarni o'zboshimchalik bilan amalga oshirish o'zboshimchalik deb topiladi. Ammo, ushbu jinoyat uchun javobgarlikning O'zbekistondagi holatdan quyidagi farqli jihatlari mavjud:

birinchidan, Qozog'iston JK 389-moddasi birinchi qismida nazarda tutilgan jinoyat formal tarkibli jinoyatdir, O'zbekistonda esa ushbu qilmish moddiy tarkibli jinoyat hisoblanadi. Ya'ni, ushbu qilmish fuqarolarning huquqlari yoki qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlariga yoxud davlat yoki jamoat manfaatlariga ko'p miqdorda zarar yoki jiddiy ziyon yetkazilishiga sabab bo'lgan taqdirda jinoyat sifatida baholanadi;

ikkinchidan, O'zbekistonda o'zboshimchalikning jazoni og'irlashtiruvchi holatlarning differensiyasi qilinmagan, Qozog'istonda esa 389-modda to'rtta qismdan iborat va jazoni og'irlashtiruvchi holatlar nazarda tutilgan;

uchinchidan, yuqorida qayd etilganidek, Qozog'istonda mas'ul davlat lavozimlarida bo'lgan mansabdor shaxsning yoki vakolat berilgan hokimiyat vakolatini o'zboshimchalik bilan o'zlashtirish uchun alohida javobgarlik belgilangan (JK 390-moddasi).

O'zboshimchalik harakatlarining xususiyatini mavhum tavsiflash faqat Latviya va Ukraina jinoyat qonunlarida qo'llanilgan, Qozog'iston, O'zbekiston va Belarus jinoyat kodekslariga ko'ra, o'zboshimchalik deganda avvalgidek o'zining haqiqiy yoki faraz qilingan huquqlarini o'zboshimchalik bilan amalga oshirish tushuniladi.

Uchinchi guruh. Yuqorida qayd etilganidek, ayrim davlatlarda o'zboshimchalik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan.

Jumladan, Shvetsiya jinoyat qonunida aybdorning o'zboshimchalik harakatlari shaxsning mulkiy huquqlariga qarshi qaratilgan tajovuzlardan biri sifatida qaraladi. Mazkur jinoyatning zaruriy maqsadi sifatida shaxsiy huquqni tiklash yoki boshqa shaxsga uning huquqlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilish belgilanadi. Bunda zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitish jinoyatning muqarrar belgilari hisoblanmaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, qonun chiqaruvchi mazkur qilmishlarni shaxsga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi bobga kiritgan.

Angliya jinoyat qonunining haqiqiy yoki faraz qilingan huquqini amalga oshirish to'g'risidagi qoidalari alohida diqqatga sazovordir. Huquqning mavjudligiga havola qilish mol-mulkni olib qo'yishga qaratilgan muayyan harakatga qonuniy tus beradi – "bu yerda jinoyat huquqi bo'yicha ham, fuqarolik huquqi bo'yicha ham jazoga loyiq bo'lgan biron-bir huquqbuzarlik sodir etilmaydi". K.Kenin havola qilgan 1915 va 1926-yilgi sud qarorlarida huquqning mavjudligiga insofli bo'lishi lozimligi va buning eng yaxshi isboti bo'lib mol-mulk ochiqdan ochiq olib qo'yilgani xizmat qilishi belgilangan. Insofli ishonch nainki yuridik, balki faktik asosga ham tayanishi lozim.

Angliya jinoyat huquqining o'zboshimchalik harakatlarini zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etish to'g'risidagi qoidalari ham boshqa mamlakatlar jinoyat qonunchiligining shunga o'xshash qoidalaridan farq qiladi. Ularga muvofiq biron kimdan mol-mulkni olib qo'yishga urinishning oldini olish uchungina emas, balki mol-mulk egasidan olib qo'yilganidan keyin uni qaytarish uchun ham zo'rlik ishlatishga yo'l qo'yiladi. Ammo, mulkiy nizolarni zo'rlik ishlatish yo'li bilan mustaqil hal qilish mumkinligi to'g'risidagi bu qoidalar faqat ko'char mulkka nisbatan tatbiq etiladi, mazkur yo'l bilan ko'chmas mulkni egallab olish mumkin emas.

Demak, Shvetsiya va Angliya jinoyat qonunchiligida boshqaruv tartibiga qarshi jinoiy tajovuz sifatidagi o'zboshimchalik tarkibi amalda mavjud emas. Angliya huquq tizimining pretsedent huquqi bilan bog'liq o'ziga xosligi shunda ham namoyon bo'ladiki, agar shaxs o'zining haqiqiy yoki faraz qilingan huquqini amalga oshirayotib ruxsat etilgan zo'rlik ishlatish chegarasidan chiqqan bo'lsa, shaxsga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi normalar qo'llaniladi. Agar jabrlanuvchiga muayyan zarar yetkazilgan, ammo subyekt o'zida huquqning mavjudligiga vijdonan ishongan bo'lsa, jinoiy javobgarlik kelib chiqmaydi. Boshqa mamlakatlardan farqli o'laroq, o'zboshimchalik harakatlari yoki unga o'xshash harakatlar (majburlash) uchun jinoiy javobgarlik hatto jinoyat qonunining shaxsga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi bo'limida ham mavjud emas. Shunday qilib, o'zboshimchalik harakatlariga o'xshash bo'lgan qilmishlar Angliya qonunchiligi bo'yicha faqat majburiyatlarga doir munosabatlar sohasida mavjud bo'lib, shaxsga qarshi qilmishlar orasida ham, boshqaruv tarti-

biga qarshi qilmishlar orasida ham nazarda tutilmaydi.

Shvetsiyada o'zboshimchalik faqat egalik huquqidan zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatmasdan qonunga xilof ravishda mahrum qilish, shuningdek, egalik huquqini o'zboshimchalik bilan tiklash bilan bog'langan. Bunda mazkur harakatlarni amalga oshirishning qonunga xilof tartibi ham ko'rsatib o'tilgan bo'lsa-da, ustunlik shaxsning mulkiy huquqlariga berilgan va shunga asoslangan holda jinoyatlar g'arazgo'ylik maqsadini ko'zlamaydigan mulkka qarshi tajovuzlar guruhiga kiritilgan.

To'rtinchi guruh. Mazkur guruhga mansub davlatlarda o'zboshimchalik uchun jinoiy javobgarlik alohida belgilanmagan bo'lsa-da, uning ayrim shakllari jinoyat qonuni bilan kriminalizatsiya qilingan.

Jumladan, O'zboshimchalik uchun alohida javobgarlik Ispaniya jinoyat qonunchiligida ham mavjud emas, bu yerda faqat uning o'ta xavfli shakllari, xususan, majburlash (172-moddasi) va o'z huquqini noqonuniy amalga oshirish (455-moddasi) jinoiy jazoga loyiq deb topilgan [9]. Ispaniya qonunchiligidagi o'z huquqini qonunga xilof ravishda amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi JKdagi o'zboshimchalik jinoyatining tarkibiga o'xshab ketadi. Ispaniya JK 455-moddasi sud hokimiyatiga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi bo'limda joylashtirilgan va unda "o'z huquqini amalga oshirish uchun qonunga xilof yo'ldan borib, zo'rlik ishlatish, qo'rqitish yoki ashyolarga nisbatan kuch ishlatish" uchun javobgarlik nazarda tutilgan. Qurol yoki boshqa xavfli predmetlar ishlatish o'ta xavfli deb e'tirof etiladi va yanada og'ir jazo tayinlashga sabab bo'ladi. Moddaning mazmuniga ko'ra, harakatlar zo'rlik ishlatish xususiyatiga ega ekanligiga qaramay, asosiy bevosita obyekt o'z huquqini amalga oshirish tartibi hisoblanadi.

Majburlash (Ispaniya JK 172-moddasi) qonun chiqaruvchi tomonidan shaxsning erkinligiga qarshi jinoyatlar to'g'risidagi bo'limga kiritilgan. Agar o'z huquqini qonunga xilof ravishda amalga oshirish, eng avvalo, uni sud yo'li bilan amalga oshirish tartibini buzgani va biron-bir mol-mulkka qaratilgani uchun qonunga zid hisoblansa, majburlash "vakolatli bo'lmagan shaxs" tomonidan boshqa shaxsga nisbatan sodir etiladi. Aybdor shaxs, Ispaniya JK 172-moddasiga muvofiq, "boshqa shaxsga qonun bilan taqiqlanmagan muayyan harakatlarni

bajarishga kuch ishlatib xalaqit berishi yoki uni o'z xohishiga zid ravishda qonuniy yoki qonunga xilof harakatlarni sodir etishga majburlashi" lozim. Agar majburlash "shaxs o'z asosiy huquqlari va erkinliklarini amalga oshirishi"ga to'sqinlik qilgan bo'lsa, yanada og'ir jazo belgilanadi.

AQShning Namunaviy JKda ham o'zboshimchalik uchun emas, balki majburlash uchun javobgarlik nazarda tutilgan (215.5-moddasi). Bunda shaxs "o'zga shaxsning harakatlari erkinligini unga zarar yetkazadigan tarzda qonunga xilof ravishda cheklaydi" [10, 135-b].

1967-yilgi Nyu-York shtatining JKda majburlash shaxsning boshqa biron-bir shaxsni muayyan harakatlarni bajarishga zo'rlik ishlatish yoki mol-mulkiga ziyon yetkazish bilan qo'rqitib, qonunga xilof ravishda majburlashdan iborat bo'lgan aybli harakatlari sifatida tavsiflangan (136.60-§) [11, 138-139-b].

AQSh Namunaviy JKning "Talon-toroj va unga turdosh tajovuzlar" deb nomlangan bo'limi 223.1-moddasining 2-bandida mavjud huquqqa havola qilish, ya'ni biron kim vijdonan ish ko'rib, o'zida mavjud mol-mulk yoki xizmatga bo'lgan huquqqa yoki u mazkur mol-mulkni egallash yoki uni tasarruf etish huquqiga ega ekanligiga havola qilgan holda, shu harakatlarni sodir etgan bo'lsa, talon-toroj uchun jinoiy ta'qibga qarshi himoya uchun ijobiy asos hisoblanishi ko'rsatib o'tilgan [12, 149-b].

Er (yoki xotin) xotining (yoki erining) mol-mulkini olgani faqat aybdor jabrlanuvchi bilan birga yashamay qo'ygan bo'lsagina, talon-toroj qilish deb hisoblanadi.

O'zboshimchalik uchun javogarlilik belgilangan davlatlarni ularda tajovuz qilinadigan jinoyat obyektining turlari bo'yicha ham tasniflash mumkin [13], jumladan, tajovuz obyekti turli davlatlarda quyidagilar hisoblanadi:

1) davlat boshqaruvi tartibini muhofaza qiluvchi ijtimoiy munosabatlar (RF, Latviya, Belarus Respublikasi, Ukraina, Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Bolgariya, Mongoliya, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi);

2) davlat xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar (Moldova);

3) sud hokimiyatining daxlsizligi va shaxsning erkinligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar (Ispaniya);

4) shaxsning erkinligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar (Gretsiya);

5) ijtimoiy boshqaruv va jamoat tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar (Finlyandiya);

6) mulk huquqining daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar (Shvetsiya, AQSh).

Jazoni og'irlashtiruvchi holatlar va ularning turlari bo'yicha to'xtaladigan bo'lsak, Ukraina, O'zbekiston va Belarus Respublikalarida o'zboshimchalik to'g'risidagi normada mazkur qilmishning javobgarlikni og'irlashtiruvchi belgilarini nazarda tutmagan, bundan tashqari, O'zbekiston va Belarus JKda ko'p miqdorda zarar yetkazish o'zboshimchalik jinoyatining muqarrar belgisi sifatida qayd etilgan va ko'p miqdordagi zarar tushunchasi aniqlashtirilgan [14, 21-b].

Latviya JKda o'zboshimchalikning og'ir oqibatlar kelib chiqarishi, qilmishni takroran sodir etish, bir guruh shaxs bo'lib sodir etish, shuningdek, qurol yoki portlovchi moddalarni qo'llab sodir etish bilan tavsiflanadigan o'ta agressiv shakllari kriminalizatsiya qilingan va bu, umuman olganda, jazoni og'irlashtirish uchun imkoniyat yaratgan [15, 9-b.].

Ukraina va Belarus qonun chiqaruvchisi qarz majburiyatlarini bajarishga majburlash uchun javobgarlik belgilash va uni o'zboshimchalik to'g'risidagi norma bilan bitta bo'limga joylashtirish orqali o'ziga xos nuqtayi nazarni namoyon etgan [16]. Shuningdek, majburlashning javobgarlikni og'irlashtiruvchi turlari – zo'rlik ishlatib yoki uyushgan guruh tomonidan sodir etilgan majburlash (Belarus Respublikasi JK); o'ldirish yoki badanga og'ir shikast yetkazish bilan qo'rqitib, hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish bilan bog'liq holda sodir etilgan yoki ko'p miqdorda zarar yetkazgan yoki boshqa og'ir oqibatlarga sabab bo'lgan majburlash (Ukraina) nazarda tutilgan.

O'zboshimchalikning javobgarlikni og'irlashtiradigan holatlarda sodir etiladigan tarkiblari Latviya JKda quyidagicha belgilangan: o'zboshimchalik jinoyatini takroran yoki oldindan til biriktirgan bir guruh shaxs bo'lib yoki zo'rlik ishlatish yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib yoxud ko'p miqdorda zarar yetkazgan holda sodir etish.

Shu moddaning 3-qismida javobgarlikni og'irlashtiruvchi alohida holat – o'zboshimchalik jinoyatini qurol yoki portlovchi moddalarni qo'llab sodir etish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Demak, xorijiy mamlakatlarda o'zboshimchalik uchun jazoni og'irlashtiruvchi quyidagi holatlar belgilangan:

- takroran sodir etish (Latviya, Moldova);
- ikki yoki undan ortiq shaxsga nisbatan sodir etish (Moldova);
- zo'rlik ishlatib yoki zo'rlik ishlatish bilan qo'rqitib sodir etish (Qozog'iston, Latviya, Belarus Respublikasi);
- oldindan til biriktirgan guruh tomonidan sodir etilishi (Qozog'iston, Latviya);
- uyushgan guruh tomonidan sodir etilishi (Belarus Respublikasi, Moldova);
- og'ir oqibatlarga sabab bo'lish (Qozog'iston, Ukraina, Moldova);
- qurol yoki portlovchi moddalarni qo'llash orqali sodir etish (Latviya, Moldova, Ispaniya);
- o'ldirish yoki badanga og'ir shikast yetkazish bilan qo'rqitish orqali sodir etish (Ukraina, Moldova);
- hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lmagan zo'rlik ishlatish orqali sodir etish (Ukraina, Moldova);
- hayot va sog'liq uchun xavfli bo'lgan zo'rlik ishlatish orqali sodir etish (Moldova);
- mulkni yo'q qilish orqali sodir etish (Moldova);
- juda ko'p miqdorda zarar yetkazish (Moldova) va h.k.

Bizningcha, o'zboshimchalik harakatlari uchun javobgarlik to'g'risidagi jinoyat-huquqiy normani belgilashda ayrim xorijiy mamlakatlarining ijobiy tajribasini hisobga olish maqsadga muvofiq. Xususan, o'zboshimchalikning ijtimoiy xavflilik darajasini hisobga olgan holda, mazkur qilmish uchun jinoiy javobgarlik belgilashda uning jazoni og'irlashtiruvchi holatlarni ajratish, bunda jazoni og'irlashtiruvchi holatda jinoyat sodir etish uchun amaldagi sanksiyaga qaraganda og'irroq jazolarni belgilash yo'li bilan turli shakllarda sodir etiladigan o'zboshimchalik uchun javobgarlikni differentsiatsiya qilish mumkin [17].

Xorijiy davlatlar jinoyat qonunlarini rag'batlantiruvchi normalarning belgilanishi me'zoni bo'yicha tahlil qilayotganda, mamlakatimiz jinoyat qonunida 2001-yildan yarashuv instituti joriy etilganligini va 2009-yildan o'zboshimchalikka nisbatan ham yarashuv institutini qo'llash imkoniyati yaratilganligini alohida qayd etish joizdir [18]. Shuni qayd etish kerakki, Polsha JKda "o'zganing ko'char mulki yoki mulkiy huquqini o'zining eng yaqin kishisiga zarar yetkazgan holda

o'zlashtirish"da ifodalanadigan o'zboshimchalik harakatlari uchun ham javobgarlik nazarda tutilgan [19]. Shu narsa diqqatga sazovorki, bunda jinoyi ta'qib qilish faqat jabrlanuvchining arizasiga binoan amalga oshiriladi. Shunday qilib, Polsha JKga muvofiq o'zboshimchalik harakatlari xususiy tusdagi jinoyatlar (Aut-ragsdelikte) qatoriga kiradi va ularni ta'qib qilishga faqat jabrlanuvchining arizasiga ko'ra kirishiladi, ammo keyinchalik ommaviy ayblovlar tartibida amalga oshiriladi va yarashuv bilan tugallanishi mumkin emas [20]. Xususiy tusdagi jinoyatlar bo'yicha ishlarni yuritish jabrlanuvchining arizasidan qat'iy nazar ta'qib qilinadigan jinoyatlar to'g'risidagi ishlar uchun belgilangan umumiy qoidalarga bo'ysunadi, bunda shikoyat berish yo'li bilan jinoyi ta'qib qo'zg'atgan shaxs ishda faqat fuqaroviy da'vogar sifatida ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, Bolgariya JKga muvofiq, o'zboshimchalik haqidagi norma tegishli davlat organlarining ogohlantirishidan keyin shaxs haqiqiy holatni darhol tiklagan bo'lsa, u jazoga tortilmaydi. Ammo, shaxs o'zboshimchalik jinoyatini takroran sodir etgan holda mazkur qoida amal qilmaydi.

Yuqorida qayd etilgan normalardan, xususan, Bolgariyada mavjud bo'lgan ijobiy tajribadan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi JK 229-moddasini quyidagi tahrirdagi qism bilan to'ldirish maqsadga muvofiq:

"Basharti shaxs jinoyat sodir etilgandan so'ng, jinoyat oqibatlarini darhol bartaraf etgan va jinoyatni ochishga yordam bergan bo'lsa, unga nisbatan qamoq yoki ozodlikdan mahrum qilish tariqasidagi jazo qo'llanilmaydi."

Ta'kidlash lozimki, jinoyat qonunchiligiga mazkur qo'shimchaning kiritilishi jinoyat sodir etib, sodir etilgan jinoyatning oqibatini tezda anglab yetgan holda, jinoyat oqibatlarini darhol bartaraf etgan shaxsga nisbatan adolatli jazo tayinlanishini ta'minlaydi, jamiyatdan ajratish bilan bog'liq bo'lmagan alternativ jazo turlarini qo'llash

imkoniyatini kengaytiradi. O'z navbatida, mazkur qo'shimchaning JKga kiritilishi mamlakatimizda jinoyat qonunini liberallashtirish yo'nalishida amalga oshirilayotgan jinoyat-huquqiy siyosatdagi izchil islohotlarning uzviy davomi bo'lib xizmat qilishi, shubhasiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunlarini o'zboshimchalik uchun javobgarlik masalasi bo'yicha normativ va funksional tahlil qilish ularni bir necha me'zonlar bo'yicha farqlanishini ko'rsatdi. Bunday me'zonlar qatoriga jinoyat qonunida o'zboshimchalik uchun jinoyat tarkibini belgilash va uning turlari; tajovuz qilinadigan jinoyat obyektining turlari; jinoyat oqibatining inobatga olinishi; jazoni og'irlashtiruvchi holatlar va ularning turlari; jazoning og'irligi va alternativ jazolar; rag'batlantiruvchi normalarning belgilanishi kabi me'zonlarni kiritish mumkin.

Jinoyat qonunlarining tahliliga ko'ra, o'zboshimchalik uchun jinoyat tarkibini belgilash va uning turlari me'zoni bo'yicha xorijiy mamlakatlarni to'rtta guruhga ajratish mumkin.

O'zboshimchalik uchun javogarlilik belgilangan davlatlarni ularning tajovuz qilinadigan jinoyat obyektining turlari bo'yicha ham tasniflash mumkin, jumladan, tajovuz obyekti turli davlatlarda quyidagilar hisoblanadi: 1) davlat boshqaruvi tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar (RF, Latviya, Belarus Respublikasi, Ukraina, Armaniston, Ozarbayjon, Gruziya, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston, Bolgariya, Mongoliya, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi); 2) davlat xavfsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar (Moldova); 3) sud hokimiyatining daxlsizligi va shaxsning erkinligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar (Ispaniya); 4) shaxsning erkinligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar (Gretsiya); 5) ijtimoiy boshqaruv va jamoat tartibini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar (Finlyandiya); 6) mulk huquqining daxlsizligini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlar (Shvetsiya, AQSh).

REFERENCES

1. Saidov A.Kh. Comparative Jurisprudence (basic legal systems of modernity): Textbook for universities. Moscow, 2000, pp. 36-37.
2. Sokolova O.B. Arbitrariness: criminal and legal characteristics: Diss. cand. jurid. sciences'. Ivanovo, 2001, p. 52.

3. Model Criminal Code for the CIS countries // Information Bulletin of the IPA of the CIS member States. 1996, No. 10, p. 206.
4. Criminal Code of the Republic of Latvia. St. Petersburg, 2001, p. 262.
5. The Criminal Code of the Russian Federation. Law of June 13, 1996, No. 63-FZ. // www.zakon.ru
6. The Criminal Code of the Republic of Belarus. Minsk, 1999, p. 232.
7. The Criminal Code of Ukraine (dated April 05, 2001). Kharkiv, 2001.
8. Criminal Code of the Republic of Kazakhstan (with amendments and additions dated 07.11.2014). // www.zakon.kz
9. The Spanish Criminal Code of 1995 / Edited by N.F.Kuznetsova, F.M.Reshetnikov. Moscow, 1998, pp. 59, 141.
10. The Exemplary Criminal Code of the United States of 1962. The official project of the Institute of American Law. Moscow, 1999, p. 135.
11. The Criminal Code of the State of New York of 1967 // Criminal law of the USA: Collection of normative acts Edited by N.D.Kozochkin. Moscow, 1996, pp. 138–139.
12. The Exemplary Criminal Code of the United States of 1962. The official project of the Institute of American Law. Moscow, 1999, p. 149.
13. Salomat N. Comments on the comparative analysis of the experience of foreign countries in the field of victimological prevention of violent crimes against the person // Review of law sciences. 2020, No. 4.
14. Niyozova S. S. Legal Conditions For The Lawfulness Of Necessary Defense // The American Journal of Political Science Law and Criminology. 2021, T. 3. No. 01, pp. 21–29.
15. Kh K. F. Extreme cruelty is as the way of committing crime of murder: theoretical-practical problems and their solutions // European Journal of Research. <https://journalofresearch.info/>–Vienna, Austria. 2019, T. 4, No. 10, pp. 8–11.
16. Kh K. F. Objective signs of the intentional killing by a way endangering other people's lives: theoretical-practical problems and their solutions // Materials of the XV International scientific and practical Conference Scientific horizons // Sheffield. Science and education LTD/–Sheffield, England, 2019, T. 12, pp. 119–123.
17. Allanova A. Leaving and entering illegally the Republic of Uzbekistan (instructions and specific features) Review of law sciences. 2018, T. 2, No. 2, pp. 29.
18. Abzalova K. M. et al. Some matters of imposition of punishment for preparation for premeditated murder in the criminal code of the Republic of Uzbekistan International Journal of Legal Studies (IJOLS). 2018, T. 4, No. 2, pp. 159–167.
19. Altiev R. Subjective Signs of the Crime of Fraudulent Looting of Property in the Criminal Law of the Republic of Uzbekistan // Psychology and Education Journal. 2021, T. 58, No. 1, pp. 1145–1155.
20. Vokhid S. Specific aspects of motivation and purpose in the quantification of career fraud crime. Review of law sciences, 2020, No. 4.

UDC: 341.1(045)(575.1)
ORCID: 0000-0002-8141-5800

TERGOV QILISHGA YOKI SUD ISHLARINI HAL ETISHGA ARALASHISH JINOYATINING UMUMIY TAVSIFI

Anorboyev Murodjon Raxmanqul o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti "Jinoyat huquqi,
kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish"
kafedrasida doktoranti,
e-mail: murodjonanorboev@list.ru

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 236-moddasida nazarda tutilgan "Tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish" jinoyatlariga doir qabul qilingan qonun hujjatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Muallif tomonidan ushbu qonun hujjatlarini tasniflash, sharhlash va ushbu masala mohiyatiga aloqador jihatlar ochib berilgan hamda tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyatlariga olib keladigan xatti-harakatlarning oldini olishga qaratilgan huquqiy hujjatlar va bu boradagi zaruriy keng ko'lamli chora-tadbirlar tahlil qilingan. Shu bilan birga, muallif tomonidan tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyatlari holatini faqatgina aynan normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish orqali minimallashtirish yoki tamomila bartaraf etish mumkin emasligi ta'kidlanadi. Bundan tashqari, muallif tomonidan tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish jinoyati bilan bog'liq nazariy va amaliy muammolar tahlil qilinib, jinoyat huquqi normalarini qo'llashni takomillashtirish yuzasidan takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: odil sudlov, tergov, sud ishlari, sud ishlarini hal etish, tergov qilishga yoki sud ishlarini hal etishga aralashish, aralashish, mansabdor shaxs.

ОБЩЕЕ ОПИСАНИЕ ВМЕШАТЕЛЬСТВА В РАССЛЕДОВАНИЕ ИЛИ В РАЗРЕШЕНИЕ СУДЕБНЫХ ДЕЛ

Анорбоев Муроджон Рахманкул угли,
докторант кафедры "Уголовное право,
криминология и противодействие коррупции"
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. Статья посвящена анализу законодательства, принятого по преступлениям «Вмешательство в расследование или урегулирование судебных дел», предусмотренным статьей 236 Уголовного кодекса Республики Узбекистан. Автор описывает классификацию, толкование и сущность законодательства и анализирует правовые документы и необходимые комплексные меры в этой связи, направленные на предотвращение действий, которые приводят к преступлениям вмешательства в расследование или урегулирование судебных дел. В то же время отмечается, что свести к минимуму или полностью устранить ситуацию с преступлениями, связанными с вмешательством в расследование или разрешение судебных дел, возможно только путем совершенствования тех же нормативно-правовых актов. Кроме того, автор анализирует теоретические и практические проблемы, связанные с преступлением вмешательства в расследование или решение судебных дел, и дает рекомендации по совершенствованию применения норм уголовного права.

Ключевые слова: правосудие, расследование, судебный процесс, разрешение судебных дел, вмешательство в расследование или в разрешение судебных дел, вмешательство, должностное лицо.

GENERAL DESCRIPTION INTERFERENCE IN INVESTIGATION OR CONSIDERATION OF CASES IN COURT

Anorboev Murodjon Rakhmankul ugli,

Doctoral student of the Department of Criminal Law,
Criminology and Anti-corruption of Tashkent state university of Law

Abstract. The article is devoted to the analysis of the legislation adopted on the crimes “Interference in Investigation or Consideration of Cases in Court” provided for in article 236 of the Criminal Code of the Republic of Uzbekistan. The author describes the classification, interpretation and essence of legislation and analyzes legal documents and the necessary comprehensive measures in this regard aimed at preventing actions that lead to crimes of interference in the investigation or settlement of court cases. At the same time, it is noted that it is impossible to minimize or completely eliminate the situation with crimes related to the author’s interference in the investigation or resolution of court cases only by improving the same normative legal acts. In addition, the author analyzes theoretical and practical problems related to the crime of interference in the investigation or resolution of court cases, and makes recommendations for improving the application of criminal law.

Keywords: justice, cases in court, consideration of cases in court, interference in investigation or consideration of cases in court, investigation, interference, an official.

Kirish

Mamlakatimizning demokratik yangilashdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri – bu qonun ustuvorligi va qonuniyligni mustahkamlash, inson huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini izchil yaxshilashdan iborat.

Bugungi kunda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish hal qiluvchi vazifa bo‘lib, bunda *sud-huquq islohotlari* muhim o‘rin egallaydi.

Material va metodlar

Olib borilgan tadqiqotning **asosiy mazmuni**, odil sudlovga qarshi jinoyatlar sohasidagi munosabatlarda vujudga keluvchi holatlarni bartaraf etish uchun qonunchilikning rivojlanishini tahlil qilishdir.

Jumladan, sud-huquq tizimini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari faoliyati samaradorligini oshirish, aholining odil sudlovga bo‘lgan ishonchini oshirish, jamiyatda qonun ustuvorligini ta‘minlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish sohasidagi davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlarini belgilab bergan 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi sud-huquq tizimini isloh qilishning tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan bosqichi bo‘ldi.

Mavzuning batafsil mazmunini quyidagi holat bo‘yicha ham ko‘rishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni [1] asosida tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 2.3-bandida ham “Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonparvarlashtirish” vazifasi belgilab olingan [2].

15. King J.D. Privatizing Criminal Procedure, 107 GEO. L.J., 2019, pp. 561, 571–72.

UDC: 343.9:004(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-8970-9029

DASTLABKI TERGOVDA QO'LLANILAYOTGAN AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI TUSHUNCHASI VA UMUMIY TAVSIFI

Primov Baxtiyor Olim o'g'li,
Toshkent davlat yuridik universiteti doktoranti,
e-mail: baxtiyorprimov@inbox.ru

Annotatsiya. Maqolada dastlabki tergovda qo'llanilayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tushunchasi va umumiy tavsifi ijobiy va salbiy taraflari ko'rib chiqiladi. Qayd etilishicha, jamiyatdagi umumiy raqamlashtirishni hisobga olgan holda, kelajakda jinoiy ish yuritish jiddiy o'zgarishlarga duch keladi. Bunga, xususan, elektron hujjat aylanishi, tergov va sud harakatlarini masofaviy o'tkazish shakllari, protsessual qarorlarni qabul qilishda algoritmlar va matematik hisob-kitoblarni qo'llash, robototexnika vositalarini keng joriy etish ko'maklashadi. Muallifning fikricha, ko'p jihatdan kelajakdagi "elektron" odil sudlovi axborot xavfsizligini ta'minlash, fuqarolarning qonuniy huquq va erkinliklarini, shuningdek, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilish bilan bog'liq muammolarni muvaffaqiyatli hal etilishiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan birgalikda, mavjud axborot texnologiyalari bo'yicha ayrim xususiy masalalar qonun darajasida hal etilmaganligi, amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksida asosiy e'tibor elektron tashuvchilarni olib qo'yishga qaratilgan va elektron ma'lumotlardan nusxa ko'chirish yetarli darajada tartibga solinmasligi, yuridik adabiyotlarda ushbu masalalarni muhokama qilishda ham shunday holat saqlanib qolayotganligi haqida mulohaza olib boriladi. Bundan tashqari, amalda elektron tashuvchi vositalarining olib qo'yilishi yuridik va jismoniy shaxslar uchun tobora ko'proq qiyinchiliklar keltirib chiqarayotganligi bois, elektron tashuvchi vositalarning egalari va foydalanuvchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini hisobga olgan holda elektron axborotdan nusxa ko'chirish tartibini batafsil tartibga solish talab etilishi borasida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: elektron jinoyat ishi, axborot texnologiyalari, jinoyat protsessi, algoritm, robototexnika.

ПОНЯТИЕ И ОБЩАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ, ПРИМЕНЯЕМЫХ НА ПРЕДВАРИТЕЛЬНОМ СЛЕДСТВИИ

Примов Бахтиер Олим угли,
докторант Ташкентского государственного
юридического университета

Аннотация. В статье рассматриваются как положительные, так и отрицательные стороны развития такого современного феномена, как информационно-коммуникационные технологии. Отмечается, что, учитывая всеобщую цифровизацию общества, уголовное судопроизводство в перспективе подвергнется существенным изменениям. Этому будет способствовать широкое внедрение электронного документооборота, дистанционных форм проведения следственных и судебных действий, использование алгоритмов и математических расчетов в принятии процессуальных решений, применение робототехники. Многое будет зависеть от успешного решения проблем, связанных с обеспечением информационной безопасности, защитой законных прав и свобод граждан, а также интересов общества и государства. В то же время некоторые частные ИТ-вопросы не решены на правовом уровне, действующий Уголовно-процессуальный кодекс делает упор на удаление электронных носителей, а копирование электронных данных не регулируется в достаточной степени, в юридической литературе эти вопросы продолжают обсуждаться. Кроме того, поскольку изъятие электронных носителей на практике создает все большие проблемы для юридических и физических лиц, считается необходимым детально регламентировать процедуру копирования электронной информации с учетом прав и законных интересов владельцев и пользователей электронных носителей.

Ключевые слова: электронное уголовное дело, информационные технологии, уголовный процесс, алгоритм, робототехника.

CONCEPT AND GENERAL CHARACTERISTIC OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES USED IN PRELIMINARY INVESTIGATION

Primov Bakhtiyor Olim ugli,

Doctoral student of Tashkent State Law University

Abstract. The article discusses both positive and negative aspects of the development of such a phenomenon as an electronic criminal case. It is noted that, taking into account the general digitalization of society, criminal proceedings in the future will undergo significant changes. This will be facilitated by the widespread introduction of electronic document management, remote forms of investigative and judicial actions, the use of algorithms and mathematical calculations in making procedural decisions, the use of robotics. Much will depend on the successful solution of problems related to ensuring information security, protecting the legal rights and freedoms of citizens, as well as the interests of society and the state. At the same time, some private IT issues have not been resolved at the legal level, the current Criminal Procedure Code focuses on the removal of electronic media and the copying of electronic data is not sufficiently regulated, and the legal literature continues to discuss these issues. carried out. In addition, as the withdrawal of electronic media in practice poses increasing challenges for legal entities and individuals, it is considered necessary to regulate in detail the procedure for copying electronic information, taking into account the rights and legitimate interests of owners and users of electronic media.

Keywords: electronic criminal case, information technology, criminal procedure, algorithms, robotics.

Kirish

Zamonaviy jamiyatda axborot telekommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish urf bo'lgan. Bu hayotning kriminogen tomoni uchun ham, jinoyatga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun ham xosdir. Tadqiqotchilarning qayd etishicha, axborot texnologiyalari sohasida elektron ma'lumotlarning buzilishi, yaroqli va butunligini buzish bilan bog'liq yangi jinoyatlar paydo bo'lib, ularning obyekti axborot texnologiyalaridir. Bular kompyuter jinoyatlari deb ataladi [1]. Bundan tashqari, internet-resurslar jinoyat ishtirokchilari (giyohvandlik ishlab chiqarish va psixotropalar mulkini sotish, o'g'irlash mulkini sotish, ekstrimizm ko'rinishlari va boshqa) aloqa tizimiga aylanmoqda. Global axborot resurslari ko'plab davlatlarning qonunlarida jinoiy deb topilgan jinoyatlarni sodir etishda foydalanilayotganini kuzatish mumkin [2]. Demak, bugungi kunda, har qanday muhitda bo'lgan kabi, internetda ham tizimdagi zaif omillarni aniqlashga yoki boshqalar hisobiga shaxsiy daromadni olishga intiladigan foydalanuvchilarning ulushi doimo mavjud. AQShda xakerlikning paydo bo'lishi kiberjinoyatchilik muammosini birinchi o'ringa olib chiqqan edi [3].

Bizning raqamli dunyoda media iste'molchilari internetda juda ko'p vaqtini o'tkazishmoqda. Jumladan, O'zbekistonda ham so'nggi yillarda internet global tarmog'idan foydalanuvchilarning soni ko'payib bormoqda. Xususan, 2018-yilning holatiga ko'ra O'zbekistonda inter-

net foydalanuvchilari 20 580 900 nafar bo'lib, 25 mln.dan ortiq kishi uyali telefon abonentlari hisoblanishadi va 34,7 % aholining yashash uyida kompyuter texnikasi mavjud va ularning 58,1 % i internet tarmog'iga ulangan [4]. Bu esa, o'z navbatida, raqamli dunyo tobora shiddat bilan kirib kelayotgani va unga qarshi kurashishda aynan raqamli texnologiyalarni qo'llash alohida *dolzarblik* taqdim etayotganini ko'rsatadi.

Shu munosabat bilan jinoyat protsessida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, bu borada vujudga keladigan munosabatlarni o'rganish, sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirish, bu jarayonda vujudga kelishi mumkin bo'lgan huquqiy muammolarni bartaraf etish maqolaning asosiy *maqsadlaridan* biri hisoblanadi.

Jamiyat va davlat uchun yuqori texnologiyali jinoiy chaqiriqlarga javoban barcha davlatlarning huquqni muhofaza qilish organlari va sudlarni kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalaridan keng foydalanish jarayoniga kirishgan [5]. Shu bilan birga, e'tirof etish kerakki, bizning amaldagi milliy jinoyat protsessimiz fan va texnika taraqqiyoti hozirgi darajasiga to'liq javob bermaydi. Jinoyat holati mavjudligi (mavjud emasligi) faktini, unga nisbatan jinoyat ish yuritilayotgan shaxsning aybdorligini (yoki aybsizligini) aniqlashga qaratilgan faoliyatni raqamlashtirish zarurati axborot texnologiyalarni qo'llash tartibotlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Elektron texnikadan faol foydalanish elektron jinoyat-protsessual isbotlashni

amalga oshirish, bu orqali jinoyat protsessining to'raligicha modernizatsiya qilish va to'plangan muammolarni hal qilish imkonini beradi.

Material va metodlar

Olib borilgan tadqiqotning asosiy mazmuni, jinoyat protsessi sohasidagi protsessual-huquqiy munosabatlar AKTni qo'llash jarayonida vujudga keluvchi holatlarni o'rganish hamda bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun protsessual qonunchilikni rivojlanishini tahlil qilishdir.

Qo'llanilgan metodlar sifatida mantiqiy, tarixiy-qiyosiy, induksiya va deduksiya, tahlil, qiyosiy-huquqiy, statistik ma'lumotlar tahlili kabi metodlar, shuningdek, hozirgi kunda jinoyat-protsessual sohada qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar tahlili va ularni qo'llashning o'ziga xos jihatlarnining qabul qilinishi va ularning o'ziga xos o'rni yoritib berilgan.

Mavzuning batafsil mazmuni

Hech kimga sir emaski, axborot hozirgi vaqtda bilim olish va undan foydalanish usullaridan biri olinadi. Ko'pgina olimlar bu tushunchani qo'llab-quvvatlaydi, jumladan, F.N. Fatkulinning fikricha, axborot – bu jinoyat protsessi jarayonida topiladigan (faktlar)ni aniqlash va izohlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi [6]. O'z navbatida, A.A. Davletov axborotni o'z iste'molchisiga ega bo'lgan va uning u yoki bu ehtiyojini qondirishga, ya'ni muayyan funksiyani bajarish uchun qodir bo'lgan xabar, signal deb hisoblaydi [7], A.R. Belkin axborotni voqea haqidagi isbotlash predmetiga kiradigan ma'lumot deydi [8]. Boshqa mualliflar ham "axborot" tushunchasini isbotlash mazmuniga kiritadilar [9].

Qadimda axborot tushunchasi antik davr faylasuflari tomonidan o'rganilgan, shuning uchun, avval atributlarga ega muayyan tushuncha sifatida, so'ngra K. Shenonning axborot nazariyasida belgiga singib ketgan (signal) ketma-ketliklari mazmuni sifatida o'rganilgan [10]. Hozirgi vaqtda texnika fanlari axborotni boshqaruv tizimlarida aloqa kanallari orqali uzatiladigan signallar mazmuni sifatida o'rganadi. Y.G. Kravets jinoyat-protsessual ma'noda axborotni jinoyatga bevosita aloqador bo'lgan obyektlar (subyektlar) haqidagi ma'lumotlar va (yoki) jinoyat ishi bo'yicha isbotlanishi kerak bo'lgan ma'lumot deb tushunadi [11].

Texnologiyaning umumiy tushunchasi ostida, ko'nikma, mahorat, jarayonlar, ya'ni inson tomoni-

dan tanlangan strategiya bilan belgilanadigan va turli xil vosita va usullardan foydalangan holda amalga oshiriladigan, ma'lum maqsadga erishishga qaratilgan harakatlar majmui tushunilib [12] – "axborot texnologiyasi"ni ham shu mazmunda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Axborot texnologiyalari konsepsiyasi V.M. Glushkov tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, eng avvalo, axborot bilan o'zaro ta'sir qilish usullari, ya'ni: a) axborotni yig'ish usuli sifatida; b) axborotni qayta ishlash; d) o'rganilayotgan obyekt haqida yangi ma'lumotlarni olish uchun ma'lumot uzatish [13] sifatida tushunilgan.

Ushbu tushunchaning keng tarqalganligiga qaramay, ushbu ta'rif bo'yicha ilmiy doiralarda umumiy konsensus yo'q. Jumladan, uning birinchi sharhi I.A. Mizin va boshqalarning ishida keltirilgan [14]. Mualliflarning fikriga ko'ra, "axborot texnologiyalari" atamasi XX asrning 70-yillari oxirida paydo bo'lgan axborotni qayta ishlash uchun zamonaviy elektron texnologiyalardan foydalanish munosabati bilan keng qo'llanila boshlangan. Ko'rib chiqilayotgan konsepsiyaning boshqa talqinlari ham mavjud, masalan: "Axborot texnologiyalari – axborotni qayta ishlash uchun foydalaniladigan har qanday texnologiya" yoki batafsilroq bo'lgan zamonaviy versiya: "Axborot texnologiyalari – bu dasturiy ta'minot, texnik, axborot jarayonlarini amalga oshirish uchun hujjatli vositalar" [15].

Axborot texnologiyalari kontsepsiyasiga IT texnologiyalari yaqin kategoriya hisoblanadi. Demak, IT qisqartmasi "Information Technology" iborasi-ning qisqartmasi bo'lib, o'zbek tiliga "axborot texnologiyasi" deb tarjima qilinadi. IT texnologiyalari ma'lumotlarni izlash, to'plash, saqlash, qayta ishlash, shuningdek, uni taqdim etish va tarqatish jarayonlari va usullarini o'z ichiga oladi. Shu munosabat bilan tadqiqotimiz maqsadlarida axborot texnologiyalari va IT-texnologiyalari tushunchalaridan sinonim sifatida foydalanamiz.

Milliy qonunchiligimizda kompyuter texnologiyasi tushunchasi va uning mexanizmi belgilab berilmagan, faqatgina elektron hisoblash mashinasi bilan bog'liq qoidalar mavjud. Shuningdek, mazkur tushuncha tor tushuncha bo'lib, uni axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari o'z ichiga qamrab oladi [16].

O'zbekiston Respublikasining 2003-yil 11-dekabrda 560-II-sonli "Axborotlashtirish to'g'risi-

da”gi Qonunida axborot resursi to’g’risida quyidagi tushuncha mavjud: “axborot resursi – axborot tizimi tarkibidagi elektron shakldagi axborot, ma’lumotlar banki, ma’lumotlar bazasi, shu jumladan, axborot tizimlarida ochiq shaklda joylashtiriladigan yoxud e’lon qilinadigan audio, video, grafik va matnli axborot» (3-modd). Qonunda axborot texnologiyalari tushunchasining so’zmaso’z talqini ham nazarda tutilgan – “axborotni to’plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish va uni tarqatish uchun foydalaniladigan jami usullar, qurilmalar, usullar va jarayonlar” [17]. O’z navbatida Y.G. Korotnikov axborot texnologiyasi deganda axborot (ma’lumotlar, faktlar, g’oyalar, gipotezalar, nazariyalar shaklida) dan foydalanish orqali ba’zi maqsad yoki natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan ketma-ket harakatlar (operatsiyalar) majmui bo’lgan, axborot jarayonini ta’minlaydigan usullar, shakllar, vositalar va hokazo majmuasini tushunadi. Bunda, axborot jarayoni mavjud ma’lumotlar yoki yangi ma’lumotlarni yaratish bo’yicha tartibli harakatlar ketma-ketligi sifatida ifodalanadi [18].

Yuqori texnologiyalari axborot texnologiyalarining kichik turi bo’lib, ma’lumotlar bilan ishlashning yanada murakkab vositalari va usullaridan foydalanadi, bu ularni rivojlantirish imkonini beradi. Yuqori axborot texnologiyalarga quyidagi ta’rifni berish mumkin: ular axborotni izlash, to’plash, shakllantirish, saqlash, qayta ishlash, uzatish, tarqatish jarayonlari, usullaridir hamda ushbu usullar, jarayonlarni kompyuter texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanigan holda amalga oshirish uslublaridir.

Jinoyat protsessi va kriminalistika nuqtayi nazaridan jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish uchun foydalaniladigan axborot texnologiyalari, shuningdek, texnik vositalar “kriminalistik texnika vositalari” deb ataladi [19]. Shu bilan birga, jinoyat protsessi va kriminalistika fanlari doirasida axborot texnologiyalari institutining boshqa ta’riflari ham mavjud, masalan, “protsessual qonunlar asosida va qat’iy tartibda qo’llaniladigan texnik vositalar, usullar va usullar, protsessual harakatlarni eng samarali amalga oshirish usullari” [20].

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi ta’riflar jinoyat protsessida texnik vositalarni qo’llash doirasini asossiz ravishda toraytiradi, uni jinoyat-protsessual normalar asosida amalga oshiriladigan protsessual harakatlar doirasi bilan cheklaydi.

Jinoyat ishini qonuni, asosli va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo’lgan holatlar to’g’risidagi ma’lumotlarni aniqlash maqsadida dalillarni to’plash, tekshirish va baholashdan iborat bo’lgan isbot qilish bosqichida dalillar muhim ahamiyatga ega. Bu qoida axborot tusiga ega elektron dalillarga ham tegishli, albatta.

JPK protsessual munosabatni axborot komponenti orqali belgilovchi bir qator normalarni o’z ichiga oladi. Ammo, qonun chiqaruvchi axborot va dalilni qonuniy tartibda o’zaro bog’lamaydi. Bu borada Gruziya Jinoyat-protsessual kodeksining 3-moddasi 23-bandi qoidalari ma’qul [21], ularga ko’ra dalillar qonunda belgilangan tartibda sudga taqdim etilgan axborot bo’lib, ushbu axborotni o’z ichiga olgan obyektlar, hujjatlar, narsalar yoki boshqa obyektlarga asoslangan holda, taraflar faktlarni tasdiqlashi yoki rad etishi, ularga huquqiy baho berishi, majburiyatlarni bajarishi, o’z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishi, sud esa jinoyat protsessi yuritilayotgan fakt yoki harakatning mavjudligi yoki yo’qligini, bu qilmishni muayyan shaxs tomonidan sodir etilganligi, uning aybdorligi yoki aybsizligi, shuningdek, ayblanuvchining javobgarlik xususiyati va darajasiga ta’sir etuvchi, uning shaxsini tavsiflovchi holatlarni aniqlaydi.

Bu holat jinoyat protsessida “elektron” yoki “raqamli dalillar” kabi atamalarning paydo bo’lishiga sabab bo’ldi. Biroq qonun chiqaruvchi negadir ularni mustaqil manba sifatida qonun hujjatlariga kiritmay, elektron axborot tashuvchisi sifatida ashyoviy dalillarga havola qilgan.

Shu munosabat bilan, aslida uncha kompyuterlashtirilgan mamlakat bo’lmagan Vetnam tajribasi o’ziga xos qiziqish uyg’otadi, 2015-yilda qabul qilingan JPKda mustaqil dalillar manbai sifatida an’anaviy turlar bilan bir qatorda “elektron axborot” ham kiritilgan. Shu bilan birga, faqat ushbu dalil manbasiga xos bo’lgan xususiyatlar belgilanadi:

- ular avtomatik ravishda raqamli signal-lar ko’rinishida hosil bo’ladi va qurilma dasturiy ta’minotining xususiyatlariga qarab mavjud va saqlanadi;

- bu ma’lumotlar turli sabablarga ko’ra nusxa ko’chirish, uzatish, saqlash vaqtida tasodifan o’chirilishi yoki o’zgartirilishi mumkin: dasturiy ta’minotda, xotirada viruslar mavjudligi, uni foydalanuvchi ruhsat bermagan vaqtda nusxalash-

ga urinishda ma'lumotlarni o'zini o'zi yo'q qilish buyrug'ining mavjudligi va boshqalar.

Jinoyat protsessida axborot mohiyatining ta'rifi jinoyat-protsessual qonunchilikda dalillar mazmuni va ularni olish usullariga, shuningdek, jinoyat to'g'risidagi ma'lumotga qo'yiladigan talablarni bilish subyekti xabardorligiga asoslanib, subyektning og'zaki, yozma, elektron va boshqa shakllarda olingan axborotni idrok etish imkoni bilan bog'liq. Jinoyat protsessida elektron dalillarning axborot-signal xususiyatini o'rganish elektron raqamli izlarning jismoniy darajasini va jinoyat-protsessual bilimlar subyekti tomonidan jinoyat ishi uchun ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni ajratish imkonini beradi. Elektron signalni inson idroki anglab yetadigan ma'lumotga aylantirish maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi.

Jinoyat-protsessual qonunida belgilangan tartibda olingan va tekshirilgan ma'lumotlar dalil bo'lishi mumkin. Ma'lum bir ketma-ketlikni shunday namoyon etish mumkin: elektron raqamli signal – axborot – elektron dalil.

Qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, ish uchun ahamiyatli bo'lgan elektron ma'lumotlar saqlanuvchi axborot saqlash vositalari (kompyuter, telefon apparatlari, xotira kartalari va boshqa elektron-texnik vositalar)ni ashyoviy dalil sifatida hamda "elektron ma'lumotlar"ni "elektron (raqamli) dalil" sifatida bayon etish mumkin [22].

Sud-tergov amaliyotida elektron jinoyat ishi tajribasiga ega bo'lishi uchun jinoyat protsessida elektron hujjat aylanishini joriy etish talab etiladi. Buning uchun quyidagilar zarur:

- qonun hujjatlarida har qanday protsessual harakatni (jumladan, jinoyat to'g'risidagi arizani olish, tergov harakatlarini amalga oshirish, sud majlisini o'tkazish, hukm chiqarish va e'lon qilish va boshqalar) elektron texnik vositalar orqali mustahkamlash va batafsil tartibga solish;

- jinoyat ishi bo'yicha isbotlashni ta'minlashning elektron vositalarini faol rivojlantirish (sudga cha bo'lgan protsessda va sud majlislarida jinoyat protsessi ishtirokchisiga masofaviy kirish rejimida protsessual harakatlarni amalga oshirish; guvohlar, jabrlanuvchilar va jinoyat protsessining boshqa ishtirokchilarini elektron himoya qilish va boshqa chora-tadbirlar elektron format, elektron nazorat vositalaridan keng foydalanish va boshqalar);

- elektron imzodan keng foydalanish.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, elektron jinoyat ishi an'anaviy qog'oz shaklni muvaffaqiyatli almashtirishi mumkin [23]. Aytish mumkin, bu holat quyidagilarga imkon beradi: tergov sifatini oshirish, dalillarni soxtalashtirish xavfini kamaytirish; boshqarma va organlar rahbarlari, prokuror tomonidan jinoyat ishi materiallarini tekshirishga yordam beradi; hujjatlar aylanishini va shuning uchun tergov muddatini qisqartiradi; jinoyat ishi materiallari bilan tanishish tartibini osonlashtiradi; jinoyat ishi materiallarining saqlanishini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalari tahlili

Shuni ta'kidlashni istardikki, mavjud axborot texnologiyalari bo'yicha ayrim xususiy masalalar qonun darajasida hal etilmagan. Jumladan, amaldagi JPKda asosiy e'tibor elektron tashuvchilarni olib qo'yishga qaratilgan va elektron ma'lumotlardan nusxa ko'chirish yetarli darajada tartibga solinmaydi. Yuridik adabiyotlarda ushbu masalalarni muhokama qilishda ham shunday holat saqlanib qolmoqda [24]. Shu bilan birga, amalda elektron tashuvchi vositalarining olib qo'yilishi yuridik va jismoniy shaxslar uchun tobora ko'proq qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Shu bois, elektron tashuvchi vositalarning egalari va foydalanuvchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini hisobga olgan holda *elektron axborotdan nusxa ko'chirish tartibini batafsil tartibga solish talab etiladi*.

Bundan tashqari, jinoyat protsessida elektron hujjat aylanishi masalasini hal qilish uchun elektron axborotni dalilning mustaqil turi sifatida tan olish zarur [25], bu elektron hujjatni ushbu dalilning bir turi sifatida ko'rib chiqish imkonini beradi. Fuqarolik va iqtisodiy protsessda elektron hujjatdan foydalanish amaliyoti ma'lum bo'lib, bemalol jinoyat protsessida ham muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin.

Elektron imzodan foydalanish masalalari xorijda ham faol muhokama qilinmoqda. Jumladan, J.Xantli "elektron imzo" iborasi imzoni yozma hujjatlarni rasmiylashtirishning tarkibiy qismi sifatida va imzoni shaxsni tasdiqlovchi kafolat sifatida birlashtirib, qonunchilikda hal etilmagan ko'plab muammolarni keltirib chiqarishiga e'tibor qaratadi [26].

Bugungi kunda amaliyotda moliyaviy operatsiyalarda foydalanilgan elektron imzo jinoyat ishida isbotlash predmetiga aylangan holatlar mavjud.

Bu yerda nazariya va amaliyot o'rtasidagi ma'lum kolliziyaning ko'rish mumkin. Agar jinoyat protsessida axborot texnologiyalarini faqat qat'iy cheklangan protsessual harakatlarda qo'llaniladigan usullar va texnik vositalar majmui deb tasniflaydigan bo'lsak, tergovoldi tekshiruvni (protsessual bo'lmagan harakatlar) o'tkazishda bu vositalar emas, balki boshqa vositalar qo'llaniladi. Binobarin, shaxslarning protsessual shakli va maqomida farq bo'lib, vositalarning huquqiy tabiati o'zgarishsiz qoladi [27].

Ilmiy adabiyotlarda axborot texnologiyalarining mohiyatini aniqlashda yuqoridagi tor yondashuvdan tashqari, uni jinoyat protsessida dalillarni to'plash va o'rganishda, shuningdek, tezkor-qidiruv faoliyatida jinoyatlarni va ularni sodir etgan shaxslarni aniqlash uchun zarur bo'lgan haqiqiy ma'lumotlarni aniqlashda qo'llanilgan har qanday vosita yoki obyekt deb e'tirof etadigan keng qamrovli yondashuv ham mavjud [28].

Shuni aytib o'tish kerakki, konkret axborot texnologiyalari hozirgacha JPKda kamdan-kam hollarda aks ettirilgan. Shunga ko'ra, jinoyat protsessida axborot texnologiyalaridan foydalanishning muqarrarliligi va samaradorligini anglagan holda, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga qat'iy rioya etishini ta'minlaydigan huquqiy jihatlarni rivojlantirishga e'tibor qaratish zarur.

Amaldagi JPKda "texnik vositalar" toifasining qonunchilik ta'rifi yo'q. Vaholanki, qonun mazmunida texnik vositalar qayta-qayta eslatib o'tiladi, Jinoyat-protsessual kodeksining bir qator normalarida ularga havolalar mavjud. Jumladan, axborot texnologiyalaridan foydalanishni matn mazmuniga ko'ra, quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

1) mustahkamlash vositalari sifatida – "Quyidagi protsessual harakatlar videoyozuv orqali qayd etilishi shart..." (Jinoyat-protsessual kodeksining 91-moddasi);

2) tarkibiy jihatdan zarur ma'lumotlarni aniqlash uchun mo'ljallangan vositalar sifatida – "dalil tariqasida foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni aniqlash maqsadida ilmiy-texnika vositalaridan foydalangan holda" (Jinoyat-protsessual kodeksining 391-moddasi);

3) nazorat vositasi sifatida – "abonentning raqami, eshitib turish va qayd qilish vaqti hamda joyi, foydalanilgan texnik vositalarning turi va modeli" (JPKning 171-moddasi);

4) texnik aloqa vositalari sifatida – videokonferensaloqa vositalari, har qanday aloqa vositalari (Jinoyat-protsessual kodeksining 911-moddasi), aloqa vositalari va internetning axborot-telekommunikatsiya tarmog'i (Jinoyat-protsessual kodeksi 4976-moddaning 2-qismi).

Ushbu guruhga ajratishda qayd etilgan vositalarning har birining asosiy xususiyati uning shakli, o'rni, manbalarining sonidan va ularning ishlash radiusidan qat'iy nazar, axborot bilan ishlashning konstruktiv maqsadidir.

Tergov harakatlarini amalga oshirishda texnik vositalardan foydalanish masalalarida protsessual muammolar mavjudligi ko'plab protsessual olimlarning ishida o'z aksini topgan [29]. Jumladan, A.E.Fedyunin fikriga ko'ra, jinoyat-protsessual faoliyatda axborot texnologiyalari va texnik vositalarining mohiyatini bir xil tushunmaslik, ularning huquqiy holatining yetarli darajada huquqiy tartibga solinmaganligi, bir tomondan, ilgari mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimi uchun normativ-huquqiy hujjatlarning yanada noaniqlashtirib, bundan tashqari, ushbu muammolar jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasining sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [30].

Tadqiqot natijasi sifatida ko'rinadiki, bir qator olimlar haqli ravishda qayd etganidek, O'zbekistonning axborot sohasidagi amaldagi qonunchiligi holati tahlili, undagi normalar asosan umumiy xususiyatga ega bo'lib, qo'llanilayotgan kontseptual va kategoriyaviy apparatning texnik talqini bilan bog'liq, vaholanki qonun loyihalari qonunchilik texnikasi va mavjud qonun hujjatlari normalariga mos kelishi kerak [31].

Xulosalar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagilarni yakuniy to'xtam sifatida aytib o'tishni lozim topdik:

birinchidan, bugungi kunda zamonaviy xo'jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya hisobi va hujjat aylanishi tizimi to'liq kompyuterlashtirilgan, shuning uchun tergovchi kompyuter yordamida qanday faktik ma'lumotlarni olishi mumkinligini, ularning dalil qiymati nima ekanligini va uni jinoyat ishiga kiritish usullarini aniqlash kerak;

ikkinchidan, qonun chiqaruvchi shu paytgacha kompyuter xotirasida dalil sifatida saqlangan ma'lumotlarga munosabatini bildirmagan. Tergovchilar, o'z bo'yniga butun xavf-xatarlarni olgan holda, isbotlash jarayonida kompyuter texnologiyalari yordamida olingan ma'lumotlardan foydalanadilar;

uchinchidan, ilgari faqat moddiy obyektlarni hujjat sifatida ko'rib chiqish odat tusiga kirgan va aksariyat hollarda bu qog'ozda yozilgan aktlar

edi. Texnik vositalarning rivojlanishi va takomillashtirilishi bilan axborotni qayd etish, uzatish va saqlashning yangi vositalari paydo bo'ldi. Agar kerak bo'lsa, ular jinoyat protsessiga jalb qilinishi kerak edi, shuning uchun foto, kino, audio va video materiallar asta-sekin hujjat sifatida tan olindi (ma'lum bir shart bilan bo'lsa ham: ular qog'ozga tarjima qilinishi, masalan, audioyozuvdan foydalanishda uning qog'ozdagi matni ko'rinishi (so'zlar yoki belgilar shaklida) berilishi lozim.

REFERENCES

1. Protasevich A.A. Kriminalisticheskaja harakteristika komp'juternyh prestuplenij. A.A. Protasevich, L.P. Zverjanskaja. Rossijskij sledovatel'. 2013, No. 11, pp. 45–47.
2. Goodman M. International Dimensions of Cybercrime / M. Goodman // Cybercrimes: A Multidisciplinary Analysis / S. Ghosh, E. Turrini (eds). Berlin, Heidelberg, 2010, p.18.
3. I.Toraxodjaeva. O'zbekistonda internet tarmog'i orqali sodir etiladigan jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari // Yuridik fanlar axborotnomasi / Вестник юридических наук / Review of law sciences, huquqiy ilmiy-amaliy jurnali. Tashkent, 2019 (03)-son, pp. 128–132.
4. I.Toraxodjaeva. O'zbekistonda internet tarmog'i orqali sodir etiladigan jinoyatchilikka qarshi kurash muammolari //Yuridik fanlar axborotnomasi / Вестник юридических наук / Review of law sciences, huquqiy ilmiy-amaliy jurnali. Tashkent, 2019 (03)-son, pp. 128–132.
5. Nissan E. Legal Evidence, Police Intelligence, Crime Analysis or Detection, Forensic Testing, and Argumentation: An Overview of Computer Tools or Techniques / E. Nissan // International Journal of Law and Information Technology. 2009, Vol. 17 (1), pp. 1–82
6. Fatkullin F.N. Obshhie problemy processual'nogo dokazyvaniya / F.N. Fatkullin. Kazan', Izd-vo Kaz. un-ta, 1973, p. 6.
7. Davletov A.A. Osnovy ugolovno-processual'nogo poznanija / A.A. Davletov. Ekaterinburg, Gumanitar. un-t, 1997, p. 31.
8. Belkin A.R. Teoriya dokazyvaniya v ugolovnom sudoproizvodstve / A.R. Belkin. Moscow, Norma, 2007, p.119.
9. Larin A.M. Ugolovnyj process Rossii. Lekcii-ocherki / A.M. Larin, Je.B. Mel'nikova, V.M. Savickij; pod red. V.M. Savickogo. Moscow, BEK, 1997, p. 314.
10. Shennon K. Matematicheskaja teoriya svjazi. Raboty po teorii informacii i kibernetiki. Moscow, 1963, p.243.
11. Kravec E. G. Sovremennye vozmozhnosti nakoplenija, peredachi i analiza informacii, znachimoj dlja rassledovaniya prestuplenij // Vestn. Volgograd. akad. MVD Rossii / pod red.V. I. Tret'jakova. Volgograd, 2010, p.73.
12. Tolkovyj slovar' terminov ponjatijnogo apparata informatizacii obrazovaniya. Moscow, 2009, p. 24.
13. Glushkov V. M. Osnovy bezbumazhnoj informatiki. Moscow, 1987, p.89.
14. Mizin I. A., Sinicyn I. N., Dostupov B. G. i dr. Razvitie opredelenij «informatika» i «informacionnye tehnologii» / pod red. I. A. Mizina. Moscow, 1991, p.4.
15. Tolkovyj slovar' terminov ponjatijnogo apparata informatizacii obrazovaniya. Moscow, 2009, p. 25.
16. R.Xursanov, A.Anorboev. Kiberfiribgarlik jinoyati: jinoiy-huquqiy va kriminologik tavsifi // Yuridik fan va huquqni qo'llash amaliyotining dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. I jild / Mas'ul muharrir y.f.d., prof. M.M.Mamasiddiqov. Toshkent, Lesson press, 2020, p.304.
17. O'zbekiston Respublikining 2003-yil 11-dekabrda 560-II-son "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi, 2004, No. 1-2, 10-modda.
18. Korotenkov Ju.G. Informacionnye processy i tehnologii kak ob'ekty informatiki i obuchenija informatike // Vestn.Mosk. gorodskogo ped. un-ta. Ser.: Informatika i informatizacija obrazovaniya. 2004, No. 3, pp. 98–106
19. Ishhenko E. P., Toporkov A. A. Kriminalistika: ucheb. / pod red. E. P. Ishhenko. 2-e izd., ispr., dop. i pererab. Moscow, 2010, p. 34.

20. Kriminalistika: ucheb. / otv. red. A. N. Vasil'ev. M., 1963, p.23.21. <https://matsne.gov.ge/ru/document/view/90034.?publication>
22. To'raqulova N.A. "Raqamli" dalillar // "O'zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar" mavzusidagi respublika ko'p tarmoqli ilmiy masofaviy onlayn konferensiya materiallari to'plami, 30-noyabr 2020-yil. Tashkent, Tadqiqot, 2020, p.8.
23. Meshherjakova O.A. Organizacionno-processual'nye mery preduprezhdeniya utraty ugovnyh del v sisteme profilaktiki prestupnosti / O.A. Meshherjakova // Juridicheskij vestnik Dagestanskogo gosudarstvennogo universiteta. Tashkent, 2015, 14, No. 2. p. 144.
24. Vasjukov V.F. Iz#jatie jelektronnyh nositelej informacii pri rassledovanii prestuplenij: nereshennye problemy pravovogo regulirovaniya i pravoprimeneniya / V.F. Vasjukov, A.V. Bulyzhkin // Rossijskij sledovatel'. 2016, No. 6, p.14.
25. Ovsjannikov D.V. Kopirovanie jelektronnoj informacii kak sredstvo ugovno-processual'nogo dokazyvaniya: avtoref. dis. ... kand. jurid. nauk : 12.00.09 / D.V. Ovsjannikov. Ekaterinburg, 2015, p.9.26. Huntley J. Electronic Signatures, Law and Regulation, by Lorna Brazell (Thomson/Sweet & Maxwell, 2004), 550 pages / John Huntley // International Journal of Law and Information Technology. 2007, Vol. 15, iss. 2, p. 227-229.
27. Zajceva E. A., Sadovskij A. I. Formirovanie dokazatel'stv sledovatelem s ispol'zovaniem special'nyh poznanij i nauchno-tehnicheskikh sredstv: monogr. Volgograd, 2013, p.189.
28. Kriminalistika: ucheb. / otv. red. R. S. Belkin, G. G. Zujkov. Moscow, 1969, T. 1, p.113.
29. Comaja S. D. Pravovoe regulirovanie i dokazatel'stvennoe znachenie primeneniya nauchno-tehnicheskikh sredstv v ugovnom sudoproizvodstve: dis. ... kand. jurid. nauk. Moscow, 2007, p.14.
30. Fedjunin A. E. Pravovoe regulirovanie tehniceskikh sredstv v ugovnom processe: dis. ... d-ra jurid. nauk. Saratov, 2008.
31. Zh.Ne#matov, N.Zokirova, A.Enikeeva, S.Tairov. Problemy normativno-pravovogo regulirovaniya primeneniya informacionno-kommunikacionnyh tehnologij v Respublike Uzbekistan i puti ih reshenija//<https://cyberleninka.ru/article/n/problemy-normativno-pravovogo-regulirovaniya-primeneniya-informatsionno-kommunikatsionnyh-tehnologiy-v-respublike-uzbekistan-i-puti>

UDC: 341.4(042)(575.1)
ORCID: 0000-0002-1645-044X

XALQARO NIZOLARNI TINCH YO'L BILAN HAL ETISH VOSITASI SIFATIDA XALQARO TERGOV KOMISSIYALARI AHAMIYATI VA TUSHUNCHASI

Egamberdiyev Dilshod Alisherovich,
Toshkent davlat yuridik universiteti
“Xalqaro huquq va inson huquqlari” kafedrası katta o'qituvchisi,
e-mail: d.egamberdiyev@tsul.uz

Annotatsiya. Dunyo hamjamiyatida sodir bo'layotgan turli voqea va hodisalar shundan dalolat bermoqdaki, xalqaro huquqiy munozaralar atrofida tergov komissiyalarini tuzish va ularning faoliyatini o'rganish bilan bog'liq asoslar ilmiy va siyosiy munozaralarga sabab bo'lmoqda. Chunki mazkur faoliyat 10 yoki 20-yil ilgari tuzilgan komissiyalarga qaraganda hozir tez-tez tuzila boshlandi. Ma'lumki, bugungi kunda jinoyatchilik, ayniqsa, xalqaro jinoyatchilik davlatlarning milliy huquqiga va xalqaro huquq normalariga hamda jamiyatning normal siyosiy tizimiga ham tahdid solib kelmoqda. Bunday tahdidga qarshi davlatlar birgalikda yoki universal xalqaro tashkilotlar orqali kurash olib borish ehtiyoji yuzaga kelmoqda. Transmilliy jinoyatlar, qurolli to'qnashuvlar, genotsid, agressiya, terrorizm kabi jinoyatlar global muammoga aylangan. Bunday xalqaro miqyosdagi jinoyatchilikka qarshi kurash bilan bir qatorda, ularni sodir etishdan maqsad, sodir etilishi natijasida yetkazilgan zararlarni aniqlash, turli nizolar vaqtida va undan keyin bevosita inson huquqlarini ta'minlash kabi harakatlar, albatta, muhim hisoblanadi. Xalqaro tergov komissiyalari xalqaro huquqning inson huquqlari, xalqaro gumanitar huquq va xalqaro jinoyat huquqi sohalarida sodir etilgan huquqbuzarliklarni o'rganish maqsadida murojaat etiladigan xalqaro huquqning institutlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada muallif nizolarni tinch yo'l bilan hal etish vositasi sifatida xalqaro tergov komissiyalarining ahamiyati va ularning tushunchasini ilmiy asoslab, yoritib bergan. Shuningdek, ushbu faoliyatni yanada rivojlantirish bilan bog'liq fikr mulohazalar yuritgan.

Kalit so'zlar: xalqaro, nizo, tergov, komissiya, transmilliy, inson huquqlari, gumanitar huquq, xalqaro jinoyat huquqi, faktlarni aniqlash.

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВАЯ ОСНОВА ДЛЯ СОЗДАНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОМИССИЙ ПО РАССЛЕДОВАНИЮ КАК СРЕДСТВА МИРНОГО УРЕГУЛИРОВАНИЯ СПОРОВ

Эгамбердиев Дилшод Алишерович,
старший преподаватель кафедры
“Международное право и права человека”
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В начале прошлого века международные комиссии по расследованию первоначально создавались государствами с целью содействия мирному урегулированию международных споров. После создания Организации Объединенных Наций в международном сообществе формируются Международные комиссии по расследованию с целью расследования кризисных ситуаций на международной арене, полного информирования о случаях нарушений в рамках международного права и решения вопросов вины виновных. Наряду с этим, деятельность международных следственных комитетов сегодня все более необходима для расследования и расследования ситуаций, связанных с геноцидом, преступлениями против человечности, военными преступлениями, нарушениями прав человека. Одним словом, комиссии стали одним из институтов международного права, к которому обращаются с целью расследования нарушений, совершенных международным правом в области прав человека, международного гуманитарного права и международного уголовного права. В свою очередь, считается, что создание комиссий имеет свою собственную правовую основу в международном праве. В данной статье автор научно обосновал правовую

базу и эффективную деятельность по созданию международных следственных комиссий. Также были высказаны замечания по поводу дальнейшего развития этой деятельности.

Ключевые слова: расследование, комиссия, международное право, конвенция, декларация, спор, мирный, Женева, Гаага, конференция.

INTERNATIONAL LEGAL FRAMEWORK FOR THE ESTABLISHMENT OF INTERNATIONAL COMMISSIONS OF INQUIRY AS A MEANS OF PEACEFUL SETTLEMENT OF DISPUTES

Egamberdiev Dilshod Alisherovich,
Senior Lecturer of the Department of
International Law and Human Rights of
Tashkent State Law University

Abstract. At the beginning of the last century, international commissions of inquiry were initially created by States to promote the peaceful settlement of international disputes. After the creation of the United Nations, International Commissions of Inquiry are formed in the international community in order to investigate crisis situations in the international arena, fully inform about cases of violations within the framework of international law and resolve issues of guilt of the perpetrators. At the same time, the activities of international investigative committees are increasingly necessary today to investigate and investigate situations related to genocide, crimes against humanity, war crimes, and human rights violations. In short, the commissions have become one of the institutions of international law to which they turn in order to investigate violations committed by international human rights law, international humanitarian law and international criminal law. In turn, it is believed that the creation of commissions has its own legal basis in international law. In this article, the author scientifically substantiated the legal framework and effective activities for the creation of international investigative commissions. Comments were also made on the further development of this activity.

Keywords: investigation, commission, International law, convention, declaration, dispute, peaceful, Geneva, The Hague, conference.

XIX asrning oxiridan boshlab jinoyatchilikning xalqaro darajadagi faolligi tobora rivojlanib bordi. Bunga bevosita davlatlar o'rtasida olib borilayotgan oshkora siyosat, yopiq va qattiq nazoratda bo'lgan iqtisodiyotning kengayishi sabab bo'ldi. O'z navbatida, shuni qayd etish kerakki, iqtisodiyotning integratsiyalashuvi va bozorlarning kengayishi, bevosita yer yuzida yashovchi aholining manfaatlariga xizmat qilibgina qolmay, balki jinoyatlarning yangi noma'lum shakllarining paydo bo'lishi va takomillashishiga sharoit yaratib berdi. Xususan, terrorizmnin moliyalashtirishni yangi shakllari [1], giyohvandlik vositalarining noqonuniy savdosini kengayishi [2], odam savdosining turlari ko'payishi [3], pullarni qalbakilashtirish [4] hamda bugungi kunda o'z yechimini kutayotgan kiberjinoyatlarning [5] turli shakllari yuzaga keldi.

Universal tashkilot sifatida BMTning asosiy vazifasi tinchlik, global va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdan iboratdir. Biroq BMT tashkil etilganiga 75-yildan ortiq vaqt bo'lgan bo'lsa ham, jahon hamjamiyati tomonidan jinoyatchilikni bartaraf etish borasida amalga oshirilayotgan barcha sa'y-harakatlarga qaramasdan jinoyatchilikning

global o'sishi va yangi murakkab shakllarining paydo bo'lishi kuzatilmoqda. Birgina terrorizm jinoyatining o'sish ko'rsatkichi Iqtisodiyot va tinchlik institutining 2020-yil noyabr oyida chop etilgan Global Terrorism Index 2020: Measuring the Impact of Terrorism hisobotining ma'lumotlariga ko'ra 2009–2019-yillarda 30 foizga oshganligini guvohi bo'lamiz [6]. Bundan tashqari, Sobiq Yugoslaviya, Ruanda, Darfur, Sharqiy Timor, Livan, Gvineya, Kot d'laur, Liviya, Falastin hududlari, Suriya Arab Respublikasi, Koreya Xalq Demokratik Respublikasi, Shri-Lanka, Markaziy Afrika Respublikasi va boshqa shu kabi hududlarda sodir etilgan jinoyatlar bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Xalqaro tergov komissiyalari nizolarni hal qilishning yangi muqobil usuli sifatida ilk bor 1899-yilda qabul qilingan Gaaga konvensiyasida keltirib o'tilgan. Mazkur yangi xalqaro mexanizmining joriy etilishiga bevosita 1898-yilda sodir etilgan jinoyat turtki bo'ldi. Ya'ni 1898-yil 15-fevralda Gavana harbiy portida langar tashlagan AQShning Meyn (Main) harbiy kemasi portlatildi, natijada jami 259 nafar ekipaj va harbiy ofitser xalok bo'ldi [7]. Ushbu holat yuzasidan Ispaniya va AQSh alo-

hida-alohida tergov harakatlari olib borishdi, lekin sirli portlash bo'yicha ikki davlatning tergov xulosalari bir-biriga zid va tortishuvlarga sabab bo'lgan fikrlarni keltirib chiqardi. Kuba tufayli vujudga kelgan Ibero-Amerika keskin munosabatlari nuqtayi nazardan, bu voqea Ispaniya-Amerika urushi boshlanishini tez-lashtirib yubordi [8]. Shu asosda, bir yildan so'ng 1899-yilda xalqaro tergov komissiyasini tuzish taklifi rus diplomati F. Martens tomonidan Gaaga tinchlik konferensiyasida ilgari surildi [9]. Bu fikrdan ko'zlangan asosiy maqsad vaqtdan yutish, vaziyatni to'g'ri baholab nizoning avj olib ketishining oldini olish va vaziyat to'liq tanglikka olib kelmasidan oldin faktlarni aniqlashdan iborat edi [10]. AQSh va Ispaniya Meyn voqeasi bo'yicha 1899-yilda qabul qilingan va davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilingan "Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasining III Bo'limida ko'rsatilgan qoidalar asosida kelishuvni amalga oshirishdi.

Dastlab xalqaro tergov komissiyalarining ishlash tizimi, tergov olib borish jarayoni har bir tuzilgan komissiya uchun vaqtinchalik ad hoc tartibida belgilangan. Lekin bu tizim o'zini oqlamadi va natijada 1907-yilda qabul qilingan "Nizolarni tinch yo'l bilan hal etish to'g'risida"gi Gaaga konvensiyasida xalqaro tergov komissiyalarining faoliyati to'liq belgilab qo'yildi [11]. Tergov komissiyalarining aniq maqsadi xolis va adolatli tergov orqali faktlarni aniqlash va qaror qabul qilishga ko'maklashish deb belgilandi.

Diplomatik nuqtayi nazardan ikki konvensiyaning o'zida tergov komissiyalari huquqiy tabiatining bir necha jihatlarini sanab berildi. Birinchidan, 1907-yilda qabul qilingan konvensiyaga ko'ra "komissiyaning oxirgi xulosasi faktlarni aniqlashga qaratilgan tavsiyaviy xarakter kasb etadi va komissiya hech qanday qaror qabul qilmaydi". Ikkinchidan, ushbu hisobot majburiy kuchga ega bo'lmaydi, aksincha, ishtirokchi davlatlarga hisobotda ta'sir ko'rsatish choralarini tanlash imkoni beriladi. Uchinchidan, 1899-yilda qabul qilingan konvensiyaga ko'ra hisobot faqat tomonlarning e'tiboriga yetkaziladi va oshkora e'lon qilinmasligi aniq belgilab qo'yildi. Biroq 1899-yilda belgilangan qoidalarda farqli o'laroq 1907-yil Gaaga konvensiyasining 34-moddasiga ko'ra hisobot komissiyasining ochiq yig'ilishida o'qilishi kerakligi belgilab qo'yildi.

Konvensiyalarda belgilangan qoidalardan kelib chiqib tergov komissiyalarini tuzish amaliy-

otida, davlatlar o'rtasida ikki va ko'p tomonlama shartnomalar asosida tergov komissiyalarini tuzish keng tarqaldi. 1911-yilda Gaaga qoidalariga tayanib AQSh, Fransiya va Buyuk Britaniya bilan Taft (yoki Noks) (Taft (or Knox)) deb nomlanuvchi shartnomalar imzoladi. Mazkur shartnomaga muvofiq tomonlar o'rtasidagi muammoli vaziyatlarni hal qilishda bevosita 1907-yilda qabul qilingan Gaaga Konvensiyasining tegishli qoidalari asosida, artibraj sudiga yoki tomonlar o'rtasida tuzilgan qo'shma tergov komissiyasiga topshirish majburiyati aniq belgilab qo'yilgan edi [12].

1913–1940-yillar orasida AQSh Gaaga Konvensiyasi asosida Taft (yoki Noks) shartnomalaridan farqli o'laroq Bryan (Bryan) deb nomlanuvchi bir qancha shartnomalar tuzdi. Shuningdek, Bryan shartnomalari negizida 1915-yilda Argentina, Braziliya va Chili ABC shartnomalarini tuzishdi. Bundan tashqari 1919-yilda Buyuk Britaniya, Braziliya va Chili bilan shunga o'xshash bir necha shartnomalarni tuzdi va 1923-yilda Amerika qit'asining o'n olti davlati tergov mexanizmlarni o'z ichiga olgan huddi shu yo'nalishdagi Gondora shartnomasini tuzishdi [13].

So'nggi-yillarda xalqaro maydonda mavjud bo'lgan inqirozlar yoki hodisalarni o'rganish maqsadida mustaqil va xolis tergov komissiyalarini tuzish, chaqirish odatiy holga aylanib qoldi. Davlatlar va xalqaro tashkilotlar so'nggi o'tgan davr mobaynida bir necha g'ayrioddiy "tergov komissiyalarini", "tergov organlari"ni yaratdilar, ularning aksariyati vaziyatga xulosa va tavsiyalar berish, faktlarni aniqlash, shuningdek, ularga huquqiy tahlil berish bilan shug'ullanib kelishdi. Zamonaviy xalqaro huquqda tuzilgan tergov komissiyalari ilgari tuzilgan komissiyalardan farqli o'laroq chegara muammolari yoki urush qonun qoidalarining buzilishini o'rganish bilan bog'liq muammolarni emas, balki inson huquqlariga tahdidlarning qanchalik jiddiyligi, sodir etilgan harakatlar xalqaro xavfsizlik va tinchlikka qanchalik xavfliligini o'rganishni asosiy maqsad qilib olgan. Misol uchun, BMT Bosh Assambleyasining A/67/997-S/2013/553-sonli Rezolyutsiyasi bilan tuzilgan "Birlashgan Millatlar Tashkilotining Suriya Arab Respublikasida kimyoviy qurol ishlatilganligi haqidagi da'volarni tergov qilish missiyasi" shuningdek, BMTning Inson huquqlari bo'yicha Kengashi tomonidan 2013-yilda A/HRC/RES/S-22/13-sonli Rezolyutsiyasi bilan tuzilgan "Koreya

Xalq Demokratik Respublikasida Inson huquqlari bo'yicha xalqaro tergov komissiyasi". Mazkur komissiyalar insoniyatga qarshi jinoyatlarni tekshirish va inson huquqlarini ta'minlanishini nazorat qilish maqsadida tashkil etilgan.

Bu esa, o'z navbatida, xalqaro jinoyat huquqi tomonidan tan olingan jinoyatlar shuningdek, bugun ancha rivojlanib borayotgan transmilliy jinoyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etishga o'z xissasini qo'shmoqda

Ayrim huquqshunoslar xalqaro tergov komissiyalari bugungi kunda foydali amaliyotdan biridir deb ta'kidlashadi [14]. Xalqaro tergov komissiyasini tuzish muhimmi? Agar muhim bo'lsa xalqaro huquqshunoslar o'rtasida mazkur komissiyalarning faoliyatiga qiziqish kuchayganiga qaramasdan, yuridik adabiyotlarda komissiyaning yaratilishiga olib keladigan sabablar va faoliyati bilan bog'liq muammolarga nisbatan e'tibor berilmay qolganligini ko'rishimiz mumkin [15].

Принцип юридического равенства сохраняется прежде всего за счет равного соблюдения обязанностей и прав всех суверенных государств, предусмотренных международным правом. Соответственно, более широкие фактические полномочия определенных государств или их юридические привилегии в рамках ООН никоим образом не должны служить целям уклонения от выполнения обязанностей, которые в равной степени возлагают на все суверенные государства, и любые попытки злоупотребить этими полномочиями нарушают принцип юридического равенства государств. Равенство проистекает из государственного суверенитета, и «в силу последнего невозможно поместить государства в своего рода иерархию по отношению друг к другу» [26]. Важность такого равенства в свете принципа добрососедства проистекает не только из норм международного права, но и от характера межгосударственных отношений. Установление добрососедских отношений предполагает дружбу между государствами, а не вражду.

Принцип суверенного равенства государств неизбежно вызвал появление многих других принципов и правовых норм, закрепляющих права и обязанности государств в соответствии с международным правом. Одним из этих принципов, определяющих внешнюю по-

литику государств и лежащих в основе формулирования международной юриспруденции, является принцип добрососедства.

Правовая основа принципа добрососедства в международном праве имеет решающее значение для легитимности внешней политики государств по отношению к своим соседям. Кроме того, он определяет рамки развития различных конкретных норм принципа добрососедства и их правильное применение в текущих спорах между соседними государствами. Другими словами, определенные нормы и внешняя политика государства, игнорирующие его правовую основу, считаются нарушением самого принципа добрососедства.

Таким образом, наличие добрососедских отношений требует симметричных отношений между государствами [27]. Неравенство государств потенциально препятствует добрососедским отношениям или даже делает их невозможными в случае возникновения конфликта интересов [28].

Вместе с тем в условиях глобализации и развития информационных технологий во всем мире стираются традиционные представления о границах между государствами, актуализируется вопрос о дальнейшем развитии современного международного права, которое призвано регулировать различные аспекты отношений между своими субъектами в свете появляющихся новых вызовов и угроз. В этой связи, думается, что проблематика добрососедства между государствами приобретает огромное значение и создает ряд задач теоретического и прикладного характера.

Несомненно, различные вопросы водно-энергетической сферы и трансграничного сотрудничества в Центральной Азии, проблемы демаркации и делимитации границ, вопросы оказания гуманитарной помощи в кризисных ситуациях, различные аспекты «народной дипломатии», и многое другое добавляет еще больше значения и актуальности исследуемой нами проблематике принципа добрососедства между государствами, особенно в контексте активной внешней политики Узбекистана. Следует отметить, что подобные вопросы возникают и в других регионах (миграционный кризис в Европе) и в мире в целом (пандемия коронавируса).

По-нашему мнению, нехватка юридической литературы и доктринального обоснования принципа добрососедства (несмотря на сравнительное обилие нормативно-правовой базы) объясняется тем, что при толковании основных принципов международного права, ученые-юристы обращали больше внимания к ст. 2 Устава ООН, игнорируя, что они были призваны служить целям, обозначенным в Преамбуле Устава. На этом фоне статья 74 Устава, где конкретно указывается на общий принцип добрососедства, возможно, была утеряна из виду. Однако, неоднократные Резолюции Генеральной Ассамблеи ООН, направленные на раскрытия юридической сути принципа добрососедства, а также заключение Юридического Подкомитета о том, что принцип добрососедства является составной частью международного права, указывают на достигнутый международный консенсус по данному вопросу.

Продолжая мысль американского ученого Сомпонга Сучараткула, хотелось бы добавить, что на самом деле, добрососедство по своей природе имеет больше юридического составляющего, чем на пример дружественные отношения. Выражаясь, фразой английского ученого XVII века Томаса Фуллера, «можно жить без друзей, но без соседей нельзя». Иными словами, нельзя принуждать кого-то быть другом с кем-то, но можно и порою необходимо принуждать быть хорошим соседом.

Выводы

Думается, что при выполнении задачи по раскрытию теоретико-правовой природы добрососедства в современном международном праве следует исходить из следующих основ:

1) формализм является основой правового мышления, следовательно, мы используем в данном исследовании формально-юридический метод познания, что в нашем случае выражается в использовании термина «общий принцип добрососедства» (исходя из ст. 74 Устава ООН);

2) международное право – это система норм, регулирующих сферы международных отношений, следовательно, необходимо выявить место общего принципа добрососедства в данной системе;

3) системный подход к данному вопросу означает, что необходимо выявить соотно-

шение принципа добрососедства с другими элементами системы международного права;

4) в плане выявления определения общего принципа добрососедства в современном международном праве следует остановиться на понятии «общий принцип права» и попытаться дать характеристику этому понятию исходя из п.3 ст. 38 Статута Международного Суда ООН (источники международного права), а также доктринальных подходов к нему.

Мы придерживаемся мнения, что принцип добрососедства не является всего лишь политическим ориентиром, а международно-правовым понятием. Наше мнение, основывается на вышеуказанном определении международного права, а также вытекающих из него следующих аргументах.

Во-первых, принцип добрососедства указывается в основном источнике современного международного права – Уставе ООН, как общий принцип и цель к которому обязаны стремиться все члены международного сообщества. Следовательно, он признан субъектами международного права как обязательная норма, и выражена в качестве такого в ряде источников универсального, регионального и двустороннего характера.

Во-вторых, в качестве обязательной нормы международного права он наделяет субъекты определенными правами и накладывает на них некоторые обязанности. Таким образом, он является общеобязательным критерием правомерно дозволенного и юридически недозволенного.

В-третьих, через принцип добрососедства осуществляется управление международным сотрудничеством в соответствующих областях, в частности, он имеет огромное значение для государств, имеющих общие границы. Вместе с тем мы придерживаемся мнения, что сфера применения данного принципа нельзя ограничить определенными отраслями международного права (к примеру международным экологическим правом, где принцип добрососедства в настоящее время наиболее детально раскрыто), а исходить из универсальности данного понятия, а также избегать географический детерминизм в данном вопросе.

В-четвертых, правовая природа принципа добрососедства предполагает потенциальное применение международно-правовых рычагов принуждения к соблюдению данного принципа, при его нарушении субъектами международного права.

Отвечая на вышеуказанные вопросы, а также основываясь на обозначенных позициях, мы думаем, что указание в Преамбуле Устава ООН на необходимость «жить как добрые соседи» определяет значимость добрососедства для успешной, эффективной деятельности всей системы современного международного права. Исходя из этого, мы также считаем, что при анализе проблематики общего принципа добрососедства нельзя ограничиваться отдельными отраслями или институтами международного права. Следовательно, принцип добрососедства выходит на один уровень с основными принципами международного права.

REFERENCES

1. Kelsen H. The Law of the United Nations: A Critical Analysis of its Fundamental Problems, London 1951, p. 11–13.
2. Verdross A. Völkerrecht, Vienna 1964, p. 292–295, translated in: J.G. Lammers, Pollution of International Watercourses, The Hague 1984, p. 565.
3. Fitzmaurice M., Elia O. Watercourse Co-operation in Northern Europe: A Model for Future, The Hague, 2004, p. 5.
4. Jenks C.J. Law in the World Community, New York 1967, p. 92.
5. Goldie L. F.E. Development of International Environmental Law- an Appraisal, in: J.L. Hargrove ed., Law, Institutions and the Global Environment, Leiden 1972, pp. 104–165.

6. Jasudowicz T. Zasada dobrego sąsiedztwa w Karcie Narodów Zjednoczonych, *Acta Universitatis Nicolai Copernici*, 1989, pp. 67, 81.
7. Basheska E. The Position of Good Neighbourliness Principle in International and EU Law, in: B. Kochenov and E. Basheska eds., p. 34.
8. General Assembly, Declaration on Principles of International law concerning Friendly Relations and Cooperation among States in accordance with the Charter of the United Nations, 24.10.1970, A/8082.
9. Charter of the United Nations and Statue of the International Court of Justice. Available at: <https://treaties.un.org/doc/publication/ctc/uncharter.pdf/>.
10. Uilenreef A. Bilateral Barriers or Good Neighbourliness? The role of Bilateral Disputes in the EU Enlargement Process, Netherlands Institute of International Relations, Clingendael, June 2010, p. 9.
11. Rezolucija 46/62 General'noj Assamblei OON o Razvitii i ukreplenii dobrososedskih odnoshenij mezhdu gosudarstvami [UN General Assembly Resolution 46/62 on Development and Strengthening Good Neighborly Relations between States]. Available at: <https://xn--80aagahqwyibe8an.com/pravovi-akti-mijnarodni/rezolyutsiya-generalnoy-assamblei-oon-razvitie230519.html/> (accessed 07.07.2021).
12. Simma B. et al., *The Charter of the United Nations: A Commentary*. Vol. 1, 3rd ed, Oxford 2012, p. 1097.
13. CotJ-P., Pellet A., Forteau M. eds. *La Charte des Nations Unies: Commentaire article par article*, Paris, 2005, pp. 1779–1780.
14. Goldie L.F.E. Special Règimes and Pre-Emptive Activities in International Law, *International Comparative Law Review*, 1962, no. 11, p. 690.
15. Advisory Opinion of 8 July 1996 of the Legality of the Threat or Use of Nuclear Weapons, Dissenting Opinion of Judge Weeramantry, ICJ Rep. 1996, p. 505.
16. Dupuy, paragraph 13-14; Birnie and Boyle, p. 104.
17. Beyerlin U. «Neighbour States» in *Encyclopedia of Public International Law*, Elsevier, Amsterdam 1997, vol. 3, p. 537.
18. RIAA, *Affaire concernant le filetage à l'intérieur du golfe du Saint-Laurent entre le Canada et la France Canada v. France*, Judgement 17 July 1986, RIAA 1986, § 27.
19. Pop I. Components of Good Neighbourliness Between States- Its Specific Legal Contents- Some Considerations Concerning the Reports of the Sub-Committee on Good-Neighbourliness Created by the Legal Committee of the General Assembly of the United Nations, Editura R.A.I, Bucharest 1991, p. 58.
20. Fitzmaurice M., Elisa O. *Watercourse Co-operation in Northern Europe: A Model for Future*, The Hague, 2004, p. 5.
21. Sands P. *Principles of International Environmental Law*, Oxford, 2003, p. 249.
22. Simma B. et al. *The Charter of the United Nations: A Commentary*. Vol. 1, 3rd ed, Oxford, 2012, p. 1097.
23. CotJ-P. *La Charte des Nations Unies: Commentaire article par article*, Paris, 2005, pp. 1779–1780.
24. Goldie L.F.E. Special Règimes and Pre-Emptive Activities in International Law, *International Comparative Law Review*, 11, 1962, p. 690.
25. Advisory Opinion of 8 July 1996 of the Legality of the Threat or Use of Nuclear Weapons, Dissenting Opinion of Judge Weeramantry, ICJ Rep., 1996, p. 505.
26. Wouters J. Constitutional Limits of Differentiation: The Principle of Equality in Bruno de Witte, Dominik Hanf and Ellen Vos (eds), *The Many Faces of Differentiation in EU Law*, Intersentia, Schoten, 2001, pp. 301, 319.
27. Maunier R. *The Sociology of Colonies (Part 1): International Library of Sociology I: Class, Race and Social Structure*, repr. Routledge, London, 2003, p. 149.
28. Basheska E. (Mis)application of the Good Neighbourliness Principle in International and EU Law: The Case of the Republic of Macedonia' in Dimitry Kochenov and Elena Basheska (eds), *Good Neighbourliness in the European Legal Context*, Brill-Nijhoff, Leiden/Boston MA, 2015, p. 235.

UDC: 342.7

ORCID: 0000-0002-5374-9686

INSON HUQUQLARI UMUMJAHON DEKLARATSIYASIDA INSON HUQUQLARIGA OID AYRIM MASALALAR

Suvanov Sardor Baxadirovich,
Sirdaryo viloyat Guliston tumanlararo
ma'muriy sudining sudyasi,
e-mail: m.guliston.t@sud.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normalar tahlil qilindi. Deklaratsiyada nazarda tutilgan fuqarolik va shaxsiy huquqlar, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar Konstitutsiyamiz asosida batafsil muhokama etildi. Xususan, shaxsiy huquqlardan yashash huquqi, erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, qiynoq, shafqatsiz, insoniylikka zid keluvchi va shaxs qadr-qimmatini kamsituvchi muomala va jazo turlarining taqiqlanishi, turar joy daxlsizligi huquqi, fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqi kabilar tahlil etildi. Shu bilan birga, maqolada inson huquqlari sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda inson huquqlarini himoya qilishda mavjud bo'lgan muammolar ham o'rganilgan. Yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida inson huquqlari sohasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, sohaga oid qonunlar ijrosi yuzasidan parlament va jamoatchilik nazoratini ta'minlash, inson huquqlarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, inson huquqlarini ta'minlashga bevosita mas'ul bo'lgan davlat organlari xodimlarining inson huquqlari bo'yicha malakasini oshirish tizimini kengaytirish va ularni o'qitish tizimini yo'lga qo'yish bilan bog'liq takliflar ilgari surilmoqda.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, shaxsiy huquqlar, yashash huquqi, shaxsiy hayot daxlsizligi, iqtisodiy huquq, ijtimoiy huquq, mehnat qilish huquqi.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА ВО ВСЕОБЩЕЙ ДЕКЛАРАЦИИ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

Суванов Сардор Бахадирович,
судья межрайонного административного
суда города Гулистана Сырдарьинской области

Аннотация. В статье анализируются нормы, направленные на защиту прав человека, закрепленные во Всеобщей декларации прав человека. Гражданские и личные права, закрепленные в Декларации, а также экономические, социальные и культурные права были подробно обсуждены на основе Конституции Узбекистана. В частности, были проанализированы право на жизнь, право на свободу и личную неприкосновенность, запрет пыток, жестокого, бесчеловечного или унижающего достоинство обращения и наказания, право на жилище, право на свободу мысли, слова и религии. В то же время в статье исследуются проводимые реформы в сфере прав человека и существующие проблемы в области защиты прав человека. Для решения проблем разработаны соответствующие предложения и рекомендации. В частности, выдвигаются предложения по укреплению сотрудничества между государственными органами и институтами гражданского общества в области прав человека, обеспечение парламентского и общественного контроля за исполнением соответствующих законов, усиление ответственности за нарушения прав человека, расширение системы обучения правам человека для государственных служащих, непосредственно ответственных по правам человека и созданию системы их обучения.

Ключевые слова: права человека, личные права, право на жизнь, неприкосновенность частной жизни, экономическое право, социальное право, право на труд.

SOME ISSUES OF HUMAN RIGHTS IN THE UNIVERSAL DECLARATION OF HUMAN RIGHTS

Суванов Сардор Бахадирович,
Judge of the Interdistrict Administrative
Court of Gulistan City, Syrdarya Region

Abstract. This article analyzes norms aimed at protecting human rights set out in the Universal Declaration of Human Rights. The civil and personal rights enshrined in the Declaration, as well as economic, social and cultural rights, were discussed in detail on the basis of the Constitution of Uzbekistan. In particular, the right to life, the right to liberty and security of person, the prohibition of torture, cruel, inhuman or degrading treatment or punishment, the right to housing, the right to freedom of thought, speech and religion were analyzed. At the same time, this article examines the ongoing reforms in the field of human rights and the existing problems in the protection of human rights. Appropriate proposals and recommendations have been developed to address the problems. In particular, proposals are being put forward regarding strengthening cooperation between government agencies and civil society institutions in the field of human rights, ensuring parliamentary and public control over the implementation of relevant laws, strengthening accountability for human rights violations, expanding the system of human rights training for government officials directly responsible for human rights and to setting up a system of training them.

Keywords: human rights, personal rights, right to life, inviolability of private life, economic rights, social rights, right to work.

Bugungi kunda har bir sohada amalga oshirilayotgan islohotlar zahirida inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, uning qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalasi yotadi. Chunki jamiyatda inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini yaratmasdan turib, huquqiy demokratik davlat barpo etish mumkin emas.

Amalga oshirilayotgan islohotlar inson hayotini, uning dunyoqarashini hamda turmush darajasini o'zgartirishga xizmat qilmoqda. Jamiyatda "Yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etamiz" degan ulug'vor maqsad shakllandi hamda "Jamiyat – islohotlar tashabbuskori" degan yangi g'oya kundalik faoliyatimizga faol kirib bormoqda.

Shu bilan birga, hozirgi kunga kelib ham inson huquqlarini himoya qilish sohasini muammolardan xoli deb bo'lmaydi. Bunga asosiy sabablardan biri sifatida aksariyat davlatlarning inson huquqlarini himoya qilishga faqatgina milliy huquqiy tizimlar orqali intilishini ko'rsatishimiz mumkin.

Inson huquqlari va erkinliklari kafolatini faqatgina milliy huquqiy tizimda qabul qilingan normalar bilan ta'minlab bo'lmaydi. Bunda inson huquq va erkinliklarini xalqaro tan olingan prinsiplar, xalqaro konvensiyalar va shartnomalarda belgilangan normalar va qoidalar asosida himoya qilish ham talab etiladi.

So'nggi yillarda inson huquqlarini himoya qilishning qonunchilik bazasini mustahkamlash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni

milliy qonunchilikka implementatsiya qilish va xalqaro majburiyatlarni bajarish bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, davlatimiz tomonidan inson huquqlarini himoya qilish masalalari yuzasidan chet el davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda uni yanada rivojlantirishga doir tizimli ishlar olib borilmoqda.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston **inson huquqlari bo'yicha 80 dan** ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkilotining **6 ta** asosiy shartnomasi va **4 ta** fakultativ protokoliga qo'shilgan [1].

Respublikamizda ushbu shartnomalar asosida milliy qonunchilik tizimi va huquqni qo'llash amaliyotiga xalqaro standartlarni va qoidalarini tizimli ravishda implementatsiya qilishning o'ziga xos modeli, insonning konstitutsiyaviy huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilish monitoringi milliy tizimi shakllantirilgan.

O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari orasida inson huquqlari bo'yicha o'z milliy huquqiy tizimini yaratgan ilk davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda inson huquqlari va erkinliklari himoyasining xalqaro tan olingan prinsiplari, bolalar va xotin-qizlar huquqlarini muhofaza qilish, korupsiya va odam savdosiga qarshi kurashish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash maqsadida qator milliy dasturlar, chora-tadbirlar ishlab chiqildi hamda ushbu soha bilan shug'ullanuvchi maxsus komissiyalar tashkil etildi.

Ushbu jarayonga davlat tashkilotlarini jalb etish, ularning shaxs, jamiyat va davlat oldidagi vazifalarini aniq belgilashga erishildi.

Shuni alohida qayd etish kerakki, inson huquqlarini himoya qilish hamda uning qonuniy manfaatlarini ta'minlashda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi muhim hujjatlardan biri hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi rezolyusiyasi shaklida qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi yuridik jihatdan majburiy emasligi va tavsiyaviy xarakterga ega ekanligiga qaramasdan, ushbu xalqaro-huquqiy hujjatning ahamiyati beqiyosdir.

Zero, uning qabul qilinishi inson huquqlarini himoya qilish sohasida juda ko'plab xalqaro konvensiyalarni ishlab chiqish hamda ularga rioya etilishini nazorat qilishning boshlang'ich nuqtasi bo'lib xizmat qildi.

Konvensiya normalari xalqaro huquq normalarida, milliy huquq tizimida va inson huquqlari bo'yicha boshqa muhim hujjatlarda o'z aksini topgan bo'lib, ular shaxs huquqlarini himoya qilishga qaratilgan yuridik jihatdan majburiy bo'lgan normalar tizimini tashkil etadi.

Mazkur Deklaratsiyaning qabul qilinishi inson huquqlarini himoya qilishda xalqaro hamjamiyat erishgan eng katta yutuqlardan biridir.

Hozirgi kunga kelib ham dunyoning ko'plab rivojlangan davlatlari ushbu hujjatda belgilangan normalarni o'z milliy huquqiy tizimlariga implementatsiya qilish uchun turli choralarni ko'rishda davom etmoqdalar.

Ta'kidlash joizki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng qo'shilgan birinchi xalqaro-huquqiy hujjat hisoblanadi.

Ushbu Deklaratsiya 1991-yil 30-sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining navbatdan tashqari VII-sessiyasida ratifikatsiya qilingan. Ushbu Deklaratsiya ratifikatsiya qilinganidan so'ng yurtimizda inson huquqlarini himoya qilish sohasida tizimli ishlar amalga oshirildi.

Xususan, 2008-yilda Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3994-sonli "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida"gi Farmoni [2] qabul qilingan.

Bunda inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy, qonunchilikka oid chora-tadbirlar tizimini takomillashtirish eng asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganining 70 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida" 2018-yil 5-maydagi PF-5434-son Farmoni [3] ham qabul qilingan.

Ushbu Farmonga asosan davlat, jamiyat va fuqarolarning Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining tamoyillari va qadriyatlariga e'tiborini yanada kuchaytirish, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy-huquqiy va boshqa choralar tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy vazifalar belgilandi.

Shu bilan birga, qonunchilik hujjatlariga va davlat organlarining amaliy faoliyatiga inson huquqlari va erkinliklari sohasida xalqaro standartlarni implementatsiya qilish mexanizmlari samaradorligini oshirish maqsadida bir qator vazifalar belgilab olindi.

2018-yil noyabr oyida Samarqandda "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" qabul qilinganligining 70 yilligiga bag'ishlangan **Inson huquqlari bo'yicha Osiyo forumi** bo'lib o'tdi.

Ushbu forum qit'ada inson huquqlarini himoya qilishning mavjud mexanizmlarini takomillashtirish va inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan edi.

Forum davomida Inson huquqlari bo'yicha Samarqand deklaratsiyasi qabul qilindi. Ushbu deklaratsiya BMT Bosh assambleyasining 73-sessiyasi hujjati sifatida tasdiqlandi. Bunda "erkinlik, tenglik, inson huquqlarini himoya qilish g'oyalari birlamchi vazifa bo'lmagan sivilizatsiya va davlatlar mavjud emas"ligi ta'kidlangan [4].

Bundan tashqari, 2020-yilda mamlakatimiz tarixda birinchi marta Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo etib saylandi [5, 7-b].

Inson huquqlari bo'yicha kengash faoliyati butun dunyo bo'ylab inson huquqlari himoyasini ta'minlashga qaratilgan BMT tizimidagi eng nufuzli hukumatlararo organlardan biri hisoblanadi.

BMT Bosh assambleyasi organi hisoblangan Inson huquqlari bo'yicha kengashga 47 ta dav-

lat a'zo hisoblanadi va Kengash a'zolari uch yillik muddatga yashirin ovoz berish yo'li bilan saylanadi. Bu ham inson huquqlarini himoya qilishdagi muhim qadamlardan biridir.

Endi esa bevosita Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlari va uni himoya qilish masalasiga to'xtalib o'tamiz.

Inson huquqlari va uni himoya qilish bo'yicha olimlar o'rtasida turli xil fikrlar va qarashlar mavjud.

Ko'pchilik olimlar inson huquqlari ko'pqirrali hodisa ekanligini, inson hayotining barcha jabhalarini qamrab olishini qayd etishadi [6, 62-b].

Boshqa bir mualliflar esa inson huquqlari davlatlar konstitutsiyalari va xalqaro huquqda belgilab qo'yilgan shaxsiy va jamoaviy huquqlarning yig'indisidir degan g'oyani ilgari surishadi [7, 23-b].

Shuningdek, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham inson huquqlari tushunchasi o'z ifodasini topgan. Deklaratsiyaning Muqaddimasida "inson huquqlari" termini qo'llanilgan bo'lib, ushbu termin barcha xalqaro huquq subyektlari va uning ishtirokchilari uchun bir xil ma'noda tushunilishi lozim.

Inson huquqlaridan amalda foydalanish har bir shaxsning o'z hayotini erkin qurishi va o'z taqdirini o'zi belgilashi, tenglik va inson qadr-qimmatini hurmat qilishga ko'maklashadi. Inson huquqlari har bir odamning eng asosiy va ajralmas huquqlari hisoblanadi. Ular shaxs, jamiyat hamda davlat hokimiyat idoralari bilan bo'ladigan munosabatlarning mohiyatini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida nazarda tutilgan asosiy tamoyillar o'zining ifodasini topgan. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida nazarda tutilgan umuminsoniy huquqlar oliy qadriyat darajasiga ko'tarilgan.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13-moddasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat sifatida belgilab qo'yilgan. Ushbu norma davlatimizni umumbashariy insonparvarlik qoidalariga asoslangan davlat ekanligini ko'rsatadi.

Konstitutsiyamizning "Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari" deb nomlangan ikkinchi bo'limida belgilangan normalar ushbu Deklaratsiya talablariga to'la mos keladi. Xususan, Konstitutsiyamizda belgilangan insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq

va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan milliy qonunchilik meyorlari Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasiga to'la mos keladi.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 2-moddasida "har bir inson irqi, tana rangi, jinsi, tili, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlaridan, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mol-mulki, tabaqasi yoki boshqa holatidan qat'iy nazar ushbu Deklaratsiyada e'lon qilingan barcha huquq va erkinlikka ega bo'lishi zarur" degan norma belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasida esa ushbu Deklaratsiyaga mos ravishda quyidagi norma mavjud.

O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar [8].

Endi esa, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida belgilangan hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida o'z ifodasini topgan inson huquqlariga oid eng asosiy normalarga to'xtalib o'tamiz.

Ushbu huquqlarni alohida turlarga (fuqarolik, shaxsiy va siyosiy huquqlar sohasida; iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar sohasida; jamoaviy huquqlar sohasida) ajratgan holda tahlil etamiz

Fuqarolik va shaxsiy huquqlar sohasida:

- 1) yashash huquqi;
- 2) erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi;
- 3) qiynoq, shafqatsiz, insoniylikka zid va shaxs qadr-qimmatini kamsituvchi muomala va jazo turlaridan erkin bo'lish huquqi;
- 4) turar joy daxlsizligi huquqi;
- 5) harakatlanish erkinligi huquqi;
- 6) fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqi;
- 7) ma'lumotlardan erkin foydalanish huquqi.

Ushbu huquqlar Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi asosida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham mustahkamlab qo'yilgan.

Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 3-moddasida har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga ega ekanligi belgilangan.

Yashash huquqi bu insonning tug'ilishi bilan vujudga keluvchi, uning biologik mavjudligini ta'minlovchi hamda davlat tomonidan muhofaza qilinuvchi huquqdir [9, 133-b].

Bosh Qomusimizning 24-moddasida yashash huquqi, 25-moddasida esa erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi belgilangan bo'lib, unga ko'ra:

Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir. Har kim erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga ega. Hech kim qonunga asoslanmagan holda hibsga olinishi yoki qamoqda saqlanishi mumkin emas [10].

Erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqiga to'xtaladigan bo'lsak, har bir inson tug'ilishi bilan qo'lga kiritadigan, har kim erkin, o'z ixtiyori bo'yicha harakat qilish, o'zganing shaxsiy erkinligi va daxlsizligiga ziyon yetmaydigan tarzda yurish-turishni tanlash imkonini beruvchi huquq [11, 137-b].

Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar sohasida:

- 1) mehnat qilish va erkin kasb tanlash huquqi;
- 2) tibbiy xizmatlardan foydalanish huquqi;
- 3) ta'lim olish huquqi;
- 4) kasaba uyushmalari tashkil etish va ularga birlashish huquqi;
- 5) ijtimoiy ta'minot olish huquqi;
- 6) munosib turmush kechirish, xususan, yetarli oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joyga ega bo'lish huquqi va boshqalar.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 23 va 24-moddalarida mehnat qilishga oid normalar belgilangan. Unga ko'ra:

Har bir inson mehnat qilish, ishni erkin tanlash, ishsizlikdan himoya qilinish, mehnat uchun teng haq olish, dam olish va bo'sh vaqtga ega bo'lish, haq to'lanadigan mehnat ta'tili olish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IX bobida "Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar" mustahkamlab qo'yilgan.

Konstitutsiyamizning 37–39-moddalarida mehnat munosabatlariga oid normalar belgilangan.

Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitlarida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniş huquqiga egadir. Yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar.

Shuningdek, Deklaratsiyada har bir inson kasaba uyushmalari tuzish va o'z manfaatlarini himoya qilish uchun kasaba uyushmalariga kirish huquqiga ega bo'lishi mumkinligi belgilangan. Deklaratsiyada ushbu huquq ijtimoiy huquqlardan biri sifatida keltirilgan.

Biroq, Konstitutsiyamiz bo'yicha mazkur huquq siyosiy huquqlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari kasaba uyushmalariga, siyosiy partiyalarga va boshqa jamoat birlashmalariga uyushish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish huquqiga egadirlar [12].

Mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolar, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ta'lim olayotgan, o'n besh yoshga to'lgan hech qanday tafovutsiz o'z tanloviga ko'ra va oldindan ruxsat olmay turib, ixtiyoriy ravishda kasaba uyushmalarini tuzish huquqiga, shuningdek kasaba uyushmalariga ularning ustavlariga rioya etish sharti bilan a'zo bo'lish huquqiga egadir [13].

Jamoaviy huquqlar sohasida:

Xalqlarning:

- 1) o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi;
- 2) o'z tabiiy boyliklari va resurslaridan erkin foydalanish huquqi;
- 3) tinchlikka bo'lgan huquqi;
- 4) ekologik toza atrof-muhitga bo'lgan huquqi.

Shu bilan birga, Deklaratsiyada belgilangan milliy, etnik, diniy yoxud til bo'yicha ozchilikni tashkil etadigan guruhlar huquqlari hamda tub joy xalqlarining huquqlari jamoaviy huquqlar toifasiga kiradi [14, 25-b].

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlarini himoya qilishda eng asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi.

Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Demokratik institutlari va inson huquqlari bo'yicha Byuro rahbari Kristian Shtroxal "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi hukumatlar o'z fuqarolari, o'z aholisi bilan qanday munosabatda bo'lish va ular to'g'risida qanday qilib g'amxo'rlik qilish tamoyillarini birinchi bo'lib o'rta taga tashladi" [15, 17-b] deb to'g'ri ta'kidlagan.

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va undagi markaziy qadriyatlar – inson qadr-qimmat, adolat, kamsitilishga yo'l qo'yilmasligi, tenglik, haqqoniylik, ularning umumbashariyligi va ajralmas ekanligi – har birimizga va har doim tegishlidir [16].

Ushbu Deklaratsiya inson huquqlariga oid normalarni tizimlashtirib, avlodlarga bo'lib berdi. Xorijiy davlatlar tajribasida inson huquqlarini himoya qilishga oid huquqni quyidagi 3 turga taqsimlanadi:

Birinchi guruhdagi huquqlar "salbiy shaklda ta'riflangan huquqlar"ni o'z ichiga oladi. Bular

Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 2–21-moddalarida belgilangan fuqarolik va siyosiy huquqlardir. Bunda huquqlarni ta'minlash inson erkinliklarini har qanday tarzda cheklab qo'yishdan, ularni himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan.

Ikkinchi guruhdagi huquqlar "ijobiy shaklda ta'riflangan huquqlar"ni o'z ichiga oladi. Bular Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 22–27-moddalarida mustahkamlab berilgan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarni qamrab oladi.

Ikkinchi guruhga mansub huquqlar avvalo odamlarning munosib hayot kechirishi uchun bo'lgan huquqlariga, ijtimoiy adolatni, muhtojlikdan xoli bo'lishni ta'minlashga hamda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotda ishtirok etishga qaratilgan.

Uchinchi guruhdagi huquqlar "kollektiv" huquqlarni o'z ichiga oladi. Bular Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 28-moddasida belgilangan. Unda aytilishicha, har bir inson ushbu Deklaratsiyada bayon etilgan huquqlar va erkinliklarini to'liq amalga oshirishi mumkin, ya'ni bu huquqlar ajralmas, doimo umumiy asosga ega bo'lgan huquqlardir [17, 7-b].

Shuni ham qayd etish kerakki, inson huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish davlatning asosiy majburiyatlardan biri hisoblanadi. Bosh Qomusimizning 22-moddasida ham davlatimiz o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'zining fuqarolarini huquqiy himoya qilishi belgilangan.

Inson huquqlarini himoya qilish tamoyili konstitutsiyaviy qurilish asoslari tizimida muhim o'rinni egallaydi. Ushbu tamoyilning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat [18, 7-b]:

birinchidan, insonning huquq va erkinliklari boshqa barcha ijtimoiy munosabatlar shakllanishining, jumladan, davlat qurilishining oliy qadriyatidir. Davlat tomonidan tan olinadigan va muhofaza qilinadigan inson huquqlari va boshqa qadriyatlar bir-biri bilan o'zaro muvofiq kelmasa, inson huquqlariga ustunlik beriladi.

ikkinchidan, ushbu tamoyilning mazmun-mohiyati Konstitutsiya hamda qonunchilik hujjatlarida belgilangan inson huquqlari va erkinliklari tizimi orqali namoyon bo'ladi. Biroq, barcha huquq va erkinliklarni Konstitutsiyada belgilash imkoni yo'q. Agar shaxsning boshqa umume'tirof etilgan huquq va erkinliklari Konstitutsiyada belgilanma-

gan bo'lsa, bu ushbu huquqlarning tan olinmasligi yoki kamsitilishini anglatmaydi.

uchinchidan, davlat hokimiyatini shakllantirish va uni xalq irodasiga muvofiq holda amalga oshirilishi. Bugungi kunda aksariyat demokratik davlatlarda hokimiyatni boshqarish va unda qonuniylikni ta'minlashga saylovlar orqali erishiladi. Bunda aholi vakillari ma'lum shaxslarga davlat hokimiyati vakolatlarini topshirish orqali o'z siyosiy irodasini ifoda etadi. Konstitutsiyamizning 32-moddasida ham O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanliklari belgilangan.

to'rtinchidan, davlat hokimiyatni konstitutsiyaga zid bo'lgan yo'llar orqali egallashning taqiqlanganligi va bunday egallash (bosib olish) qonun bo'yicha ta'qib etilishi.

Yuqoridagilarga ko'ra shuni aytish mumkinki, Konstitutsiyamizda inson huquqlariga oid quyidagi xalqaro-huquqiy qoidalar mustahkamlangan:

- 1) shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishda xalqaro huquq normalarining ustunligi;
- 2) asosiy huquq va erkinliklarning bir butunligi (ajralmasligi);
- 3) huquq va erkinliklarning bevosita amalga oshirilishi;
- 4) huquq va erkinliklarning majburan cheklashga yo'l qo'yilmasligi;
- 5) huquq va erkinliklarning davlat tomonidan kafolatlanganligi;
- 6) teng huquqlilik;
- 7) shaxsning o'z huquqlarini amalga oshirishi boshqa shaxslarning huquq va erkinliklariga zarar yetkazmasligi shart.

Demak, O'zbekistondagi inson huquqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni sarhisob qilib, quyidagilarni alohida qayd etish lozim:

- inson huquqlari bo'yicha qonunchilik shakllantirildi;
- inson huquqlarini ta'minlashning institutsional mexanizmlari yaratildi;
- davlat inson huquqlari sohasida xalqaro hamkorlik qilmoqda;
- inson huquqlari bo'yicha ta'lim va ma'rifat amalga oshirilmoqda.

Yuqoridagilarga ko'ra, inson huquqlarni himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi:

birinchidan, davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasida inson huquqlari sohasidagi faoliyatini o'zaro hamkorlikda amalga oshirishning aniq mexanizmlarini ishlab chiqish;

ikkinchidan, inson huquqlarini himoya qilish sohasida mavjud qonunchilik hujjatlariga rioya etish yuzasidan parlament va jamoatchilik nazoratini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish;

uchinchidan, davlat organlari, mansabdor shaxslar va boshqalar tomonidan insonning shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy huquqlarini buzganlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish;

to'rtinchidan, inson huquqlarini ta'minlashga bevosita mas'ul bo'lgan davlat organlari xodimlarining inson huquqlari bo'yicha malakasini oshirish maqsadida rivojlangan xorijiy

davlatlarga stajirovkaga yuborish tizimini kengaytirish va ularni o'qitish tizimini yo'lga qo'yish.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, demokratik-huquqiy davlat hamda kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lini tanlagan O'zbekiston uchun Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilik bazasini shakllantirishda eng asosiy hujjat vazifasini bajarib berdi.

Ushbu Deklaratsiyasining aksariyat qoidalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquq va erkinliklarining ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydigan milliy qonunchilik meyorlarida o'z ifodasini topgan.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2020-yil 22-iyundagi PF-6012-son Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 23.06.2020 y., 06/20/6012/0953-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida" 2008-yil 1-maydagi PF-3994-son Farmoni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-y., 5-son, 253-modda).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 70 yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida" 2018-yil 5-maydagi PF-5434-son Farmoni. (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2008-y., 5-son, 253-modda).
4. <http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/prava-cheloveka-v-uzbekistane>
5. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda O'zbekiston Yashlari forumida so'zlagan nutqidan iqtiboslar). Toshkent, Tasvir nashriyoti uyi, 2021.
6. Mo'minov A, Tillabayev M. Inson huquqlari. Darslik. Tashkent, Adolat, 2013, pp. 544.
7. Inson huquqlari: Parlament a'zolari uchun qo'llanma. Tashkent, Baktria press, 2019, p. 288.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 1992-yil 15-dekabr, 243 (494)-son; (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-y., 1-son, 5-modda).
9. Mualliflar jamoasi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh // Azizxujayev A. va boshqalar. Toshkent davlat yuridik universiteti. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashr. Toshkent, O'zbekiston, 2013, p. 544.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 1992-yil 15-dekabr, 243 (494)-son; (O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994 y., 1-son, 5-modda).
11. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh // Azizxujayev A. va boshqalar. Toshkent davlat yuridik universiteti. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashr. Toshkent, O'zbekiston, 2013, p. 544.
12. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi // "Xalq so'zi" gazetasi, 1992-yil 15-dekabr, 243 (494)-son.
13. O'zbekiston Respublikasining "Kasaba uyushmalari to'g'risida"gi Qonuni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 07.12.2019 y., 03/19/588/4115-son.
14. Inson huquqlari: Parlament a'zolari uchun qo'llanma. Toshkent, Baktria press, 2019, p. 288.
15. Kunt V. Bergem, Gunnar M. Karlsen "Vvedeniye v prava cheloveka". Oslo, Norvejskiy Xelsinskiy Komitet po pravam cheloveka, 2003.
16. Le Droit d'être un homme, anthology of texts prepared under the direction of Jeanne Hersch, UNESCO and Robert Laffont, 1968. (Jan Hersh boshchiligidagi tayerlangan matnlar to'plami, YUNESKO va Rober Laffont, 1968).
17. Statement by High Commissioner Louise Arbour on the occasion of Human Rights Day 10 December 2007.
18. Mo'minov A. Tillabayev M. Inson huquqlari: darslik, mas'ul muharrir A.X. Saidov. 2-nashr. Tashkent, Adolat, 2013, p. 504.

YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2021/6

BOSH MUHARRIR:

Nodirbek Salayev

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ikrom Ergashev

Ilmiy boshqarma boshlig'i

Mas'ul muharrir: D. Xudoynazarov

Muharrirlar: Sh. Jahonov, K. Abduvaliyeva,
F. Muhammadiyeva, Y. Yarmolik

Texnik muharrirlar: U. Sapayev, D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35.

Tel.: (0371) 233-66-36, 233-41-09.

Faks: (0371) 233-37-48.

Web-sayt: www.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

E-mail: tn.tdyu@mail.ru

Jurnal 15.12.2021-yilda tipografiyaga topshirildi.

Qog'oz bichimi: A4. Shartli 25,92 b.t. Adadi: 100.

Buyurtma: № 70.

TDYU tipografiyasida chop etildi.